April oyida g'umbakdan kapalaklar uchib chiqa boshlaydi. Kapalaklar oziqlanib bo'lgandan keyin karam bargining orqa tomoniga bittadan yoki bir nechtdan to'p qilib tuxum qo'yadi. Urg'ochi kuya hayoti davomida 70 tadan 300 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxumdan chiqqan qurtlar barg etini yeya boshlaydi. Birinchi yoshdagi qurtlar barg po'stlog'i tagida oziqlanib, minalar hosil qiladi. Keyinchalik tashqariga chiqib, ochiq oziqlana boshlaydi. Bargni yeb, ilma-teshik qilib yuboradi (1a-rasm). Qurt juda ham harakatchan bo'lib, unga tegilsa, tez ta'sirlanib, halqa shakliga kiradi. Tuxumi 3-7 kunda, qurti 6-17 kunda, g'umbagi 3-17 kunda rivojlanadi. Qurtlari uch marta po'st tashlaydi va oziqlangan joyida g'umbakka aylanadi. O'zbekiston sharoitida 9-10 marta nasl berib rivojlanadi.[2;4] Karam kuyasiga qarshi kurashishda kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligini o'rganish maqsadida qo'ydagi tajribalar o'kazildi.

Tajribalar tasdiqlangan ish dasturiga muvofiq quyidagi sxema bo'yicha o'tkazildi va natijalar olindi:

1. **IMIDOR, VRK s.e.k**
2. **DETSIS, 2,5 % .em.k. (andoza)**
3. **Nazorat - (preparatsiz)**

Karam kuyasiga qarshi kurashda ishlatilgan preparatlar samaradorligi aniqlashda 14 kunlik kuzatishlar olib borildi. 2024-2026- yilda Sherobod tumanida joylashgan tajriba maydonimizda o'tkazilgan tadqiqot natijalari taxlil qilindi, bunda sinalgan barcha kimyoviy preparatlar karam kuyasiga qarshi kurashda yaxshi samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Karam kuyasi qurtlarga qarshi- **IMIDOR, VRK s.e.k.** preparati 0,15 l/ga miqdorda qo'llanilganda 1 kundan keyin-58,4%, 3 kundan keyin-79,3, 7 kundan keyin-91,8%, 14-kundan keyin-94,7%, preparat 0,2 l/ga miqdorda qo'llanilganda esa 1 kundan keyin-62,3%, 3 kundan keyin-88,1, 7 kundan keyin-93,6%, 14-kundan keyin-96,4%, biologik samaradorlikni qayd etdi. Andoza o'rnida ishlatilgan Detsis, 2,5 % .em.k. preparati 0,3 l/ga. sarf-me'yorlarda biologik samaradorligi 1



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

kundan keyin-56,8%, 3 kundan keyin-81,5%, 7 kundan keyin-91,8%, 14-kundan keyin-95,7% ni tashkil etdi (2-rasm)



2-rasm. Preparatlar tasirida nobud bo'lgan kuya lichenkasi

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'tkazilgan tajribalar xulosasiga ko'ra, yangi istiqbolli IMIDOR, VRK em.k. (*imidakloprid 200 g/l*) preparati 0,15-0,2 l/ga qo'llanilgan har ikkala variantda ham Karam kuyasining turli yoshdagi qurtlariga qarshi yuqori biologik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Karam kuyasiga qarshi yuqorida keltirilgan preparatlarni ko'rstilgan sarf-meyyorlarida tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Палий В.Ф. “Методика фенологических и фаунистических исследований насекомых” Фрунзе .1966 г. 238 с.
2. Haytmuratov A.F. Qishloq xo'jaligi entomologiyasi. Darslik-T.: «Fan ziyosi» nashriyoti. 2022. -344 b.
3. Haytmuratov Arslonbek Fayzullayevich, & Botirov Sodiq Ahmad o'g'li. (2024). Surxondaryo viloyati sharoitda karam zararkunundalarini o'rganishning ahamiyati. *agroinnovatsiya*, 2(1), 5–9.
4. Xo'jaev.SH.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari. Toshkent:<Navruz> -2015 331 b.
5. Xo'jaev SH.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar (II-nashr). – Toshkent: Kom DAR, 2004. – 103 b.
6. <https://stat.uz/uz/>
7. <https://en.wikipedia.org/>



UO'K: 937:635.64+632

QURILMADA KO'PAYTIRILGAN *BRACON HEBETOR* SAY AVLODLARINING ASOSIY BIOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH

Sulaymonov Botirjon Abdushukirovich 

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti rektor maslahatchisi,
biologiya fanlari doktori, akademik

e-mail: info@tipu.uz

Baxodirov Ulug'bek Zokirjon o'g'li 

ilmiy tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada *Bracon hebetor* Say parazitini ommaviy ko'paytirish uchun yaratilgan maxsus qurilmaning biologik samaradorligi baholangan. O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti biolaboratoriyasi sharoitida olib borildi. Tajribalarda xo'jayin hasharot sifatida katta mum parvonasi (*Galleria mellonella* L.)ning oxirgi yoshdagi qurtlaridan foydalanildi. Yaratilgan qurilmada va an'anaviy usulda ko'paytirilgan *Bracon hebetor* Say avlodlarining parazitlash faolligi, avlod mahsuldorligi, imagolar chiqishi, jinslar nisbati hamda saqlashdan keyingi reproduktiv ko'rsatkichlari qiyosiy baholandi. Natijalarga ko'ra, maxsus qurilmada parazitlangan xo'jayin qurtlar soni 191,4 donani tashkil etib, an'anaviy usulga nisbatan yuqori bo'lgan. Bir dona parazitlangan qurtdan chiqqan imagolar soni o'rtacha 10,7 tani tashkil etgan bo'lsa, an'anaviy usulda bu ko'rsatkich 8,4 taga teng bo'lgan. Qurilmada jami 2047,9 dona imago olinib, an'anaviy usulga nisbatan 33 % ko'proq biomaterial yetishtirish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, urg'ochi imagolar ulushi 7,9:2,1 nisbatda shakllanib, entomofagning reproduktiv salohiyati yuqori ekanligi aniqlangan. Entomofaglarni saqlashda +10°C harorat rejimi eng maqbul sharoit ekanligi belgilandi hamda ushbu haroratda saqlangan avlodlarda eng yuqori pushtdorlik ko'rsatkichlari qayd etildi. Olingan natijalar maxsus qurilmaning *Bracon hebetor* Say parazitini biolaboratoriya sharoitida samarali ommaviy ko'paytirish va saqlash uchun texnologik jihatdan istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Bracon hebetor* Say, entomofag, biologik himoya, biolaboratoriya, ommaviy ko'paytirish, maxsus qurilma, *Galleria mellonella* L., parazitlash faolligi, avlod mahsuldorligi, jinslar nisbati, pushtdorlik, saqlash harorati, reproduktiv salohiyat, resurs tejamkor texnologiya.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Abstract. This article evaluates the biological efficiency of a specially designed device developed for the mass rearing of the parasitoid *Bracon hebetor* Say. The studies were conducted laboratory conditions at the Research Institute of Plant Quarantine and Protection. Last-instar larvae of the greater wax moth (*Galleria mellonella* L.) were used as host insects. The parasitization activity, progeny productivity, adult emergence, sex ratio, and post-storage reproductive performance of *Bracon hebetor* Say reared in the newly developed device were comparatively assessed against those reared using the conventional method. The results demonstrated that the number of parasitized host larvae reached 191.4 individuals in the device, exceeding that of the traditional method. The average number of adults emerging from a single parasitized host larva was 10.7, compared with 8.4 under the conventional technology. A total of 2,047.9 adults were obtained using the device, providing more than 33% additional biological material. The female-to-male ratio reached 7.9:2.1, indicating a higher reproductive potential of the parasitoid population. Furthermore, storage studies revealed that +10°C was the most favorable temperature regime, ensuring the highest fecundity and biological activity after storage. The obtained results confirm the biological and technological advantages of the developed device and demonstrate its potential for efficient mass production and storage of *Bracon hebetor* Say in biolaboratory conditions.

Keywords: *Bracon hebetor* Say, entomophagous parasitoid, biological control, biolaboratory, mass rearing, rearing device, *Galleria mellonella* L., parasitization activity, progeny productivity, sex ratio, fecundity, storage temperature, reproductive potential, resource-saving technology.

Аннотация. В статье дана оценка биологической эффективности специального устройства, разработанного для массового разведения паразита *Bracon hebetor* Say. В лабораторных условиях Научно-исследовательского института карантина и защиты растений. В качестве насекомого-хозяина использовали гусениц последнего возраста большой восковой моли (*Galleria mellonella* L.). Проведена сравнительная оценка паразитической активности, продуктивности потомства, выхода имаго, соотношения полов и репродуктивных показателей после хранения у энтомофага, выращенного традиционным способом и в разработанном устройстве. Установлено, что количество паразитированных гусениц хозяина в устройстве составило 191,4 экземпляра, что превышало показатели традиционной технологии. Среднее количество имаго, вышедших из одной паразитированной гусеницы, составило 10,7 особей против 8,4 особей при традиционном способе разведения. Общее количество полученных имаго достигло 2047,9 особей, что обеспечило более чем на 33 % больше биологического материала по сравнению с существующей технологией. Соотношение самок и самцов составило 7,9:2,1, что свидетельствует о высоком репродуктивном потенциале полученных популяций. Кроме того, установлено, что оптимальным температурным режимом хранения является +10°C, при котором отмечены



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

наивысшие показатели плодовитости и биологической активности энтомофага после хранения. Полученные результаты подтверждают биологическую и технологическую эффективность разработанного устройства и свидетельствуют о перспективности его применения для массового разведения и хранения *Bracon hebetor* Say в условиях биолaborаторий.

Ключевые слова: *Bracon hebetor* Say, энтомофаг, биологическая защита растений, биолaborатория, массовое разведение, устройство для разведения, *Galleria mellonella* L., паразитическая активность, продуктивность потомства, соотношение полов, плодовитость, температура хранения, репродуктивный потенциал, ресурсосберегающая технология.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Yaratilgan «Brakonni ko'paytirish uchun qurilma»ning biologik samaradorligini baholash maqsadida O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti biolaboratoriyasi sharoitida tajribalar olib borildi. Tadqiqotlarda parazit entomofag *Bracon hebetor* Say ning xo'jayin hasharotni parazitlash faolligi, avlod mahsuldorligi, imagolar chiqishi, urg'ochi va erkak individlar nisbati hamda laboratoriya sharoitida ko'paytirishga moslashuvchanligi baholandi.

Tajribalarda xo'jayin hasharot sifatida katta mum parvonasi (*Galleria mellonella* L.) ning oxirgi yoshdagi qurtlaridan foydalanildi. Bu tur biolaboratoriyalarda *Bracon hebetor* Say parazitini ommaviy ko'paytirish uchun qulay xo'jayin hisoblanadi. Chunki uning tanasi yirik, ozuqa to'qimalari yetarli va parazit lichinkalarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi. Tajribalar entomofaglarni laboratoriya sharoitida ko'paytirish va baholash bo'yicha qabul qilingan uslublar asosida, 28-32°C harorat va 65-75% nisbiy namlik sharoitida olib borildi. Tajriba uch variantda va to'rt qaytariqda tashkil etildi. Birinchi variantda ilmiy manbalarda keltirilgan me'yoriy ko'rsatkichlar asos sifatida qabul qilindi. Ikkinchi variantda biolaboratoriyalarda amalda qo'llanib kelinayotgan an'anaviy usulda ko'paytirilgan brakon natijalari o'rganildi. Uchinchi variantda esa maxsus «Brakonni ko'paytirish uchun qurilma»da ko'paytirilgan brakon avlodlarining biologik ko'rsatkichlari baholandi. Har bir variantda 200 tadan *Galleria mellonella* qurti parazitlash uchun qo'yildi. Parazitlash jarayonida urg'ochi va erkak brakon imagolari 7:3 nisbatda qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Maxsus qurilmada ko'paytirish xo'jayin qurtlarning saqlanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ilmiy manbalarda 200 ta qurtdan 15 tasi hisobdan chiqishi qayd etilgan bo'lsa, amaldagi usulda bu ko'rsatkich 17,2 tani tashkil etgan. Maxsus qurilmada esa hisobdan chiqqan qurtlar soni 8,6 tadan oshmagan. Bu holat qurilmada xo'jayin qurtlarning g'umbaklanishi va parazitlanishi uchun nisbatan barqaror mikrosharoit shakllanganligini ko'rsatadi. Parazitlanish uchun yaroqli xo'jayinlar soni ham variantlar bo'yicha farq qilgan. Amaldagi usulda 182,8 ta qurt parazit bilan zararlangan bo'lsa, maxsus qurilmada bu ko'rsatkich 191,4 tani tashkil etgan. Demak, qurilma qo'llanilganda parazitlanish uchun yaroqli xo'jayinlar soni 8,6 taga ko'p bo'lgan. Bu esa





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

brakon urg'ochilarining tuxum qo'yishi va lichinkalarning to'liq rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilganligidan dalolat beradi.

Avlod mahsuldorligi ko'rsatkichi, ya'ni bitta parazitlangan qurtdan uchib chiqqan imagolar soni ham maxsus qurilmada yuqori bo'lgan. Ilmiy manbalarda bitta xo'jayindan o'rtacha 10 ta brakon imagosi chiqishi ko'rsatilgan bo'lsa, amaldagi usulda bu ko'rsatkich 8,4 tani tashkil etgan. Maxsus qurilmada esa bitta parazitlangan qurtdan o'rtacha 10,7 ta brakon imagosi olingan (1-jadval).

1-jadval

Ixtiro qilingan qurilmada ko'paytirilgan *Bracon hebetor* Say paraziti avlodlarining asosiy biologik ko'rsatkichlarini amaldagi usul bilan qiyosiy baholash

T/r	Variantlar	Zararlash uchun qo'yilgan brakon jinslar nisbati (100 ta brakon)	Zararlanishga qo'yilgan qurtlar soni (dona)	Shundan nobud bo'lgan qurtlar soni (dona)	Parazit bilan zararlangan qurtlar soni (dona)	Bitta qurtdan uchib chiqqan brakonlar soni o'rtacha	Uchib chiqqan brakon soni (dona)	Shundan		Nisbat
								Urg'ochi	Erkak	
2	Amaldagi usulda	7:3	200	17,2	182,8	8,4	1535,5	982,7	552,8	6,4:3,6
3	Brakon ko'paytirish uchun qurilmasida	7:3	200	8,6	191,4	10,7	2047,9	1617,9	430,0	7,9:2,1

Izoh: Havo harorati 28-32°C, havoning nisbiy namligi 65-75%.

Bu natija qurilmadagi ichki mikrosharoit parazit lichinkalarining oziqlanishi, g'umbaklanishi va imago bosqichigacha yetib borishi uchun qulay bo'lganini ko'rsatadi. Umumiy imagolar chiqishi bo'yicha eng yuqori natija maxsus qurilma variantida qayd etildi. Amaldagi usulda 1535,5 ta brakon imagosi olingan bo'lsa, qurilmada bu ko'rsatkich 2047,9 tani tashkil etgan. Ya'ni maxsus qurilmada an'anaviy usulga nisbatan 512,4 ta ko'p imago olingan. Bu 33% dan ortiq qo'shimcha biomaterial olish imkonini bergan. Bunday farq biolaboratoriya sharoitida entomofag ishlab chiqarish hajmini oshirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.



1-rasm. An'anaviy va ixtiro qilingan qurilmada ko'paytirilgan *Bracon hebetor* Say avlodlarini biologik ko'rsatkichlarini aniqlash va taqqoslash.


Jinslar nisbati *Bracon hebetor* Say ni ommaviy ko'paytirishda eng muhim biologik ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki urg'ochi imagolar parazitlash jarayonida asosiy faol individlar bo'lib, ular xo'jayin qurtlarga tuxum qo'yadi va keyingi avlod hosil bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli urg'ochi imagolar ulushining yuqori bo'lishi biolaboratoriyalarda entomofag mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy manbalarda brakon avlodlarining jinslar nisbati 7,3:3,7 sifatida keltirilgan. Amaldagi usulda urg'ochilar soni 982,7 ta, erkaklar soni 552,8 ta bo'lib, jinslar nisbati 6,4:3,6 ni tashkil etgan. Maxsus qurilmada esa urg'ochi imagolar soni 1617,9 taga yetgan, erkaklar soni 430,0 ta bo'lgan va jinslar nisbati 7,9:2,1 ni tashkil etgan. Bu natija maxsus qurilmada urg'ochi imagolar ulushi yuqori shakllanganligini ko'rsatadi. Urg'ochi imagolar sonining ortishi qurilmada ko'paytirilgan brakon avlodlarining reproduktiv salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Bu holat keyingi avlodlarni tez va ko'p miqdorda olish, parazitlash faolligini oshirish va biolaboratoriya mahsuldorligini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, erkak individlar ulushining me'yoriy darajada saqlanishi juftlashish jarayonining to'liq kechishi uchun yetarli hisoblanadi. Qurilma variantida qurtlar nobud bo'lishining kamayishi, parazitlangan xo'jayinlar sonining ortishi, bitta xo'jayindan chiqadigan imagolar sonining ko'payishi va urg'ochi individlar ulushining yuqori bo'lishi ushbu texnologiyaning biologik jihatdan samarali ekanligini ko'rsatadi. Bu natijalar maxsus konteynerda shakllangan mikrosharoit xo'jayin qurtlar va parazit avlodlari uchun qulay bo'lgani bilan izohlanadi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Shunday qilib, maxsus «Brakonni ko'paytirish uchun qurilma» *Bracon hebetor* Say parazitini biolaboratoriya sharoitida ommaviy ko'paytirishda avlod mahsuldorligini oshirish, imagolar chiqishini ko'paytirish, urg'ochi imagolar ulushini yuqori darajada ta'minlash va xo'jayin qurtlar nobud bo'lishini kamaytirish imkonini berdi. Olingan natijalar qurilmaning biologik va texnologik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.



2-rasm. An'anaviy va ixtiro qilingan qurilmada ko'paytirilgan *Bracon hebetor* Say avlodlarini biologik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Bracon hebetor Say parazitini biolaboratoriyalarda ommaviy ko'paytirish texnologiyasida entomofaglarni qisqa va uzoq muddat saqlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, biolaboratoriyalarda ishlab chiqarilgan entomofag mahsulotini biologik himoya tadbirlari muddatiga qadar saqlash, ularning fiziologik holati, hayotchanligi va keyingi reproduktiv salohiyatini saqlab qolish muhim texnologik bosqich hisoblanadi. Shu munosabat bilan yaratilgan qurilmada ko'paytirilgan *Bracon hebetor* Say avlodlarining turli rivojlanish bosqichlarida saqlashga qo'yilganda harorat omillarining keyingi pushtdorlik ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotlarda entomofagning lichinka va g'umbaklik (pupariy) bosqichlari tanlanib, mos ravishda 10 va 30 kun davomida saqlandi. Saqlash jarayonida +4°S, +5°S, +8°S va +10°S harorat rejimlari qo'llanildi hamda amaldagi usul va ixtiro usulida ko'paytirilgan entomofaglarning keyingi reproduktiv ko'rsatkichlari qiyosiy baholandi (2-jadval).

Tajriba natijalari shuni ko'rsatkiki, harorat rejimi oshishi bilan entomofagning fiziologik faolligi va keyingi pushtdorlik darajasi ham ortib borgan. Qurtlik bosqichida 10 kun saqlangan variantlarda amaldagi usulda bir urg'ochi brakonning o'rtacha tuxum qo'yish ko'rsatkichi +4°S haroratda 3,2 tani tashkil etgan bo'lsa, bu



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

ko'rsatkich $+5^{\circ}\text{S}$ da 4,7 taga, $+8^{\circ}\text{S}$ da 6,2 taga va $+10^{\circ}\text{S}$ da 7,2 taga yetgan. Ixtiro usulida esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 5,5; 6,7; 8,2 va 9,5 tani tashkil etgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, qurilmada ko'paytirilgan brakon avlodlarida har bir harorat variantida pushtdorlik amaldagi usulga nisbatan yuqori bo'lgan. Ayniqsa, $+10^{\circ}\text{S}$ haroratda saqlangan lichinkalik bosqichida ixtiro usuli amaldagi usulga nisbatan 2,3 taga ko'proq tuxum qo'yish imkoniyatini ta'minlagan (2-jadval).

2-jadval

***Bracon hebetor* Say entomofagini turli rivojlanish bosqichlarida saqlashda harorat rejimlarining saqlashdan keyingi reproduktiv ko'rsatkichlariga ta'siri**

Rivojlanish fazalari	Saqlash (kun)	Amaldagi usul, $^{\circ}\text{C}$				Ixtiro usuli, $^{\circ}\text{C}$			
		+4	+5	+8	+10	+4	+5	+8	+10
Lichinkalik bosqichi	10	3,2	4,7	6,2	7,2	5,5	6,7	8,2	9,5
G'umbaklik bosqichi	30	5,2	6,5	7,7	8,2	7,2	8,5	9,5	9,7

G'umbaklik bosqichida o'tkazilgan kuzatuvlar ham xuddi shunday qonuniyatni namoyon qildi. 30 kun davomida saqlangan g'umbaklardan chiqqan urg'ochi imagolarning pushtdorligi amaldagi usulda $+4^{\circ}\text{C}$ haroratda 5,2 tani tashkil qilgan bo'lsa, $+5^{\circ}\text{C}$ da 6,5 taga, $+8^{\circ}\text{C}$ da 7,7 taga va $+10^{\circ}\text{C}$ da 8,2 taga yetgan. Ixtiro usulida ko'paytirilgan variantlarda esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 7,2; 8,5; 9,5 va 9,7 tani tashkil qildi. Bu holat qurilmada shakllangan mikroiklim muhiti parazitning metabolik jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, keyingi avlodlarning reproduktiv salohiyati yuqori darajada saqlanib qolishini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qurtlik bosqichida saqlangan entomofaglarda ixtiro usuli amaldagi texnologiyaga nisbatan o'rtacha 28-35 % yuqori pushtdorlikni ta'minlagan. Xuddi shunday holat g'umbaklik bosqichida ham kuzatilib, pushtdorlik ko'rsatkichlari o'rtacha 18-30 % yuqori bo'lgan. Bu esa qurilmada ko'paytirilgan entomofaglarning fiziologik holati va reproduktiv imkoniyatlari saqlash jarayonida kamroq zararlanishini ko'rsatadi. Entomologik nuqtai nazardan qaralganda, g'umbaklik bosqichida saqlash qurtlik bosqichiga nisbatan samaraliroq bo'lganligi aniqlandi. Chunki barcha harorat variantlarida g'umbak bosqichidan chiqqan imagolarning pushtdorlik ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'lgan. Bu holat g'umbak bosqichining tashqi muhit omillariga nisbatan barqarorligi hamda fiziologik jarayonlarning sekinlashgan holda kechishi bilan izohlanadi. Olingan natijalarga asoslanib aytish mumkinki, *Bracon hebetor* Say entomofagini saqlashda $+10^{\circ}\text{S}$ harorat rejimi eng maqbul harorat hisoblanadi. Mazkur haroratda qurtlik bosqichida 9,5 ta, g'umbaklik bosqichida esa 9,7 tagacha tuxum qo'yish ko'rsatkichi qayd etildi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Ayniqsa, g'umbaklik bosqichida 30 kun davomida saqlangan entomofaglarda yuqori reproduktiv faollik saqlanib qolganligi biolaboratoriyalarda brakon zaxiralarini ma'lum muddat saqlash va ulardan keyinchalik samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA

Shunday qilib, tadqiqot natijalari yaratilgan qurilmada ko'paytirilgan *Bracon hebetor* Say avlodlari saqlash jarayonida yuqori hayotchanlik va reproduktiv salohiyatni saqlab qolishini ko'rsatdi. Entomofaglarni g'umbaklik bosqichida +10°S haroratda saqlash ularning keyingi pushtdorlik ko'rsatkichlarini maksimal darajada ta'minlashi aniqlandi va mazkur texnologiya biolaboratoriyalarda entomofaglarni uzoq muddatli saqlashning samarali usuli sifatida baholandi

ADABIYOTLAR

1. Jumaev R.A, Karimbaevich S.S., Jumaeva N.B. *Bioecology of generations of Trichogramma diluted by different methods*. - European science review, 2018. 7-11.
2. Jumaeva N.B, Khimsanbaev X.X, Rustamov A.A. *Study and determination of the most suitable microorganism and entomophage against cotton bollworm in Uzbekistan* //Scientific Journal Of Medical Science And Biology. - 2024. - T. 2. - №. 2. - S. 21-28.
3. Rasul Jumaev. *Methods of determining the optimal temperature and humidity in dryness and storage of in vitro propagated parasitic entomophages*. E3S Web of Conferences. 2024. - P. 553. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303003>.
4. Rasul Jumaev, Abdurakhim Kuchboev, Nozimakhon Jumaeva, Farukh Yakubov, Shamsi Esanbaev. *Molecular identification and polymerase chain reaction analysis of Xanthogaleruca luteola (Chrysomelidae) species*. E3S Web of Conferences. 2024. -P. 563. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303001>.
5. Rasul Jumaev. *In vitro rearing of parasitoids*. E3S Web of Conferences 371, 01032 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101032>.
6. Rasul Jumaev. *Methods of determining the optimal temperature and humidity in dryness and storage of in vitro propagated parasitic entomophages*. E3S Web Conf. Volume 563, 2024. 1-6. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303003>.
7. Lebedeva N, Akhmedova Z, Kholmatov B, Jumaev R. *Revision of stoneflies insecta: plecoptera fauna in Uzbekistan*. E3S Web of Conferences 258, 08030 (2021). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125808030>.
8. Sulaymonov O, Jumaev R., Sobirov B, Gazibekov A. *Representatives of Lepidoptera groups occurred in forestry and agricultural crops and their effective entomophage types*. E3S Web of Conferences 244, 02020 (2021). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202124402020>.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

9. Kimsanboev K, Rustamov A, Usmonov M, R.Jumaev. *Euzophera Punicaella Mooze Lepidoptera bioecology and development of host entomophagic equilibrium in biocenosis*. E3S Web of Conferences 244, 01003 (2021). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202124401003>.
10. Rasul Jumaev. *In vitro mass reproduction of parasitic entomophages Braconidae Trichogrammatidae*. E3S Web of Conferences 389, 03100 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338903100>.
11. Esanbaev Sh, Jumaev R. *Study on stem pests of elm tree in Uzbekistan*. E3S Web of Conferences 563, 03004 (2024). 162-169. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303004>.
12. Jumaev R, Sobirov S, Jumaeva N. *Bioecology of generations of Trichogramma diluted by different methods*. European science review 3-4, 25-28 (2018).
13. Kimsanbaev X, Jumaev R.A, Jumaeva N. *Bioecology harm of tobacco trips for the cotton plant and measure of counteraction*. European science review 3-4, 29-31 (2018).
14. Dalabaevna MR, Shavqievich MK, Axmatovich JR. *The development of russet mite in various plants and effectiveness of pesticide*, European science review 1-2, 21-23 (2018).
15. Jumaev R.A, Kimsanbaev X. *Rearing of Trichogramma species T.evanescens, T.pintoi, T.chilonis in vitro culture*. European science review 1-2, 29-31 (2018).



SESAMUM INDICUM L. EKINIDA ASOSIY ZARARKUNANDALARGA QARSHI BIOLOGIK KURASH USULLARINING SAMARADORLIGI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIGI

Erkinov Xolbek Erkin o'g'li 

O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Sulaymonova Nargiza Hasanovna 

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kunjut ekinida keng uchraydigan issiqxona oqqanotiga qarshi kurashishda kunjut urug'ini Kruizer Ekstra, 36,2% sus.k. urug'dorilagichi bilan kunjut urug'lariga qayta ishlov berilib biologik samaradorligini o'rganish va pereparatning urug'lar unuvchanligiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kunjut, *Sesamum indicum* L., issiqxona oqqanoti, *Antigastra catalaunalis*, *Sylepta derogate*, *Aphis* spp, IPM, pestitsid, *Tettigonia caudate*, *Agriotes nadari* Buyss, *Pentodon dubius* Ball., *Rhizotrogus fortus* Reitt.

Abstract. The article below examines the use of sesame seeds treated with 'Kruizer Extra' for combating the greenhouse whitefly, which is widespread in sesame cultivation. The article provides data on the biological efficacy of re-treating sesame seeds with the seed treatment "Kruizer Ekstra, 36,2%" and on the effect of the preparation on seed germination.

Keywords: sesame, *Sesamum indicum* L., greenhouse whitefly, *Antigastra catalaunalis*, *Sylepta derogate*, *Aphis* spp., IPM, pesticide, *Tettigonia caudate*, *Agriotes nadari* Buyss, *Pentodon dubius* Ball., *Rhizotrogus fortus* Reitt.

Аннотация. В данной статье рассматривается применение семян кунжута, обработанных препаратом « Kruizer Ekstra, 36,2%», для борьбы с тепличной белокрылкой, широко распространенной при выращивании кунжута. В статье приводятся данные о биологической эффективности повторной обработки семян кунжута препаратом «Круизер Экстра» и о влиянии препарата на всхожесть семян.

Ключевые слова: кунжут, *Sesamum indicum* L., тепличная белокрылка, *Antigastra catalaunalis*, *Sylepta derogate*, *Aphis* spp., ИЗР, пестицид, *Tettigonia caudate*, *Agriotes nadari* Buyss, *Pentodon dubius* Ball., *Rhizotrogus fortus* Reitt.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

Kunjut (*Sesamum indicum* L), "yog'li urug'lar malikasi" deb ham ataladigan, eng qadimgi ekinlardan biri bo'lib, yuqori sifatli yog'i va oziqlanish xususiyatlari uchun qadrlanadi [1]. U Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ayrim hududlarida keng ekiladi va kichik dehqonlarning tirikchiligiga hissa qo'shadi. Biroq, kunjut o'sish tsikli davomida, kurtak chiqishidan hosil yig'ishgacha bo'lgan davrda turli xil zararkunandalarga ayniqsa moyil bo'ladi. Ushbu zararkunandalar o'simliklarning o'sish quvvatini pasaytirishi, urug' hosildorligini yo'qotishga olib kelishi va yog' sifatining yomonlashishiga sabab bo'lib, jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Ichki va xalqaro bozorlarda kunjut moyi va urug'lariga bo'lgan talab ortib borayotganligini hisobga olsak, yuqori hosil va sifatni saqlash uchun samarali zararkunandalar bilan kurash strategiyalari muhim ahamiyatga ega. Hindiston kunjutning yirik ishlab chiqaruvchilaridan biri bo'lib, uning global ishlab chiqarish va eksportida muhim rol o'ynaydi [2]. Kunjut dunyoning eng qadimgi moyli urug' ekinlaridan biri bo'lib, asosan taxminan 48–52% yog' va 25% oqsil saqlovchi urug'lari uchun yetishtiriladi [3].

So'nggi o'n yillikda kunjut urug'i ishlab chiqarilishi va iste'molchilar talabi oshdi. Oziq-ovqat iste'moli xatti-harakatlarining o'zgarishi, yog', dori-darmonlar va maxsus oziq-ovqatlar kabi qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar hamda kunjut yormasi kabi yon mahsulotlarning mavjudligi tufayli kunjutga bo'lgan talabning ortib borishi kutilmoqda. Ko'plab iste'molchilar va import qiluvchi davlatlar organik, kimyoviy moddalarisiz mahsulotlar hamda an'anaviy usulda ishlab chiqarilgan kunjut moyi, uni va pastasini sotib olishni xohlashmoqda. Global organik bozor 2015 yilda 1,6 milliard AQSh dollariga baholangan va 2024–2026 yillarda yillik murakkab o'sish sur'ati 12–14% dan yuqori bo'lishi kutilmoqda [2].

Kunjutda zararkunandalarni boshqarish yuqori hosildorlikni saqlash va kunjut yetishtirish barqarorligini ta'minlash uchun muhimdir. Kimyoviy nazorat asosiy usul bo'lib qolgan bo'lsa-da, pestitsidlarga qarshilik, atrof-muhitga zarar va zararkunandalarning qayta paydo bo'lishi kabi muammolarni hal qilish uchun integratsiyalashgan zararkunandalarni boshqarish amaliyotlarini joriy etish zarur. IPMni targ'ib qilish, biologik nazoratni qo'llashni rag'batlantirish va zararkunandaga chidamli kunjut navlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash orqali dehqonlar yanada barqaror va foydali kunjut yetishtirishga erishishlari mumkin [4].

Kunjut (*Sesamum indicum* L.) zararkunandalar bilan kurashish bu qimmatbaho yog'li urug' ekinining muvaffaqiyatli yetishtirilishi va hosildorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Kunjut, odatda kungaboqar nomi bilan tanilgan, ko'plab zararkunandalar bilan yuzlashadi, jumladan kungaboqar qurtlari (*Antigastra catalaunalis*), barg o'rash qurtlari (*Sylepta derogata*) va shiralar (*Aphis* spp.), ular o'simlik sog'lig'iga va unumdorligiga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin. Ushbu havflarni kamaytirish uchun samarali zararkunandalarni boshqarish strategiyalari zarur bo'lib, ularga integratsiyalashgan zararkunandalarni boshqarish (IPM) usullari, biologik nazorat usullari, kimyoviy pestitsidlar va kunjut



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

yetishtiriladigan mintaqalarning zararkunandalar dinamikasi hamda ekologik sharoitlariga mos madaniy choralar kiradi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish nafaqat ekinlarni himoya qilishni kuchaytiradi, balki barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini rag'batlantiradi va kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi[5]

Sh.B Amonov va boshqalarning ma'lumotiga qaraganda, kunjut o'simligining o'suv davrida va hosil saqlash vaqtida zarar keltiradigan 12 turdagi havfli zararkunandalar mavjud. Ularning zarar keltirish miqdori tuproq va boshqa sharoitlarga qarab o'zgaradi. Yuqoridagi ro'yxatga olingan 12 turdagi zararkunandalarni zararliligiga ko'ra 3 guruhga bo'lingan: xavfli zararkunandalar (ekinlarga 27-100% darajada zarar yetkazuvchi), o'rtacha xavfli (zarar o'choq xususiyatiga ega va odatda 10% dan oshmaydi) va amalda zararsiz yoki neytral (ma'lumotlar EPV dan past). Bu zararkunandalar quyidagi hasharotlar kiradi: Uzun dumli temirchak (*Tettigonia caudata* Sharp), Qarsildoq qo'ng'izlar (*Agriotes nadari* Buyss), Turkiston makkajo'xori qo'ng'izi (*Pentodon dubius* Ball.), Qattiq buzoqbosh qo'ng'izlari (*Rhizotrogus fortus* Reitt), g'alla buzoqbosh qo'ng'izlari (*Cyriopertha glabra* Gebl.), yashil chigirtka (*Tettigonia viridissima* L.) va sariq sikada[6].

Kunjut ekilgan dalalarda ko'pgina zararkunanda turlari uchrashiga qaramay zararkunandalardan: kunjut ko'ng'izi, tunlamlar ekin maydonlari orasida ko'p uchraydi va zarar keltiradi.

Respublikamizda sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida kunjut ekiniga kuzgi tunlam, g'o'za tunlami, karadrina, simqurtlari ko'proq zarar yetkazsa, lalmi dehqonchilik sharoitida esa kunjut poya tillaqo'ng'izi jiddiy zarar yetkazishi adabiyot ma'lumotlaridan ma'lum [7].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Ma'lumki qishloq xo'jalik ekinlarining zararli organizmlariga qarshi kurashda atrof-muhitga jumladan issiqqonli hayvonlarga kam ta'sirli, bezarar kurash choralaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammolarni o'rganish ijobiy yechim topish maqsadida kunjut ekinini zararkunandalaridan himoya qilish uchun urug'larni ekishdan oldin insektitsid urug'dorilagich preparatlar bilan dorilab ekish bo'yicha tadqiqotlar olib bordik.

Sug'oriladigan va lalmi yerlarda yetishtirilayotgan kunjut ekinlarining zararkunandalarini hisobga olish, zararkunanda va entomofaglarining turini aniqlash uchun kuzatuvlar olib borish va namunalar yig'ish N.V. Babchuk, N.N. Bogdanov-Katkov, A.M. Nikiforova, T.T. Bezdenko, V.F. Paliy, K.K. Fasulati, V.B. Golub, D.A. Kolesova, Yu.B. Shurovenkov, G.Ya. Bey-Biyenko M.Yu. Dyakov, A.A. Lyubishev, Ye.F. Martinov, K.A. Pristavkolar uslublaridan foydalanib amalga oshirildi.

Zararkunandalar turini aniqlash uchun namunalar yig'ishda entomologik tutqichdan foydalanish, qo'lda yig'ib olish, zararlangan o'simliklar namunalarini



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

yig'ib olish va tuproqni kovlab ko'rish usullaridan foydalanildi. Zararkunandalar sonini aniqlash va ularning namunalarini yig'ish marshrut-kuzatuv uslubi asosida bahor va yoz oylarida olib borildi. Qo'ng'izlarining o'rtacha sonini hisoblashda dalaning kattaligiga qarab diagonal bo'yicha 12 ta yoki 16 ta joyidan $0,25 \text{ m}^2$ ($50 \times 50 \text{ sm}$) kattalikdagi taxtachalar yordamida qo'ng'izlarning soni hisoblandi. Dalaning 12 ta joyidan olingan uzunburun qo'ng'izlarning umumiy sonini 3 ga, 16 joydan olingan uzunburun qo'ng'izlarning umumiy sonini 4 ga bo'lib, dalada 1 m^2 maydondagi qo'ng'izlarning o'rtacha soni hisoblab topildi.[8,9]

Tajribamizni O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining tajriba maydonchasida (lizimetr) hamda Moyli va tolali ekinlar ilmiy-tajriba stantsiyasi maydonida O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutida mavjud kunjutning "Qora shahzoda", "Toshkent-122" navlaridan foydalandik. Navlarning hozirda respublikamizda keng yetishtirib kelinayotganligini hisobga olib tadqiqotlarimizni ushbu navlarda olib borishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Kunjut urug'larini ekishdan oldin Respublikamizda qishloq xo'jalik ekinlari xususan chigitlarni dorilab ekishda keng foydalanib kelinayotgan Kruizer Ekstra, 36,2% sus.k. (t.e.m. *tiametoksam*+*mefenoksam*+*fludioksanil*) bo'lgan urug'dorilagich preparatlar bilan dorilab ekildi.

Urug'dorilagich preparatlarning yutuqlaridan biri biri ekinni bir martoba urug'larni dorilab ekishdan keyin asosiy zararli organizmlardan urug'larni unib chiqish, yosh nihollik va vegetatsiya davomida uchraydigan so'ruvchi, kemiruvchi hamda ildiz va nihol kasalliklaridan to'liq himoya qilib yuqori hosil olishga imkoniyat yaratadi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tajribalarimizni keltirilgan sarf-me'yor ko'rsatkichlari asosida kunjutning Toshkent-122 hamda Qora shahzoda navlarini **Kruizer Ekstra 36,2% sus.k.** urug'dorilagichi bilan 3/100 va 3/1000 nisbatlarda ishlov berish orqali olib bordik. Tajribalarimizda olib borilgan kuzatuvlarimiz davomida Toshkent-122 va Qora shahzoda navlari ekilgan tajriba maydonchamizda dastlabki 7,14-kunlari barcha dorilab ekilgan tajriba variantlarimizda oqqanotlarning kunjut ekiniga zarari mutlaqo kuzatilmadi. Ammo nazorat variantda 1 ta bargada o'rtacha 7,14-kunlari mos ravishda 1 ta o'simlikda 7,2; 13,4 dona issiqxona oqqanoti mavjudligi kuzatildi. Shu bilan bir qatorda har ikkala o'simliklarning unuvchanligi o'rganilganda Kruizer Ekstra urug'dorilagichi bilan 3/100 va 3/1000 nisbatlarda urug'larga ishlov berilgan Qora shahzoda navi variantimizda unuvchanlik 93,6%, 91,3% ko'rsatkich bilan nazorat variantga nisbatan 7,8% va 5,5% yuqori natijani namoyon etgan bo'lsa, ushbu pereparatni huddi shu sarf me'yor bilan Toshkent-122 navi urug'lariga ishlov berilgan variantimizda unuvchanlik 93,1% hamda 91,5% bilan nazorat variantimizga nisbatan 7,3% va 5,7% ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Hisob kuzatuvlarimizning 21-kuniga kelib Kruizer Ekstra bilan kunjutning Qora shahzoda navi 3/100 l nisbatda dorilab ekilgan variantda bitta o'simlikda 1,8 dona, 3/1000 l nisbatda dorilab ekilgan variantimizda esa 2,3 dona oqqanotlar





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

mavjudligi, 35-kunga kelib esa mos ravishda 6,3 hamda 7,2 dona issiqxona oqqanotlari mavjudligi qayd etilgan bo'lsa, kunjutning Toshkent-122 navida 21-kuniga kelib Kruizer Ekstra bilan 3/100 l nisbatda dorilab ekilgan variantda bitta o'simlikda 1,5 dona, 3/1000 l nisbatda dorilab ekilgan variantimizda esa 2,3 dona oqqanotlar mavjudligi, 35-kunga kelib esa mos ravishda 5,8 hamda 7,1 dona issiqxona oqqanotlari mavjudligi qayd etildi. Nazorat variantda (dorilanmasdan ekilgan) esa issiqxona oqqanotining butun vegetatsiya davomida kunjut ekinini zararlanganligi qayd etildi [10,11,12]. (1-2 jadvallar).

1-jadval

Kunjut urug'larining (Qora shahzoda navi) issiqxona oqqanotiga qarshi urug'dorilagichlar bilan dorilab ekishning biologik samaradorligi
(Toshkent viloyati, Qibray tumani, O'simliklar karantini va himoyasi ITI tajriba lizimetr maydonchasi)

Variantlar	Prep. sarfi kg, l/kg	Unuv- chanli- gi, %	1 ta bargdagi oqqanotning o'rtacha soni, dona					Biologik samaradorlik, % kunlar bo'yicha				
			7	14	21	28	35	7	14	21	28	35
Kruizer Ekstra 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam + mefenoksam + fludioksanil)	3/100	93,6	0,0	0,0	1,8	3,3	6,3	100	100	92,5	86,9	79,9
Kruizer Ekstra 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam + mefenoksam + fludioksanil) (andoza)	3/1000	91,3	0,0	0,0	2,3	4,2	7,2	100	100	89,3	82,9	76,8
Nazorat (dorilamagan)	-	85,8	7,7	14,8	19,2	24,5	28,2	-	-	-	-	-



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

2-jadval

Kunjut urug'larining (Toshkent-122 navi) issiqxona oqqanotiga qarshi urug'dorilagichlar bilan dorilab ekishning biologik samaradorligi
(Toshkent viloyati, Qibray tumani, O'simliklar karantini va himoyasi ITI tajriba lizimetr maydoni.)

Variantlar	Prep. sarfi kg, l/t	Unuv- chanli- gi, %	1 ta bargdagi oqqanot imagosining o'rtacha soni, dona					Biologik samaradorlik, % kunlar bo'yicha				
			7	14	21	28	35	7	14	21	28	35
Kruizer Ekstra 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam + mefenoksam + fludioksanil)	3/100	93,1	0,0	0,0	1,5	3,0	5,8	100	100	92,1	87,8	79,1
Kruizer Ekstra 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam + mefenoksam + fludioksanil) (andoza)	3/1000	91,5	0,0	0,0	2,3	4,2	7,1	100	100	87,9	82,9	74,4
Nazorat (dorilamagan)	-	85,8	7,2	13,7	19,1	24,7	27,8	-	-	-	-	-

Hosil yig'ib olingandan so'ng urug'dorilagich preparatlarni xo'jalik samaradorligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarimizda 1000 dona kunjut urug'ini hisoblab chiqildi.

3-jadval

Kunjut urug'larining (Qora shahzoda navi) issiqxona oqqanotiga qarshi urug'dorilagichlar bilan dorilab ekishning xo'jalik samaradorligi
(O'KHITI, laboratoriya tajribasi)

Variantlar	Preparat sarfi, kg, l/kg	1000 dona kunjut urug'ining og'irligi, gr	Nazoratga nisbatan saqlab qolingan hosil, gr	Nazoratga nisbatan saqlab qolingan hosil, %
Kruizer Ekstra, 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam + mefenoksam + fludioksanil)	3/100	3,48	0,2	6,1
Kruizer Ekstra, 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam + mefenoksam + fludioksanil)	3/1000	3,58	0,3	9,1
Nazorat (dorilamagan)	-	3,28		



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Qora shahzoda Kunjut urug'ining 1000 donasining og'irligi quyidagicha bo'ldi. Kruizer Ekstra 3/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 3,48 gr, 3/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 3,58 gr kunjut urug'ini tashkil etdi. Saqlab qolingan hosil nazoratga nisbatan 3/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 0,20 gr, 3/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 0,30 gr hosil saqlab qolindi (3-jadval).

4-jadval

Kunjut urug'larining (Toshkent-122 navi) issiqxona oqqanotiga qarshi urug'dorilagichlar bilan dorilab ekishning xo'jalik samaradorligi (O'KHITI, laboratoriya tajribasi).

Variantlar	Preparat sarfi, kg, l/kg	1000 dona kunjut urug'ining og'irligi, gr	Nazoratga nisbatan saqlab qolingan hosil, gr	Nazoratga nisbatan saqlab qolingan hosil, %
Kruizer Ekstra, 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam+mefenoksam+fludioksanil)	3/100	3,84	0,14	3,8
Kruizer Ekstra, 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam+mefenoksam+fludioksanil)	3/1000	3,95	0,25	6,7
Nazorat (dorilabmagan)	-	3,70		

Toshkent-122 Kunjut urug'ining 1000 donasining og'irligi quyidagicha bo'ldi. Kruizer Ekstra, 3/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 3,84 gr, 3/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 3,95 gr hosil olingan bo'lsa, nazoratda 3,70 gr kunjut hosilini tashkil etdi. Saqlab qolingan hosil nazoratga nisbatan 3/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 0,14 gr, 3/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 0,25 gr hosil saqlab qolindi (4-jadval).

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida va olingan natijalariga ko'ra kunjutning har ikkila navlarning **Kruizer Ekstra, 36,2% sus.k. (t.e.m. tiametoksam+mefenoksam+ fludioksanil)** urug'dorilagich bilan dorilab ekilganlarida nazoratga nisbatan zararkunandalar kam zarar yetkazotganligi kuzatildi hamda urug'lar unuvchanligi yuqori bo'lishi kuzatildi, bu esa o'z navbatida zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashishda pestitsidlar sarfini kamaytirilishiga va urug'dorilagichning urug'lar unib chiqish fazasida zarar keltiruvchi turli hil zararkunandalar hamda kasalliklarning oldini olish hisobiga hosildorlikning oshishiga olib keldi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Parveen S, Panday AK, Vishwakarma AK, Das SB, Sharma AK, Dwarka and Vishwakarma D. 2024a. Screening of Various Sesame Genotypes Against Leaf Webber and Capsule Borer, *Antigastra catalaunalis* Dup. Journal of Advances in Biology & Biotechnology, 27(7): 803-812.
2. Parveen S, Panday AK, Das SB, Sharma AK, Dwarka and Pandey R. 2024b. Study the response of different genotypes of sesame against larval population of leaf webber and capsule borer [*Antigastra catalaunalis*, Dup.]. International Journal of Advanced Biochemistry Research, 8(6): 458-462.
3. Thakur K, Panday AK, Dwarka and Deepali. 2023. Study the Seasonal Incidence of Major Sucking Insect-Pests of Sesame (*Sesamum indicum*, L.) Crop. International Journal of Plant & Soil Science, (35)19: 1441-1446.
4. Dwarka va boshqalar "Introduction to Insect Pests of Sesame (*Sesamum indicum* L.) and their Management" Journal of Advances in Biology & Biotechnology Volume 27, Issue 12, Page 378-384, 2024; Article no.JABB.128327 ISSN: 2394-1081
5. "Pest control in sesamum" <https://www.khethari.com/blogs/news/pest-control-in>
6. Amanov Sh.B. Lalmi hududlarida yetishtirilayotgan moyli ekinlarning zararkunandalari va ularga qarshi kurash majmuini takomillashtirish.: Diss. avtoref. q.x.f.d. 06.01.09. – Tashkent, 2016. – 26 b.
7. Дьяков М.Ю. Как собирать коллекцию насекомых. – М.: Муравей, 1996. – 144 с.
8. Бабчук Н.В. Методические рекомендации по составлению прогноза развития и учету вредителей и болезней сельскохозяйственных культур. – Киев.: Ураджай, 1981. – 233 с.
9. Богданов-Катьков Н.Н. Руководство к практическим занятиям по общей энтомологии. – М.-Л.: Сельхозгиз, 1947. – 356 с.
10. Бондаренко Н.В. Биологическая защита растений. – М.: Агропромиздат, 1986. – 278 с.
11. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Агропромиздат, 1986. – С. 25-110.
12. Дунаев Е.А. Методы эколого-энтомологических исследований. – М.: МосгорСЮН, 1997. – 44 с.



***SESAMUM INDICUM* L. AGROTSENOZIDA ASOSIY ZARARKUNANDALAR KOMPLEKSINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING IQTISODIY ZARAR CHEGARASINI ANIQLASH**

Erkinov Xolbek Erkin o'gli 

O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kунjut ekinida keng uchraydigan issiqxona oqqanotiga qarshi kurashishda kунjut urug'ini Avalanche 70% n.kuk. urug'dorilagich bilan keltirilgan sarf-me'yor ko'rsatkichlari asosida qayta ishlov berilib biologik samaradorligini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kунjut, *Sesamum indicum* L., issiqxona oqqanoti, *Antigastra catalaunalis*, *Sylepta derogate*, *Aphis* spp, IPM, pestitsid, *Tettigonia caudate*, *Agriotes nadari* Buyss, *Pentodon dubius* Ball., *Rhizotrogus fortus* Reitt,

Abstract. The article below presents information on the biological effectiveness of treating sesame seeds with the Avalanche 70% m.p seed treatment based on the recommended consumption rates to combat greenhouse whitefly, a common pest in sesame crops.

Keywords: Sesame, *Sesamum indicum* L., greenhouse whitefly, *Antigastra catalaunalis*, *Sylepta derogate*, *Aphis* spp., IPM, pesticide, *Tettigonia caudate*, *Agriotes nadari* Buyss, *Pentodon dubius* Ball., *Rhizotrogus fortus* Reitt.

Аннотация. В данной статье ниже представлена информация о биологической эффективности обработки семян кунжута препаратом Avalanche 70% в соответствии с рекомендуемыми нормами применения для борьбы с белокрылкой, распространенным вредителем кунжута.

Ключевые слова: кунжут, *Sesamum indicum* L., тепличная белокрылка, *Antigastra catalaunalis*, *Sylepta derogate*, *Aphis* spp., ИЗМ, пестицид, *Tettigonia caudate*, *Agriotes nadari* Buyss, *Pentodon dubius* Ball., *Rhizotrogus fortus* Reitt.

KIRISH

Kунjut (*Sesamum indicum* L.) insoniyatga ma'lum bo'lgan eng qadimgi yog'li urug' ekinlaridan biridir. U dunyoning subtropik va tropik mintaqalarida oziq-ovqat urug'lari, konfet tayyorlash, pasta (tahini), oziq-ovqat yog'i, un va tort uchun keng ekilib kelinmoqda[1].





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

So'nggi o'n yillikda kunjut urug'i ishlab chiqarilishi va iste'molchilar talabi oshdi. Oziq-ovqat iste'moli xatti-harakatlarining o'zgarishi, yog', dori-darmonlar va maxsus oziq-ovqatlar kabi qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar hamda kunjut yormasi kabi yon mahsulotlarning mavjudligi tufayli kunjutga bo'lgan talabning ortib borishi kutilmoqda. Ko'plab iste'molchilar va import qiluvchi davlatlar organik, kimyoviy moddalarisiz mahsulotlar hamda an'anaviy usulda ishlab chiqarilgan kunjut moyi, uni va pastasini sotib olishni xohlashmoqda. Global organik bozor 2015 yilda 1,6 milliard AQSh dollariga baholangan va 2024–2026 yillarda yillik murakkab o'sish sur'ati 12–14% dan yuqori bo'lishi kutilmoqda[2].

Kunjut (*Sesamum indicum* L.) qadim zamonlardan beri oziq-ovqat va sanoat ekinlari sifatida yetishtirib kelinadi. Tadqiqotchilarga ko'ra, kunjut (*Sesamum indicum* L.) urug'lari tarkibida 50–60% gacha yog', taxminan 20% oqsil hamda turli vitaminlar va minerallar mavjud bo'lib, bu ularni oziq-ovqat sanoatida hamda farmatsevtika sohasida keng qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Kunjut (*Sesamum indicum* L.) zararkunandalar bilan kurashish bu qimmatbaho yog'li urug' ekinining muvaffaqiyatli yetishtirilishi va hosildorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Kunjut, odatda kungaboqar nomi bilan tanilgan, ko'plab zararkunandalar bilan yuzlashadi, jumladan kungaboqar qurtlari (*Antigastra catalaunalis*), barg o'rash qurtlari (*Sylepta derogata*) va shiralar (*Aphis* spp.), ular o'simlik sog'lig'iga va unumdorligiga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin. Ushbu havflarni kamaytirish uchun samarali zararkunandalarni boshqarish strategiyalari zarur bo'lib, ularga integratsiyalashgan zararkunandalarni boshqarish (IPM) usullari, biologik nazorat usullari, kimyoviy pestitsidlar va kunjut yetishtiriladigan mintaqalarning zararkunandalar dinamikasi hamda ekologik sharoitlariga mos madaniy choralar kiradi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish nafaqat ekinlarni himoya qilishni kuchaytiradi, balki barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini rag'batlantiradi va kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi[3].

Sh.B Amonov va boshqalarning ma'lumotiga qaraganda, kunjut o'simligining o'suv davrida va hosil saqlash vaqtida zarar keltiradigan 12 turdagi havfli zararkunandalar mavjud. Ularning zarar keltirish miqdori tuproq va boshqa sharoitlarga qarab o'zgaradi. Yuqoridagi ro'yxatga olingan 12 turdagi zararkunandalarni zararliligiga ko'ra 3 guruhga bo'lingan: xavfli zararkunandalar (ekinlarga 27-100% darajada zarar yetkazuvchi), o'rtacha xavfli (zarar o'choq xususiyatiga ega va odatda 10% dan oshmaydi) va amalda zararsiz yoki neytral (ma'lumotlar EPV dan past). Bu zararkunandalar quydagi hasharotlar kiradi: Uzun dumli temirchak (*Tettigonia caudata* Sharp), Qarsildoq qo'ng'izlar (*Agriotes nadari* Buyss), Turkiston makkajo'xori qo'ng'izi (*Pentodon dubius* Ball.), Qattiq buzoqbosh qo'ng'izlari (*Rhizotrogus fortus* Reitt), g'alla buzoqbosh qo'ng'izlari (*Cyriopertha glabra* Gebl.), yashil chigirtka (*Tettigonia viridissima* L.) va sariq sikada[5].



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Kunjut ekilgan dalalarda ko'pgina zararkunanda turlari uchrashiga qaramay zararkunandalardan: kunjut ko'ng'izi, tunlamlar ekin maydonlari orasida ko'p uchraydi va zarar keltiradi.

Respublikamizda sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida kunjut ekiniga kuzgi tunlam, g'o'za tunlami, karadrina, simqurtlari ko'proq zarar yetkazsa, lalmi dehqonchilik sharoitida esa kunjut poya tillaqo'ng'izi jiddiy zarar yetkazishi adabiyot ma'lumotlaridan ma'lum [4].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Ma'lumki qishloq xo'jalik ekinlarining zararli organizmlariga qarshi kurashda atrof-muhitga jumladan issiqqonli hayvonlarga kam ta'sirli, bezarar kurash choralaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammolarni o'rganish ijobiy yechim topish maqsadida kunjut ekinini zararkunandalardan himoya qilish uchun urug'larni ekishdan oldin insektitsid urug'dorilagich preparatlar bilan dorilab ekish bo'yicha tadqiqotlar olib bordik.

Sug'oriladigan va lalmi yerlarda yetishtirilayotgan kunjut ekinlarining zararkunandalarini hisobga olish, zararkunanda va entomofaglarining turini aniqlash uchun kuzatuvlar olib borish va namunalar yig'ish N.V. Babchuk, N.N. Bogdanov-Katkov, A.M. Nikiforova, T.T. Bezdenko, V.F. Paliy, K.K. Fasulati, V.B. Golub, D.A. Kolesova, Yu.B. Shurovenkov, G.Ya. Bey-Biyenko M.Yu. Dyakov, A.A. Lyubishev, Ye.F. Martinov, K.A. Pristavkolar uslublaridan foydalanib amalga oshirildi.

Zararkunandalar turini aniqlash uchun namunalar yig'ishda entomologik tutqichdan foydalanish, qo'lda yig'ib olish, zararlangan o'simliklar namunalarini yig'ib olish va tuproqni kovlab ko'rish usullaridan foydalanildi. Zararkunandalar sonini aniqlash va ularning namunalarini yig'ish marshrut-kuzatuv uslubi asosida bahor va yoz oylarida olib borildi. Qo'ng'izlarining o'rtacha sonini hisoblashda dalaning kattaligiga qarab diagonal bo'yicha 12 ta yoki 16 ta joyidan 0,25 m² (50x50 sm) kattalikdagi taxtacha yordamida qo'ng'izlarning soni hisoblandi. Dalaning 12 ta joyidan olingan uzunburun qo'ng'izlarning umumiy sonini 3 ga, 16 joydan olingan uzunburun qo'ng'izlarning umumiy sonini 4 ga bo'lib, dalada 1 m² maydondagi qo'ng'izlarning o'rtacha soni hisoblab topildi.[6,7]

Tajribamizni O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining tajriba maydonchasida (lizimetr) hamda Moyli va tolali ekinlar ilmiy-tajriba stantsiyasi maydonida Kunjutning hozirda respublikamizda keng yetishtirib kelinayotgan, O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutidan "Qora shahzoda", "Toshkent-122" navlaridan foydalandik.

Kunjut urug'larini ekishdan oldin Respublikamizda qishloq xo'jalik ekinlari xususan chigitlarni dorilab ekishda keng foydalanib kelinayotgan Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. *imidakloprid*) bo'lgan urug'dorilagich preparatlar bilan dorilab ekildi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

NATIJALAR VA MUNOZARA

Kunjutning Toshkent-122 navini **Avalanche 70% n.kuk.** urug'dorilagich va keltirilgan sarf-me'yor ko'rsatkichlari asosida tajribalar olib bordik. Tajribalarimizda hisob kuzatuvlarimizni Toshkent-122 ekilgan tajriba maydonchamizda dastlabki 7,14-kunlari barcha dorilab ekilgan tajriba variantlarimizda oqqanotlarning kunjut ekiniga zarari mutlaqo kuzatilmadi. Ammo nazorat variantda 1 ta bargada o'rtacha 7,14-kunlari mos ravishda 1 ta o'simlikda 7,2; 13,4 dona issiqxona oqqanoti mavjudligi kuzatildi. Hisob kuzatuvlarimizning 21-kuniga kelib bitta o'simlikda Avalanche bilan 5/100 kg nisbatda dorilab ekilgan variantda 2,8 dona, 5/1000 kg nisbatda dorilab ekilshgan variantimizda esa 3,9 dona oqqanotlar mavjudligi, 35-kunga kelib mos ravishda 6,3; 8,6 dona issiqxona oqqanotlari mavjudligi qayd etildi. Nazorat variantda (dorilamagan) esa issiqxona oqqanotining butun vegetatsiya davomida kunjut ekinini zararlaganligi qayd etildi. (1-jadval).

1-jadval

Kunjut urug'larining (Toshkent-122 navi) issiqxona oqqanotiga qarshi urug'dorilagichlar bilan dorilab ekishning biologik samaradorligi
(Toshkent viloyati, Qibray tumani, O'simliklar karantini va himoyasi ITI tajriba lizimetr maydoni)

Variantlar	Prep. sarfi kg, l/t	Unuv- chanli- gi, %	1 ta bargdagi oqqanot imagosining o'rtacha soni, dona					Biologik samaradorlik, % kunlar bo'yicha				
			7	14	21	28	35	7	14	21	28	35
Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidakloprid)	5/100	89,5	0,0	0,0	2,8	3,6	6,3	100	100	85,3	85,4	77,3
Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidakloprid)	5/1000	86,3	0,0	0,0	3,9	5,9	8,6	100	100	79,6	76,1	69,0
Nazorat (dorilamagan)	-	85,8	7,2	13,7	19,1	24,7	27,8	-	-	-	-	-

Huddi shunday, kunjut urug'ining Qora shahzoda navi issiqxona oqqanotiga qarshi Avalanche 70% n.kuk. urug'dorilagich bilan keltirilgan sarf-me'yor ko'rsatkichlari asosida biologik samaradorligini o'rganish bo'yicha hisob kuzatuvlarimizda Qora shahzoda navi ekilgan tajriba maydonchamizda dastlabki 7,14-kunlari barcha dorilab ekilgan tajriba variantlarimizda oqqanotlarning kunjut ekiniga zarari mutlaqo kuzatilmadi. Ammo nazoratda 1 ta bargda o'rtacha 7,14-kunlari mos ravishda 1 ta o'simlikda 7,7; 14,8 dona issiqxona oqqanoti mavjudligi kuzatildi. Hisob kuzatuvlarimizning 21-kuniga kelib bitta o'simlikda Avalanche bilan 5/100 kg nisbatda dorilab ekilgan variantda 2,5 dona, 5/1000 kg nisbatda dorilab ekilshgan variantimizda esa 3,7 dona oqqanotlar mavjudligi, 35-kunga kelib mos





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

ravishda 6,5; 7;9 dona issiqxona oqqanotlari mavjudligi qayd etildi (2-jadval). [8,9,10].

2-jadval

Kunjut urug'larining (Qora shahzoda navi) issiqxona oqqanotiga qarshi urug'dorilagichlar bilan dorilab ekishning biologik samaradorligi
(Toshkent viloyati, Qibray tumani, O'simliklar karantini va himoyasi ITI tajriba lizimetr maydonchasi)

Variantlar	Prep. sarfi kg, l/kg	Unuv- chanli- gi, %	1 ta bargdagi oqqanotning o'rtacha soni, dona					Biologik samaradorlik, % kunlar bo'yicha				
			7	14	21	28	35	7	14	21	28	35
Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidaklopid)	5/100	89,3	0,0	0,0	2,5	3,8	6,5	100	100	88,7	84,7	78,9
Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidaklopid)	5/1000	88,5	0,0	0,0	3,7	5,8	7,9	100	100	81,8	75,7	72,1
Nazorat (dorilamagan)	-	85,8	7,7	14,8	19,2	24,5	28,2	-	-	-	-	-

Hosil yig'ib olingandan so'ng urug'dorilagich preparatlarni xo'jalik samaradorligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarimizda 1000 dona kunjut urug'ini hisoblab chiqildi.

3-jadval

Kunjut urug'larining (Qora shahzoda navi) issiqxona oqqanotiga qarshi urug'dorilagichlar bilan dorilab ekishning xo'jalik samaradorligi
(O'KHITI, laboratoriya tajribasi)

Variantlar	Preparat sarfi, kg, l/kg	1000 dona kunjut urug'ining og'irligi, gr	Nazoratga nisbatan saqlab qolingan hosil, gr	Nazoratga nisbatan saqlab qolingan hosil, %
Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidaklopid)	5/100	3,41	0,13	4,0
Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidaklopid)	5/1000	3,85	0,57	17,0
Nazorat (dorilamagan)	-	3,28		

Qora shahzoda Kunjut urug'ining 1000 donasining og'irligi quyidagicha bo'ldi. Avalanche 5/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 3,41 gr, 5/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 3,85 gr, Kruizer Ekstra, 5/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 3,48 gr, 5/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 3,58 gr hosil olingan bo'lsa, nazoratda 3,28 gr kunjutni urug'ini tashkil etdi. Saqlab qolingan hosil nazoratga



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

nisbatan 5/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 0,13 gr, 5/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 0,57 gr hosil saqlab qolindi (3-jadval).

4-jadval

Kunjut urug'larining (Toshkent-122 navi) issiqxona oqqanotiga qarshi urug'dorilagichlar bilan dorilab ekishning xo'jalik samaradorligi (O'KHITI, laboratoriya tajribasi, 2025-yil).

Variantlar	Preparat sarfi, kg, l/kg	1000 dona kunjut urug'ining og'irligi, gr	Nazoratga nisbatan saqlab qolingani hosil, gr	Nazoratga nisbatan saqlab qolingani hosil, %
Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidaklopid)	5/100	3,90	0,2	5,4
Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidaklopid)	5/1000	3,78	0,08	2,2
Nazorat (dorilabmagan)	-	3,70		

Toshkent-122 Kunjut urug'ining 1000 donasining og'irligi quyidagicha bo'ldi. Avalanche 5/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 3,90 gr, 5/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 3,78 gr kunjut hosilini tashkil etdi. Saqlab qolingani hosil nazoratga nisbatan 5/100 kg nisbatda qo'llanilgan variantda 0,2 gr, 5/1000 kg nisbatda ekilgan variantda 0,08 gr hosil saqlab qolindi (4-jadval).

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida va olingan natijalariga ko'ra kunjutning har ikki navlarning **Avalanche 70% n.kuk. (t.e.m. imidaklopid)** urug'dorilagich bilan dorilab ekilganlarida nazoratga nisbatan zararkunandalar kam zarar yetkazotganligi kuzatildi bu esa o'z navbatida zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashishda pestitsidlar sarfini kamaytirilishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR

1. Bennett, M.R. *Handbook for Farmers and Investors*; Northern Territory Department of Primary Industry and Fisheries: Darwin, NT, Australia, 1998; pp. 361-367.
2. Decker, C.; Kurnik, B. *Scan of New and Emerging Agricultural Industry Opportunities and Market Scoping: A Custom Report Compiled by Euromonitor International*; AgriFutures: Wagga Wagga, NSW, Australia, 2018.
3. "Pest control in sesamum" <https://www.khethari.com/blogs/news/pest-control-in-sesamum?srsid=AfmBOoo0RIHPJuj5YZJkncPDa6cI1PU3Sp5rXb9WKZTzjWXEFdxEcB5V>





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

4. Дьяков М.Ю. Как собирать коллекцию насекомых. – М.: Муравей, 1996. – 144 с.
5. Amanov Sh.B. Lalmi hududlarida yetishtirilayotgan moyli ekinlarning zararkunandalari va ularga qarshi kurash majmuini takomillashtirish.: Diss. avtoref. q.x.f.d. 06.01.09. – Tashkent, 2016. - 26 b.
6. Бабчук Н.В. Методические рекомендации по составлению прогноза развития и учету вредителей и болезней сельскохозяйственных культур. – Киев.: Ураджай, 1981. – 233 с.
7. Богданов-Катьков Н.Н. Руководство к практическим занятиям по общей энтомологии. – М.-Л.: Сельхозгиз, 1947. – 356 с.
8. Бондаренко Н.В. Биологическая защита растений. – М.: Агропромиздат, 1986. – 278 с.
9. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Агропромиздат, 1986. – С. 25-110.
10. Дунаев Е.А. Методы эколого-энтомологических исследований. – М.: МосгосСЮН, 1997. – 44 с.



UO'K: 632.7:631.4(575.173)

JANUBIY OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK DEFORMATSIYASI SHAROITIDA DALA EKLARINING INVAZIV ZARARKUNANDALARINING TARQALISHI

Zinatdinov Nuratdin Mnajatdinovich 

e-mail: zinatdinovnuratdin91@gmail.com

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Shamuratova Nasima Genjemuratovna 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali katta ilmiy xodimi, q.x.f.f.d.

e-mail: nasimashamuratova563@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Janubiy Orolbo'yi hududining ekologik deformatsiyasi sharoitida yangi o'zlashtirilayotgan qishloq xo'jalik ekinlarida uchraydigan invaziv zararkunandalar tarkibi va ularning tarqalish xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqotlar davomida Mo'ynoq, Qanliko'l, Shumanay va Qo'ng'iro't tumanlarida mosh, kunjut, makkajo'xori va oq jo'xori ekinlarida monitoring ishlari olib borildi. Natijada kemiruvchi va so'ruvchi zararkunandalarning asosiy turlari aniqlanib, ularning agrotsenozdagi ahamiyati baholandi. Olingan natijalar asosida zararkunandalarga qarshi kompleks kurash choralari tavsiya etildi.

Kalit so'zlar. Orolbo'yi, ekologik deformatsiya, invaziv zararkunandalar, monitoring, mosh, kunjut, makkajo'xori, oq jo'xori.

Abstract. This article studies the composition of invasive pests in newly developed agricultural crops in the conditions of ecological deformation of the South Aral Sea region and their distribution characteristics. During the research, monitoring was carried out on mung bean, sesame, corn and white sorghum crops in the Muynak, Qonliko'l, Shumanay and Kungiro't districts. As a result, the main types of rodent and sucking pests were identified and their significance in the agrocenosis was assessed. Based on the results obtained, comprehensive pest control measures were recommended.

Keywords: Aral Sea, ecological deformation, invasive pests, monitoring, mung bean, sesame, corn, white sorghum.

Аннотация. В данной статье изучается состав инвазивных вредителей на вновь созданных сельскохозяйственных культурах в условиях



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

экологической деформации региона Южного Аральского моря и особенности их распространения. В ходе исследования проводился мониторинг посевов маша, кунжута, кукурузы и белого сорго в районах Муйнак, Канликол, Шуманай и Кунгирот. В результате были определены основные виды грызунов и сосущих вредителей, а также оценена их значимость для агроценоза. На основе полученных результатов были рекомендованы комплексные меры борьбы с вредителями.

Ключевые слова: Аральское море, экологическая деформация, инвазивные вредители, мониторинг, маш, кунжут, кукуруза, белое сорго.

KIRISH

So'nggi yillarda Orol dengizi qurishi natijasida hosil bo'lgan Orolqum maydoni qariyb 60 ming km² ga yetib, mintaqaning ekologik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Har yili 100–150 mln tonnagacha tuz va chang aralashmalari atmosfera orqali keng hududlarga tarqalib, tuproq va havo sifatining yomonlashuviga sabab bo'lmoqda.

Ushbu jarayon nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4850-son qaroriga muvofiq Orolbo'yi hududlarida o'rmonzorlar barpo etish va degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Janubiy Orolbo'yi hududida suv resurslarining kamayishi va tuproq sho'rlanishi natijasida an'anaviy ekinlar, xususan sholi maydonlari keskin qisqardi va ayrim yerlarda partov maydonlar shakllandi. Shu bilan birga, oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash maqsadida bu maydonlarga makkajo'xori, oq jo'xori, kunjut va mosh ekinlari ekilishi joriy etilmoqda.

Biroq yangi agrotsenozlarda invaziv zararkunandalar tarkibi va ularning tarqalishini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar 2025–2026 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq, Qanliko'l, Shumanay va Qo'ng'iro't tumanlarida hamda O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutlarining laboratoriyalarida olib borildi. To'plangan namunalar Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining laboratoriyasiga tur tarkibini aniqlash maqsadida olib kelindi.

Hasharot namunalarini yig'ish ishlari umum entomologik uslublar va turkum uchun ishlab chiqilgan uslublardan foydalaniladi. Dala sharoitida to'g'riqanotsimon hasharotlarni yig'ishda Bey-Bienko (1932) tomonidan ishlab chiqilgan entomologik usullardan foydalaniladi.

Entomologik kuzatuv qo'shimcha ravishda Sh.T.Xo'jayev (2004) uslubiy ko'rsatmalariga muvofiq olib borildi. Chigirtkalar turlarini, yoshini aniqlashda Bey-



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Bienko, Michenko (1951), Kopaneva (1982), Lachininskiy va boshq. (2002) aniqlagichlari yordamida aniqlanildi [3, 9].

Chigirtkalarining tuxum ko'zachalarini turlarini aniqlashda M.E.Chernyaxovskiy (1982) uslubiy qo'llanmasi, chigirtkalarining sonini zichligini hisoblash, namuna to'plash bahor va yoz oylarida chigirtkalar ko'p tarqalgan maydonlarda, an'anaviy Siplenkov (1970), Gapparov va b., (2008) usulidan foydalanildi. Vizual baholash, F.A.Gapparov tavsiya etgan kvadrat hisoblash va to'r bilan silkilab yig'ish usullari asosida baholandi.

Joriy yilda ilmiy tadqiqotlarimiz va izlanishlarimiz bo'yicha dastlabki ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki iqlimning keskin o'zgarishi, Amudaryodan qishloq xo'jalik ekinlariga yetarlicha suvning yetib kelmasiligi oqibatida Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq, Qanliko'l, Shumanay va Qo'ng'iro't tumanlarida bundan bor yo'g'i 20 yil avval 100 ming ga dan ortiq maydonlarda sholi ekilgan bo'lsa, hozirga kelib ushbu maydonlar qarovsiz partov yerlarga aylangan [5].

Bugungi kunda Orolbo'yi hududlarida aholi sonining keskin o'sishi sababli oziq ovqatga bo'lgan talablar yil sayin ortib bormoqda. Shu sababli ushbu bo'sh turgan portov yerlardan qayta foydalanish, suv tanqisligi sharoitida yetishtirilishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlardan ilk bor makkajo'xori, jo'xori, kunjut, mosh ekinlari ekilmoqda.

NATIJALAR VA MUNOZARA

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, 2024–2025 yillarda mazkur ekinlar Qoraqalpog'iston Respublikasida quyidagi maydonlarda yetishtirilmoqda, Mo'ynoq tumanida 184 ga kunjut, 268 ga oq joxori, Qo'ng'iro't tumanida 444 ga kunjut, 647 ga oq jo'xori, Qanliko'l tumanida 735 ga kunjut, 1262 ga oq jo'xori, Shumanay tumanida 266 ga kunjut 845 ga jo'xori ekinlari ekilmoqda. (Qishloq xo'jaligi statistika ma'lumotlari).

Bugungi kunda asosan ekilayotgan dala ekinlarining zararkunandalarining turlarini, ularning miqdorini, holatini o'rganishda kuzgi va bahorgi kuzatuv ishlari ahamiyatli. Monitoring kuzatuv ishlari Shumanay tumanidagi "Otabek Boranbayev" fermer xojaligi 10 ga va Qanliko'l tumanidagi "Aydos Duzelbayev" fermer xo'jaligida 8 gektar maydonda olib borildi. Mo'ynoq tumani Qiziljar hududida kunjut ekinidan bo'shagan dalalarda va dala shetlarida zararkunandalarini aniqlash maqsadida monitoring o'tkazildi. Monitoring jarayonida 80 ga yaqin hasharotlar namunalari terib olindi. Tadqiqot ishlari tuproqda hasharotlarning tuxumlari, g'umbaklari va imagolarini aniqlash maqsadida olib borildi. 2025-yil hosili uchun ekilgan dala ekinlaridan bo'shagan maydonlarda va shu maydonlarning dala chetlarida o'rganish ishlari olib borildi. Tuproq qazishda tuproqda qishlovchi zararkunandalarni, shuningdek, tuproqda qishlovchi zararli organizmlarning tur tarkibi, tarqalishi, populyatsiya zichligi va hayotiyiligini aniqlash imkonini beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qanliko'l tumani «Sari altin» hududida dala ekinlarining zararkunandalari monitoring qilindi. Monitoring natijalariga ko'ra jami



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

7 ta turga mansub 70 dan ortiq namunalar yig'ib olindi va turlarini aniqlash hamda kolleksiya uchun laboratoriyaga olib ketildi. Olib borilgan monitoring natijasida kemiruvchi zararkundalardan, kuzgi tunlam, leukan tunlami, makkajo'xori parvonasi, poya parvonasi, makkajo'xori kuyasi, simqurtlar, chipor chigirtkasi, italya chigirtkasi, misr chigirtkasi, yashil temirchak turlari qayd etildi.

Umumiy monitoring natijalari

(Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq, Qonliqo'l, Shumanay va Qo'ng'iroq tumanlarida 2026 y)

№	Ekin turlari	So'ruvchi zararkunandalar	Belgisi (sizning holatingiz bo'yicha)	Kemiruvchi zararkunandalar	Belgisi (sizning holatingiz bo'yicha)
1.	Kunjut (<i>Sesamum indicum</i> L.)	shiralar	+++	kuzgi tunlam	++
		tripslar	+	g'o'za tunlam	+
		o'rgimchakkana	+	simqurtlar	+
		oqqanot	+		
2.	Mosh (<i>Vigna radiata</i> L.)	shiralar	+++	kuzgi tunlam	++
		tripslar	+	chigirtkalar	++
		o'rgimchakkana	+++	simqurtlar	+
		oqqanot	+		
3.	Makkajo'xori (<i>Zea mays</i> L.).	shiralar	+++	makkajoxori parvonasi	+++
		tripslar	++	simqurtlar	+
		o'rgimchakkana	+	chigirtkalar	+
		oqqanot	+	leukan tunlam	+++
4.	Oq jo'xori (<i>Sorghum cernuum</i>).	shiralar	++	Makkajo'xori parvonasi	+++
		tripslar	++	leukan tunlam	+++
		o'rgimchakkana	+	kuzgi tunlam	++
		oqqanot	+	simqurtlar	+

Eng ko'p tarqalgan zararkunandalar: **So'ruvchilar** (shira, trips, o'rgimchakkana), Eng kuchli - **Kunjut** va **moshda** shira (+++), **Moshda** o'rgimchakkana ham juda kuchli (+++), **Kemiruvchilar:** **Makkajo'xori** va **Oq jo'xorida** makkajo'xori parvonasi va leukan tunlam juda kuchli (+++), Kuzgi tunlam deyarli barcha hududlarda muammo.

Mazkur ekinlar ushbu hududlarda ilk bor keng maydonda yetishtirilayotgani tufayli ushbu ekin turlarida uchrashishi mumkin bo'lgan asosiy invaziv hasharot turlari bo'yicha monitoring ishlari olib borildi. Jumladan, mosh, kunjut, makkajo'xori va oq jo'xori ekin turlari yetishtirilyotgan maydonlarda monitoring olib borilganda kemiruvchi va so'ruvchi zararkundalardan na'munalar olinib tur tarkibi aniqlanmoqda.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Janubiy Orolbo'yi hududida ekologik deformatsiya, xususan iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va tuproq sho'rlanishi sharoitida yangi o'zlashtirilayotgan agrotsenozlarda invaziv zararkunandalar tarkibi va tarqalish xususiyatlari aniqlab berildi. Tadqiqot hududlarida (Mo'ynoq, Qonliko'l, Shumanay va Qo'ng'iro't) mosh, kunjut, makkajo'xori va oq jo'xori ekinlarida kemiruvchi hamda so'ruvchi zararkunandalar keng tarqalganligi qayd etildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zararkunandalar zichligi hududlar kesimida bir xil emasligi aniqlanib, eng yuqori ko'rsatkichlar Qonliko'l va Qo'ng'iro't tumanlarida kuzatildi. Bu holat ushbu hududlarning agroiklim sharoiti, tuproqning sho'rlanish darajasi hamda namlik rejimi bilan bevosita bog'liq ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, yangi agrotsenozlarda zararkunandalarning tez moslashishi va populyatsion barqarorlikka erishishi ularning invazivlik darajasining yuqoriligini ko'rsatadi. Umuman olganda, ekologik deformatsiya sharoitida invaziv zararkunandalarga qarshi kurashishda agroteknika, biologik va kimyoviy usullarni uyg'unlashtirgan holda qo'llash, shuningdek GIS asosidagi monitoring tizimini joriy etish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PQ-4850-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5037201>
2. Tóreniyazov E.Sh., Xo'jayev Sh.T., Xolmurodov E.A. O'simliklarni himoya qilish. Toshkent, Navro'z. 2018. 876 b.
3. Xo'jaev Sh.T. Insektitsid, akaritsid va biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar // Toshkent-2004. –B.37.
4. Tóreniyazov E.Sh., Shamuratov G.Sh. Entomologiya avil xojaligi diyxanshilig'ida. Nókis 1995 J -B.7-8.
5. Tóreniyazov E.Sh., Sultanbaeva P.A. Qoraqalpog'iston agrobiotsenozi moyli ekinlar biotopi zararkunandalari rivojiga abiotik va biotik omillarning ta'siri. // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini jurnali 2024. -№6. –B. 20-21.
6. Tóreniyazov E.Sh. Zıyankeslerge qarsı integratsiyalıq gúres ótkeriwdin' ilmiy tiykarları. Nókis. Bilim. 2014- B. 16-17-128.
7. Tufliyev N.X. O'zbekistonning tog' oldi, yaylov va sho'l hududlarida uchraydigan zararli chigirtkalar va ularga qarshi kurash choralari. Toshkent 2019.- B.92-93.
8. Utepbergenov A.R., Satbaeva R.S. Qoraqalpog'iston sharoitida makkajo'xori va oq jo'xori ekinlarida rivojlanadigan zararkunandalarning tur tarkibi va keltiradigan zarari. Agro-kimyo himoya va o'simliklar karantini jurnali. Maxsus son. №1. 2023-B. 175-176.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

9. Бей-Биенко Г.Я. Определитель насекомых Европейской части СССР в первая часть "V" том двукрылые, блохи. М.Л.: Наука, 1969.-С.80-421.

10. Адашкевич Б.П. «Биологическая защита крестоцветных овощных культур от вредных насекомых». –Ташкент: «ФАН», 1983. –С. 180-188.



UO'K: 633.15:632.8-632.937

SHIRIN MAKKAJO'XORI AGROBIOTSENOZIDAGI KEMIRUVCHI DOMINANT TURLARNI BIOEKOLOGIYASI, ZARARI VA BIOLOGIK QARSHI KURASH SAMARADORLIGI

Fayzullayev Burxon

biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

e-mail: fayzullaevburhon@gmail.com**Bababekov Qalandar**

b.f.n., dotsent

Ergashev Shavkat Murodovich

Direktor, q/x.f.f.d. (PhD)

e-mail: shavkat.ergashev.2023@mail.ru**Murodov Inomjon Quvondiq o'g'li**

kichik ilmiy xodim

e-mail: Inomjonmurodov818@gmail.comO'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
Samarqand mintaqaviy filiali

Annotatsiya. Maqolada makkajo'xori parvonasi qurtlari bioekalogiyasi, zarari hamda ular sonini boshqarishda va unga qarshi biologik kurashda trixogramma (*Trichogramma chilonis*) entomofagidan foydalanish uchun o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: makkajo'xori parvonasi, bioekalogiyasi, zarar keltirishi, kurash usuli, agrobiotsenoz, trixogramma.

Abstract. The article presents the results of a study on the biology and ecology of the corn borer, as well as biological control of their numbers using an entomophage. trichogramma (*Trichogramma chilonis*) and biological control of them.

Keywords: corn moth, bioecology, damage, control method, agrobiocenosis, trichogram

Аннотация. В статье приводятся результаты исследования по изучению биологию и экологию кукурузного мотылька, а также биологический контроль их численности с помощью ентомофага . трихаграмма (*Trichogramma chilonis*) и биологической борьбы с ними.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Ключевые слова: кукурузная моль, биоэкология, вредность, метод борьбы, агробиоценоз, трихограмма.

KIRISH

Shirin makkajo'xori to'liq pishmagan bosqichlarida yig'ib olinadi va qayta ishlangan sabzavot sifatida ishlatiladi, bundan tashqari muhim tola, minerallar va vitaminlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

AQSHda shirin makkajo'xorining yillik iste'moli kishi boshiga 11 kg dan oshadi. Polshada esa bu ko'rsatkich 0,5 kg atrofida. Shirin makkajo'xori Osiyo mamlakatlarida tobora ommalashib bormoqda. Ayniqsa, Hindistondagi yulduzli mehmonxonalarda undan sho'rva, murabbo kabi taomlar tayyorlanadi. Bundan tashqari, so'tasini xom yoki qaynatilgan holda iste'mol qilinadi. Hindistonning yirik shaharlari va shaharlari atrofida hududlarda shirin makkajo'xori etishtirish maydonlari oshib bormoqda [5]. Shirin makkajo'xori donalarining kimyoviy tarkibi barqaror bo'lmaganligi va juda tez o'zgarib turishi sababli, makkajo'xorining pishish fazasi, hosilni yig'ish vaqti hattoki saqlashgacha harorat juda muhim. Sut-mum pishishning dastlabki bosqichida 70-80% suvni o'z ichiga oladi. Xuddi shu bosqichda yig'ib olinganda, ular eng yaxshi ta'mga, suvli va yumshoq, shakar miqdoriga (6-12%) ega bo'ladi. O'rim-yig'imdan so'ng yoki so'talarning terimidan so'ng shirin makkajo'xori so'talari teskorlik bilan 0°C haroratgacha sovutilishi kerak. Bu yerda eng muhim omil vaqt hisoblanib, chunki yuqori haroratda so'talarida sodir bo'ladigan ko'plab jarayonlar, masalan, monosaxaridlarning kraxmalga aylanishi, iste'mol qilish uchun mo'ljallanmasdan qolishini taminlaydi.

So'talari o'z vaqtida yig'ib iste'mol qilinmasa, ular qattiq va unli bo'lib, ularning shirin ta'mi uchun mas'ul bo'lgan saxarozani o'z ichiga oladi va kraxmal miqdori ortadi. Ularning ozuqaviy qiymati pasayib, nozik tabii istemolchilar uchun qabul qilinmaydi [3]. Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki uzoq muddat makkajo'xori yog'ini iste'mol qilib borgan insonning qonida xolesterin konsentratsiyasini kamaytirishi va aterosklerozning oldini olishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilish uchun mo'ljallangan shirin makkajo'xori 0°C haroratda maksimal 6-8 kun, 5°C haroratda 3-4 kun va 10°C haroratda esa 2 kun saqlash mumkin. Bu o'simlikni saqlash muddati juda cheklangandir. Shuni alohida ta'kidlash joizki 24 ° C haroratda saqlanadigan so'talar 24 soatdan so'ng taxminan 30% shakarni yo'qotadi. To'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilish uchun mo'ljallangan kariops'larning ozuqaviy qiymatini oshirish uchun ular oqartirish protsedurasidan o'tkaziladi va keyin -40 ° C haroratda muzlatiladi. So'talari sut-mum pishish fazasida istemol qilinsa eng ko'p oziq moddalarni o'z ichiga oladi. Sut-mum pishish fazasida yig'ilgan so'talarning massa miqdori 24-28% ni tashkil qiladi [4].

Respublikamizda issiqlik va yorug'likning ko'pligi g'alladan bo'shagan maydonlarda takroriy ekin sifatida bir qator ekinlarni sabzavot, poliz, dukkakli ekinlar, eryong'oq, don hamda silos uchun makkajo'xori ekib ekib yetishtirib yaxshi hosil olish mumkin. Bu ekinlarning ko'pchiligi ayniqsa no'xat, yeryong'oq, pomidor



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

va makkajo'xori Makkajo'xori parvonasi (*Ostrinia Nubilalis*) bilan eng ko'p zararlanadi.

Makkajo'xori parvonasi (*Ostrinia Nubilalis*) Amerikadan Yevropaga katta ehtimol bilan 20-asrning boshlarida Italiya yoki Vengriyaga olib kelingan va u yerda muhim makkajo'xori zararkunandasiga aylandi. *Ostrinia nubilalis* Hbn. Polashada 1950-yillardan va Polshaning janubi-sharqiy qismida esa 1994 yildan aniqlangan bo'lib shu vaqtdan beri makkajo'xori ekinlarida iqtisodiy zarar yetkazib kelmoqda va hozirgi kungacha asosiy zararkunandalardan biri hisoblanadi. Makkajo'xori parvonasi qurtlari ho'jayin o'simligini zararlab sentyabr va oktyabr oylari oxirida oziqlanishni tugatib, qishlashni boshlaydi. Kapalaklarining umr ko'rish muddati odatda 18-24 kungacha [5].

Bir qator olimlar tadqiqotlarida shirin makkajo'xorini Makkajo'xori parvonasi (*Ostrinia Nubilalis*) bilan 45,3 % dan 91,7 % gacha zararlangan, bir so'tada 3,5-4,3 dona lichinka, poyasida esa 1,5-2,2 tagacha lichinkalar borligi aniqlangan.

Shirin makkajo'xorining asosiy zararkunandalaridan biri hisoblangan *Ostrinia nubilalis*ga qarshi biologik kurashda *Trichogramma evanescens*ni, gektariga 200 000 dona, tarqatish orqali 78,0% biologik samaradorlikka erishgan. Tarqatish jarayonida entomofagni bir xil tarqalishini shu yo'l bilan zararkunandani bir xilda qamrab olib zararlashi uchun 8 m masofada tarqatish kerakligini ta'kidlab o'tgan. Tarqatish sxemasi 200 000 dona (50 000 + 100 000 + 50 000). Ishlov berilmagan nazorat variantida zararkunandalar o'simlikni 59,6% dan mos ravishda 39,5 va 33,4% gacha zararlaganini aniqlaganlar. Olim ikkita *Trichogramma* turidan foydalangan bo'lib *T. maidis* (80,0%) va undan keyin *T. evanescens* (78,0%) biologik samaradorlikni qayt etgan [5]. Tadqiqot ishida kimyoviy preparatlar ham qo'llanilgan bo'lib bulardan Decis Mega 5% va Calypso 48% ishlatilgan. Biologik usul bilan kimyoviy usul iqtisodiy jihatdan hisoblanganda kimyoviy usulga qaraganda biologik usul 51,3% arzon ekanligini olim o'z ishlarida keltirgan [1].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tajribada biologik kurash amalga oshirilgan maydonda agrobiotsenozda tarqalgan kemiruvchi zararkunandalarning tuxumiga trixogaramma parazitlarini turli nisbatda qo'llash orqali kurash olib borildi. Entomofaglarni zararkunandalarga qarshi qo'llashda O'simliklarni himoya qilishda umum qabul qilingan usullar yordamida bajarildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqotlarimiz 2025 yilda Samarqand viloyat Tayloq tumani dalalarida o'tkazildi. Makkajo'xori agrobiotsenozida tarqalgan kemiruvchi zararkunandalarga qarshi 4 variantda, ikki yarusda va to'rt takrorlikda amalga oshirildi. Unga ko'ra kemiruvchi zararkunandalarning tuxumiga qarshi *Trichogramma chilonis* turini 1:5, 1:10, 1:15 hamda 1:20 nisbatda (entomofag:zararkunanda) dalaga tarqatish orqali





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

tajribalar olib borildi. Bunda andoza sifatida *Trichogramma chilonis* turini 1:5 nisbat qilib olindi. *Trichogramma chilonis* turini jami 3 marta (60x80x60) 200000 dona hisobida tarqatildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra shirin makkajo'xori agrobiotsenozidagi *Ostrinia nubilalis*ga qarshi trixogrammaning biologik samaradorligi tajribaning 9 – kunida yuqori ko'rsatkichga erishdi. Ya'ni entomofag va zararkunanda tuxumining nisbati 1:5 bo'lganda 73,6%; 1;15 da 58,9%; 1;20 nisbatda esa 51,3% ni tashkil qildi. Andoza sifatida esa entomofag va zararkunanda tuxumining nisbati 1:10 bo'lgan variant olindi. Bunda tajribaning 9-kuniga borib 68,8% biologik samaradorlik o'ldi. Nazorat variantida entomofag qo'llanilmadi. Bunda har 10 ta o'simlikdagi tunlamlar tuxumi miqdorining oshib borish kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

Shirin makkajo'xori agrobiotsenozidagi *Ostrinia nubilalis*ga qarshi trixogrammaning biologik samaradorligi Samarqand viloyati, Urgut tumani "Shaxabiddin Qiyomiddin" fermer xo'jaligida, 2025 y.

Variantlar		10 ta o‘simlikdagi o‘rtacha tuxum soni, donada				Samaradorlik kunlarda, %		
		Tajriba o‘tkazish oldidan	Tajriba qo‘yilgan kundan keyingi kunlar					
			3	6	9	3	6	9
1	<i>Trichogramma chilonis</i> 1:5 nisbatda	27,5	16,2	11,1	8,4	44,6	63,6	73,6
2	<i>Trichogramma chilonis</i> 1:15 nisbatda	27,1	17,1	13,7	12,9	40,7	54,4	58,9
3	<i>Trichogramma chilonis</i> 1:20 nisbatda	26,4	19,4	16,2	14,9	31,0	44,7	51,3
4	<i>Trichogramma chilonis</i> 1:10 (andoza) nisbatda	28,2	16,1	12,7	10,2	46,3	59,4	68,8
5	Nazorat	26,2	27,9	29,1	30,4	-	-	-

XULOSA

Olingan natijalardan xulosa qilib aytish mumkinki, shirin makkajo'xoring ashaddiy zararkunandasi bo'lgan makkajo'xori parvonasi (*Ostrinia nubilalis*) tuxumlariga qarshi trixogramma qo'llashning biologik samaradorligi entomofag va tuxum sonining nisbatiga bog'liq bo'ladi.

Entomofag va zararkunanda tuxumining nisbati 1:5 bo'lganda yaxshi samaradorlikka (73,6%) erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. Xo'jaev Sh.T. "O'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish tizimi va uning tarkibidagi biologik usulning tuzilishi va mohiyati."T.: Munisdesigngroup, 2013.-B.4- 98





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

2. Недзёлка И., Шиманек М., Рыбчинский Р. Технология производства сладкой кукурузы. Акта Агрофизика. Розправы и монографии. нститут Агрофизики им. Богдана Добжаньского ПАН в Люблине. 2004.
3. Шиманек М., Добжаньский Б., Недзюлка И., Рыбчинский Р. Кукуруза, технология уборки, физические свойства и качество. Люблин: Институт агрофизики им. Богдана Добжаньского ПАН в Люблине; 2005.
4. Mazurek, J., Hurej, M., Jackowski, J. (2005). The effectiveness of selected chemical and biological insecticides in control of European corn borer (*Ostrinia nubilalis* Hbn.) on sweet corn. J. Plant Prot. Res., 45(1), 41–47.
5. Xanduri va boshq., 2011 Khanduri, A., Hossain, F., Lakhera, P. C., Prasanna, B. M. (2011): Effect of harvest time on kernel sugar concentration in sweet corn. – Indian J. Genet. 71: 231-234.



PIYOZ PASHSHASINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNGA QARSHI BIOLOGIK KURASH CHORALARI

Fayzullayev Burxon 

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

e-mail: fayzullaevburhon@gmail.com

Murodov Inomjon Quvondiq o'g'li 

kichik ilmiy xodim

e-mail: inomjonmurodov818@gmail.com

Toshtemirov Aminjon 

katta ilmiy xodimi,

e-mail: amintosh1990@gmail.com

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Samarqand mintaqaviy filiali

Annotatsiya. Piyoza pashshasi piyoz va boshqa sabzavot ekinlarining jiddiy zararkunandasi bo'lib hisoblanadi. Ikkiqanotlilar turkumiga kiruvchi bu hasharot piyoz bargi va piyozboshiga zarar yetkazadi. Tegishli qarshi kurash choralari o'tkazilmaganda piyoz hosili to'liq yo'qotilishi mumkin.

Kalit so'zlar: tuxum, lichinka, pashsha, soxta pilla, entomofaglar, poya nematodalar, biotik omillar, agrosenozi.

Abstract. The onion fly is a serious pest of onions and other vegetable crops. This insect, belonging to the Diptera family, damages the leaves and bulbs of onions. In the absence of appropriate control measures, the onion crop may be completely lost.

Keywords: egg, larva, fly, false cocoon, entomophages, stem nematodes, biotic factors, agrocenoses.

Аннотация. Луковая муха – серьезный вредитель лука и других овощных культур. Это насекомое, принадлежащее к семейству двукрылых, повреждает листья и луковицы лука. При отсутствии соответствующих мер борьбы урожай лука может быть полностью потерян.

Ключевые слова: яйцо, личинка, муха, ложный кокон, энтомофаги, стеблевые нематоды, биотические факторы, агроценозы.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

Hozirgi kundagi ekologik va sotsial vaziyat to'laqonli ovqatlanishni talab qiladi. Sabzavot ekinlari qishloq xo'jalik ekinlari orasida eng ko'p yetishtiriladigan iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy eksportbop ekinlar qatoriga kiradi. Bunda sabzavot va poliz mahsulotlari inson uchun bebaho oziq-ovqat manbai sifatida xizmat qiladi. Lekin, hozirgi vaqtda aholini sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlanish yetarli darajada deb bo'lmaydi. Bunday holatni sababi, zararkunandalarga qarshi fanning yutuqlaridan va ilmiy asoslangan chora – tadbirlarini o'tkazmasligidir. Demak, har bir hududda sabzavot va poliz ekinlari zararkunandalariga qarshi kurash chora – tadbirlarini o'tkazish davomida, ularning bioekologik xususiyatlari va tabiiy kushandala rining xususiyatlaridan foydalanish kerak [1,2].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi, Zarafshon vohasida yetishtiriladigan sabzavot va poliz ekinlari zararkunanda pashshalari faunasi, asosiy turlarining biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish; ularning zarar keltirish darajisini aniqlash; qarshi kurash choralarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bizning kuzatuvlarimiz asosan piyoz pashshasi ustida o'tkazildi.

Piyoz pashshasining tanasi yaltiroq-kulrang orqasi yashil rangdagi 6-7 mm kattalikdagi pashshalar. Oyoqlari qora mo'ylovining uchi pastga egilgan. Erkaklarining qorin qismidan to'q rangli bo'ylama chiziq o'tgan, urg'ochilarida bunday chiziq yo'q. Tuxumlari oq rangli cho'ziq, 1,2 mm lar atrofida. Lichinkasining kattaligi 10 mmgacha yetadi, oqish. Og'iz ilgakchalari joylashga tanasining oldingi uchi ancha ingichka, orqa uchida 16 ta tishcha-o'siqchalar bo'lib, ulardan o'rtadagi 4 tasi yaqqol ko'rinadi [3].

G'umbagi 4-7 mmli sariqchil-jigarrang cho'ziq tuxum shaklidagi soxta pilla (pupariy) ichida joylashadi. G'umbak bosqichida 10-20 sm tuproq ostida qishlaydi. Aprel oyida olcha gullash paytida uchib chiqib boshlaydi. Piyoz pashshasi turli o'simliklarning gul nektari bilan oziqlanadi va 7-8 kundan keyin tuxum qo'yishni boshlaydi. Tuxum qo'yish jarayoni may oyida boshlanadi va ikki oycha davom etadi. Pashsha tuxumlarini piyoz barglari orasiga yoki piyoz tuplari yaqinidagi tuproq zarralariga bir nechtadan iborat to'pcha qilib qo'yadi [4].

Tuxumdan havo haroratiga qarab 3-8 kundan keyin lichinka chiqadi. Lichinkaning tuxum ichida shakllanishi 13-14°C da o'rtacha 6 kun, 17-22°C da 4,5 kun 23-29°C da o'rtacha 3,5 sutka davom etadi. Tuxumlar rivojlanishi tuproq namligi 25% dan 80% gacha bo'lganda normal kechadi, bundan namroq va bundan quruqroq tuproq tuproq rivojlanishga yomon tasir ko'rsatadi. Lichinkalar o'simlik tanasiga asosan barg bandlari orqali bazan esa piyoz tubidan o'tadi. Piyoz pashshasi lichinkalari bilan zararlangan piyozlar odatda chirib ketadi. Ayniqsa bo'g'iz chirishi va poya nematodalari bilan zararlangan piyoz ko'chatlari bir vaqtning o'zida piyoz pashshasidan ko'proq zararlanadi.



1-rasm. Piyoz pashshasining erkagi (o'ngda) va urg'ochisi (chapda).

Zararlangan o'simliklarni oldin sariq-kulrang tusga kiruvchi qurigan va so'lgan barglaridan oson aniqlab olish mumkin. Piyoz pashshasi piyoz ko'chatlarini, boshpiyozlarni va urug'lik piyozlarni zararlashi mumkin. Ko'chat olish uchun ekilgan piyozlar ayniqsa ko'p zarar ko'radi chunki lichinkalar zich ekilgan piyoz tuplarining biridan boshqasiga o'tib ketaveradi. Rossiya sabzavotchilik inosituti olgan ma'lumotlarga ko'ra piyoz pashshasining lichinkalari 50 smga qadar o'rmalab borishlari mumkin. Piyozbosh shakllangandan keyin zararlanganda lichinkalar boshqa tuplarga ko'chmaydi. Osh piyozdan tashqari oz miqdorda sarimsoq piyozga ham zarar keltirishi mumkin. Piyoz pashshasi lichinkasining rivojlanishi 2-3 hafta davom etadi. Shundan keyin lichinkalar tuproqqa tushadi va soxta pilla ichida g'umbakka aylanadi.

15-20 kundan keyin soxta pilla ichida shakllangan yangi avlod piyoz pashshalari uchib chiqadi. Ular ham bir haftadan keyin tuxum qo'yishni boshlaydi. Bunda asosan kech ekilgan piyoz tuplariga ko'proq tuxum qo'yishadi [5].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlarimiz Samarqand viloyatining Urgut tumani dalalarida o'tkazildi. Piyoz ekilgan dalalarda piyoz pashshasi lichinkalari piyoz barglarida aniqlandi va bunda umumiy qabul qilingan entomologik usullardan foydalanildi. Piyoz pashshasini hisoblash bilan birga uning tabiiy entomofaglari ham hisoblab borildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

O'zbekiston sharoitida piyoz pashshasi 1 yilda 2 ta avlod beradi.


Tuproq g'ovakligi kattaroq tuproqlarda pashshalar yaxshiroq rivojlanishi aniqlangan.

Qarshi kurash choralari: Piyozni erta ekish piyoz pashshasiga qarshi kurashda yaxshi samara beradi, chunki kech ekilgan piyozda pashshalar yaxshi rivojlanadi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Piyoza ko'chatlarini bir tekisda siyrakroq ekish ham samara beradi. Tuxum qo'yish vaqtida pashshalarni haydash uchun piyoz egatlari bo'ylab kuchli hid tarqatuvchi moddalar: naftalin, kreolin aralshmasi yoki yog'och qipig'i sepib chiqiladi. Bu moddalar faqat pashshalarni haydabgina qolmasdan balki ulani ko'payishiga ham to'sqinlik qiladi. Masalan kreolin va naftalinda tekkan pashsha tuxumlari nobut bo'ladi. Bundan tashqari tamaki kukunini ohak bilan aralshtirib sepish mumkin. Tabiiy sharoitda piyoz pashshasining miqdorini cheklovchi muhitning biotik omillari ichida asosiy o'rinlarni uning kushandarlari parazitlar va yirtqichlar egalaydi. Ularning o'zaro trofik aloqalaridan unumli foydalanib uyg'unlashgan himoya tizimlarini yaratish zamonaviy o'simliklarni himoya qilish fani oldida turgan dolzarb vazifadir. Zararkunandalar va entomofaglar sonining ma'lum nisbatlarida bu usullar kushandalar sonini kamaytirish va zararini minimumga yaqinlashtirish imkonini beradi.



Piyoza pashshasining tarqalishi ko'p jihatdan piyoz agrosenozlarining joylashishi va muhitdagi namlik miqdoriga bog'liq. Shunga ko'ra shimoldan janubga tomon uning miqdori kamayib boradi. Entomofaglar xilma-xil tabiiy va madaniy biotsenozlarning doimiy va zarur komponentlaridir. Hasharotlar orasidagi entomofaglar ikki guruhdan iborat, bular parazitlar va yirtqichlardir. Ular bir biridan oziqlanish xarakteri va fitofaglar bilan munosabatiga ko'ra farq qiladi. O'zbekiston sharoitida piyoz pashshasi entomofaglari to'liq o'rganilmagan. Hozirgacha ularda parazitlik qiluvchi bir necha tur stafilin va yirtqich vizildoq qo'ng'izlar ma'lum.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Keng tarqalgan parazit turlardan biri ikki chiziqli aleoxara (*Aleochara bilineata*)dir. Bu tur ekologik plastik bo'lib juda keng tarqalgan. Bu tur parazit bilan g'umbaklarning zararlanish darajasi 19,5% ni tashkil etadi. *Phygadenon trichops* esa g'umbaklarni 1,8 % ga zararlagan. Aleoxara piyoz pashshasining ixtisoslashgan parazitlaridan hisoblanadi. Ammo aleoxara boshqa turdagi pashshalarning, jumladan karam pashshasi va sabzi pashshasi g'umbaklarini ham zararlashi mumkin. Bundan tashqari aleoxara yetuk davrida yirtqichlik bilan hayot kechiradi va pashshalar tuxumlari va lichinkalari bilan oziqlanadi. Umuman, tadqiqot yillarida piyoz pashshasi parazitlarining 82 % i aleoxaraga to'g'ri keladi..

XULOSA

1. Piyoz agrosenozida piyoz pashshasining imagolari ayniqsa may oyining oxiri va iyun oyining boshida eng ko'p tarqaladi, bunda ularning soni har yuz o'simlikda 34-45 taga yetadi. Iyul oyining ikkinchi o'n kunligida esa imagolari 51 taga, tuxumlari soni esa 26 taga yetadi.

2. Aleoxara piyoz pashshasining ixtisoslashgan parazitlaridan hisoblanadi. Bu tur parazit bilan g'umbaklarning zararlanish darajasi 19,5% ni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. Акрамов Б.А. Опасные вредители луковичных культур. Второй всероссийский съезд по защите растений. Санкт-Петербург.2005.Том 2.-С.223.

2. Мацюк В.А. Алеохара-паразит луковой мухи. Защита растений. 1973., № 9. с.29-30.

3.Махмуд Фараг Муса Биоэкологическое обоснование борьбы с луковой мухой *Delia antiqua* Meig автореферат диссертации по ВАК 06.01.11, кандидата биологических наук

4. Сулаймонов Б.А., Хасанов Б.А., Холмуродов Э.А. и др. Вредители и болезни бахчевых и тыквенных овощных культур и меры борьбы с ними.

5. Халимов Ф. 3. Особенности взаимоотношений капустных мух и их энтомофагов на разных по устойчивости сортах капусты. Автореферат диссертации к.б.н. С.-Петербург-1995.



UO'K: 630.63.630*4/632.77.7.018.

OROLQUM SAKSOVULZORLARDA GALLITSALAR BIOEKOLOGIYASI VA TARQALISHI

Shamuratova Nasima Genjemuratovna 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali katta ilmiy xodimi, q.x.f.f.d.

e-mail: nasimashamuratova563@gmail.com

Yakubbaeva Nargiza Dautbay qizi 

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistri

e-mail: yakubbaevanargiza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada saksovul o'simligi muhim qum tutuvchi o'simlik sifatida hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilib, bugungi kunda Orol dengizi tubida saksovul o'rmonzorlari barpo etilgan. Ushbu turdagi shishish hosil qiluvchi hasharotlar juda ham ko'p o'simliklarda keng tarqalib, yosh nihol poyalarini zararlab lichinkalarini yangi o'sib chiqqan o'simlik poyalarining ichki qismiga tuxumlarini qo'yib so'ng esa tuxumdan chiqqan lichinkalar oziqlanib zarar keltiradi.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani, ekologik muammo, mavsum, saksovul, hasharot, og'iz apparati morfologiya, novda, oziqlanish.

Abstract. In this article, our government pays great attention to saxaul as an important sand-retaining plant, and today saxaul forests have been established on the bottom of the Aral Sea. These types of tumor-forming insects are widespread on many plants, damaging young shoots, larvae lay eggs in the inner part of newly grown plant stems, and then the larvae hatched from the eggs feed and cause harm.

Keywords: Republic of Karakalpakstan, Muynak district, ecological problem, season, saxaul, insect, mouthparts, morphology, shoot, nutrition.

Аннотация. В данной статье наше правительство уделяет большое внимание саксаулу как важному пескоудерживающему растению, и на сегодняшний день на дне Аральского моря созданы саксауловые леса. Эти виды опухолеобразующих насекомых широко распространены на многих растениях, повреждая молодые побеги, личинки откладывают яйца во внутреннюю часть вновь выросших стеблей растений, а затем личинки, вылупившиеся из яиц, питаются и наносят вред.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Ключевые слова: Муйнакский район Республики Каракалпакстан, экологическая проблема, сезон, саксаул, насекомое, морфология ротового аппарата, побег, питание.

KIRISH

Global miqyosida iqlimning o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng muhim va ayni paytda eng xavfli muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda iqlim o'zgarishi oqibatida suv sathining ko'tarilishi, ayrim joylarda qurg'oqchilik, boshqa joylarda esa suv toshqinlari yuzaga kelishi misolida ko'rish mumkin.

Global iqlim o'zgarishi sharoitida Orol dengizining qurishi oqibatida Orol dengiziga tutash hududlarda qator ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Qurigan Orol tubidan ko'chayotgan qum va tuz respublikamizning qishloq xo'jaligi ekin maydonlariga va aholi punktlariga tarqalib, xalq xo'jaligining rivojlanishiga salbiy ekologik ta'sir ko'rsatmoqda.

Saksovul o'simligi muhim qum tutuvchi o'simlik sifatida hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilib, bugungi kunda Orol dengizi tubida saksovul o'rmonzorlari barpo etilmoqda. Hozirgi kunga kelib Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanida shu kunga qadar 1 million 950 ming gektar maydonda qora va oq saksovul o'rmonzorlari yaratilib, yana 1,6 mln gektar maydonda saksovul o'rmonzorlarini yaratish rejalashtirilmoqda [1].

Bu saksovul o'simliklarida uchraydigan zararkunandalar haqida to'liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi sababli, bu turdagi zararli organizmlarga qarshi kurashish agrotexnologiyasi ishlab chiqilmagan. Orolqum hududlarining yangi barpo etilgan saksovulzorlarida zararkunanda hasharotlar va kasalliklar (un shudring) bilan zararlanish yil sayin ortib bormoqda [2; 3].

Ulardan ayniqsa chigirtkalar, so'ruvchi kana va shish hosil qiluvchi hasharotlar hisoblanadi. Chigirtkalarning tarqalish maydonlari kengayib bormoqda. Joriy yilning bahor va yoz oylarida Orolqumning Urgu, Surgul hududlarida ilmiy izlanish va kuzatuvlar olib borildi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'rmon melioratsiyasi ishlariga jiddiy havf tug'diruvchi saksovulzorlarning xavfli zararkunandasi saksovul gallitsasi (*Cecidomyiidae*) havf tug'diradi. Bu mayda hasharotlar o'simlik to'qimalari bilan oziqlanib, patologik o'simtalar (boshloqlar) hosil qiladi, bu esa yosh daraxtlarning zaiflashuvi va nobud bo'lishiga olib keladi [7].

Qozog'istonda dunyo bo'ylab saksovuillarda ma'lum bo'lgan *Asiodiplosis* turkumining 18 turidan 12 turi topilgan. Barcha turlar uchun buyrak g'uddasimon bo'rtmalarining hosil bo'lishi xos, ammo ularning soni juda o'zgarib turadi. *A.ulkunkalkani*, *A.inornata* va *A.noxia* dominant turlar hisoblanadi. Ayrim turlar aksariyat maydonlarda yakka-yakka holda, ba'zan esa ko'plab uchraydi: *A.stackelbergi*, *A.festinans*, *A.vernsilis* [3].

Ilk bor Dog'iston galliyaliklarining sharhi taklif etilmoqda. 39 turkumga mansub 67 tur gallitsalar aniqlangan bo'lib, ulardan 41 turi Dog'iston uchun, shu



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

jumladan 13 turi Kavkaz uchun yangi hisoblanadi: *Asphondylia hornigi* Vartl, 1880, *A. menthae* Kieffer, 1902, *A. salviaflorae* Fedotova, 2003, *Lasioptera eryngii* (Vallot, 1829), *Rosomyia spiraeae* Fedotova, 1987, *Dracunculomyia saissanica* Fedotova, 1999, *Dasineura plicatrix* (Loew, 1850), *D. sisymbrii* (Schrank, 1803), *D. trifolii* (Loew, 1874), *D. tamaricicarpa* Fedotova, 1983, *Asiodiplosis hodukini* Marikovskij, 1965, *petrosimoniae* (Fedolova, 1994), *Seriphidomyia butakovi* Fedotova, 2000, shundan so'nggi 4 tasi Rossiya uchun yangi hisoblanadi. Fitofag gallitsalar (64 tur, 36 turkum) 23 oila, 46 turkum, 56 turga mansub o'simliklarda aniqlangan. Gallitsalarning 36 turkumidan 28 tasi (77,8%) o'simlik oilalariga xos, shu jumladan 28 tadan 9 tasi (32,1%) monotip [5].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Biz tadqiqotlarni 2025-2026 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani Orolqum saksovulzorlarni monitoring kuzatuv ishlari olib borildi. Monitoring kuzatuv jarayonida saksovul novdalarida ilk bora, shishish hosil bo'lgani kuzatildi va hasharotlarni yig'ishda maxsus entomologik hasharot tutqich (sachok) yordamida yig'ildi. Dala sharoitidan olib kelingan materillarimizni laboratoriya sharoitida mikroskopik tahlil qilish ishlari olib borildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Hasharotlar sinfi (*Insecta*) Ikki qanotlilar guruhi (*Dirtera*) gallitsa oilasi. (shishish hosil qiluvchi) (*Cecidomuiidae*). Ushbu turdagi shishish hosil qiluvchi hasharotlar juda xam ko'p o'simliklarda keng tarqalgan bo'lib ulardan himoya qilish darajasidagi zararli hasharot hisoblanadi. Ushbu turdagi hasharotlar o'simlikning yosh nihol poyalarini zararlab lichinkalarini yangi o'sib chiqqan o'simlik poyalarining ichki qismiga tuxumlarini qo'yib so'ng esa tuxumdan chiqqan lichinkalar oziqlanib zarar keltiradi. Etuk zotdagi shishish hosil qiluvchi hasharotlar oziqlanmaydi, yosh nihol o'simlik novdalariga tuxumlarni qo'yib bo'lgandan so'ng tabiiy nobud bo'ladi.

Ko'pchilik gallitsa turlari bir yillik generatsiyaga ega. Lichinkalari bo'rtmalar ichida qishlaydi, aprel oyida g'umbakka aylanadi, voyaga etganlari (imago) esa aprel oxiri – may oylarida uchib chiqadi. Lichinkalar yosh novdalar va barglarning shirasini so'rib oladi. Bu esa shoxlarning deformatsiyalanishiga, daraxt o'sishining sekinlashishiga va hayotchanligining pasayishiga olib keladi.

Mayda, 1-9 mm chivinlar, to'q sariq, jigarrang, sariq yoki qora rangda. Galliklar boshqa ikki qanotlilardan qanotlarining kuchli reduksiyalangan tomirlari, uzun mo'ylovlari, nozik oyoqlari bilan ajralib turadi, ularning oyoqlarining birinchi bo'g'ini (yuqori galliklar) ikkinchisidan qisqaroq. Boshi kichkina, ko'zlari yirik, fasetkali. Mo'ylovlari 8-34 bo'g'imli. Og'iz apparati turli darajada reduksiyalangan. Qanotlarining tomirlanishi soddalashgan. Oyoqlari ingichka va uzun.

Mo'ylovcha bo'g'imlari bazal yo'g'onlik va poyacha yoki oraliq poyacha bilan ajralgan ikkita tugunchadan iborat. Mo'ylov bo'g'imida o'rta va yuqori



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

o'ramlari, ba'zi turlarida esa halqasimon sezgi iplari o'ramlari mavjud bo'lib, ulardan asosiy va o'rta ko'pincha qisqargan. Ko'pchilik gallitsa turlari bir yillik generatsiyaga ega. Lichinkalari bo'rtmalar ichida qishlaydi, aprel oyida g'umbakka aylanadi, voyaga etganlari (imago) esa aprel oxiri – may oylarida uchib chiqadi.

Gallitsalar oilasining 3000 ga yaqin turi bor. Imagolarning deyarli barcha turlari oziqlanmaydi. Ko'pchilik turlarining lichinkalari fitofag, ba'zilar mitsetofag, kam sonli turlari mayda bo'g'im oyoqlilarning yirtqichlari yoki parazitlaridir. Fitofaglar ko'pincha o'simliklarning turli qismlarida bo'rtma hosil qiladi. Rivojlanishi to'liq. Ko'payishi ikki jinsli, ayrim turlarida partenogenetik, pedogeneza (lichinkalik davrida ko'payishga) qodir turlar uchraydi. Qishlash bosqichi, generatsiyalar soni va boshqa biologik ko'rsatkichlar yashash joyining turi va iqlimiga bog'liq bo'ladi.

Vegetatsiya davomida gallitsaning rangi yashil, sariq, sarg'ish-jigar rangdan qora ranggacha o'zgaradi. Oq saksovuлда uchraydigan ba'zi gallitsalar oxirgi bosqichda qizilga aylanadi. Qora va oq saksovuಲ್ಲarda rivojlanadi. Gallitsalar hamma joyda Markaziy Osiyo saksovuಲ್ಲorlarda kuzatiladi. Jumladan, Qozog'iston, Turkmanistonda Qozog'istonning cho'llarida, Orolqumda mavjud bo'lgan va yangi barpo etilgan saksovuಲ್ಲorlarda ushbu turdagi shishish hosil qiluvchi kana aprel oyidan iyun oylarigacha rivojlanadi. Har bir tup saksovuಲ್ಲda shishishdan zararlangan to'plamlar soni 50 donadan ham ortiq bo'lishi kuzatildi.

XULOSA

Cho'l hududlarida o'suvchi saksovuಲ್ಲ o'simlik turlaridan qora saksovuಲ್ಲ, oq saksovuಲ್ಲ va zaysan qari va yosh saksovuಲ್ಲarda uchratishimiz mumkin. Saksovuಲ್ಲ - Saksovuಲ್ಲ, (Haloxylon), amarantdoshlar oilasiga mansub o'simlik hisoblanadi. Saksovuಲ್ಲarning asosiy xususiyati - cho'l va sahrolardagi shamollardan pana qilib, eroziya tarqalishining oldini oladi. Bu esa hududlar cho'llanishining oldini oladi va cho'l ekosistemi saqlanib qolishini ta'minlaydi. Agar saksavuಲ್ಲarda zararlanishning birinchi belgilari aniqlansa, darhol o'simliklarni himoya qilish choralari ko'rilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Atajanov A.A., Sultashova O.G va boshq. Orolbo'yi mintaqasini iqlim ko'rsatkichlarining miqdoriy o'zgarishlarini baholash. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini ilmiy-amaliy jurnali №3 [118], 2026. 23-29 b.
2. Мамаев Б.М. Энергетические затраты саксаула на насекомых-галлообразователей // Пробл. Осв. Пустын. 1974. №2. С. 54-57.
3. Мамаев Б.М. Галлообразующие насекомые саксауловых лесонасаждений. Насекомые как компоненты биогеоценоза саксаулового леса. М.: Наука. 1975. С. 61-82.
4. Муминова Ф.А., Нагамовой С.И. Изменчивость климата Средней Азии / Под ред. -Ташкент: Главгидромет РУз, 1995. - 216 с.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

5. Федотова Z.A. Особенности формирования фаун галлиц-фитофагов (*Diptera, Cecidomyiidae*) в различных зоогеографических областях. Труды Ставропольского отделения Русского энтомологического общества, 19-29, 2018. (<https://elibrary.ru/item.asp?id=37085293>).

6. Федотова Зоя, Нахибашева Гульнара, Мухтарова Гулнара, Гасангаджиева Азиза Галлицы фитофаги (*Diptera, Cecidomyiidae*) Дагестана: фауна, биология и распространение. Юг России: экология, развитие 17 (3 (64)), 35-53, 2022 elibrary.ru (<https://elibrary.ru/item.asp?id=37085293>).

7. Яценко Р.В., Червец галловый *Acanthococcus orbiculus* Матесова, 1960. Красная книга Казахстана. Том 1. Животные. Часть 2. Беспозвоночные. 2006. Издание 3-е (тиражирование), Алматы, Онер. С.: 90-91.



UO'K: 632.911.2; 632.911.4.

ENTOMOFAGLARNI BIOLABORATORIYA SHAROITIDA YANGI EKOLOGIK XAVFSIZ USULLARDA KO'PAYTIRISH USULINI YARATISH

Abdullayev Muradjon Tursunovich 

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

e-mail: muradabdullayev1960@gmail.com

Yusupova Mahfuza Numonjonovna 

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent

e-mail: ymaxpuza@gmail.com

Xayitov Baxodir Abdulboriyevich 

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

e-mail: bahodirhayitov2266@gmail.com

Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada elektrokimyoviy faollashtirilgan suvning ishqoriy (katolit) va kislotali (anolit) muhitli qismlaridan biolaboratoriyalarda don kuyasi (*Sitotroga cerealella* Oliv) kapalagi tuxumi ko'paytirish va ishlab chiqarish xonalarini zararsizlantirishda foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari va yangi usulning samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: trixogramma, arpa doni, don kuyasi (*sitotroga cerealella oliv*) tuxumi, biologik usul, elektrokimyoviy faollashgan suv, elektrolizyor, diafragma, rN, elektrod, anolit, katolit.

Abstract. The article presents the results of experiments on the use of electrochemically activated water in alkaline (catholytic) and acidic (anolic) environments for breeding grain moth (*Citotroga cereaella Oliva*) eggs in biolaboratories and disinfecting production premises, as well as the effectiveness indicators of the new method.

Keywords: trichogram, barley grain, grain moth (*sitotroga cerealetta oliva*) egg, biological method, electrochemically activated water, electrolyzer, diaphragm, pH, electrode, anolite, katolite.

Аннотация. В статье представлены результаты экспериментов по использованию электрохимически активированной воды в щелочной (католит) и кислой (анолит) средах для размножения яиц зерновой моли (*Citotroga cereaella Oliva*) в биолaborаториях и обеззараживания





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

производственных помещений, а также показатели эффективности нового метода.

Ключевые слова: трихограмма, ячменное зерно, яйцо зерновой моли (цитотрога цереалелла олив), биологический метод, электрохимически активированная вода, электролизёр, диафрагма, pH, электрод, анолит, католит.

KIRISH

Hozirgi kunda Respublikamizning paxtachilik sohasida zarakunanda hashoratlar xususan ildiz va kusak qurtiga qarshi kurashda biologik usulda asosan trixogramma pashshasidan foydalanib kelinmoqda. Trixogramma biofabrika va biolaboratoriyalarda don kuyasi (*Sitotroga cerealella Oliv*) kapalagi tuxumi (sitatroga)da ko'paytiriladi. Don kuyasi kapalagi tuxumini ko'paytirish jarayoni asosan - arpa donini sitatroga lichinkalari bilan zararlashga tayyorlash, arpa donini sitatroga lichinkalari bilan zararlash, sitatroga lichinkalarini parvarish qilish va don kuyasi kapalaklaridan tuxum yig'ib olish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu usulda ko'paytirilgan trixogrammaning sifati, ya'ni tabiiy biologik xususiyatlarini saqlab qolishi biomahsulot ko'paytirish texnologiyasiga va laboratoriyadagi mavjud sharoitlarga (xona harorati, nisbiy namligi, xonani zararli mikroorganizmlardan tozalanganligi va boshqalar) bog'liq bo'ladi [1,2,3,4,5].

Shu o'rinda, parazit entomofaglarni biolaboratoriya sharoitida yangi ekologik jihatdan xavfsiz usullarda ko'paytirish texnologiyasini yaratish va ular uchun samarali sun'iy oziqa muhitlari ishlab chiqish, parazit entomofaglarni zararkunandalarga qarshi biologik samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish etish dolzarb hisoblanadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Biz biofabrikalarda don kuyasi kapalagi tuxumini ko'paytirish jarayonining arpa donini sitatroga lichinkalari bilan zararlash bosqichida don namligini me'yoriy sharoitga keltirish, don ozuqliligini oshirish, biolaboratoriya xonalarini zararli mikroorganizmlardan tozalash uchun oddiy vodoprovod yoki ariq suvi o'rnida elektrokimyoviy faollashtirilgan suvdan foydalanish bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazib, ijobiy natijalar olishga erishdik [6,7,8,9,10].

Dastlabki tajribamizda arpa donini sitatroga lichinkalari bilan zararlash paytida don namligini me'yoriy sharoitga keltirish uchun ishqoriy muhitdagi elektrokimyoviy faollashtirilgan suvdan ($rN=9,5-10,5$) foydalandik.

Elektrkimyoviy faollashtirilgan suv — anolit va katolitdan foydalanishning kimyoviy va biologik samaradorligi zahirida metastabil (o'ta faol) holatdagi ionlar va elektr potentsiali yotadi. Bu shunchaki suv emas, balki ma'lum vaqt davomida yuqori kimyoviy energiyani o'zida saqlab turuvchi "energetik eritma"dir.

Biolaboratoriya sharoitida don kuyasi (*Sitotroga cerealella*) yordamida trixogramma ko'paytirish jarayonida don namligini saqlash juda nozik va muhim masala hisoblanadi. Namlik darajasining buzilishi butun bir ko'paytirish siklining





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin. Tajribalar uchta variantdan iborat bo'lib, uch takroriylikda amalga oshirildi.

Tajribalarda olingan natijalarga ko'ra ishqoriy muhitga ega bo'lgan vodoprovod suvining ayrim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari elektrokimyoviy ishlov berilmagan vodoprovod suviga nisbatan tahlil qilinganda elektrokimyoviy faollashtirilgan suvning ishqoriy muhitdagi qattiqligi, xloridlar va sulfatlar miqdori me'yoriy ko'rsatkichlardan ancha pastligi, kislotali (anolit) muhitdagi qattiqligi ishqoriy muhitdagidan bir oz yuqoriligi, xloridlar va sulfatlar miqdori keskin farq qilishi aniqlandi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Elektrokimyoviy faollashtirilgan suv bilan tajribalar asosan texnologiyaning arpa donini sitatroga lichinkalari bilan zararlash bosqichida amalga oshirildi. Barcha variantlarda kyuvetalarga (oldindan qo'shimchalardan tozalanib, yuvilgan va namligi me'yoriy sharoitga keltirilgan) arpa donidan 13 kg dan 3-4 sm qalinlikda solinadi. Bunda har bir variantda tajriba uchun 8 dona kyuvetaga 13 kg dan jami 104 kg don ishlatildi. Tajriba 1.03.2021 yil kuni boshlandi. Arpa doni zararlengandan so'ng 12.03.2021 yil kuni barcha variantlardagi don namligi o'lchandi. Namlik me'yordan kamayganligi uchun 1 variantdagi donga xar 10 kg don hisobiga o'rtacha 250-300 ml oddiy vodoprovod suvi, tajriba variantlarida ham shu miqdorda elektrokimyoviy faollashgan suv (EFS) yordamida namlandi. Dastlab har bir variantdagi kyuvetalardan namuna sifatida 500 donadan don olinib, nishtar bilan yorib ko'rildi va donni zaralanish sifati aniqlandi. Bunda tegishli tartibda 1 nazorat variantida zaralanish 65% ni, 2 variantda 72%, 3 variantda esa 78% tashkil etdi. 16.03.2021 yil kundan boshlab dastlabki kapalaklar uchib siqishi kuzatilguncha xar 2 kunda 1 marta 1 variantdagi arpa doni oddiy vodoprovod suvida, qolgan variantlar EFS bilan namlab turildi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki 1 (nazorat) variantdagi boksga olingan arpadan 633 g, 2 variantdagi (pH=9-9,5) arpadan 655 g, 3 variantdagi (pH=10-10,5) arpadan esa 686 g sitatroga tuxumi olindi.

Natijalar arpani namlash jarayonida elektrokimyoviy faollashtirilgan suvning ishqoriy pH=10-10,5 muhitga teng bo'lgan qismidan foydalanilgan 3 variant nazorat variantiga nisbatan o'rtacha har 104 kg dondan 53 g ortiq sitatroga tuxumi olish imkoniyatini beradi.

Elektrokimyoviy faollashgan suvning kislotali muhiti (pH=3-4,5) asosida don namligini me'yorlashtirish va biolaboratoriya xonasini zararli mikroorganizmlardan tozalash borasidagi tajribalar 3 ta variantdan iborat bo'lib, uch takroriylikda 3 ta (xajmi 72 m³ va namlash maydoni 24 m²) laboratoriya xonasida o'tkazildi.

Tajribalar dastlab laboratoriya xonasi havosi va zararlash uchun qo'yilgan arpa tarkibidagi zarali mikroorganizmlarni o'rganishdan boshlandi. *Buning uchun* bevosita ishlab chiqarish boshlangan va tajriba o'tkazish uchun ajratilgan 3 ta laboratoriya xonasi havosi va zararlash uchun qo'yilgan arpa tarkibidagi zarali mikroorganizmlar miqdori o'rganildi. Tadqiqot natijalari nazorat uchun tanlangan





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

1- laboratoriya xonasi havosi tarkibida 25% gramm musbat va 7% gramm manfiy kokklar, tajriba uchun tanlangan 2-laboratoriya xonasi havosi tarkibida 24% gacha gramm musbat va 6% gramm manfiy kokklar va 3-laboratoriya xonasi havosi tarkibida 25% gacha gramm musbat va 7% gramm manfiy kokklar borligini aniqlandi.

Havo tarkibida bo'lgan mikroorganizm shartli ravishda laboratoriyadagi zararlash uchun qo'yilgan arpa doni tarkibida xam mavjud bo'ladi. Shu munasabat bilan ishlab chiqarish jarayonidagi zararlash uchun quyilgan arpadan ham undagi zararli mikroorganizmlar miqdorini aniqlash maqsadida 11.02.2021 yil kuni tajribalar o'tkazilayotgan 3 ta laboratoriya xonasidagi zararlash uchun qo'yilgan arpa donidan 100 grammdan namunalar olindi va tegishli tartibda tahlil etildi. Tadqiqot natijalari nazorat uchun tanlangan 1- laboratoriya xonasi arpa doni tarkibida 26% gramm musbat va 8% gramm manfiy kokklar, tajriba uchun tanlangan 2 laboratoriya arpa doni tarkibida 25% gacha gramm musbat va 7 % gramm manfiy kokklar va 3- laboratoriya xonasi arpa doni tarkibida 26 % gacha gramm musbat va 7% gramm manfiy kokklar borligini isbotladi. Bu natijalardan ko'rinadiki, tajriba uchun tanlangan barcha variantlardagi xonalarda zararlash uchun tayyorlangan arpa donida mikroorganizmlar miqdori deyarli bir xil.

Ishlab chiqarish jarayonida tajribaga qadar laboratoriya xonasi havosi va zararlash uchun qo'yilgan arpa tarkibidagi zarali mikroorganizmlarni aniqlangandan so'ng, mavjud mikroorganizmlarga kislotali muhitga ega elektrokimyoviy faollashtirilgan suvning ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirdik.

Tajribalarda amaldagi usul asosida nazorat varianti sifatida tanlangan 1 variant 1 – laboratoriya xonasi havosi ventilyasiya yordamida shamollatilib, don namligini me'yorlashtirishda oddiy vodoprovod suvida amalga oshirildi. 2 variant 2-laboratoriya xonasi havosini zararsizlantirish va don namligini me'yorlashtirish uchun elektrokimyoviy faollashgan suvning kuchli kislotali muhitga ega ($rN=3-3,5$) bo'lgan qismi bilan va 3 variant 3-laboratoriya xonasi havosini zararsizlantirish va don namligini me'yorlashtirish uchun elektrokimyoviy faollashgan suvning kuchsiz kislotali muhitga ega ($rN=4-4,5$) bo'lgan qismi ishlov berib borildi. Ishlov berish ikki bosqichda amalga oshirilib, birinchi bosqichda xona havosi arpa doni zararlash uchun qo'yilgan kundan boshlab 10-12 kun davomida arpa doniga tekkizmagan holda elektrokimyoviy faollashgan suvni purkash asosida amalga oshirildi. Bunda bir marta ishlov uchun 1 m^3 hajmga 10 ml jami bir marta ishlov uchun 72 m^3 hajmli laboratoriya xonasiga 720 ml va bir ishlab chiqarish davri uchun jami 3600-4320 ml elektrokimyoviy faollashtirilgan suv ishlatildi.

Ikkinchi bosqichda arpa donini zararlash uchun qo'yilgan tuxumlardan lichinkalar chiqqanidan keyin har 4-5 kunda bir marta (har bir kyuvetaga 300 ml hisobida elektrokimyoviy faollashgan suvning kilotali muhitga ega bo'lgan qismi bilan namlab me'yorlashtirish asosida amalga oshirildi.

Birinchi bosqich bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari nazorat uchun tanlangan 1-laboratoriya xonasi havosi tarkibida 25% gramm musbat va 6% gramm



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

manfiy kokklar, tajriba uchun tanlangan 2-laboratoriya xonasi havosi tarkibida 14% gramm musbat va 4% gramm manfiy kokklar va 3-laboratoriya xonasi havosi tarkibida 16% gramm musbat va 4% gramm manfiy kokklar borligini ko'rsatdi. Bundan ko'rinadiki, kuchli kislotali muhitga ega bo'lgan elektrokimyoviy faollashgan suv ($rN=3-3,5$) bilan ishlov berilgan 2-laboratoriya xonasi zararli mikroorganizmlardan boshqa variantlarga nisbatan yaxshi tozalangan.

Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish uchun ishlatilayotgan arpa donlariga undagi mikroorganizmlarga qarshi kurashish va bir vaqtning o'zida don namligini me'yorlashtirish uchun arpa zararlangan kundan arpa doni qiziy boshlagandan so'ng xar bir kyuvetaga 300 ml xisobida nazorat variantida oddiy vodoprovod suvi yordamida va tajriba variantlarida elektrokimyoviy faollashtirilgan suvning kislotali qismi bilan ishlov berildi.

Zararlangan arpa donidan birlamchi kapalaklar uchishi kuzatilishi bilan undagi zarali mikroorganizmlar miqdorini aniqlash uchun har bir xonadan 100 gramdan namunalar olindi va bakteriologiya laboratoriyasida tahlil qilindi. Tahlil natijalari nazarat uchun tanlangan 1-laboratoriya xonasidagi arpa na'munasi tarkibida 26% gacha gramm musbat va 8% gramm manfiy kokklar, tajriba uchun tanlangan 2 laboratoriya xonasidagi arpa doni tarkibida 16% gacha gramm musbat va 4% gramm manfiy kokklar va 3-laboratoriya xonasidagi arpa doni tarkibida 20% gacha gramm musbat va 5% gramm manfiy kokklar borligini aniqlandi. Bundan ko'rinadiki, kuchli kislotali muhitga ega bo'lgan elektrokimyoviy faollashgan suv ($rN=3-3,5$) bilan ishlov berilgan 2-laboratoriya xonasidagi zarlash uchun ishlatilgan arpa doni zarali mikroorganizmlardan boshqa variantlarga nisbatan yaxshi tozalangan.

Tajriba davomida har bir variantdagi kyuvetalardan namuna sifatida 500 donadan don olinib, nishtar bilan yorib ko'rildi va donni zaralanish ko'rsatkichi aniqlandi. Bunda tegishli tartibda 1 nazorat variantida zaralanish 68% ni, 2 variantda 82%, 3 variantda esa 76% tashkil etdi.

XULOSA

- arpani namlash jarayonida elektrokimyoviy faollashtirilgan suvning ishqoriy ($pH=10-10,5$) muhitga teng bo'lgan qismidan foydalanilganda o'rtacha har 104 kg dondan amaldagi usulga nisbatan 53 g ortiq sitatroga tuxumi olish imkoniyatini beradi va ishlab chiqarish samaradorligi 8-10 % ortadi;

- elektrkimyoviy faollashgan suv - oddiy suvdan farq qiladigan biologik faol ionlar va yuqori energiyaga ega bo'lgan suyuqlikdir. Suvning qattiqligini fizik jihatdan yumshatish, rN darajasini fermentlar uchun maqbul qilish va ion tarkibini "qo'zg'algan" holatga o'tkazish orqali bu usul don kuyasining rivojlanishini barcha bosqichlarda stimulyasiya qiladi;

- faollashtirish asosida hosil qilingan ishqoriy muhit don tarkibidagi kraxmalni parchalaydigan fermentlar (amilazalar) faolligini stimulyasiya qiladi va oson hazm bo'ladigan shaklga o'tadi. Bu lichinkalarning metabolizmini





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

tezlashtiradi, o'sishini faollashtiradi va natijada ish kunining qisqarishiga olib keladi;

- elektrokimyoviy faollashtirilgan suvning kislotali muhitga ($rN=3-3,5$) ega bo'lgan qismidan laboratoriya xonalarini zararli mikroorganizmlardan tozalashda foydalanish, kimyoviy ishlov berishdan farqli ravishda bevosita ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirilishi bilan samaralidir;

- arpa donidan don kuyasi kapalagi tuxumi ko'paytirishda xona havosini va arpa donini elektrokimyoviy faollashtirilgan suvning kuchli kislotali muhitga ($rN=3-3,5$) ega bo'lgan qismi bilan ishlov berish ishlab chiqarish samaradorligini 12-15% ga oshiradi va ish kunini tejaydi.

ADABIYOTLAR

1. Xo'jayev Sh.T., Xolmurodov E.A. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan – Toshkent 2014. 567 B.

2. Anorbayev A.R. Trichogramma chilonis g'o'za tunlami tuxumiga qarshi samarali vositadir // J. O'simliklar himoyasi va karantini. – Toshkent, 2010. № 01(3).-38 b.

3. Sulaymonov B.A., Anorbayev A.R., Rashidov M., Mamaraximova N. Trixogrammaning yangi *Trichogramma chilonis* turi xususiyatlari // J. Agro ilm. – Toshkent, 2011. -№ 1(17). – B. 28-29.

4. Kimsanboyev X.X., Anorbayev A.R., Jumayev R.A. Biolaboratoriyalarda trixogrammani sun'iy oziqa muxutlarida o'stirish texnologiyasi // O'zMU Xabarlar. № 3/2 – 2016. –B 12-15.

5. Жумаев Р.А. Массовое размножение трихограммы на яйцах хлопковой совки в условиях биолaborатории и ее применение в агробиоценозах // Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya "O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarining ustunligi" maqolalar to'plami. Toshkent: 2016 –B. 193-196.

6. Abdullayev M.T., Xayitov B.A., Yusupov D.F., Raxmonov Sh.T., Tursunov M.M. Don kuyasi tuxumlarini olish usuli. O'zbekiston Respublikasi Intellektual Mulk Agentligi Patent №IAP 06805. 31.03.2022 y..

7. Abdullayev M.T., Xayitov B.A., Yusupov D.R., Muxammadiyev A., Ergashev G., Arpa donida don kuyasi tuxumlarini olish usuli". O'zbekiston Respublikasi Intellektual Mulk Agentligi Patent № IAP 8049. 08.05.2025 y..

8. Abdullayev M.T., Xayitov B.A. Biolaboratoriya xonalarini va arpa donini zararsizlantirishda elektrokimyoviy ishlov berilgan kislotali suvdan foydalanish// FarPI Ilmiy texnika jurnali, maxsus son №4, 2023 yil, 179-182 b.

9. Yusupova, M. N., Turgunova, A. N., & Ochilov, S. N. (2015). Sistema integrirovannoy zaщity rasteniy. Rossiyskiy elektronnyy nauchnyy jurnal, (1), 199-204.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

10. Yusupova, M. N., & Gapparov, A. M. (2020). Biological method of plant protection in Uzbekistan. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 2(11), 29-32.
11. Yusupova, M. N. (2018). Biological method of crop protection in the fergana valley. Agrarian science, (6), 68-70.
12. Khodzhaev, S. T., Yusupova, M. N., Yuldashev, F., & Zhamalov, A. G. (2010). Cotton bollworm in the post harvest crops.



УДК: 632.95:633.71

МЕРОПРИЯТИЯ ПО ОПТИМИЗАЦИИ БИОЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТИ ФИТОФАГОВ ТАБАКА

Файзуллаев Бурхон 

старший научный сотрудник, кандидат биологических наук, доцент
Самаркандский региональный филиал Научно исследовательского института
карантина и защиты растений

e-mail: fayzullaevburhon@gmail.com

Эргашев Шавкат Муродович 

директор филиала, д.ф.с-х.н. (PhD)

e-mail: shavkat.ergashev.2023@mail.ru

Хурсанов Хайрулла Джуракулович 

старший преподаватель, д.ф.с-х.н. (PhD)

Самаркандский институт агроинновации и исследований

e-mail: xursanovx@mail.ru

Аннотация. В статье приведены многолетнее данные по изучению вредителей на табачном агробиоценозе, их влиянии на урожай и качество табака. Разработаны основы интегрированной борьбы с вредителями.

Ключевые слова: хлопковая совка, табачный трипс, персиковая тля, интегрированная борьба, урожайность, качество.

Abstract. The article provides long-term data on the study of sucking pests on tobacco agrobiocenosis, their impact on the yield and quality of tobacco.

Keywords: tobacco thrips, peach aphid, integrated tobacco pest control.

Annotatsiya. Maqolada tamaki agrobiosenozidagi zararkunandalarni o'rganish bo'yicha ko'p yillik ma'lumotlar keltirilgan, ularni tamaki hosili va sifatiga ta'siri aniqlangan. Zararkunandalarga qarshi uyg'unlashgan kurash asoslari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: g'o'za tunlami, tamaki tripsi, shaftoli biti, uyg'unlashgan kurash, hosildorlik, hosil sifati.

ВВЕДЕНИЕ

В табачных агробиоценозах наблюдается процесс устойчивого нарастания количества опасных фитофагов. При этом вспышки массового





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

размножения вредителей, приносящие многомиллионные убытки, отмечаются практически ежегодно. Они на табачных плантациях нередко превышает пороговую и достигают уровня, соответствующего чрезвычайной ситуации.

Разработка эффективных безопасных способов сдерживания вредных организмов при выращивании урожая является одним из основных элементов экологизированной системы защиты табака. Рациональные системы защитных мероприятий и их планирование определяется фитосанитарным состоянием табака и культур табачного севооборота. При этом основными показателями является степень распространения и вредоносность основных фитофагов табака. Фитофаги не только снижают урожайность, но и резко ухудшает качество табака. Вредители повреждают в среднем 20-25% растений, при массовом повреждении достигает более 50% [1,3].

Исследования процессы формирования энтомокомплексов в агробиоценозе и на табачных плантациях позволяет выделить основные периоды развития табака с присущим каждому из них специфическим и специализированным комплексом вредителей.

На табачных плантациях из наземных фитофагов большую распространенность имеет сосущие и листогрызущие насекомые. Особо опасными вредителями табака является табачный трипс *Thrips tabaci* Lind. и персиковая тля *Myzodes persicae* Sulz. Кроме этого на табачных полях встречается хлопковая совка *Helicoverpa (Heliothis) armigera* Hbn., который отрицательно влияет на урожай, качество не только листа, но и семенного материала.

Как известно, хлопковая совка относится к числу многоядных вредителей. В отдельные годы при массовом размножении вредитель причиняет значительный ущерб табаководству. С увеличением температуры воздуха вредоносность гусениц возрастает. Так, в начале цветения растений табака хлопковая совка повреждает более 80% плодоеlementов. Даже в октябре наблюдается повреждение вредителем. В условиях Ургутского района Самаркандской области в течении 2017-2018 гг. численность гусениц достигала 8-12 шт/раст., что в 7-8 раз превышало экономического порога вредоносности, при этом поврежденность растений достигало 95%.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

В последние годы в Ургутском районе Самаркандской области увеличилось площади под овощными культурами (помидор, перец, баклажаны, нут) и кукурузой, которые являются основными кормовыми растениями этого вредителя. Поэтому, начиная с 2016 года заметно увеличилось вредоносность хлопковой совки на табачных плантациях региона. Ежегодные потери урожая листьев, вызываемые вредителями, составляют от 10 до 40%. В отдельные годы хлопковая совка полностью уничтожает семенную продукцию табака. Нередко, при уборке соцветий, в



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

коробочках остаются гусеницы, которые продолжают повреждать семена на складах вплоть до обмолота.

Персиковая тля *Myzodes persicae* (сем. Тли- *Aphididae*) повреждает более 500 видов растений, относящихся к 30 семействам. Большие колонии встречается на табачных полях граничащих с фруктовыми садами, на которых она зимует и в начальное время развивается. В условиях Ургутского района Самаркандской области продолжительность жизни насекомого 22-26 дней. Плодовитость 30-90 личинок. При сильным заселении тлей урожайность табака снижается на 25-30 % и ухудшается качество табака более 50% (4).

Персиковая тля является переносчиком вирусных заболеваний табака. Для инфицирования растений Y- вирусом картофеля достаточно питаться на табаке всего 10 секунд [2].

Табачный трипс *Thrips tabaci* – зимует в верхнем слое почвы и под растительными остатками в фазе взрослого насекомого. На растениях начинает появляться при температуре воздуха выше 10⁰С. Цикл развития трипса (яйцо- имаго) – 15-20 дней. В условиях Узбекистана у трипса может быть от 6 до 8 поколений.

Табачный трипс повреждает рассады табака и пересаженный растение в поле, питаясь соком листьев, при этом листья становится хрупкими, что снижает химико-технологические качества сырья. Кроме этого, табачный трипс является переносчиком вирусы бронзовости томата. Исследования показали, что в условиях табачного региона Узбекистана в качестве пороговой величины установлено 10-15 экз. на одно растение табака.

В результате многолетних научно- исследовательских работ были разработаны экологизированная системы защиты табака от вредителей. Она включает биорациональные технологии и безопасные биологические, профилактические и малоопасные химические средства. Альтернативные методы сдерживания вредителей включают в себя организационно-хозяйственные, агротехнические, механические и биологические мероприятия.

Из приемов агротехники, обеспечивающих разрыв трофических связей и препятствующих развитию вредителей входит: эффективное чередование культур в севообороте; внедрение промежуточных культур; рациональное применение минеральных удобрений; оптимальные сроки и схемы посадки табака; эффективные использовании поливной воды; своевременные и качественное проведении обработки почвы; проведении подчистки вершкования и пасынковании табака.

Биологический метод борьбы с сосущими вредителями табака основан на использовании хищных насекомых златоглазки (*Chrysopa carnea Steph*) и бракона (*Bracon telengai*) [5].



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Нами установлено, высокая инсектицидная активность против сосущих вредителей водного экстракта отходов табака, лука, чеснока и корень подорожника.

Следует отметить, рекомендованные мероприятия составляют лишь часть экологизированной системы защиты табака от вредных организмов и их целесообразно использовать в комплексе с различными химическими средствами. На табачных плантациях Ургутского района Самаркандской области в течение ряда лет для снижения вредоносности вредителей табака испытывались инсектициды различных химических классов и было рекомендовано в производство: конфидор 20% к.э – норма расхода 0,20 л/га; ланнейт 20L с.п - норма расхода 2,0 кг/ га; бензофосфат 30% с.п норма расхода 2,5 кг/ га. Данные препараты не оказывали фитотоксического действия на табачного растения.

ВЫВОДЫ

Массовое распространение в табачном агробиоценозе имеют фитофаги: хлопковая совка - *Helicoverpa* (*Heliothis*) *armigera* Hbn., персиковая тля - *Myzodes persicae* и табачный трипс - *Thrips tabaci*, последние которые является переносчиками вирусных и микоплазменных заболеваний.

Выявлено, что данные вредители являются актуальными фитофагами для табака в условиях Узбекистана. Их вредоносность проявляется в задержке роста и развитие растений, снижение урожая и ухудшение качества табачного сырья и семян. Разработанная система сдерживания численности вредителей табака включает в себя реализацию системы агротехнических и предупредительных мероприятий, применение биологических и малоопасных химических средств защиты растений.

ЛИТЕРАТУРА

1. Иваненко Б.Г. Прогноз и развития болезней и вредителей табака /Б.Г.Иваненко, С.П. Киселева, О.А.Богдасарова // Табак.-1987.
2. Тайманов Ш. И. Биолого - токсикологическое обоснование рационального применения инсектицидов для борьбы с вредителями табака в Таджикистане. //Автореф. дисс... канд. с. -х. наук.- Ленинград, 1987.
3. Ткач М.Т Защита табака от вредителей и болезней /М.Т.Ткач, А.П. Гроссу.- Кишинев: Картя Молдовеняскэ, 1987.
4. Умурзаков Э.У., Ахмедов С.И. Влияние сосущих вредителей на урожай и качество табака в Узбекистане.//Актуальные проблемы современной науки, Москва, 2018.
5. Умурзаков Э.У., Ахмедов С.И. Энтомофаги сосущих вредителей в табачном агроценозе и их роль в регулировании численности вредителей. //Сборник научных трудов института (ФГБНУ), Всероссийский НИИ табака и табачных изделий, Россия, Краснодар, 2016.





ZARARKUNANDALAR VA
ULARGA QARSHI KURASH

ВРЕДИТЕЛИ И
БОРЬБА С НИМИ

PESTS AND CONTROL
AGAINST THEM



KARTOSHKKA O'SIMLIGINI KOLORADO QO'NG'IZIDAN HIMOYA QILISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALI ULTRATOVUSH QURILMASIDAN FOYDALANISH

Abdikarimov Abdiraxim Abdijabbor o'g'li 

“TIQXMMI” MTU tayanch doktoranti

e-mail: addiraximabdikarimov@gmail.com

Bayzakov Taxir Mirzanovich 

“TIQXMMI” MTU Elektrotexnologiya va elektr uskunalar ekspluatatsiya kafedrası dotsenti

e-mail: bayzakov1955@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligini rivojlantirish, kartoshka yetishtirish samaradorligini oshirish hamda kartoshka ekinlariga jiddiy zarar yetkazuvchi Kolorado qo'ng'iziga qarshi kurashish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda Kolorado qo'ng'izining morfologik tuzilishi, biologik xususiyatlari va kartoshka o'simligiga yetkazadigan zarari bo'yicha ilmiy ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur zararkunandaga qarshi ekologik xavfsiz va innovatsion usullardan biri sifatida ultratovush tebranishlaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Ilmiy manbalar asosida ultratovushning biologik obyektlarga ta'sir mexanizmlari, hasharotlarning fiziologik holati va xatti-harakatlariga ko'rsatadigan ehtimoliy ta'siri hamda laboratoriya sharoitida olingan tajriba natijalari umumlashtirilgan. Ultratovush inson eshitish diapazonidan yuqori bo'lgan, odatda 20 kHz dan yuqori chastotali tovush to'lqinlari sifatida tavsiflanadi.

Maqolada ultratovush tebranishlarining Kolorado qo'ng'izi tomonidan sezilishi mumkinligi hamda ularning hasharot organizmida turli biologik o'zgarishlarni yuzaga keltirishi ehtimoli asoslab berilgan. Ultratovush to'lqinlari biologik tizimlarda, xususan, hujayra membranasi, nerv tizimi va ichki organlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu ta'sir natijasida hasharotlarning harakatlanish faolligi, oziqlanishi va o'simlikka zarar yetkazish xususiyati buzilishi ehtimoli mavjud. Shu jihatdan ultratovush tebranishlaridan foydalanish Kolorado qo'ng'iziga qarshi kurashishda kimyoviy vositalarga nisbatan ekologik xavfsiz, energiya tejamkor va istiqbolli elektrofizik usullardan biri sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Kolorado qo'ng'izi, kartoshka, bargxo'rlar, imago, lichinka, ultratovush to'lqinlari, zararkunanda, ekologik xavfsizlik, biologik himoya, agro texnik usullar.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Abstract: This article addresses the development of agriculture, the improvement of potato cultivation efficiency, and the protection of potato crops against the Colorado potato beetle, one of the most harmful pests of this crop. The study analyzes scientific information on the morphological structure and biological characteristics of the Colorado potato beetle, as well as the nature of the damage it causes to potato plants. In addition, the article considers the potential use of ultrasonic vibrations as an environmentally safe and innovative method for controlling this pest. Based on scientific sources, the paper summarizes the mechanisms of the biological effects of ultrasound on living organisms, its possible influence on the physiological state and behavioral responses of insects, and the results of laboratory experiments. Ultrasound is characterized as sound waves with frequencies above the human hearing range, generally exceeding 20 kHz.

The article substantiates the possibility that Colorado potato beetles may perceive ultrasonic vibrations and that such exposure may induce various biological changes in the insect organism. Ultrasonic waves may affect biological systems, particularly cell membranes, the nervous system, and the functioning of internal organs. As a result, ultrasound exposure may disrupt insect locomotor activity, feeding behavior, and their ability to damage potato plants. Therefore, the use of ultrasonic vibrations is considered an environmentally safe, energy-efficient, and promising electrophysical method for controlling the Colorado potato beetle compared with conventional chemical plant protection measures.

Keywords: Colorado potato beetle, potato, leaf beetle, imago, larva, ultrasonic waves, pest, environmental safety, biological protection, agrotechnical methods.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы развития сельского хозяйства, повышения эффективности возделывания картофеля, а также защиты картофельных посевов от колорадского жука, являющегося одним из наиболее опасных вредителей данной культуры. В работе проанализированы научные сведения о морфологическом строении, биологических особенностях колорадского жука и характере наносимого им вреда растениям картофеля. Кроме того, рассмотрены возможности применения ультразвуковых колебаний как одного из экологически безопасных и инновационных методов борьбы с данным вредителем. На основе анализа научных источников обобщены механизмы биологического воздействия ультразвука на живые организмы, его возможное влияние на физиологическое состояние и поведенческие реакции насекомых, а также результаты лабораторных исследований. Ультразвук характеризуется как звуковые волны с частотой выше диапазона слышимости человека, обычно превышающей 20 кГц.

В статье обоснована возможность восприятия ультразвуковых колебаний колорадским жуком, а также вероятность возникновения различных биологических изменений в организме насекомого под их воздействием. Ультразвуковые волны могут оказывать влияние на



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

биологические системы, в частности на клеточные мембраны, нервную систему и функционирование внутренних органов. В результате такого воздействия возможно нарушение двигательной активности, питания и способности насекомых повреждать растения картофеля. В связи с этим применение ультразвуковых колебаний рассматривается как экологически безопасный, энергоэффективный и перспективный электрофизический метод борьбы с колорадским жуком по сравнению с традиционными химическими средствами защиты растений.

Ключевые слова: колорадский жук, картофель, листоед, имаго, личинка, ультразвуковые волны, вредитель, экологическая безопасность, биологическая защита, агротехнические приемы.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish masalalari ko'zda tutilgan.

Ushbu qonunda har bir hududda kamida bittadan agrologistika markazlari barpo etilishi va mazkur markazlarda xalqaro bozorlarda tan olingan sifat sertifikatlarini olish imkoniyati yaratilishi haqida bayon etilgan. Xalqaro bozorlarda tan olingan sifat sertifikatlarini olish o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi albatta. Buning uchun qishloq xo'jaligida ancha samarali texnologiyalarni qo'llash orqali sifatli oziq-ovqat yetishtirishga erishish mumkin. Respublikamiz hududlarida 2025-yil hosili uchun jami 237 ming gektar maydonga kartoshka ekilgan. Shundan 97 ming gektari fermer xo'jaliklari, 140 ming gektari esa dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalari hissasiga to'g'ri kelgan. Milliy statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda respublikadagi barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 160 185 tonna kartoshka yetishtirilgan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan 0,2 foizga ko'pdir. Bugungi kunga kelib qishloq xo'jaligida sifatli mahsulot yetishtirish, albatda bir qancha zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish texnikisi va usullarini bilishni taqozo etadi. Kimyoviy insektitsidlardan foydalanish keng tarqalgan bo'lsa-da, ularning ekologik salbiy ta'siri, hasharotlarda rezistentlikning paydo bo'lishi va bio xilma-xillikka zarar yetkazishi sababli, alternativ usullarni joriy etish dolzarb masalaga aylandi. Shular qatorida, ultratovush texnologiyasi istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilmogda.

Kolorado qo'ng'iziga qarshi kurashishning samarali texnikasini ishlab chiqish va kartoshka ekinlaridan yuqori va barqaror hosilni olishni ta'minlash. Kolorado qo'ng'iziga qarshi kurashishda, qo'ng'izning yuqori unumdorligi, tuxum qo'yish davrining uzoq davom etishi, lichinkalarning chiqishi va rivojlanishi, populatsiya, avlodlar sonining beqarorligi kabi ko'plab omillarga duch kelishimiz mumkin. Ultratovush 20 kHz dan yuqori chastotali tovush tebranishlaridir. Biologik






AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

sistemalarda u mikrovibratsiyalar, rezonansta o'zgarishlar va harakat koordinatsiyasida buzilishlar keltirib chiqaradi.

Hasharotlarning tanasi juda sezgir, ayniqsa ularning antennasi va muvozanat saqlash organlari (statotsistlar) ultratovushga ta'sirchan bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 20-40 kHz diapazonidagi ultratovush Kolorado qo'ng'izi uchun stress holati hosil qiladi va uni oziqlanishdan to'xtatadi, va bu zararkunandalarni deyarli 100% yo'q qilish imkonini beradi.

MATERIALLAR VA USULUBLAR

Kolorado qo'ng'izi bargxo'rlar turkumining qo'ngizlar oilasiga mansub hasharot, ashaddiy xavfli o'simlik zararkunandasi. Tanasi uzunligi 9 - 12 mm, yelka va ust qanoti sarg'ish yoki sarg'ish - qizil, oldingi yelkasida 12-14 ta qora dog'lari bor, qanoti ustidan 5 ta qora chiziq o'tgan. Tuxumining kattaligi 1,2-1,8 mm, qurtining uzunligi 15-16 mm, Pushti - qizil, g'umbagi 10-12 mm. Kolorado qo'ng'izi tuproqda (20-50 sm chuqurlikda) qo'ng'izlik davrida qishlab, aprel oyida qishlovdan chiqadi va o'simliklar bilan oziqlanadi. Tuxumlarining rivojlanishi 3-5 kun, g'umbagini 6-9 kun. Tuxumdan chiqqan qurtlar 20 kun atrofida o'simliklar bargi bilan oziqlanadi va tuproqda g'umbakka aylanadi. 1-2 havftadan so'ng yosh qo'ng'izlar paydo bo'ladi, barg bilan oziqlanib, yana tuxum qo'yadi (1-rasm).



1-rasm. Kolorado kartoshka qo'ng'izining 1 va 2-bosqich tuxumlari va lichinkalarining rivojlanish bosqichlari.

Kolorado kartoshka qo'ng'izi kartoshka barglarini to'liq yeb, o'simlikni nobud qiladi. Bu esa hosilning kamayishiga yoki butunlay yo'qolishiga olib keladi. Ayniqsa lichinkalar bosqichi juda xavfli hisoblanadi, chunki ular tez o'sadi va juda ochko'z bo'ladi. Ba'zi hollarda zararlanish natijasida hosil 70-80 foizgacha kamayadi.

Kimyoviy usul: Insektitsidlar (masalan, imidakloprid, lambda-siglotrin) yordamida qo'llaniladi, ammo bu usul ekologik xavf tug'diradi.


Mexanik usul: Qo'ng'izlar va lichinkalarni qo'lda terib olish.

Agrotexnik usul: Erta ekish, o'z vaqtida chopiq qilish, navlarni almashtirish, tuproqni chuqur haydash va ekish joyini almashtirish.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Elektrofizik usullar: So'nggi yillarda qo'ng'izlarga qarshi elektrofizik vositalar, masalan, elektromagnit nurlanish, yuqori chastotali tebranishlar yoki elektrostatik maydonlardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu usullar kimyoviy pestitsidlardan farqli o'laroq, atrof-muhit va inson salomatligi uchun xavfsizroq hisoblanadi. Ayniqsa Ultratovush to'lqinlari qo'ng'izlarning ko'payish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (2 rasm).



2-rasm. Kolorado qo'ng'izlarini tuxum quyishi va rivojlanishi

O'simliklarning o'sishiga ta'siri: Ultratovush to'lqinlari o'simliklar va ular bilan aloqada bo'lgan zararkunandalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'zgartirishi mumkin. O'simliklar ultratovush to'lqinlarini sezishlari va ular bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin, bu esa o'simliklarning o'sishiga ta'sir etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim o'simliklar, ayniqsa, kartoshka kabi o'simliklar, ultratovushga qarshi nisbatan o'ziga xos reaksiyalarni bildirishi mumkin. Bu jarayonlarda o'simliklar o'zining himoya mexanizmlarini faollashtiradi, natijada o'simliklar zararkunandalar tomonidan minimal darajada zarar ko'radi.

Hasharotlarning fiziologik reaksiyalari: Ultratovush to'lqinlarining uzun vaqt davomida ta'sir qilish, hasharotlarning nerv tizimi, ayniqsa, ular orqali sezgirlik va harakatlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu ko'plab hasharotlar uchun salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning fiziologik xususiyatlarini, shu jumladan, oziq-ovqat qidirish va juftlashuv faoliyatlarini kamaytiradi.

Ultratovushning harakatga ta'siri: Ultratovush to'lqinlari hasharotlarning harakatini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Ultratovushning kuchli impulslari, hasharotlarning organlarini bezovta qilib, ularni yo'nalishdan chetlashtiradi. Shu bilan birga, bu o'zgartirishlar hasharotlarni o'zining tabiiy muhitidan yoki oziq-ovqat manbalaridan chetlatishga olib keladi. Kolorado



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

qo'ng'izi kabi zararkunandalar ultratovush ta'sirida noqulay va xavfli hududlarga yo'naladi, natijada ular o'simliklarga zarar yetkazishda davom etolmaydi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Kolorado qo'ng'izi kartoshka yetishtiruvchilari uchun eng xavfli zararkunandalardan biridir. Uning faolligi ayniqsa baxorgi mavsumda yuqori bo'lib, bu vaqt ichida kartoshka ekinlariga katta zarar yetkazishi mumkin. Ultratovush to'lqinlari bu zararkunandalarni nazorat qilishda samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Tadqiqotlar va amaliyotda ultratovush yordamida Kolorado qo'ng'izlarining:

Harakatini buzish, O'simliklar ustiga yopishishini kamaytirish, Juftlashuv faoliyatini pasaytirish mumkinligi aniqlangan, Kartoshka o'simligi barglarini yeyishiga to'sqinlik qilishi.

2026-yil bahor mavsumida Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Siroj Sanjar Abdiraxim fermir Xujaligi kartoshka dalasida umumiy maydoni 200 m² maydonda tajribalar olib borildi. Kartoshka ekinlarini Kolorado qo'ng'izi zararlanishidan himoya qilish maqsadida mustaqil ishlovchi, quyosh energiyasida ta'minlanadigan maxsus qurilma yaratildi. Qurilma dala sharoitida vertikal o'rnatilgan metall tayanch ustuniga joylashtirilgan bo'lib, uning yuqori qismida umumiy quvvati 20 Vt bo'lgan quyosh paneli o'rnatilgan. Paneldan hosil bo'lgan 18 V kuchlanish va 1,16 A tok kuchi yordamida DOXIN rusumli inverter quvvatlanadi. Ushbu inverter 12 V doimiy kuchlanishni 220 V o'zgaruvchan kuchlanishga aylantirib, ultratovush generatorining barqaror ishlashini ta'minlaydi. Kechki vaqtlarda qurilma 12 V kuchlanish va 27 A tok kuchiga ega akkumulyator batareyasi hisobiga ishlash imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa kunning qorong'i paytlarida ham Kolorado qo'ng'izining faoliyatiga ultratovush to'lqinlarining ta'sirini kuzatish imkonini beradi. Qurilmaning ultratovush generatori dala maydoniga tarqatilgan tovush vibratsiyalari orqali hasharotlarning oziqlanish va xatti-harakatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur konstruktsiya ekologik jihatdan toza, elektr tarmoqlariga ulanmagan holda ishlashi mumkin bo'lgan mustaqil energiya manbaiga asoslangan bo'lib, kartoshka maydonlarida kalorado qo'ng'iziga qarshi kurashda samarali bo'lishi kutilmoqda (3 rasm).

Ultratovush to'lqinlari 20-40 kHz diapazonida chiqarildi. Kolorado qo'ng'izi tovush vibratsiyalariga sezgir bo'lgani sababli, ularning harakat va juftlashuv faoliyati sezilarli darajada pasaydi. Tovush manbalari kartoshka qatorlari orasiga o'rnatildi va kun davomida 8 soat ishlatilgan. Ultratovush signallari zararkunandalar faoliyatini ancha susaytirgani aniqlandi. 14 kun ichida qo'ng'izlarning ko'payishi deyarli to'xtadi, juftlashish darajasi 65-70% ga qisqardi. Zararlangan barglar soni 35% ga kamaydi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI



3-rasm. Quyosh batareyasi bilan taminlangan ultratovish tarqatish qurilmasi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari 20–40 kHz chastotadagi ultratovush to‘lqinlari Kolorado kartoshka qo‘ng‘izining faolligi, juftlashishi va ko‘payish salohiyatini sezilarli darajada kamaytirishini ko‘rsatdi. Maydon tajribalarida ultratovush ta‘siri ostida qo‘ng‘izlarning juftlashish faolligi 65–70% ga pasaydi, 14 kun ichida ko‘payish jarayoni deyarli to‘xtadi, barglardagi oziqlanish zarari esa 35% ga kamaydi. Natijada ishlov berilgan maydonda hosildorlik nazorat maydoniga nisbatan 28,1% ga yuqori bo‘ldi.

Olingan natijalar ultratovush texnologiyasi kimyoviy insektitsidlarga ekologik xavfsiz va samarali muqobil bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydi. Ushbu usul tuproq, suv va mahsulotlarda zararli qoldiq qoldirmaydi hamda zararkunandalarda pestitsidlarga chidamlilik shakllanish xavfini kamaytiradi.

Kelgusida qurilmaning chastota diapazoni, quvvat darajasi, joylashtirish zichligi va energiya ta‘minoti tizimini optimallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur. Ayniqsa, quyosh panellari va batareya zaxiralari bilan ishlaydigan avtonom tizimlar texnologiyani qishloq xo‘jaligi maydonlarida keng qo‘llash imkoniyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Bayrambekov, Sh.B. Kolorado kartoshka qo‘ng‘iziga qanday ta‘sir qilish kerak / Sh.B. Bayrambekov, N.K. Dubrovin // O‘simliklarni himoya qilish va karantin. - 2006. - №11. - P. 35.
2. Amirxonov, D.V. Kolorado kartoshka qo‘ng‘iziga qarshilik diagnostikasi / D.V. Amirxonov, A.V. Poskryakov // O‘simliklarni himoya qilish. - 1994. - No 12. - P. 11-12.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

3. Astaxov, A.V. Elektromagnit maydon / A.V. Astaxov, Yu.M. Shirokov . - M.: Nauka, 1980. - 360 b.
4. Aksenov, S.I. Past chastotali magnit maydonning turli bosqichlarda bug'doy urug'larining shishishiga ta'sirining xususiyatlari / S.I. Aksenov -, T.Yu. Grunina, S.N. Goryachev // Biofizika. - 2001. - V. 46. - Nashr. 6.-S. 1127-1132 yillar.
5. Balakireva, L.Z. Elektron muhandislik / L.Z. Balakireva, A.G. Beardkina -, M.B. Golant, T.B. Rebrova, L.A. Sevastyanova // Ser. Mikroto'liqinli elektron . - 1982. - Nashr. 6, 7. - B. 45-47.
6. Belov, A.D. Radiobiologiya. - M : Kolos, - 1999. - 205 p.
7. Belov, K.P. Yer va kosmosdagi magnitlanish / K.P. Belov, N.G. Boch Karev. - 1983. - 192 b.
8. Benkovskaya, G.V. Kolorado kartoshka qo'ng'izining Leptinotarsa decemlineata (ayt.) fenogenetik polimorfizmi va uning Boshqirdiston hududida insektitsidlarga sezgirliigi / G.V. Benkovskaya, M.B. Udalov, A.V. Poskryakov, A.G. Nikolaenko // Agrokimyo. - 2004. - №12.-P. 23-28.
9. Bergelson, L.D. Membranalar, molekulalar, hujayralar. - M.: Nauka, - 1982. - 183 b. '
10. Bondarenko, N.V. Umumiy va qishloq xo'jaligi entomologiyasi. - M.: Kolos, 1983.-416 b.
11. Borodin I.F. Mikroto'liqinli energiyani qishloq xo'jaligida qo'llash. - M.: Nauka, 1987. - 56 b.
12. Borodin, I.F. Elektr energiyasi zavodlarni boshqaradi // Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish. - 1996. - №4. - 28-30-betlar.
13. Bordukova, M.V. Kartoshkaning kasalliklari va zararkunandalari. - M.: Selg'oxiz, 1955.- 144 b.
14. Volovik, A.S. Kartoshkani kasalliklar, zararkunandalar va begona o'tlardan himoya qilish : Qo'llanma. - M: Agropromizdat, 1989. - 205 b.
15. Vonsovskiy, S.V. Magnitizm. -M.: Nauka, 1984. -208 b.
16. Goncharov, N.R. Shaxsiy uchastkalarda Kolorado kartoshka qo'ng'iziga qarshi kurashning xususiyatlari / N.R. Goncharov, N.I. Naumova // O'simliklarni himoya qilish va karantini. - 2007. - №9. - 32-34-betlar.
17. Glez, V.M. Kolorado kartoshka qo'ng'iziga qarshi kurash samaradorligini oshirish yo'llari. Kartoshkani kasalliklar va zararkunandalardan himoya qilish: Sat. ilmiy ishlar. - M. - 1984. - B. 148-154.
18. Glez, V.M. Kolorado kartoshka qo'ng'izi va unga qarshi kurash choralari // O'simliklarni himoya qilish va karantin. - 2003. - №6. - B. 41-42.
19. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/07/10/kolorado/>



UO'K: 635.61.632.9.

POLIZ BIOTOPIDA POLIZ QO'NG'IZINING TARQALISHI VA ZARARI

Allanazarov Olimjon Yaxshiboyevich 

O'KHITI Surxondaryo mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi, q.x.f.f.d. (PhD)

e-mail: allanazarov89.@list.ru

Annotatsiya. Maqolada poliz qo'ng'izining tarqalishi va zarari bo'yicha fikr yuritilgan, Surxondaryo viloyati sharoitida poliz ekinlari zararkunandasi bo'lgan poliz qo'ng'izi viloyatning janubiy tumanlarida keng tarqalgan bo'lib yoz davomida ertalab va kechqurinlari aktiv bo'lib barg, gul, mevalar bilan oziqlanib, qarshi kurash o'tkazilmagan dalalarda 80-90 % gacha zarar yetkazishi kuzatilgan

Kalit so'zlar: poliz, biotop, zararkunanda, poliz qo'ng'izi, lichinka, g'umbak, tuxum, gul, qovun, tarvuz, qovoq.

5. Iqtisodiy va ekologik samara Feromon tutqichlar zararkunandaning faolligini aniqlash, uning ommaviy tarqalishini oldini olish va insektitsidlarni faqat kerakli vaqtda qo'llashga imkon beradi. Bu orqali mahsulotning saqlanish muddati uzayadi, chiqimlar kamayadi va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanadi.

6. Feromon dispensorlar (kapsulalarni) saqlash Feromon moddalar samaradorligini saqlash uchun ularni 0...+4°C haroratda muzlatgichda saqlash tavsiya etiladi. Uzoq muddatli saqlash uchun esa -18°C gacha bo'lgan muzlatgich qo'llaniladi. Germetik qoplamalarda saqlash, namlik va kimyoviy moddalardan uzoqda saqlash tavsiya etiladi.

7. Monitoring va nazorat yuritishda feromon tutqichlarni oz vaxtida qollash eng zarur choralardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda feromon tutqichlar omborxonalar, yetishtirish va qayta ishlash sexlari ichidagi zararkunandalarni kuzatish uchun har 100-120 m³ maydonga 1-2 dona miqdorida o'rnatildi. Ular 1,5-2 m balandlikda, ba'zi hollarda oziq-ovqat mahsulotlariga yaqin, lekin to'g'ridan-to'g'ri havo oqimiga tushmaydigan joylarga ilib qo'yildi.

Tutqichlar doimiy ravishda, yil davomida qo'llaniladi va zarur holda almashtirilib boriladi. Monitoring va nazorat yuritish bunda feromon tutqichlarni har 3-5 kunda tekshirilib, ularda to'plangan kapalaklar soni daftarida qayd etiladi. Agar bir tutqichda 7-10 ta yoki undan ko'p kapalak aniqlansa, mexanik, kimyoviy yoki biologik kurash choralari ko'riladi.

Nazorat natijalari har hafta hisobot qilinadi va ombor zararkunandagasiga qarshi chora-tadbirlar o'z vaxtida hamda kerakli bo'lgan joyga qo'llanilsa juda katta samaradorlikka erishiladi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Murodov B.E. Omborda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash davrida uchraydigan zararkunandalar va ularga qarshi kurash// Qishloq xo'jaligi ekinlarining genetik resurslaridan unumli foydalanish hamda yetishtirishda zamonaviy ilg'or texnologiyalarni qo'llash istiqbollari/ Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Qarshi, 2022 II QISM. – B.409-411.
2. Maxmudxodjayev N.M. Zararkunandalar zahiralar - hasharotlar va oqadilar faunasining shakllanishini nazariy asoslash va zararli turlar sonini boshqarish Toshkent, 2011.
3. Muxammadiyev B.Q., Xolmurodov E.A. Hasharotlar ekologiyasi va tur tarkibining istematik tahlili. - Toshkent-2015.
4. Muhammadaliyev Sh.S., Sulaymonov B.A., Rashidov M.I. Ekinlar zararli organizmlari ivojlanishi va tarqalishining bashorati.- Toshkent-2002.



UO'K: 632.7:551.58:634.23

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA GILOS ZARARKUNANDALARINING KO'PAYISHI

Jamolov Axadjon G'ofurovich 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Farg'ona mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi

e-mail: jamolovaxadjoh518@gmail.com

To'ychiyev Hojimurod Zaylobiddin o'g'li 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Farg'ona mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodimi

e-mail: hojimurodtoychiyev35@gmail.com

Abduraximov Diyorjon Dilshodjon o'g'li 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Farg'ona mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodimi

e-mail: abdurahimovdiyorbek83@gmail.com

Raxmonov Jalil Xoliqulovich 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

e-mail: jalilrahmonov76@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqlim o'zgarishining gilos bog'larida zararkunandalar ko'payishiga ta'siri yoritilgan. Harorat oshishi, qurg'oqchilik va qishning iliqlashuvi natijasida o'rgimchak kana, qalqondorlar hamda boshqa zararkunandalar sonining ortishi, hosildorlik va meva sifatiga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, gilos bog'larini samarali himoya qilishda integratsiyalashgan kurash choralarining ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Iqlim o'zgarishi, gilos bog'lari, zararkunandalar, o'rgimchak kana, qalqondorlar, hosildorlik, meva sifati, qurg'oqchilik, harorat oshishi, ekologik muvozanat, integratsiyalashgan kurash.

Abstract. This article examines the impact of climate change on the increase of pests in cherry orchards. It analyzes how rising temperatures, drought, and warmer winters contribute to the spread of spider mites, scale insects, and other pests, negatively affecting yield and fruit quality. It also emphasizes the importance of integrated pest control measures for the effective protection of cherry orchards.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Keywords: climate change, cherry orchards, pests, spider mites, scale insects, yield, fruit quality, drought, temperature rise, ecological balance, integrated pest management.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние изменения климата на увеличение численности вредителей в черешневых садах. Анализируется, как повышение температуры, засуха и тёплые зимы способствуют распространению паутиного клеща, щитовок и других вредителей, отрицательно влияя на урожайность и качество плодов. Также подчёркивается важность интегрированных мер борьбы для эффективной защиты черешневых садов.

Ключевые слова: изменение климата, вишнёвые сады, вредители, паутиный клещ, щитовки, урожайность, качество плодов, засуха, повышение температуры, экологический баланс, интегрированная борьба с вредителями.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida kuzatilayotgan global iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligi sohasiga, ayniqsa mevali daraxtlar yetishtirish tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Haroratning yildan-yilga ko'tarilishi, yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishi, qurg'oqchilik davrlarining uzayishi, qish faslining nisbatan iliq kelishi hamda fasllar almashinuvidagi beqarorlik gilos yetishtirish jarayoniga ham bevosita ta'sir qilmoqda. Gilos inson salomatligi uchun foydali, vitaminlarga boy va iqtisodiy jihatdan yuqori daromad keltiruvchi mevali ekinlardan biri hisoblanadi. Shu sababli gilos bog'larining barqaror hosildorligini ta'minlash zamonaviy bog'dorchilikning muhim vazifalaridan biridir. Biroq iqlim o'zgarishi natijasida gilos daraxtlariga zarar yetkazuvchi hasharot va kana turlarining rivojlanish sur'ati ortib, ularning son jihatdan ko'payishi kuzatilmoqda. Bu holat hosil sifati va miqdoriga jiddiy xavf tug'diradi.

David B., Schlenker, W, Costa-Roberts, Jlarning maqolalarida keltirilishicha qurg'oqchilik va yuqori harorat qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini pasaytiradi, ayniqsa vegetatsiya davrida suv tanqisligi kuchayganda o'simliklarning fiziologik jarayonlari izdan chiqadi. Qurg'oqchilikning qishloq xo'jaligiga salbiy ta'siri bir necha yo'nalishda ko'rsatilgan: tuproq namligining kamayishi, sho'rlanishning kuchayishi, vegetatsiya davrining qisqarishi va hosildorlikning pasayishi. Masalan, bug'doy, makkajo'xori va mevali daraxtlarda yuqori harorat fotosintez jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, hosil sifati va miqdorini kamaytiradi. O'zbekistonlik olimlar ham iqlim isishi sharoitida paxta, g'alla, gilos va boshqa bog'dorchilik ekinlarida suvga ehtiyoj ortishini qayd etishgan.

Iqlim sharoitidagi o'zgarishlar zararkunandalar hayot sikliga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qish mavsumining yumshoq kelishi natijasida ko'plab zararkunandalar nobud bo'lmay, qishlab chiqish darajasi ortadi. Natijada bahor faslida ularning faoliyati erta boshlanadi. Haroratning yuqori bo'lishi o'rgimchak kana, qalqondorlar va turli zararkunandalarning rivojlanish davrini tezlashtiradi, bir



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

mavsum davomida avlodlar soni ko'payadi. Oddiy sharoitda 2-3 avlod beradigan ayrim zararkunandalar iqlim isishi tufayli 4-5 avlodgacha rivojlanishi mumkin. Bu esa gilos bog'larida zararlanish darajasining keskin oshishiga olib keladi. Gilos daraxtlarida eng ko'p uchraydigan zararkunandalardan biri o'rgimchakkana hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

Oy	Rivojlanish bosqichi	Asosiy faoliyat	Populyatsiya dinamikasi	Izoh
Mart	Diapauza tugashi	Faollashuv boshlanishi	Past	Qishlovdan chiqqan urg'ochilar harakatga keladi
Aprel	Ko'payish	Tuxum qo'yish	O'rtacha	Ob-havoga qarab son ko'payadi
May	To'liq rivojlanish	Ko'p avlodli rivojlanish	Ko'tariladi	1-avlod paydo bo'ladi
Iyun	Maksimal faollik	Tez ko'payish	Yuqori	2-3 avlod rivojlanadi
Iyul	Eng yuqori son	To'liq sikllar	Eng yuqori	Zararlanish kuchayadi
Avgust	Faollikning pasayishi	Avlodlar soni kamayadi	Pasayadi	Sharoitga bog'liq
Sentabr	Tayyorlov	Diapauzaga kirish	Kam	Faollik kamayadi
Oktabr	Diapauza	Qishlovga kirish	Kam	Tuproqdagi barglar ostiga yashirinadi

Ushbu zararkunanda bargning pastki qismida yashab, o'simlik shirasi bilan oziqlanadi. Issiq va quruq ob-havo kana rivojlanishi uchun ayniqsa qulay sharoit yaratadi.

Iqlim o'zgarishi tufayli yoz oylarida haroratning keskin oshishi o'rgimchakkananing tez ko'payishiga sabab bo'ladi. Zararlangan barglarda fotosintez jarayoni susayadi, barg sarg'ayadi, quriydi va to'kilib ketadi. Bu esa daraxtning oziqlanish jarayoniga salbiy ta'sir qilib, hosildorlikni kamaytiradi.

Qalqondorlar ham gilos uchun xavfli zararkunandalardan biri bo'lib, daraxt po'stlog'i, novda va mevalarga zarar yetkazadi. Ushbu zararkunanda o'simlik shirasi bilan oziqlanib, daraxtni zaiflashtiradi. Qishning iliq kelishi qalqondor lichinkalarining ko'proq saqlanib qolishiga imkon yaratadi. Natijada vegetatsiya davrida ularning soni ortib, daraxtlarning o'sishdan qolishi, novdalarning qurishi va hosil sifatining pasayishi kuzatiladi. Xuddi shuningdek, olxo'ri soxta qalqondori va komstok qurti ham iqlim o'zgarishi natijasida faol tarqalib, gilos bog'lariga iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Qurg'oqchilik ham gilos daraxtlarining zararkunandalarga chidamliligini pasaytiruvchi muhim omillardan biridir. Suv tanqisligi natijasida daraxt fiziologik stress holatiga tushadi, immuniteti zaiflashadi va





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

zararkunandalarga nisbatan himoyasi kamayadi. Zaiflashgan daraxtlar esa hasharotlar uchun oson ozuqa manbaiga aylanadi. Bundan tashqari, namlikning me'yordan oshishi ayrim kasallik va zararkunandalarning rivojlanishiga ham yordam beradi. Demak, iqlim o'zgarishi faqat harorat oshishi bilan emas, balki ekologik muvozanatning buzilishi orqali ham zararkunandalar sonini ko'paytiradi.

Zararkunandalarning ko'payishi natijasida gilos hosilining sifati yomonlashadi, mevalar maydalashadi, tashqi ko'rinishi buziladi va bozorboqligi kamayadi. Eksportbop mahsulot yetishtirish qiyinlashadi. Shu bilan birga, zararkunandalarga qarshi kimyoviy vositalardan ko'proq foydalanishga to'g'ri keladi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va ekologik xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Pestitsidlarning me'yordan ortiq qo'llanilishi foydali entomofaunaga ham zarar yetkazadi. Shu sababli iqlim o'zgarishi sharoitida gilos bog'larini samarali himoya qilish uchun integratsiyalashgan kurash choralari qo'llash muhimdir. Bunda muntazam monitoring olib borish, zararkunandalar sonini kuzatish, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, biologik kurash usullaridan foydalanish va kimyoviy vositalarni ilmiy asosda qo'llash katta ahamiyatga ega. Bog'larda sanitariya tozaligini saqlash, qurigan shoxlarni kesish, daraxtlarga sifatli oziqlantirish va sug'orish tizimini yaxshilash orqali zararkunandalar xavfini kamaytirish mumkin. Shuningdek, iqlimga mos, chidamli navlarni tanlash ham muhim amallardan biridir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, global iqlim o'zgarishi gilos bog'larida zararkunandalar bioekologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ularning ko'payishiga qulay sharoit yaratmoqda. Harorat oshishi, qishning iliqlashuvi va qurg'oqchilik zararkunandalar sonining ortishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardandir. Bu esa hosildorlikka, iqtisodiy samaradorlikka va ekologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda gilos bog'larini himoya qilishda zamonaviy ilmiy yondashuvlar, iqlim omillarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan integratsiyalashgan himoya tizimlari va ekologik xavfsiz usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shundagina sifatli, mo'l va raqobatbardosh gilos hosilini saqlab qolish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Lobell.D. B, Schlenker, W va Costa-Roberts.J (2011). Climate trends and global crop production since 1980. Science. 6042-sonida 616-620 b
2. Ochilov R.O. va boshqalar. Mevali daraxtlar zararkunandalari va kasalliklarini aniqlash xamda ularga qarshi kurash choralari. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2010.
3. Xolmuradov X.X. Soxta qalqondorlar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 1997.
4. Murodov S.A. Umumiy entomologiya kursi. – Toshkent: «Mehnat», 1986.
5. SH.T. Xo'jayev, E.A.Xolmurodov entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari, 2014.





UO'K: 632.7.727.934

ITALIYA CHIGIRTKASI (*CALLIPTAMUS ITALICUS* L.) GA QARSHI CYPERCHEM 50% EM.K. PREPARATINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Tufliyev Nodirbek Xushvaqto'vich

laboratoriya mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Jalgasov Baxram Abat uli

kichik ilmiy xodim

Imomova Muqaddas Hasanovna

kichik ilmiy xodim

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chimboy tumani yaylovlari sharoitida Italiya chigirtkasiga (*Calliptamus italicus* L.) qarshi "Cyperchem 50% em.k." preparatining biologik samaradorligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan dala sinovlari natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar davomida preparatning 0,1–0,2 l/ga sarf me'yorlarida zararkunandalarga ta'sir kuchi va yaylov o'simliklarini himoya qilish darajasi tahlil qilingan. Natijalar preparatning yuqori ta'sirga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Italiya chigirtkasi, Cyperchem 50%, sipermetrin, biologik samaradorlik, yaylovlar, Chimboy, insektitsid.

Abstract. This article presents the results of field trials to determine the biological efficacy of the drug "Cyperchem 50% EC" against the Italian locust (*Calliptamus italicus* L.) in the pastures of the Chimbay district. During the research, the toxicity of the preparation at application rates of 0.1–0.2 l/ha and the degree of protection of pasture vegetation were analyzed. The results showed that the drug has a high effect against pests.

Keywords: Italian locust, Cyperchem 50%, cypermethrin, biological efficacy, pastures, Chimbay, insecticide.

Аннотация. В данной статье представлены результаты полевых испытаний по определению биологической эффективности препарата «Cyperchem 50% к.э.» против итальянской саранчи (*Calliptamus italicus* L.) в условиях пастбищ Чимбайского района. В ходе исследований проанализирована токсичность препарата в нормах расхода 0,1–0,2 л/га и степень защиты пастбищной растительности. Результаты показали, что препарат обладает высоким эффектом против вредителей.

Ключевые слова: Итальянская саранча, Cyperchem 50%, циперметрин, биологическая эффективность, пастбища, Чимбай, инсектицид.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

Respublikamizning geografik o'rnini va tuproq-iqlim sharoitlari dehqonchilikning barcha turlarini rivojlantirish uchun juda qulay hisoblanadi. Respublikamizning serqayosh tabiati ayniqsa sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Ikkinchi tomondan, bu iqlim sharoitlari qishloq xo'jalik ekinlariga zarar yetkazadigan har xil hasharotlarning ko'payishiga ham qulaylik yaratadi. O'rta Osiyo sharoitlarida deyarli barcha zararkunandalar tez rivojlanib, yiliga shimoliy mintaqalarga nisbatan bir necha marta ko'p avlod beradi. Bu esa o'simliklarni himoya qilish uchun zararkunandalar biologiyasini, uni o'simlik va muhit bilan uzviy bog'lanishini chuqur o'rganib, eng samarali kurash chora va vositalarni qo'llashni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari va yaylov o'simliklariga jiddiy zarar yetkazuvchi hasharotlar orasida chigirtkalar alohida xavf tug'diradi.

O'zbekistonning yaylov va adir hududlarida chigirtkalar chorvachilik va qishloq xo'jaligiga jiddiy xavf soladi. Ayniqsa, keng yaylov hududlarida chigirtkalarining ommaviy ko'payishi natijasida o'simliklarining nobud qilinishi tuproq eroziyasiga va chorvachilikning ozuqa bazasining kamayishiga olib keladi. Shu bois, zamonaviy, tez ta'sir etuvchi va iqtisodiy tejamkor insektitsidlarni sinovdan o'tkazish dolzarb masaladir.

O'zbekiston sharoitida chigirtkalar hamma joyda uchraydi, lekin ko'p sonli tarqalish o'choqlari ma'lum turlarning yashash joyiga xos bo'lgan tuproq-iqlim mintaqalarida shakllanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda chigirtka muammosi juda dolzarb hisoblanadi. So'nggi yillarda respublikada Marokash, Osiyo va Italiya chigirtkalarining ommaviy ko'payishi kuzatilmoqda, ularning zararlangan maydoni yiliga 600 ming gektargacha yetmoqda. O'zbekistonda zararli chigirtkalarga qarshi himoya tadbirlari katta maydonlarda olib boriladi va ular sonining o'zgarishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shunday bo'lsa-da, ular yaylovlar va qishloq xo'jaligi ekinlariga jiddiy xavf tug'dirmoqda, bu esa ularga qarshi kurashning samarali vositalari va usullarini muntazam ravishda ishlab chiqish hamda takomillashtirishni taqozo etadi.

Yuqori unumdorligi, tejamkorligi va samaradorligi tufayli kimyoviy ishlov berish, ayniqsa, zararkunanda ko'p bo'lgan yillarda keng qo'llaniladi. Chigirtkalarining soni ko'payishi va ommaviy tarqalish bosqichlarida preparatlarni mahalliy tarzda qo'llashning o'zi yetarli bo'ladi.

Chigirtkalarga qarshi piretroidlarni o'rganish 1980-yildan O'zRO'HITI da boshlangan. O'rta Osiyo va Sibir sharoitida 1983-1985-yillarda F.A.Gapparov tomonidan katta ishlar amalga oshirildi. Chigirtkalarining tur tarkibi va statsionar tarqalishini o'rganish bilan bir qatorda, u bu zararkunandalarga qarshi progressiv vositalar va usullarni ishlab chiqdi. Chigirtkalarga qarshi sumitsidinni 0,4 l/ga me'yorida qo'llash usuli ishlab chiqarishga tavsiya etilgan va Davlat kimyo komissiyasi tomonidan tasdiqlangan [1].



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

O'zbekistonning janubiy hududlarida chigirtkalarga qarshi kurashda sintetik piretroidlarning ikkinchi avlod vakillari o'rganildi. Marokash chigirtkasiga qarshi karate, sumi-alfa, detsis, fyuri piretroidlari sinovdan o'tkazilgan va bu preparatlarning yuqori samaradorligi aniqlangan [3].

Chigirtkalarga qarshi kurash bo'yicha ishlov berishning yakuniy samaradorligi ko'plab tashkiliy omillarga bog'liq: dala aerodromlarining sifati, joylashuvi va texnik xizmat ko'rsatish darajasi, zararlangan maydonlarni ishlov berish uchun tayyorlash, shuningdek, aviatsion ishlov berish jarayonida yer usti ogohlantirish tizimini tashkil etish [6].

O'zbekistonda zararli chigirtkalarga qarshi kurash choralari bo'yicha adabiyotlar tahlili, chigirtkalarga qarshi tavsiya etiladigan insektitsidlar xilma-xilligini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligini ko'rsatadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tajribalarimizni 2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani yaylovlarida italiya (voha) chigirtkasining katta va kichik yoshdagi lichinkalariga qarshi o'tkazildi. Tajribadagi yangi insektisid CYPERCHEM 50% em.k. preparati "CHEMICAL SOLUTIONS" MCHJ tomonidan taklif etilgan bo'lib, ta'sir etuvchi moddasi Sipermetrindir. Ushbu insektitsid piretroidlar guruhiga mansub kimyoviy preparat hisoblanadi.

Tajribalarda qo'llanilgan preparatning biologik samaradorligini aniqlashda Kurdyukov V.V., Xodjayev Sh.T., Gapparov F.A. (1994), Sh.T. Xo'jayev (2004) uslublaridan foydalanildi [2, 4, 5].

NATIJALAR VA MUNOZARA

Dala tajribalari italiya chigirtkasining 2-3 va 4-5 yoshdagi lichinkalariga qarshi gektariga motorli qo'l purkagichi yordamida gektariga 120 litrdan ishchi suyuqlik sarf etilib, 2 xil sarf-me'yorda 0,1 l/ga va 0,2 l/ga va uch qaytariqda, andoza sifatida esa Sipervit Agro 25% em.k. preparati foydalanildi. Preparat ishlatilganidan so'ng 24; 48; 72; soatlardan keyin chigirtkalar sonini hisoblash ishlari o'tkazildi (1-jadval).

Ishlovdan keyin Italiya chigirtkasining 2-3 yosh lichinkalariga qarshi CYPERCHEM 50% em.k. preparati (0,1 l/ga) 24 soatdan keyin 86,6%, 48 soatdan keyin 93,2%, 72 soatdan keyin 95,1% biologik samara olindi. CYPERCHEM 50% em.k. preparatinining oshirilgan sarf-me'yorda (0,2 l/ga) 24 soatdan keyin 87,0%, 48 soatdan keyin 94,1%, 72 soatdan keyin 96,6% biologik samara olindi.

Tajribada andoza sifatida Sipervit Agro 25% em.k. preparati 0,2 l/ga, sarf-me'yorida ishlatilganda 24 soatdan so'ng 90,5%, 48 soatdan so'ng 93,1% va 72 soatdan so'ng 96,2% samaradorlikni namoyon etdi.

Italiya chigirtkasining 4-5 yosh lichinkalariga qarshi ishlovdan keyin, CYPERCHEM 50% em.k. preparati (0,1 l/ga) 24 soatdan keyin 81,7%, 48 soatdan keyin 87,3%, 78 soatdan keyin 93,0% biologik samara olindi. CYPERCHEM 50%





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

em.k. preparatining oshirilgan sarf-me'yorda (0,2 l/ga) 24 soatdan keyin 85,7%, 48 soatdan keyin 91,8%, 72 soatdan keyin 96,2% biologik samara olindi.

Italiya chigirtkasining 4-5 yosh lichinkalariga qarshi ishlovdan keyin, CYPERCHEM 50% em.k. preparati (0,1 l/ga) 24 soatdan keyin 81,7%, 48 soatdan keyin 87,3%, 72 soatdan keyin 93,0% biologik samara olindi. CYPERCHEM 50% em.k. preparatining oshirilgan sarf-me'yorda (0,2 l/ga) 24 soatdan keyin 85,7%, 48 soatdan keyin 91,8%, 72 soatdan keyin 96,2% biologik samara olindi.

Andoza o'rnida ishlatilgan Sipervit Agro 25% em.k. preparati 0,2 l/ga katta yoshdagi lichinkalarga qarshi 24 soatdan keyin 83,9%, 48 soatdan so'ng 94,2% va 72 soatdan keyin 96,4% ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikkala variantda ham chigirtkalarga qarshi kuzatilgan 3 kun ichida qoniqli yuqori biologik samara olindi.

1-jadval.

CYPERCHEM 50% em.k. preparatining Italiya chigirtkasining 2-3 va 4-5 yosh lichinkalariga qarshi biologik samaradorligi

(Dala tajribasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani yaylovlarida 20.06.2025-yil)

Variantlar	Sarf-me'yori, l/ga yoki kg/ga	1m² maydondagi chigirtkalarining o‘rtacha soni, dona, <i>n</i> soatdan keyin kuzatuvlar									Samaradorlik, % <i>n</i> soatdan keyin		
		24			48			72					
		Tirik	O‘lik	Ja’ mi	Tirik	O‘lik	Ja’ mi	Tirik	O‘lik	Ja’ mi	24	48	72
2-3 yosh lichinkalariga qarshi ishlov													
CYPERCHEM 50% em.k.	0,1	3,4	21,8	25,2	1,6	22,9	24,5	1,1	22,3	23,4	86,5	93,4	95,2
CYPERCHEM 50% em.k.	0,2	3,0	20,6	23,6	1,4	21,4	22,8	0,7	20,9	21,6	87,2	93,8	96,7
Sipervit Agro 25% em.k. (andoza)	0,2	2,5	24,2	26,7	1,6	22,0	23,6	0,8	21,1	21,9	90,6	93,2	96,3
Nazorat (ishlovsiz)		25,1	0,4	25,5	24,2	0,7	24,9	23,2	0,9	24,1			
4-5 yosh lichinkalariga qarshi ishlov													
CYPERCHEM 50% em.k.	0,1	5,0	22,2	27,2	3,1	21,8	24,9	1,7	23,6	25,3	81,6	87,5	93,2
CYPERCHEM 50% em.k.	0,2	3,5	21,4	24,9	1,9	21,9	23,8	0,9	23,6	24,5	85,9	92,0	96,3
Sipervit Agro 25% em.k. (andoza)	0,2	4,1	21,1	25,2	2,1	20,8	22,9	1,3	21,8	23,1	83,7	90,8	94,3
Nazorat (ishlovsiz)		24,6	0,3	24,9	24,7	0,4	25,1	21,8	0,7	22,5			



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tajribada sinovdan o'tkazilgan CYPERCHEM 50% em.k. preparatini italiya chigirtkasining 2-3 yosh lichinkalariga qarshi 0,1 l/ga sarf-me'yorda 95,2%, 0,2 l/ga sarf-me'yorda 96,7%, 4-5 yoshdagi lichinkalariga qarshi 0,1 l/ga sarf-me'yorda 93,2%, 0,2 l/ga sarf-me'yorda 96,3% biologik samara olindi.

CYPERCHEM 50% em.k. preparatini kelgusida qishloq xo'jaligi ekinlari atrofida italiya chigirtkasining katta va kichik yoshdagi lichinkalariga qarshi ishlatish uchun tavsiya etish mumkinligini ko'rsatdi.

Yaylovlarda "CYPERCHEM 50% em.k." preparatini kichik 2-3 yosh yoshdagi lichinkalariga qarshi 0,1 l/ga sarf-me'yorda, katta yoshdagi 4-5 yoshdagi lichinkalariga qarshi 0,2 l/ga sarf-me'yorda qarshi qo'llash uchun tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Гаппаров Ф.А. Биоэкологические особенности развития вредных саранчовых в Узбекистане и меры борьбы с ними. –Ташкент: "Наврўз", 2014. – 336 с.

2. Kurdyukov V.V., Xodjayev Sh.T., Gapparov F.A. Zararli chigirtkalar // Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. –Toshkent: Uzinformagroprom, 1994. – S. 18-20.

3. Tufliyev N.X. O'zbekistonning tog'oldi, yaylov va cho'l hududlarida zararli chigirtkalarga qarshi kurash majmuini yaratish. // Avtoref. dis. doktora. s.-x. nauk. 06.01.09. – Tashkent, 2019. – 64 b.

4. Xodjayev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. – Toshkent: «KO'HI-NUR», 2004. B - 104.

5. Xo'jaev Sh.T., Agrotoksikologiya asoslari hamda tadqiqot o'tkazish qoidalari. – Toshkent. - 2018.

6. Шамуратов Г.Ш., Копанева Л.М., Саранчовые в Каракалпакии. Нукус: Издательство «Каракалпакстан», 1984. - 112 с.



NA'MATAK VA UNING ZARARKUNANDALARIGA QARSHI UYG'UNLASHGAN KURASH CHORALARI

Xosilova Nilufar Akmaljon qizi 

e-mail: samiraxabibjonova@gmail.com

Mirzabdullayeva Maftuna Mardonbek qizi 

e-mail: maftunkhonimmirzabdullayeva@gmail.com

To'rabayeva Dilobar O'rinboy qizi 

e-mail: torabayevadilobar@gmail.com

Ataxanova Gulshanoy Shuhratjon qizi 

e-mail: gulwanoy03@gmail.com

NamDTU "O'simliklar himoyasi va karantini yo'nalishi" magistrantlari

Annotatsiya. Ushbu maqolada dorivor na'matak o'simligining xalq xo'jaligidagi va farmasevtikadagi ahamiyati, botanik ta'rifi hamda uning asosiy zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Na'matakning asosan na'matak pashshasi, pushtirang bargo'rovchi, atirgul arrakashi, atirgul shirasi, o'rgimchakkana kabi asosiy zararkunandalari mavjudligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: arrakash, pushtirang, farmasevtika, dorivor, kimyoviy, meva, gul, shona, akaritsid, piretroid, fosfororganik.

Abstract. This article provides information on the value of the medicinal Rosa plant in the national economy and pharmaceuticals, its botanical definition and its main harmful organisms and measures to combat them.

It is noted that mainly in the wild rose contains the main harmful organisms, such as *Rhagoletis alternata*, *Celypha rosaceana*, *Macrosiphum rosae* L., *Arge ochropus*, *Tetranychus urticae*.

Key words: sawfly, pink, pharmaceuticals, medicinal, chemical, fruit, flower, bud, acaricide, pyrethroid, organophosphorus

Аннотация. В этой статье представлена информация о значении лекарственного растения шиповника в народном хозяйстве и фармацевтике, его ботаническом определении и его основных вредных организмах и мерах по борьбе с ними.

Отмечено, что в основном в шиповнике содержатся основные вредные организмы, такие как муха шиповниковая, листовёртка розовая, розанная тля, розанный пилильщик, обыкновенный паутиный клещ.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Ключевые слова: пилильщик, розовая, фармацевтика, лекарственный, химический, плод, цветок, бутон, акарицид, пиретроид, фосфорорганический

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 11-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil yetish to‘g‘risida”gi Farmoni va “O‘rmon xo‘jalik davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida o‘rmonlarda dorivor o‘simliklar o‘stiriladigan plantatsiyalar maydonini kengaytirish, asrash borasida muhim vazifalar belgilangan. Mazkur hujjat ijrosi doirasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan 2017-2021-yillarda o‘rmon fondi yerlarda va fermer xo‘jaliklarida dorivor o‘simliklar o‘stirish uchun loyixalar ishlab chiqildi. Joriy yilda qariyb ikki ming gektar 70 turdan ortiq dorivor tur o‘simlik ekish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda shifobaxsh o‘simliklar o‘sadigan joylarni muhofaza qilishga alohida e’tibor berilmokda. Jaxonda dorivor o‘simliklarning 10-12 ming turi bor, 100 dan ortiq o‘simlik turlarining kimyoviy farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 577 turi mavjud. Respublikamiz miqyosida hozirda na‘matak plantatsiyasi maydonlari va ulardan olinadigan xom-ashyo miqdori oshib bormoqda. Lekin na‘matakni turli rivojlanish fazalarida har xil kasalliklar bilan zararlanishi tufayli, uning kattagina hosili yo‘qotilibgina qolmay, balki tarkibidagi dorivor moddalarning sifati va miqdori xam keskin kamayadi.

Na‘matak o‘simligi (*Rosa canina* L.) dorivor va oziq-ovqat ahamiyatiga ega bo‘lgan qimmatli butasimonsimon o‘simliklardan biri hisoblanadi. Uning mevasi tarkibida C vitamini, organik kislotalar, flavonoidlar, karotinoidlar va biologik faol moddalar ko‘pligi sababli farmatsevtika, oziq-ovqat hamda xalq tabobatida keng foydalaniladi. So‘nggi yillarda na‘matak plantatsiyalarini kengaytirish va uning hosildorligini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Biroq o‘simlikning turli zararkunandalar bilan zararlanishi hosil miqdori va sifatining pasayishiga olib keluvchi asosiy biologik omillardan biri hisoblanadi [1].

Na‘matak ekinlarida uchraydigan asosiy zararkunandalarga shiralar (Aphididae), o‘rgimchakkana (*Tetranychidae*), bargxo‘r qo‘ng‘izlar, tripslar hamda ayrim kapalak lichinkalari kiradi. Ushbu zararkunandalar o‘simlikning barg, novda, gul va mevalarini zararlab, fotosintez jarayonining susayishiga, o‘sish va rivojlanishning sekinlashishiga hamda hosildorlikning kamayishiga sabab bo‘ladi [2]. Ayniqsa vegetatsiya davrining quruq va issiq sharoitlarida o‘rgimchakkana va shiralarning tez ko‘payishi kuzatiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, zararkunandalar bilan kuchli zararlangan na‘matak plantatsiyalarida hosil yo‘qotilishi 25–35% gacha yetishi mumkin [3]. Bundan tashqari, ayrim zararkunandalar o‘simlik virus kasalliklarini tarqatuvchi biologik vektor vazifasini ham bajaradi. Natijada nafaqat hosildorlik, balki mevalarning biologik va farmakologik sifati ham yomonlashadi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Na'matak zararkunandalariga qarshi kurashishda kimyoviy insektitsidlar keng qo'llanilib kelinmoqda. Kimyoviy preparatlar qisqa muddatda yuqori samaradorlik ko'rsatishi, zararkunandalar sonini tez kamaytirishi hamda hosilni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega [4].

Biroq insektitsidlarning muntazam va me'yoridan ortiq qo'llanilishi ekologik muvozanatning buzilishiga, foydali entomofaunaning kamayishiga va zararkunandalarda preparatlarga nisbatan rezistentlik shakllanishiga olib kelmoqda [5].

Bir xil ta'sir mexanizmiga ega preparatlarning uzoq muddat davomida takroriy qo'llanilishi natijasida ayrim zararkunanda turlarida chidamlilik xususiyati rivojlanishi kuzatilgan. Bu esa kimyoviy vositalarning biologik samaradorligini pasaytirib, qo'shimcha iqtisodiy xarajatlarni yuzaga keltiradi [6].

Shu sababli zamonaviy o'simliklarni himoya qilish tizimida zararkunandalarga qarshi uyg'unlashgan kurash usullarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uyg'unlashgan kurash tizimi (Integrated Pest Management — IPM) zararkunandalar sonini iqtisodiy zarar yetkazish chegarasidan past darajada ushlab turishga qaratilgan ekologik va iqtisodiy jihatdan maqbul usullar majmuasini o'z ichiga oladi [7].

Mazkur tizim agrotexnik, biologik, mexanik va kimyoviy kurash choralarining o'zaro uyg'un holda qo'llanilishiga asoslanadi. Agrotexnik tadbirlar, jumladan plantatsiyalarni toza saqlash, sanitariya kesuvlarini o'tkazish, zararlangan novda va barglarni yo'qotish, optimal sug'orish hamda oziqlantirish tizimini tashkil etish zararkunandalar rivojlanishini cheklashda muhim rol o'ynaydi [8]. Biologik kurash usullarida esa entomofag hasharotlar, mikrobiologik preparatlar va bioinsektitsidlardan foydalanish ekologik xavfsiz usul sifatida e'tirof etiladi.

Na'matak ra'noguldoshlar oilasiga mansub buta o'simlik bo'lib, bu oilaga 100 ga yaqin turkumga kiruvchi 3000 tadan ziyod turni birlashtiradi, xayotiy shakliga ko'ra ularga o'tlar, yarimbutalar, butalar va daraxtlar kiradi. Ayrim vakillarining barglari ko'pincha navbatlashadigan bo'lib, goho erta to'kilib ketadigan, yo bo'lmasa asosi bargga qo'shilib ketganligidan goho uzoq saqlanib qoladigan yon barglari bor. Gullari ba'zan yakka bo'lsa, ba'zan to'pgul xolida bo'ladi, aktinomorf (goxo zigomorf), kamdan kam xollarda 5 a'zoli, 4-6 a'zoli doirasi bor. Gul o'rni qavariq yassi, botiq yoki qadahsimon. Kosachasi erkin kosacha barglardan tuzilgan, kosacha barglari gul o'rning kengaygan disksimon tagidan chiqqan bo'lsa, qo'shilib o'sganga o'xshab ko'rinadi.

Na'matak mevalari tarkibida juda ko'p miqdorda vitamin oltingugurt (4-8%, ba'zan 18% gacha boradi). R, K, V gurupasi, karotinlar bilan bir qatorda flavanoidlar, qand, organik kislotalar: olma kislotasi 1,8-2% gacha, limon kislotasi 2% atrofida, pektin va oshlovchi moddalar, likopin va riboksantin, shuningdek K, Fe, Mn, P, Ca, Mg tuzlari bor. Meva urug'larida vitamin E mavjud. Na'matak tarkibida quruq xolda xisoblanganda 4-6% bazan 18% gacha vitamin S 0,3 mg %, vitamin V₂, K (1 gr maxsulotda 40 biologik birlik miqdorda, vitamin R 12-18 %



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

karotin, 18% atrofida qandlar, 4-5% oshlovchi moddalar, 2% atrofida limon va olma kislotalari, 3,7 % pektin va boshqa moddalar bo'ladi. Vitamin S butun xoldagi mahsulotda 1% tozalab qirg'ilgan mahsulotda 2%, kukun holdagisida esa 1,6 % kam bo'lmasligi kerak.

Na'matak urug'ida moy, ildizi va bargida esa oshlovchi moddalar bo'ladi. Bundan tashqari, askorbin kislota, vitamin S (kukun, draje, tabletka va ampulada eritma holida chiqariladi, meবাদan damlama, ekstrakt, karotolin na'matak moyi va sharbat (ho'l mevasidan) hamda tabletkalar (kukunidan) tayyorlanadi. Ushbu mahsulotdan jigar kasalliklarini xolesistit va gepatitni davolashda ishlatiladi. Soxta meva ichidagi mevachalari siydik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Na'matak turlari Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlardagi bog'larda, dalalarda, tog'larning quruq toshloq yonbag'irlarida hamda tog'larning o'rta va yuqori qismidagi suv bo'ylarida, archazorlar va yong'oqzorlarda o'sadi.

Begger na'matagi - shoxlari ko'kimtir rangli, tikanlari yirik, o'roqsimon egilgan, asos qismi keng, sarg'ish rangli bo'lib, barg asosida juft-juft bo'lib, joylashgan. To'pgullari - ko'p gulli qalqon yoki rovak. Kosacha bargi butun o'tkir uchli gullagandan so'ng yuqoriga qarab yo'nalgan. Mevasi mayda, sharsimon uzunligi 0,5-1,4mm, qizil rangli, pishgandan so'ng gulkosachasi to'kiladi. Natijada mevaning yuqori qismida hosil bo'lgan teshikdan ichidagi yong'oqchalari va tuklari ko'rinib turadi. Bu na'matak asosan O'rta Osiyo tog'larining yonbag'irlarida, tog'li tumanlarida ariq va daryolar qirg'oqlarida, yo'l yoqalarida o'sadi. Manzarali buta sifatida o'stiriladi.

Dauriya na'matagi - Bu o'simlikning shoxlari qo'ngir - qizil rangli po'stloq bilan qoplangan, tikanlari qayrilgan bo'lib, 2 tadan shoxlarining asosida va barg qo'ltig'iga o'rtnashgan. Bargchalarining pastki tomoni siyrak tuklar hamda sariq bezlar bilan qoplangan. Mevasi sharsimon diametri 1-1,5 santimetr ga teng, u asosan Sharqiy Sibirining Janubiy tumanlarida va Uzoq Sharqda uchraydi.

Na'matakka eng ko'p zararkeltiruvchi hasharotlarni quyidagilardan iborat. **Na'matak pashshasi - Muxa shipovnikovaya - *Rhagoletis alternata* Fall:** Bu zararkunanda *Tephritidae* oilasiga mansub bo'lib, na'matakning asosiy zararkunandasi xisoblanadi. MDH davlatlarida tarqalgan. Urg'ochisining uzunligi 3,8-5,4 mm, erkagining uzunligi 2,9-4 mm. Boshi va tanasi sarg'ish - jigarrang; lichinkasi 7-8 mm, somon rangda. Soxta g'umbak holida po'stloqlar ostida yoki 5 sm chuqurlikdagi xas-xashaklar orasida qishlab chiqadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar na'matak (*Rosa canina* L.) o'simligida uchraydigan asosiy zararkunandalar va ularga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarining biologik hamda xo'jalik samaradorligini aniqlash maqsadida olib borildi. Dala tajribalari vegetatsiya davrida tajriba maydonlarida hamda laboratoriya sharoitida amalga oshirildi. Tadqiqot obyektlari sifatida na'matak o'simligi va unda uchraydigan





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

asosiy zararkunandalar — shiralar (Aphididae), o'rgimchakkana (Tetranychidae), tripslar (Thripidae) hamda bargxo'r hasharotlar olindi. Zararkunandalarning tarqalishi, soni va zararlash darajasi fenologik kuzatuvlar asosida o'rganildi. Dala tajribalari tasodifiylashtirilgan usulda 3 qaytariqda tashkil etildi. Har bir variant ma'lum maydonni egallab, tajriba variantlari orasida himoya qatorlari qoldirildi. Tajribada quyidagi variantlar qo'llanildi:

1. Nazorat (ishlov berilmagan variant);
2. Agrotexnik kurash usuli;
3. Biologik kurash usuli;
4. Kimyoviy kurash usuli;
5. Uyg'unlashgan kurash usuli.

Kurash choralarining biologik samaradorligi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$E = \frac{A - B}{A} \times 100$$

bu yerda:


- E — biologik samaradorlik (%);
- A — ishlov berishdan oldingi zararkunandalar soni;
- B — ishlov berilgandan keyingi zararkunandalar soni.

Entomologik hisoblar va kuzatuvlarni V.Yaxontov, G.Ya.Bey-Bienko, N.V.Boidarenko, A.A.Zaxvatki, S.A.Murodov; Zararkunandalarning zichligini Sh.T.Xo'jaev; Entomofaglarining dominantligi soni esa K.K.Fasulati, S.N.Alimuxamedovning uslublari asosida bajarildi. Fitofaglarining zararlilik darajasini V.I.Tanskiy uslubi bo'yicha aniqlandi.

Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Tajriba ma'lumotlarining o'rtacha qiymati, dispersiyasi va ishonchlilik darajasi hisoblab chiqildi. Tadqiqot natijalari jadval va diagrammalar asosida tahlil qilindi. Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan usullar na'matak zararkunandalariga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarining samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Na'matak pashshasiga qarshi kimyoviy usulda kurashish samarali hisoblanadi, shuning uchun ushbu zararkunandaga qarshi tavsiya etilgan fosfororganik preparatlarni ishlatish maqsadga muvofiq.



Na'matak pashshasi - *Rhagoletis alternata* Fall

Pushtirang bargo'rovchi (*Celypha rosaceana*). Qanotlarini yozganda 15-22 mm, oldingi qanoti och sarg'ishdan to'q jigarrangacha. Ular barglarini o'rab olib ichida hayot kechiradi.



Pushtirang bargo'rovchi - *Celypha rosaceana*.

Pushtirang bargo'rovchiga qarshi oldini olish choralari sifatida barg o'rovchi zararlagan shox-shabballarni kesib olib tashlash, nay shaklida o'ralib qolgan barglarni terib tashlash, havo harorati $+5^{\circ}\text{S}$ dan oshganda "Profilaktin" ($10\text{ l vody}/0,5\text{ l}$) preparatidan purkaladi. Bunda har bir daraxtga 2-5 litr suyuqlik sarflanadi. Na'matak gullaguncha 10 litr suvga 10 ml dan quyidagi *Atom*, *Ditoks*, *Di-68*, *Binom*, *Bi-58 Novyy*, *Rogor-S*, *Terradim*, *Desant*, *Tagor*, *Tod*, *Zolon*, *Fufanon* preparatlaridan purkaladi. *Avant*, *Lannat 20 L*, *Aktellik*, *Kalipso*, *Sumition*, *Samuray Super*, *Sumidju*, *Koragen* preparatlari ham yaxshi smara beradi. Agar kurash ishlari kechikib o'tkazilayotgan bo'lsa va lichinkalar barglar yoki g'unchalar ichiga yashirinib olgan bo'lsa, 10 litr suvga 3 ml dan quyidagi piretroidlar *Ayvengo*, *AltAlf*, *Akkord*, *Alfatsin*, *Alfashans*, *Si-Alfa*, *Fatrin*, *Fastak* purkaladi. Na'matak gullagandan so'ng yoki yozda yuqori zaharli preparatlarni ishlatish tavsiya etilmaydi. Bunday paytlarda bakteriyali preparatlardan *Lepidotsid*, *Bitoksibatsillin*, *Fitoverm* va *Akarin* preparatlarni ishlatish lozim. Bundan tashqari



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

kapalaklar ucha boshlagach hasharotlar rivojlanishini va o'sishni boshqaruvchi Insegar preparatini ishlatish ham yaxshi samara beradi.

Atirgul shirasi (*Macrosiphum rosae* L). Shiralarning dunyoda 4700 dan ortiq turi mavjud bo'lib mevali va manzarali daraxtlarga jiddiy zarar yetkazadigan va keng tarqalgani atirgul shirasi xisoblanadi.



Atirgul shirasi - *Macrosiphum rosae* L.

Shiralarga qarshi 2-3 marta xo'jalik sovuni eritmasi, shiralar judayam ko'payib ketsa Aktellik yoki Aktara preparatlaridan purkaladi.

Atirgul arrakashi (*Arge ochropus*). Arrakash barcha mevali va manzarali daraxtlarda xayot kechirishi mumkin. Asosan gul shonalarini zararlashi bilan mashxur. Lichinkasi kuchli zarar keltiradi. Kattaligi 7-10 mm atrofida, yaltirok tusda bo'ladi. G'umbagining uzunligi 10 mm, eni 5 mm bo'ladi. Bitta urg'ochisi 70 donagacha tuxum qo'yadi. Atirgul arrakashi namatak va atirgulni teng va asosli ravishda zararlaydigan hasharot.



Atirgul arrakashi - *Arge ochropus*.

U pardaqaotli hasharotlar - *Hymenoptera*, haqiqiy arrakashlar-*Tenthredinidae* oilasiga mansubdir.

Arrakashga qarshi Karbofos, Benzofosfat, Metafos, Xlorofos, Arrivo, Mospilan, Virusli preparatlardan Virin-Diprion, neonikotinoidlardan Aktara, piretroidlardan Karate, Kinmiks preparatlarini yaxshi samaradorlikka ega. Arrakashga qarshi akonit o'simligining 1 kg ni 10 suvda ikki kun 30 ml ishqor qo'shib ivitib qo'yib, 50 gr xo'jalik sovuni qo'shib o'simlikka purkash usuli ham mavjud.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

O'rgimchakkana (*Tetranychus urticae*). O'rgimchakkana boshqa o'simliklar qatorida, ayniqsa na'matakka kuchli ziyon keltiradi. O'rgimchakkana ayrim jinsli bo'lib, tanasi oval shaklda, erkagina bo'yi 0,2-0,3 mm, urg'ochisidiki 0,4-0,6 mm keladi. Orqasining sirtida yettita ko'ndalang chiziqqa joylashgan 26 ta ingichka tukcha bor.



O'rgimchakkana - *Tetranychus urticae*.

O'rgimchakkananing ko'payib ketishining asosiy sabablaridan biri bu, ob-havoning quruq kelishidir, shuning uchun daraxtlarga suv purkab turish ham uning daraxtga o'tib ko'payib ketishini oldini oladi. Agar o'rgimchakkana daraxtga o'tib olgan bo'lsa, unda boshqa kurash usullari qo'llaniladi.

Kir yuvish kukunidan 4-5 grammni 1 litr suvda eritib purkab turish ham o'rgimchakkananing ko'payishini oldini oladi.

Akaritsidlardan Sanmayt, Demitan, Omayt, Flumayt, Floromayt, Nissoran, Bikol, Bitoksibatsillin, Yenvidor, Apollo, Borneo yokii insektoakaritsidlardan Akarin, Agravertin, Vertimek, Dursban, Karate, Kleshchevit, Fitoverm, Aktofit, Neoron, Talstar, Fufanon, Oberon va boshqalar samarali isoblanadi. Kurash vositalarni kechqurun salqin tushgan vaqtda ishlatish samarali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva G.D., Mirzaitova M.K., Siddikova N.K. Vrediteli shipovnika. Vestnik nauki i obrazovaniya. №24-3 (78). 2019. str.6-9
2. Udalova Ye.G. Bolezni i vrediteli sadovyx rasteniy. SPb: Izdatelskiy dom "Neva". 2006. S.160
3. Istochnik: <https://floristics.info/ru/stati/vrediteli/3792-pililshchik-mery-borby-sredstva-i-preparaty.html>
4. Yusupova M. N. & Axmedova M. M. (2020). Mevali daraxtlarni zararkunandalariga uyg'unlashgan kurash choralari. Jurnal agro protsessing.
5. Yusupova, M. N., & Gapparov, A. M. (2020). Biological method of plant protection in Uzbekistan. *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, 2(11), 29-32.



UO'K: 937:635. 632.

PAVLOVNIYA DARAXTINING ASOSIY ZARARKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI SAMARALI KURASH USULLARI

Artikov Orifjon Obidovich 

Toshkent davlat agrar universiteti

O'simliklarni himoyasi va karantini kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pavlovniya daraxtining asosiy zararkunandalari keltirilgan bo'lib asosan o'rgimchakkan zararkunandasining morfologiyasi keng yoritilgan, ushbu so'ruvchi zararkunandaga qarshi samarali kimyoviy kurash olib borilgan. Bunda o'rgimchakkanaga qarshi Rimon Fast,10% s.k. va Neomektin,3,6 % e.k. kimyoviy preparatarini qo'llanilganda yuqori samaradorlikga erishilganligi jadval asosida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Pavlovniya, daraxt, zararkunanda, o'rgimchakkana, kimyoviy preparat, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье представлены основные вредители павловния, в основном широко освещена морфология паутинного клеща и проведена эффективная химическая борьба против вредителя. При этом, согласно таблице, высокая эффективность была достигнута при использовании химических препаратов Римон Фаст,10% к.с. и Неомектин,3,6% к.э. против паутинного клеща.

Ключевые слова: Павловния, дерево, вредитель, паутинный клещ, химический препарат, эффективность.

Abstract: The article presents the main pests of paulownia trees, in particular, the morphology of the spider mite is covered in detail, and effective chemical control of this sucking pest is carried out. Raymond Fast against spider mite, 10% k.s. and neomectin, 3.6% k.e. The table shows that high efficiency is achieved with the use of chemicals.

Keywords: Paulownia, tree, pest, spider mite, chemical preparation, efficiency.

KIRISH

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar xulosalariga ko'ra qishloq xo'jaligi sohasida yetishtirilayotgan barcha ekinlarning 1500 dan ortiq turdagi xavfli zararkunanda hasharotlar tomonidan zararlanishi va ularga qarshi har yili juda katta mablag' va ishchi kuchi sarflanishi tahlil qilingan. Ushbu zararkunandalarni chuqur o'rganish





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

va ilmiy asosida tadqiq etib ular miqdorini boshqarish bo'yicha olimlarning ko'p yillik izlanishlari mavjud bulib ularga qarshi kurash choralari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi 5-6 yillarda Pavlovniyaga qiziqish nihoyatda ortib bormoqda. Pavlovniya Yer sharida mavjud daraxtlardan nafaqat eng tez o'sishi bilan ajralib turadi, balki hayoliy go'zallik kashf etib gullashi, qimmatli yog'och, asal, biomassa manbai ekanligi bilan qadrlanadi, u manzarali daraxt sifatida istirohat bog'lari, xiyobonlarni bezaydi. Pavloniya daraxtini yetishtirish bilan birga uning zararli organizmlardan himoya qilish, ekologik toza usullarini ishlab chiqish va resurstejamkor texnologiyalardan foydalangan xolda xalqimizni ekologik toza bo'lgan pavloniya daraxtining mahsulotlari bilan ta'minlash o'ta dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

2023 yilda olib borilgan tadqiqot natijalarimizga ko'ra pavloniya daraxtiga bir qancha so'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalar uchrashi aniqlandi. So'ruvchi zararkunandalardan shiralar, oqqanotlar, qalqonli qandalalar, o'rgimchakkanalar uchrasa kemiruvchi zararkunandalardan g'o'za tunlami uchrab jiddiy zarar keltirishi kuzatilganligini aytishimiz mumkin.

O'rgimchakkanalar — O'rgimchaksimonlarga mansub kanalar oilasiga kiruvchi so'ruvchi zararkunanda. Zararkunanda poliz ekinlari hamda mevali daraxtlar ashaddiy zararkunandasi. O'rgimchakkananing oddiy o'rgimchakkana, bog' o'rgimchakkanasi meva qo'ng'ir kanasi, meva qizg'ish kanasi kabi 100 ga yaqin turi uchrashi aniqlangan.

Oddiy o'rgimchakka hammaxo'r zararkunanda bo'lib yetuk hasharotning tana uzunligi. 0,4—0,5 mm, 4 juft oyokli, tanasining ustki qismida 26 ta ingichka tukchalari bor, rangi yozda sarg'ish ko'kimtir, kuzda, qishda va erta bahorda qizg'ish yoki qizil. Tuxumi sharsimon (0,1 mm), yaltiroq, ko'kimtir. Lichinkasi 0,13—0,19 mm, uch juft oyoqli. Nimfalari 0,13—0,15 mm. O'simlik shirasi bilan oziqlanadi, o'simlik bargining orqa tomoniga uya yasaydi, shu joyda rivojlanadi. Erkagi urg'ochisiga nisbatan 2-marta kichik. Rivojlanish siklida tuxum, lichinka, pronimfa, deytroma va yetuk hasharot (imago) davrlarini o'taydi. Yetuk urg'ochilari 40 kungacha yashaydi va 140—600 tagacha tuxum qo'yadi. Harorat ko'tarilishi bilan rivojlanishi tezlashadi. Tuxumlardan 2—3 kunda lichinkalar chiqadi. Yiliga 12—18-martagacha avlod beradi. O'rgimchakkana o'zi ajratgan oq ipakchalari bilan o'simlik barglarini butkul qoplab oladi va hujayra shirasini so'rib, xloroplastlarni yemiradi. Natijada barglarda qizg'ish dog'lar paydo bo'ladi, keyinchalik dog'lar bir-biriga qo'shilib barglar qo'ng'ir tusga kiradi va vaqtdan erta to'kilib ketadi,

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Biz pavlovniya daraxtidagi jiddiy zarar keltiruvchi o'rgimchakkana zararkunandasiga qarshi samarali kurash usullarini Toshkent viloyati Pskent tumanidagi davlat O'rmon xo'jaligi hududidagi pavlovniya daraxtzorlarida olib bordik.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Tajribalar Sh.T. Xo'jaevning "Insektitsid, akaritsid, biologik aktiv moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" (1994) asosida olib borildi.

Ushbu tajribalarimiz pavlovniya daraxtidagi o'rgimchakkanalar miqdorini hisoblash uchun har bir bo'lak va takroriylikning o'rta qismidan 10 tadan namuna olindi. Har bir namunada uchtdan zararlangan novda ko'rib, o'rgimchakkananing o'rtacha miqdori aniqlandi. Kuzatuvlar preparat sepilishi oldidan va undan keyin 3; 7; 14 va 21 kunlaridan so'ng o'tkazildi. Preparatlarning biologik samaradorligi esa Abbot (1925) formulasi asosida hisoblandi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida o'rgimchakkana zararkunandasiga qarshi Rimon Fast, 10% k.s. Neomektin, 3,6 % k.e. Vertimek, 1,8 % k.e. (andoza) preparatlarini sinovdan o'tkazildik. Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Pavlovniya daraxtida o'rgimchakkanaga qarshi kimyoviy preparatlarni biologik samaradorligi (Toshkent viloyati 2023 yil)

Variantlar	Sarf miqdori, l/ga	O'rtacha 1 bargdagi kanalarning soni, ekz.					Biologik samaradorlik, kunlar, %			
		Ishlov berguncha	Ishlovdan keyin, kunlar							
			1	3	7	14	1	3	7	14
Rimon Fast, 10% k.s.	0,7	30,2	11,5	7,9	3,9	2,8	66,0	71,1	78,8	80,1
Neomektin, 3,6 % k.e.	0,15	30,4	10,1	4,5	2,9	4,0	61,8	78,2	80,0	82,7
Vertimek, 1,8 % k.e. (andoza)	0,5	27,2	11,6	6,1	3,2	2,8	56,8	77,9	84,3	86,4
Nazorat (ishlovsiz)	-	25,3	26,8	30,6	4,9	5,3	-	-	-	-

NSR₀₅

2,7

Olingan natijalarga ko'ra, o'rgimchakkana (Tetranychidae) zararkunandasiga qarshi turli kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sinovdan o'tkazilgan barcha preparatlar zararkunanda sonini sezilarli darajada kamaytirgan bo'lsa-da, ularning ta'sir darajasi va davomiyligi bir-biridan farq qildi.

Tajriba boshlanishidan oldin variantlar bo'yicha o'rtacha zararlanish darajasi deyarli bir xil bo'lib, bir bargdagi o'rgimchakkana soni 27,2-30,4 dona oralig'ida qayd etildi. Bu esa tajriba variantlari o'rtasida dastlabki fonning tengligini va olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlaydi.

Rimon Fast 10% k.s. preparati 0,7 l/ga me'yorida qo'llanilganda ishlovdan keyingi 3-kuni biologik samaradorlik 66,0% ni tashkil etdi. Keyingi kuzatuvlarda





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

preparat ta'siri bosqichma-bosqich ortib bordi va 7-kuni 71,1%, 14-kuni esa 80,1% samaradorlik qayd etildi. Shu bilan birga, o'rgimchakkana soni bir bargda 30,2 donadan 2,8 donagacha kamaydi. Ushbu holat preparatning zararkunanda populyatsiyasiga nisbatan uzoq muddatli va barqaror ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Zararli xasva uyg'onishi mart-aprel oylarida o'rtacha bir kecha-kunduzlik harorat 10-12°C ga yetganda boshlanadi. Qishlov joyining o'rtacha havo harorati 15-20°C bo'lganda, xasva g'allazorlar tomonga uchib, tarqala boshlaydi. Bu g'allaning tuplanish davriga to'g'ri keladi. Xasva tuxum qo'yishga tayyor bo'lishi uchun uning qo'shimcha oziqlanishi shart, shu sababli o'simlikning shirasi bilan qo'shimcha oziqlanadi. Bahorda ob-havo noqulay kelib, harorat keskin pasaysa yoki yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, xasvaning tarqalishi hamda oziqlanishi to'xtaydi, ular o'simlikning ostki qismiga yashirinib oladilar. Faqatgina harorat ko'tarilishi bilan ular oziqlanishni davom ettiradilar. Yoppasiga g'allazorlarga uchib o'tishni boshlangandan 7-15 kun o'tgach, urg'ochilari tuxum qo'ya boshlaydilar (mart oyining oxiri, aprelning boshi). Havo haroratining o'zgarishiga qarab, 15-20 kun ichida tuxum qo'yishni tugallaydilar. Havo harorati past yoki yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, tuxum qo'yish 40 kungacha davom etishi mumkin. Urg'ochilari tuxumini g'alla bargining ostki qismiga hamda o'simlikning tanasiga qo'yadi. Tuxumlarni odatda 7 donadan ikki qator qilib joylashtiradi. Bitta urg'ochisi 35-42, ayrim vaqtlarda 150 tagacha tuxum qo'yadi. Lichinkalarning 2-4-yoshlarga o'tishi bug'doyning sut pishish davriga to'g'ri keladi. Shu sababli, ular boshqqa chiqib uni so'rib zarar keltiradi. Havo haroratiga qarab lichinkalarning rivojlanishi 25 kundan 50 kungacha davom etishi mumkin. Beshinchi marta po'st tashlagandan keyin yosh xasvadan voyaga yetgan yetuk zotlar paydo bo'ladi. Bu zotlar qishlovga ketish



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

maqsadida tanasiga yetarli miqdorda yog' moddasini to'plash uchun don shirasi bilan uzoq vaqt oziqlanadilar. Bir yilda bir marta ko'payadi.

Xasva bilan zararlangan o'simlikda hasharot zichligiga ko'ra 30-40% gacha hosildorlik kamayadi, yangi don urug'ining unuvchangligi esa 50% gacha pasayishi qayd qilingan.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Zararli xasva ko'payadigan zonada qandala uchib kelgandan so'ng, 5-7 kun davomida, bug'doy gullashi va donning yetilish davrida - lichinkalar joylashishini aniqlash maqsadida tekshirish o'tkazildi. Barcha holatlarda ham 0,25 m² (50x50 sm) o'lchamlardagi maydonchalar olindi. Bug'doy, tuproq yuzasi va o'simlik qoldiqlari ko'rib chiqildi. 1 m² dagi qandala, tuxum va lichinkalar sanaldi. Tunlam paydo bo'lganda, birinchi ikki yoshdagi kapalak qurtlami hisoblash uchun dalaning turli joylaridan 100 tadan o'simlik olinadi. 100 boshqda to'g'ri keladigan zararkunandalar miqdori aniqlandi. Yetuk kapalak qurtlar va kapalaklarni har 0,25 m² dan olingan tuproq namunalari 1 m² ga to'g'ri keladigan zararkunandalar miqdorini aniqlab hisobga olindi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Zararli xasvaga qarshi olib borilgan tadqiqotlari 2024 yildagi Samarqand viloyati Urgut tumani "Davtonov Qobiljon oltin zamini" fermer xo'jaligi dalasida olib borildi. Zararli xasvadan qo'llanilgan 1-variantimizdagi agrofos ekstra 60 % em.k + entomikro preparat va mikro o'g'itlari ta'sirida zararkunandalarning soni pasaydi va biologik samaradorlik 95,1 % ni tashkil etdi.

1-jadval

Zararli xasvaga qarshi qo'llanilgan mikro o'g'it va insektisidlarning biologik samaradorligi

№	Variantlar	Preparatlar sarf me'yori l/ga	Mikro o'g'itlar sarf me'yori kg/ga	Zararkunandalarning 1 m ² dagi o'rtacha soni, dona				Biologik samaradorlik, kunlar bo'yicha, %		
				ishlov-gacha	ishlovdan keyin, kunlar			3	7	14
					3	7	14			
1.	Agrofos ekstra 60 % em.k + Entomikro	0,5	1,0	10,3	3,5	0,9	0,5	66,0	91,2	95,1
2.	Agrofos ekstra 60 % em.k + Entomikro	0,2	0,5	12,1	5,4	1,9	1,4	55,3	84,3	88,4
3.	Agrofos ekstra 60 % em.k	0,5	-	11,0	4,5	1,2	0,7	59,0	89,0	93,6
4.	Nazorat (ishlovsiz)	-	-	11,9	10,7	10,5	10,0	-	-	-





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

XULOSA

G'alla ekinlari orasida ko'p turdagi zararkunandalar zarar yetkazishi hisobga olib, bulardan eng ko'p tarqalgani g'alla shiralari, bug'doy tripsi, zararli xasva, shilimshiq qurt, vizildoq qo'ng'iz, shved va gessen pashshalari va boshqa hasharotlar tarqalib, hosilga zarar yetkazishini aniq muddatlarini aniqlab, o'z vaqtida kurash choralarini olib borish kerak.

Zararli hasva va boshqa zararkunandalarga qarshi o'tkazilgan kurash chorasi natijasida agrofos ekstra 60 % em.k + entomikro, preparati 1 l/ga sarf meyorida qo'llanilgan variantimizda eng yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Agrofos ekstra 60 % em.k + entomikro preparat va mikro o'g'itlarini qo'llaganimizda zararli xasvadan samarali himoya qilib sifatli hosil olishni taminlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Голуб В.Б., Ковалева Д.А., Шуровенков Ю.Б. и др. Энтомологические и фитопатологические коллекции, их составление и хранение. – Воронеж: «Изд. Воронежского Университета», 1980. – 224 с.
2. Дорохова Г.И. Характер влияния биотических факторов на репродуктивное поведение галлицы афидомизы в системе растение – тли – галлица/ Защита растений в условиях реформирования агропромышленного комплекса: экономика, эффективность, экологичность». – Санкт-Петербург, 1995. – С. 187.
3. Kimsanboyev X.X va bosh. Umumiy va qishloq xo'jaligi entamologiya o'simliklarni zararkunandalardan uyg'ulashgan himoya qilish. Toshkent 2002.
4. Po'latov Z. va b Sug'oriladigan g'allazorlarda uchraydigan so'ruvchi zararkunandalarning turlari va zarari. Agrar sohada fan, talim va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (28 dekabr 2011 yil Toshkent sh).
5. Xo'jayev O'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish tizimi va uning tarkibidagi biologik usulning tuzilishi va mohiyati. Toshkent 2011 – B 238- 240.
6. Xo'jaev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish hamda agrotoksikologiya asoslari, T, "Navro'z" nashri. 2014. 185-187 b.
7. Xo'jaev Sh.T. tahriri ostida nashr etilgan "Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" T., "Ko'hi-nur" MCHJ bosmaxonasi. 2004.18-20



УДК: 635.9: 878.32: 632.7: 632

ОБРАЗОВАНИЯ НА ВЕГЕТАТИВНЫХ ЧАСТЯХ РАСТЕНИЙ

Ходжаев Шамиль Турсунович 

доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Научно-исследовательского института карантина и защиты растений

Ахмедов Анвар Турсунбаевич 

соискатель Андижанского государственного университета

Рузматов Шерзод Абдилбоқиевич 

докторант (PhD) Научно-исследовательского института садоводства, виноградарства и виноделия имени ак.М.Мирзаева

Нурмухамедова Дилафруз Шамиловна 

соискатель Ташкентского государственного аграрного университета

Аннотация. Натуралисты часто замечают необычную картину – на верхней стороне листьев некоторых деревьев (тополь, ива, вязь и др.) образуются причудливые узоры-наросты. Иногда их так много, что листья вообще теряют внешний вид. Эти образования есть результат жизнедеятельности представителей определённой группы насекомых-тлей, орехотворок и др., слюнные выделения которых вызывают наросты. Эстетически, что такой тип повреждений также вызывает нарушения в нормальном развитии деревьев и кустарников – усыхание и даже высыхание. Авторами рекомендован метод предупреждения заражения деревьев – однократная обработка инсектицидами в начале их заселения – в марте и апреле.

Ключевые слова: тополь, ива, вязь, повреждения – галлы, тли, орехотворка, меры предупреждения и защиты.

Abstract. The naturalists often notice an unusual vision – fancy shapes of such cogs appear on the upper side of some trees' leaves (poplar, willow, elm and others) some-times there are so many of them that the leaves generally lose their usual appearance. There formations are the result of the activity of some king of aphids – *Pemphigidae*, salivary of which can resulted in such cogs. Naturally, this type of deformations also causes damage to the normal development of trees and shrubs – drying out or even total loss. The authors recommend using insecticide treatment of trees twice at the beginning of their dwelling – in March and April.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Keywords: prevention and protection of poplars, willows, elm trees, tuberous growths, aphids, and walnut trees

Annotatsiya. Ahyon-ahyonda tabiatshunoslar ayrim daraxtlarning (terak, tol, qayrag'och va b.) barglarida g'ayri tabiiy o'simta-shishlar borligini kuzatishlari mumkin. Ayrim barglarda ularning ko'pchiligidan tashqi ko'rinishi o'zgarib qolishi mumkin. Bu o'simtalar ayrim hasharotlar (shira, yong'oqyasarlilar va b.) shikastining natijasi bo'lib, so'lagi ta'sirida vujudga keladi. Tabiiyki, o'simlik uchun bu zararli bo'lib, daraxt va butalarning novdalari qurib qolishi mumkin. Mualliflar tomonidan buni oldini olish uchun mart-aprel oylarida 3 martagacha kimyoviy ishlov o'tkazish usuli tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: terak, tol, qayrag'och, shish-o'simtalar, shira, yong'oqyasarlilar oldini olib himoya qilish

ВВЕДЕНИЕ

Разнообразна и прекрасна природа. В частности, на листьях отдельных растений или деревьев можно заметить причудливой формы, разукрашенных или без, наросты-галлы. Иногда эти наросты являются естественными, нарабатанными в ходе эволюционного развития или появившейся потребительной необходимости организма. Но есть (и их значительно больше) и такие наросты, которые появляются в результате жизнедеятельности насекомых или животных [1,3]. Часто такие наросты выполняют функцию проживания (размножения) и питания членистохоботных (равнокрылых), а также или перепончатокрылых насекомых. Насекомые, из этих отрядов, обладая колюще-сосущим ротовым аппаратом, вводят в ткань повреждаемых растений жидкость с ферментами или фитогормонами, которые посредством гиперплазии или гипертрофии вызывают появление не естественных наростов – «домиков» [1,4].

В ходе изучения вредителей тополей и ивы мы часто сталкивались с причудливой формы наростами на листьях контролируемых деревьев [2]. Во-первых, следует отметить, что эти наросты небезразличны для деревьев: они страдают, отстают в росте, ослабевают и даже засыхают отдельные ветви. Наши исследования и наблюдения, проведённые в нескольких районах Андижанской и Ташкентской областей Узбекистана после 2000 года показали, что имеются несколько видов тлей, вызывающих появление наростов на листьях тополей. Эти тли относятся к семейству пемфигидэ (*Pemphigidae*).

У обычных по размеру этих насекомых на спинной стороне имеются специальные железы, вырабатывающие белые пушистые восковые образования. На месте соковыделяемых трубок имеются две ямочки: задний конец тлей имеет овальную форму. Эти насекомые, как правило, являются двудомными – развиваясь в начале сезона на тополе, вязе и других деревьях, образуя там новообразования галлы, а затем переселяются на корни различных сложноцветных или зерновых культур и продолжают размножение. Ярким



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

представителем пемфигид является яблоневая кровавая тля (*Eriosoma lanigerum* Hausm.).

На молодых саженцах тополей часто встречается грушевидно-галлообразующая тля – *Pemphigus bursarius* L. (см. рис.).

Этот вид тли наиболее часто заражает основание ветвей или черешки листьев тополей, развивается внутри, образованных ими галл (5-8 поколений), а затем в конце мая-июне галлы лопаются и из них высыпаются крылатые и без, тли – переселенцы. Внутри таких галл иногда можно сосчитать до 400 особей тли.




Рис.1. Возбудители наростов – тли:

1,2 – заражение ветвей тополей грушевидно галлообразующей тлей,
3 – особи тли в галлах, 4 – ветви тополя, заражённые орешковидно галлообразующей тлей.

Другим видом тлей на тополях является орешковидно-галлообразующая тля (*P. lichtensteini* Tul.), что также вызывает отставание и усыхание деревьев. На подобию первой, и эта тля является двудомной, развивающейся внутри крепких и толстостенных орешков – галл. Частыми местами обитания этих тлей являются тополя в предгорных и горных районах всей республики. Заражённые побеги часто усыхают (см.рис.1).

Ещё одним широко распространённым галлообразующим видом тлей, обитающим на различных стадиях в условиях Центральной Азии является вязово-злаковая тля - *Bursocrypta (Tetraneura) ulmi* L. Этот вид тлей в большей степени повреждает вяз – на верхней стороне листьев этих деревьев образуются небольшие наросты, величиной в сою или нут, внутри которых и обитают живородящие самки тлей. Наросты с различными оттенками изменяют обычное восприятие листового покрытия таких деревьев. Препарирование наростов показывает, что внутри одной галлы можно заметить от одной до несколько десятков особей тлей; иногда такие особи тлей не покидают галлы в течение всего сезона, из-за чего такое дерево страдает, а ветви могут засохнуть [3,5].

Ещё одним видом галлообразующих тлей из рода *Tetraneura* является вязовая красноглазая тля – *T. coerulescent* Pass. И этот вид, являясь широко распространённым на территории Узбекистана, повреждает не только вяз, но и тополя. На заражённых листьях деревьев можно заметить небольшие



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

гофрированные «мешочки», тонко покрытые тканевой оболочкой; они однотонные, бесцветные. Такие деревья сильно страдают. Внутри образований развиваются несколько поколений тли, а затем образуются крылатые самки – расселительницы, которые переселяясь на корни кукурузы или злаковых растений, продолжают род и обеспечивают зимовку популяции.

Другим представителем насекомых, из-за жизнедеятельности которых на ветвях и чашечках листьев, особенно шиповника, образуются различной конфигурации довольно крупные наросты – галлы, является розанная орехотворка – *Rhodites rosae* L., из отряда перепончатокрылых насекомых (*Hymenoptera*) и надсемейства орехотворок (*Cynipoidea*). Наросты, образующиеся на ветвях шиповника, не только угнетают растение, но и являются причиной падения урожайности и ухудшения эстетичного вида кустарника (см.рис.2).



Рис.2. Розанная орехотворка:

- 1 – окукление и вылет имаго насекомого после перезимовки,
- 2 – молодые галлы насекомого на листьях и черешках шиповника,
- 3 – формирующиеся крупные галлы насекомого, с несколькими десятками камер с личинками насекомого.

Насекомое перезимовывает внутри галл в стадии личинок. Весной, обычно в марте, личинки окукливаются, а затем через округлые отверстия вылетают имаго, самки которых после спаривания откладывают до 50 яиц часто на повреждённые участки листьев или ветвей. Биологически активные вещества, имеющиеся в слюне личинок, посредством процессов гиперплазии и гипертрофии обеспечивают образование наростов, внутри которых и живут до завершения генерации, или перезимовки. В сезоне развиваются видимо 2-3 поколения.

«Домики» на листьях сельскохозяйственных растений казалось бы не мешают – иногда они эстетичны, но если подойти к хозяйственной точки зрения, то они вызывают страдание растений. Они отстают в росте и развитии, снижают урожай и его качество. Всё это, естественно, ориентирует защитников растений принять меры по предупреждению заселённости растений этими организмами.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

В течение ряда лет мы не только изучали причинность явлений, а следовательно, устанавливали уязвимые сроки предупредительно-истребительных мероприятий, но и разработали приёмы и средства эффективной защиты деревьев от них.

Сроки проведения первой химической обработки шиповника от розанной орехотворки по годам могут меняться в зависимости от весенних условий местности.

В зависимости от наступления среднесуточных температур выше 10 °С, оптимальным сроком первой защитной обработки, предусматривающей уничтожение имаго орехотворок, которые отродясь не питаются, а спарившись приступают к откладке яиц на просыпающиеся бутоны, является третья декада марта. Ввиду того что ротовой аппарат у ореховорок редуцирован и они не питаются, кишечные действующие инсектициды для них бесполезны. Поэтому более эффективны препараты с контактным и фумигантным действием. Для достижения наиболее желаемого результата, последующие 2 обработки необходимо провести через каждые 3-4 дня.

Для эффективной защиты могут быть использованы любые из синтетических пиретроидов (Каратэ, Циперметрин, Фастак, Нурелл-Д и др.), или системные неоникотиноиды (имидоклоприд, ацетамиприд) и эмамектин (абамектин с трансламинарным действием).

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Насекомые Узбекистана (под ред. Д.А. Азимова, А.А. Бекузина, А.Г. Давлетшиной и М.К. Кадыровой). – Ташкент: «Фан», 1993. – С. 61-69.
2. *Ходжаев Ш.Т.* Методические указания по испытанию инсектицидов, акарицидов, биологически активных веществ и фунгицидов (II-изд., на узб. яз.). 2004. – 104 с.
3. *Ахмедов А., Ходжаев Ш.* Вредители тополей //Узбекский биологический журнал. – 2013. - №3. – С. 25-27.
4. *Ахмедов А., Ходжаев Ш.Т.* Тополь и земледелие /Сборник трудов (н.произв. конф., Ташкент, 11-12.XII. 2014 г.). – Ташкент, 2014. – II часть. – С. 172-175 (на узб. яз.).
5. *Ахмедов А.Т., Ходжаев Ш.Т.* Влияние тополей, посаженных на межах, на урожайность хлопчатника /Сб. статей. – Ташкент: Навруз, 2016. – С. 16-20.
6. *Рузматов Ш.А., Хўжаев Ш.Т.* Наъматак шиш ҳосил қилувчисининг биологик хусусиятлари //Агро кимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини. – 2025. - №1(108). – Б. 41-44.



УДК: 632.937:632.4

ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ БИОПРЕПАРАТА «БАКТОФОРТ» Ж. В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРАКТИКЕ

Тилляходжаева Нигора Рузиматовна 

к.с/х.н., с.н.с.

e-mail: TRNigoraxon@gmail.com

Усмонкулова Азиза Анвар кизи 

PhD

e-mail: usmonkulova.aziza@mail.ru

Қурбонова Нафосат Саттор кизи 

PhD

Мирзаакбарова Ёркиной Дониёр кизи

докторант

Собирова Муниса Махмутовна

лаборант

Аннотация. В статье приведены результаты научных исследований по изучению влияния биологического препарата «Пестицид Бактофорт» ж., представленного совместно ООО «BIONA GROUP» Узбекистан и ООО «Сельскохозяйственное предприятие Нива» Россия, против фузариозного увядания (вилта) хлопчатника, проведенные в 2024 году сотрудниками лаборатории «Биологической защиты сельскохозяйственных культур от вредных организмов» Научно-исследовательского института по карантину и защите растений.

Ключевые слова: фузариозное увядание, хлопчатник, биологический препарат, Fusarium, распространение, развития болезней.

Annotatsiya. Maqolada O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining "Zararkunanda va kasalliklardan biologik himoya qilish" laboratoriyasi xodimlari tomonidan 2024-yilda o'tkazilgan g'o'zaning fusarioz so'lish (vilt) kasalligiga qarshi O'zbekistonning BIONA GROUP MChJ va Rossiyaning "Niva" qishloq xo'jaligi korxonasi MChJ tomonidan hamkorlikda taqdim etilgan "Пестицид Бактофорт" ж. biologik preparatining samarasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: fuzarioz so'lish, g'o'za, biologik preparat, Fusarium, tarqalish, kasallikni rivojlanishi





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Abstract. The article presents the results of scientific research conducted in 2024 by the staff of the “Biological Control of Pests and Diseases” Laboratory of the Plant Quarantine and Protection Research Institute on the effectiveness of the biological product “Pesticide Baktofort Zh.” against Fusarium wilt disease of cotton. The biological preparation was jointly provided by BIONA GROUP LLC of Uzbekistan and Niva Agricultural Enterprise LLC of Russia.

Keywords: Fusarium wilt, cotton, biological preparation, Fusarium, distribution, disease development

ВВЕДЕНИЕ

Хлопчатник в разные фазы развития поражает много болезней. Они сильно снижают урожай сырца и семян, часто резко ухудшают их качество. Ранее защите хлопчатника уделялось большое внимание – был разработан и внедрен комплекс мероприятий по ограничению развития болезней и уменьшению их вредоносности.

Наиболее вредоносными болезнями хлопчатника в СНГ считаются вертициллезный и фузариозный вилт. Фузариозный вилт хлопчатника также, как и вертициллезный, считается одним из наиболее распространенных в хлопководческих районах как в СНГ, так и в других странах мира. Они являются причиной значительного недобора урожая хлопка-сырца.

В почвенно-климатических условиях Узбекистана хлопчатник поражается двумя видами патогенных грибов рода Фузариум. *Fusarium oxysporum* – форма spp. *Vasinfestum* – специализированная форма вызывает увядание хлопчатника. *Fusarium verticilloides* вызывает корневую гниль. Среди них широко распространенным и вредоносным является *Fusarium oxysporum*. Этот вид поражает растение, начиная с ранних фаз развития.

До недавнего времени самым действенным средством считался химический метод, но по мере того, как было осознано очевидное влияние, вредное и часто губительное действие на организм человека и животных химических соединений, используемых для защиты растений. Для предотвращения экологической катастрофы необходима замена химического способа защиты растений от патогенных микроорганизмов сельскохозяйственных культур, на биологический метод. Одним из путей предотвращения воздействия вредных организмов является применение экологически чистого биологического метода защиты растений. В связи с этим перед специалистами в области защиты растений и охраны окружающей среды на основе складывающейся обстановки возникла необходимость повышения удельного веса, биологического метода защиты растений.

В последние годы в мире проводятся интенсивные исследования по скринингу (поиску) и выделению антагонистов возбудителей болезней растений, в том числе различных специализированных форм *Fusarium oxysporum*, изучению их биологической эффективности против патогенов,



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

механизмов их действия, ризосферной компетентности, синтеза ими биологически активных веществ (антибиотиков, ферментов, токсинов и т.д.).

Использование бактериальных антагонистов основано главным образом на механизме антибиоза, регулирующем взаимоотношения полезных и вредных микроорганизмов. Антибиоз играет важную роль в ризоплане (зоне ризосферы вокруг корней и корневых волосков шириной до 100 мкм). Использование этого метода направлено не на полное уничтожение популяции фитопатогенов, а на существенное ограничение их развития и снижение вредоносности. Источником получения штаммов антагонистических бактерий являются супрессивные почвы, существенно подавляющие развитие фитопатогенов до полного их искоренения. Бактериальные препараты против болезней растений часто производят на основе бактерий из родов *Pseudomonas* и *Bacillus*, в том числе *Pseudomonas fluorescens* Mig., *P. putida* (Trevisan) Mig., *P. Aureofaciens*.

B. subtilis (сенная палочка) распространена в почве, воде, воздухе и является наиболее продуктивным видом рода *Bacillus* по синтезу более 70 антибиотиков. Некоторые из этих антибиотиков подавляют рост фитопатогенных грибов. В ВИЗР (Россия) выявлен штамм *B. subtilis* 10-ВИЗР, ингибирующий прорастание конидий и развитие мицелия *Fusarium spp.* (Штерншис М.В. и др., 2004).

Установлено также, что при предпосевной обработке семян и внесении в почву *B. subtilis* эффективно защищает томаты от фузариозного вилта (Ghonim M.I., 1999, Rorberti R., Selmi C., 1999)

Анализ литературных сообщений говорит о том, что во многих частях мира в последние годы большое внимание уделяется биологическому методу борьбы с фитопатогенными заболеваниями, препаратами на основе бактериальных организмов.

Представленные выше материалы дают возможность оценить состояние в области усовершенствованных способов защиты растений от болезней для получения дополнительной продукции, на основе высокоэффективных приемов применения биофунгицидных препаратов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Полевые опыты по изучению эффективности препарата «Пестицид Бактофорт» ж. против фузариозного вилта хлопчатника – опрыскивание в фазу 3-4 настоящих листьев + опрыскивание перед цветением – нормами расхода 2,0 л/га+2,0 л/га и 3,0 л/га+3,0 л/га, проводили в условиях Ташкентской области, Чиназском районе, ф/х Эргашев Калман. Опыты по изучению эффективности действия проводили согласно «Методическим указаниям...», изданным Госхимкомиссией (1994 и 2004 гг.). Опыты производственные. Общая площадь делянки 0,5 га. Для проведения учетов на каждой учетной делянке выделялись учётные растения. Повторность опыта 4-х кратная.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Густоту стояния определяли подсчетом растений на всей учетной площади делянки после прореживания и в конце вегетации. Фенологические наблюдения за ростом, развитием и плодоношением проводили на 100 учетных растениях каждого варианта. Данные по урожаю подвергали математической обработке методом анализа дисперсии по Б.А.Доспехову (1979). Расчет биологической эффективности проводили по формуле Аббота (1929) предусматривающей поправку на контроль.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Лабораторные исследования. Перед проведением производственных полевых испытаний препарата «Бактофорт» ж. было проведено исследование его влияния против возбудителей фузариозного увядания (*анализ на активность против чистых культур патогенов*) в лабораторных условиях в чашках Петри. Результаты лабораторных анализов показали положительную активность данного препарата против возбудителя хлопчатника. Во всех повторениях (*в трех чашках Петри*) полезные бактерии-антагонисты имели приличную лизисную зону против патогена. Диаметр чашки в круговую покрылся бактерией рода *Bacillus*, образуя между патогенами зону подавления.

Биологическая эффективность и урожайность. В первоначальный период на хлопчатнике патоген *Fusarium oxysporum*-форма *sp. Vasinfectum*, вызывающий увядание проявлялся частично. Результаты испытуемого биопрепарата представлены в таблице №1. По данным таблицы, учеты урожая хлопка-сырца, проведенные в конце вегетации, в период созревания показали явное лидерство того варианта, где применялся «Бактофорт» ж. опрыскивание в фазу 3-4 наст. листьев + опрыскивание перед цветением – 3,0 л/га + 3,0 л/га по общему количеству собранного, прибавка – 2,1 ц/га. Испытуемый вариант с более низкой нормой – 2,5 л/га тоже не отставал по своим показателям. Следует заметить также, что при этой норме применения препарата, биологическая эффективность его в периоды учета заболевания хлопчатника вилтом по фазам развития показала наиболее высокий результат, достигший в период бутонизации – 62,3%, в фазу появления коробочек – 71,5%, и в период созревания 80,5% по сравнению с эталонным и контрольным вариантами.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Таблица №1

Влияние биопрепарата «Бактофорт» ж. на биологическую эффективность и урожайность хлопчатника в условиях Ташкентской области, Чиназского района, Ф/Х Эргашев Калман

Варианты опыта	Норма расхода л/га л/т	Учет заболевания хлопчатника вилтом по фазам развития, %			Биологическая эффективность %			Урожайность ц/га	Прибавка ц/га
		Бутонизация	Коробочки	Созревания	Бутонизация	Коробочки	Созревания		
Контроль без обработки	-	22	31,6	42	-	-	-	20,3	-
Эталон-СПОРАГИН с.э.к., 1500 ЕА\г	0,2+0,2+0,2	11	14	12	50,0	55,7	71,4	21,6	1,3
«Бактофорт» ж	2,0+2,0	9,0	10,3	9,1	60,0	67,4	78,3	22,0	1,7
«Бактофорт» ж	3,0+3,0	8,3	9,0	8,2	62,3	71,5	80,5	22,4	2,1

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

На основании проведенных нами исследований по изучению влияния биологического препарата «Пестицид Бактофорт» ж., представленного совместно компаниями «BIONA GROUP» Узбекистан и «Сельскохозяйственное предприятие Нива» Россия, против фузариозного увядания (вилта) хлопчатника, можно сделать следующие выводы: биопрепарат «Бактофорт» ж. обладает хорошей биологической эффективностью на хлопчатнике в норме расхода опрыскивание в фазу 3-4 настоящих листьев (3,0 л/га) и опрыскивание в вегетацию перед цветением (3,0 л/га) – 80,5%. Не обнаружена фитотоксичность препарата, хорошо образует рабочую суспензию.

ЛИТЕРАТУРА

1. Доспехов Б.А. - Методика полевого опыта. //Москва, 1979. - 445 с.
2. Методические указания по испытанию инсектицидов, акарицидов, биологически активных веществ и фунгицидов //Госхимком. РУз -Ташкент. 2004.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK-LAR KARANTINI

3. Штерншис М.В., Джалилов Ф.С.-У., Андреева И.В., Томилова О.Г. Биологическая защита растений. М.: «Колос», 2004, 264 с.
4. Ghonim M.I. Induction of systemic resistance against *Fusarium* wilt in tomato with the biocontrol agent *Bacillus subtilis*. Bull. Fac. Agric. Univ. Cairo, 1999, v. 50, pp. 313-328 (цит. по Zhang et al, 2009).
5. Rorberti R., Selmi C. Biological control of plant pathogens by *Bacillus subtilis*. Inf. Fitopatol., 1999, v. 29, pp. 15-21 (цит. по Zhang et al, 2009).



UO'K: 632.51

XORAZM VILOYATI SHAROITIDA G'O'ZA MAYDONLARIDA TARQALGAN BEGONA O'TLAR TURLARI VA ULARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kurambayev Oybek Ilxamjanovich 
direktor

Yusupova Mahliyo Erkin qizi 
kichik ilmiy xodim

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
Xorazm mintaqaviy filiali

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda begona o'tlarning biologik rivojlanish mexanizmlari va ekologik moslashuv omillari o'rganildi. Begona o'tlarning ko'payish yo'llari, tashqi morfologik belgilarining agrotsenoz sharoitida namoyon bo'lishi hamda g'o'za hosildorligiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari begona o'tlar sonini cheklashga qaratilgan kompleks boshqaruv choralarini asoslash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Begona o'tlar, biologik moslashuv, ekologik barqarorlik, agroekotizim.

Abstract. This study investigated the mechanisms of biological development of weeds and factors of adaptation to the environment. It included methods of reproduction of weeds, external morphological characteristics of weeds in agrocenosis conditions, and their.

Keywords: Weeds, biological adaptation, ecological sustainability, agroecosystem.

Аннотация. В данной научной работе изучались механизмы биологического развития и факторы экологической адаптации сорняков. Анализировались методы размножения сорняков, проявления внешних морфологических признаков в условиях агроценоза и их влияние на урожайность хлопка. Результаты исследования позволяют обосновать комплексные меры по борьбе с сорняками, направленные на ограничение их численности.

Ключевые слова: Сорняки, биологическая адаптация, экологическая устойчивость, агроэкосистема.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

Begona o'tlar butun dunyo bo'ylab tarqalgan bir necha ming turdagi begona o'tlar ma'lum. Begona o'tlar madaniy o'simliklarni nobud qiladi, tuproqdan ko'p miqdorda suv va ozuqa moddalarni o'zlashtiradi, ildizdan tuproqqa zararli moddalarni chiqaradi, ularni yorug'likdan mahrum qiladi va hokazo; bularning barchasi hosilni pasaytiradi va ba'zi hollarda ekinlarning nobud bo'lishiga olib keladi. Bir va ikki pallali begona o'tlar qishloq xo'jaligida madaniy o'simliklar yonida o'sadi va ular bilan yashash joyi, suv, ozuqa va yorug'lik uchun raqobatlashadi. Yovvoyi o'tlar daladagi yashash sharoitlariga mukammal moslashgan. Begona o'tlar kuchli rivojlangan ildiz tizimi bilan madaniy o'simliklarga nisbatan tuproqdagi oziqa modda va va namlikdan ko'proq foydalaniladi, ularning rivojlanishi hamda yuqori hosil to'plashiga to'sqinlik qildi. Respublikamizda, jumladan Xorazm viloyatida g'o'za maydonlarida begona o'tlarning bir qancha turlari tarqalgan bo'lib, ular g'o'za maydonlaridagi g'o'za hosildorligiga katta zarar yetkazadi. Shuning uchun bu begona o'tlarning turlarini aniqlab, ularning biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish orqali kurash choralarini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqot ishi Xorazm viloyati sharoitida begona o'tlarni o'rganish va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Begona o'tlar- qishloq xo'jaligiga juda katta zarar yetkazadi. Ular hosil miqdori va sifatini pasaytiradi. Madaniy ekinlar dalalarida begona o'tlarning tarqalishi, zarari va tur tarkibini o'rganish bo'yicha bir qator chet davlatlarda, jumladan Hindiston, Xitoy, AQSh, Yaponiya, Koreya, Eron, Rossiya va Turkiyada keng tadqiqotlar olib borilgan [2, 6]. Begona o'tlar suv, yorug'lik, oziq moddalar va boshqa tashqi muhit omillaridan juda yaxshi foydalanadi. O'g'itlar tarkibidagi oziq moddalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi 30-40%, don hosilini 20-50% gacha kamaytirib, donning sifatini buzadi [1, 3].

MATERIALLAR VA USULLAR

Xorazm viloyatida begona o'tlarning tarqalishi, tur tarkibi va botanik xususiyatlarini o'rganish uchun tadqiqot ishlari viloyatning Shovot, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Xonqa va Urganch tumanlarida olib borildi. G'o'za maydonlaridan to'plangan begona o'tlar namunalari yig'ilib, ulardan foydalanish uchun gerbariyalar tayyorlandi. Begona o'tlar namunalari yig'ish umumiy tasdiqlangan usullar asosida olib borildi. Laboratoriya sharoitida yig'ilgan namunalarning botanik xususiyatlari o'rganilib, ularni tur tarkibi aniqlanadi. Bu tadqiqot ishlarini olib borishda morfologik usullardan foydalanildi. Jami 100 ta namuna yig'ilib ular tahlil qilindi. Begona o'tlarning botanik-morfologik xususiyatlarini o'rganishda ularning quyidagi belgilari poya balandligi, barg shakli va to'pgul shakllari aniqlandi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tajribalar asosida olingan ma'lumotlar 1 va 2 jadvallarda keltirilgan. Birinchi jadval ma'lumotlariga ko'ra biz o'rganayotgan g'o'za maydonlarida uchraydigan begona o'tlarning 7 turi aniqlangan (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyatining g'o'za maydonlarida uchraydigan begona o'tlarning turlari:

№	Begona o't nomi	Lotincha nomi	Hayot davomiyligi	Oilasi
1	Salomalaykum	Cyperus rotundus	Ko'p yillik	Hiloldoshlar
2	Ajriq	Cynodon dactylon	Ko'p yillik	Boshqodoshlar
3	G'umay	Sorghum halepense	Ko'p yillik	Boshqodoshlar
4	Qamish	Phragmites australis	Ko'p yillik	Boshqodoshlar
5	Jag'-jag'	Capsella bursa-pastoris	Bir yillik	Karamdoshlar
6	Semizo't	Portulaca oleracea	Bir yillik	Semizo'tdoshlar
7	Pechak	Convolvulus	Ko'p yillik	Pechakdoshlar

Salomalaykum (*Cyperus rotundus* L.) – hiloldoshlarga mansub ildizpoyali ko'p yillik begona o't. Poyasi ingichka, uch qirrali, yalang'och, bo'yi 15-50 sm. Barglari yassi, kulrang, eni 5 mm gacha. Gullari soyabonsimon, to'pgulga yig'ilgan. Mevasi uch qirrali yong'oqcha (uzunligi 1,5-1,8 mm). Ildizpoyalardan ko'plab tuganakli novdalar chiqadi. O'simlik urug'idan va ingichka ildizpoyalardan ko'payadi. Yosh o'simlikning poya asosida birlamchi ildizpoya rivojlanadi, ildizpoya Uchida esa tuganak hosil bo'ladi, undan yangi ildizpoyalar yon atrofga yoyilib ketadi va ularda tuganaklar hosil bo'ladi. Bulardan yangi novdalar o'sib chiqadi. Har bir o'simlik tuproq sharoitiga qarab yon, qo'shimcha ildizpoyalar hosil qiladi, ulardan ham yer ustiga yangi poyalar o'sib chiqadi. Kuzda yerni chuqur haydash, ekishdan oldin begona o't ildizpoyalarini yig'ishtirib olish, chuqur kultivatsiya qilish salomalaykum o'simligiga qarshi kurash choralaridan biri hisoblanadi.[7]

Ajriq (*Cynodon dactylon*). Ajriq dunyoda keng tarqalgan. Jumladan u Markaziy Yevropa, O'rta yer dengizi bo'yi, Kichik Osiyo, Janubiy Osiyo, Shimoliy Amerika (Janubiy qismi), Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya qit'alarida tarqalgan. 1000 donasining og'irligi 0,18 gr ni tashkil qiladi. Har bir gultoqi 150-250 ta boshqoqcha hosil qiladi, bitta o'simlik 1000-2000 ta dona don qilishi mumkin. U har tomonga o'sib, katta bo'laklar hosil qiladigan yoki katta maydonlarni to'liq qoplaydigan rizomlar orqali juda tez ko'payadi. Bu o'simlik issiqlikni yaxshi ko'radigan, yorug'likni yaxshi ko'radigan va qurg'oqchilikka chidamli o'simlik.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Uning qurg'oqchilikka chidamliligi rizom tugunlarida hosil bo'ladigan va tuproqqa 2m chuqurlikgacha kiradigan qo'shimcha ildizlar bilan bog'liq. U iyundan sentyabr oyigacha gullaydi va meva beradi [6].

2-jadval

Xorazm viloyati g'o'za maydonlarida uchraydigan begona o't turlarining morfologik ko'rsatkichlari:

№	Begona o't nomi	Poya balandligi	Barg shakli	To'pgul shakli
1	Salomalaykum	15-50 sm	Yassi, ingichka	Soyabon
3	Ajriq	10-50 sm	Ingichka,ingichka	Boshhoqsimon
4	G'umay	50-200 sm	Ingichka,uzun	Ro'vak
5	Qamish	50-400 sm	Keng,uzun barg	Ro'vak
7	Jag'-jag'	10-30 sm	Patsimon bo'lingan	Siyrak shingil
8	Semizo't	10-30 sm	Yumaloq,tuxumsimon	Yakka, gul
9	Pechak	30-100 sm	Yoysimon, nayzasimon	Yakka gul

G'umay (*Sorghum halepense*) – boshhoqdoshlarga mansub ko'p yillik begona o't. Poyasi silliq, bo'yi 2m gacha o'sadi. Barglari cho'ziq nashtarsimon, poya uchida ko'p boshhoqli cho'zinchoq ro'vaksimon to'pgul hosil qiladi. Iyul- avgustda gullaydi va mevalaydi. Bir tupi 2-4 minggacha urug' beradi. Urug'i tangacha qobiqli bo'lib, tuproqda 3-4 yilgacha unuvchanlik qobiliyatini saqlaydi. 30-35°C optimal temperaturada yaxshi unadi. Ildizpoyasi oq rang bo'g'imlarga ajralgan, shoxlanadi, tarvaqaylab o'sadi, 20-50 sm chuqurlikgacha kirib boradi. G'umay issiqsevar, 0°C dan past temperaturada nobud bo'ladi. Ildizpoyasi va urug'idan ko'payadi. O'rta Osiyoning sug'oriladigan yerlarida keng tarqalgan. Sabzavot va meva ekinzorlarida, ayniqsa, g'o'za orasida ko'p uchraydi. Shuningdek, sug'orish shaxobchalari bo'ylarida va boshqa yerlarda o'sadi. G'umay tarqalgan joylarda hosildorlik 50%gacha kamayadi.

Qamish (*Phragmites australis*) – boshhoqdoshlarga mansub ko'p yillik ildizpoyali o'simlik turkumi. O'zbekistonda oddiy qamish (*Phragmites communis* Trin.) turi tarqalgan. Poyasi tik o'sadi, bo'yi 3-5 m gacha yetadi, silliq shoxlamaydi. Barglari navbatma-navbat joylashgan, uzun nashtarsimon, chetlari o'tkir g'adirbudir. Gullari qo'ng'ir-binafsha, chochoq ro'vaksimon to'pgulga yig'ilgan. Mevasi kulrang doncha. Iyul-oktabrda gullab mevalaydi. Bir to'pguli ro'vakda 50-100 mingta don (meva) tugadi, urug'i shamol va suv orqali tarqaladi. Urug'i 14-15°C haroratda sernam joyda unib chiqadi. Asosan, ildizpoyalaridan, ba'zan urug'idan ko'payadi. Sizot suvlar sathi yaqin (2-3m gacha) tuproqlarda, don, sholi, g'o'za, bedava boshqalar orasida uchraydi. Shuningdek, botqoqlshgan zax joylarda, hovuz, to'qaylar, ko'l, sug'orish shoxobchalarida o'sadi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Jag'-jag', oddiy jag'-jag', achambiti (*Capsella bursa-pastoris* (L.) Medik.)

– karamdoshlarga mansub bir yillik begona o't. 6 ta turi ma'lum. O'zbekistonda 1 turi - *C. bursa-pastoris* uchraydi. Tukli, ba'zan tuksiz poyasi oddiy yoki shoxlangan, bo'yi 10-30 sm. To'pbargdagi barglari bandli, oddiy, ko'pchiligi patsimon. Gullari mayda, siyrak shingilga to'plangan. Tojbargi oq. Mevasi teskari yuraksimon uchburchak shaklli yoki ponasimon qo'zoq. Bir o'simlik 70 minggaacha yashovchan urug' beradi. O'simlik erta bahorda una boshlaydi va kech kuzgacha rivojlanishi davom etadi. Maysalari yer betida to'pbarg hosil qiladi. Jag'-jag' qor ostida qishlab erta bahorda yana rivojlanishni davom ettiradi. Hamma yerda tarqalgan. Ko'pgina ekinzorlarda, begona o't sifatida o'sadi. Shuningdek, yo'l yoqalari, ariq bo'ylarida o'sadi.

Semizo't (*Portulaca oleracea* L.) – semizo'tdoshlarga mansub bir yillik begona o't. Poyasi seret, yotib, ba'zan tik ham o'sadi. Barglari mayda, etli, silindrsimon, to'pbarg hosil qiladi. Gullari sariq, oddiy yoki gultojibarglari qatqat. May-noyabrgacha gullaydi, mevalaydi. Bir tupi 50-75 minggaacha urug' beradi. O'rta Osiyoda sug'orma dehqonchilik zonalarida ko'p tarqalgan. Namgarchilik yuqori bo'lganda chirindiga boy yerlardagi ekinzorlarda o'sadi.

Pechak (*Convolvulus* L.) – pechakdoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik chirmashuvchi yoki ilashib o'suvchi o'simliklar turkumi, begona o't. 250 dan ortiq turi bor. O'zbekistonda 5 turi - dala pechagi yoki qo'ypechak (*C. arvensis*), soxtakantabrik pechka yoki oq partake (*C. pseudocantabrica* Schrenk.), chimyon pechagi (*C. tschimganicus*), qalami pechak yoki chumchuqoyoq (*C. lineatus*), dag'al tukli pechak yoki mingbosh (*C. subhirus*) uchraydi. Ulardan O'zbekistonning barcha hududlarida o'sadigan dala pechagi yoki qo'ypechak turi dala ekinlari orasida, shuningdek, yo'l yoqalari, kanallar bo'ylarida uchraydi. Yo'qotish qiyin bo'lgan begona o't hisoblanadi. Barglari yoysimon yoki nayzasimon. Gullari to'g'ri, karnaysimon, ikki jinsli, yirik, uzunligi 6-7 sm, kosabarglari 5 ta, tutashmagan. Mevasi ko'sakcha, iyun-oktyabrda gullab urug'laydi. Ildiz bachkilari va urug'idan ko'payadi, bir o'simlik unish qobiliyatini 2 yilgacha saqlaydigan 400-600 urug' beradi [7].

XULOSA

Olib borilgan tahlillar natijasi begona o'tlar yuqori yashovchanlikka ega bo'lib, turli ekologik sharoitlarga tez moslasha olishini ko'rsatdi. Ular qurg'oqchilik, sho'r lanish va sug'oriladigan sharoitlarda ham barqaror rivojlanib, agroekotizim tarkibida mustahkam o'rin egallaydi. Kuchli ildiz tizimi, serurug'ligi va ayrim turlarda vegetativ ko'payish xususiyati ularning dala sharoitida tez tarqalishiga xizmat qiladi. Natijada g'o'zalarda suv, yorug'lik va oziqa elementlari uchun raqobat kuchayib, hosildorlik va mahsulot sifati pasayadi. Shu bois begona o'tlarni nazorat qilishda faqat bitta usul bilan cheklanib qolish yetarli emas. Samarali natijaga erishish uchun almashlab ekish, chuqur haydash, o'z vaqtida mexanik ishlov berish hamda selektiv gerbitsidlardan ilmiy asosda foydalanishni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan boshqaruv tizimini qo'llash muhim hisoblanadi. Bunday





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

kompleks yondashuv begona o'tlar sonini barqaror kamaytirish va agroekotizm samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ilyosov A.A., Jumayev J.J. "Dehqonchilik" o'quv qo'llanma 2023.
2. Nafasov Z.N, Allayarov N.J, Muminov M.Sh. Bir yillik va ko'p yillik, boshqali hamda ikki pallali begona o'tlarga qarshi Hektaş poena preparatining biologik samaradorligi. Ta'lim fidoyilari jurnali- №1 1-jild. -Guliston, 2025.- B.52-60.
3. Po'latov S. O'zbekistonda ko'p tarqalgan begona o'tlar ekobarqaror. Muloqot.uz.
4. Rahimov B.R. Qishloq xo'jaligida begona o'tlar. – Samarqand, 2019.
5. Sidiqov.S. Umumiy dehqonchilik. (O'quv qo'llanma), Toshkent. Universitet, 2008.
6. FAO. Weed Ecology and Management. - Rome, 2017.
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



UO'K: 632.51:633.51

GALANT SUPER GERBITSIDINING G'O'ZADA BIR VA KO'P YILLIK BOSHQOLI BEGONA O'TLARGA TA'SIRI

Narmatov Sardor Esirgapovich 

biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Turdieva Nilufar Muminovna 

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Tadqiqotda g'o'za agrotsenozida boshqoli begona o'tlarni nazorat qilishda Galant Super 108 g/l, em.k. gerbitsidining samaradorligi va hosildorlikka ta'siri o'rganildi. Natijalar gerbitsidning begona o'tlar zichligini sezilarli kamaytirib, yuqori biologik samaradorlik (86,7-87,2%) ta'minlashini ko'rsatdi. Shuningdek, gerbitsid qo'llangan variantlarda g'o'za hosildorligi nazoratga nisbatan sezilarli oshganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: g'o'za, begona o'tlar, gerbitsid, biologik samaradorlik, hosildorlik.

Abstract. This study evaluated the effectiveness of the herbicide Galant Super 108 g/l, EC. in controlling grass weeds in cotton agroecosystems and its impact on crop yield. The results indicated that the herbicide provided high biological efficiency (86.7-87.2%) by significantly reducing weed density. It was also found that cotton yield was considerably higher in herbicide-treated plots compared to the control.

Keywords: cotton, weeds, herbicide, biological efficiency, yield.

Аннотация. В данном исследовании изучалась эффективность гербицида Galant Super 108 г/л, эм.к. в контроле злаковых сорных растений в агроценозах хлопчатника и его влияние на урожайность. Результаты показали, что применение гербицида обеспечивает высокую биологическую эффективность (86,7-87,2%) за счёт значительного снижения численности сорных растений. Также установлено, что в вариантах с применением гербицида урожайность хлопчатника значительно превышала контроль.

Ключевые слова: хлопчатник, сорные растения, гербицид, биологическая эффективность, урожайность.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

KIRISH

Begona o'tlar g'ozaga agrotsenozida ekinlarning o'sishi va rivojlanishini cheklab, hosildorlikni 30-50 % gacha kamaytiradi. Ularni samarali nazorat qilishda mexanik va agroteknik usullar bilan bir qatorda kimyoviy himoya choralarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda begona o'tlarning tur tarkibi va biologik xususiyatlariga mos, yuqori samaradorlikka ega hamda kam me'yorlarda qo'llaniladigan zamonaviy gerbitsidlarni tanlash va ularni ketma-ket qo'llashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Dunyo paxta yetishtirish tizimida begona o'tlar hosildorlikni cheklovchi asosiy agrobiologik omillardan biri sifatida e'tirof etilib, ularni samarali boshqarish agronomik jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Turli gerbitsidlarning samaradorligini baholashga qaratilgan tadqiqotlar ayrim begona o't turlarining populyatsiya zichligida sezilarli kamayish kuzatilishini ko'rsatadi [1]. Begona o'tlarni boshqarish usullarining samaradorligi agroekologik sharoitlarga bevosita bog'liq bo'lib, ayrim hollarda ularning amaliy qo'llanishi kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu bois, begona o'tlar sonini kamaytirish va ular keltirib chiqaradigan hosil yo'qotishlarini minimallashtirish uchun ilmiy asoslangan nazorat strategiyalarini qo'llash zarur [2]. Kimyoviy gerbitsidlar begona o'tlarni nazorat qilishda keng qo'llanilishiga qaramay, ularning ekologik muhit va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli mavjud [3]. Bundan tashqari, bir xil ta'sir mexanizmiga ega gerbitsidlarning takroriy qo'llanilishi begona o'tlarning ularga nisbatan chidamlilik xususiyatini shakllantirib, rezistent populyatsiyalar rivojlanishiga sabab bo'lmoqda [4]. Noto'g'ri yoki samarasiz boshqaruv yondashuvlari paxta hosildorligini sezilarli darajada (30-40% gacha) kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, kimyoviy nazorat usullari mehnat sarfini kamaytirish va hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ayniqsa paxta-bug'doy almashlab ekish tizimida gerbitsidlarning takroriy va noo'rin qo'llanilishi begona o'tlarning keng ko'lamlilik rezistentligini shakllantiradi. Natijada ayrim begona o't biotiplari yigirmadan ortiq turdagi gerbitsidlarga nisbatan chidamlilik xususiyatini namoyon etishi qayd etilgan [5].

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida begona o'tlarni ilmiy asoslangan va kompleks yondashuv orqali boshqarish paxta hosildorligini saqlash hamda barqaror agroekotizimni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tajriba sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda, bir va ko'p yillik boshqoqli begona o'tlar bilan zararlangan g'ozaga agrotsenozida dala sharoitida o'tkazildi. Tajriba variantlari: nazorat (gerbitsidsiz), Galant Super 108 g/l em.k. (1,0 l/ga) va Clethodim (1,0 l/ga, andoza). Preparatlar ishlab chiqaruvchi tavsiyalariga muvofiq, begona o'tlarning faol o'sish bosqichida bir marta qo'llanildi. Begona o'tlar soni ishlovdan oldin va keyin hisobga olinib, biologik samaradorlik N. M. Turdieva (2023) uslubiy qo'llanmasi asosida aniqlandi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

NATIJALAR VA MUNOZARA

Gerbitsidlarni qo'llashning asosiy maqsadi madaniy o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda begona o'tlar populyatsiyasini samarali nazorat qilishdan iboratdir. Tadqiqot Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tajriba dalalarida g'o'za agrotsenozi sharoitida olib borildi.

Tajriba davomida boshqoli begona o'tlarni nazorat qilish uchun ikki xil gerbitsid varianti qo'llanildi:

- asosiy tajriba varianti sifatida Galant Super 108 g/l, em.k. (ta'sir etuvchi modda: haloxyfop-R-methyl) 1,0 l/ga me'yorida;

- andoza (standart) sifatida clethodim asosidagi gerbitsid (ta'sir etuvchi modda: clethodim), 1,0 l/ga me'yorida.

O'tkazilgan kuzatuvlar natijasida Galant Super gerbitsidi boshqoli begona o'tlar zichligini sezilarli darajada kamaytirib, ularning rivojlanishini samarali cheklashi aniqlandi. Bir yillik boshqoli begona o'tlarga qarshi qo'llanilganda 15 kun ichida 1 m² maydondagi begona o'tlar soni o'rtacha 0,7 donagacha pasayganligi qayd etildi. Ko'p yillik boshqoli begona o'tlar bo'yicha esa gerbitsidning biologik samaradorligi barqaror yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi: 15 kunda 86,8%, 30 kunda 87,1% va 60 kunda 87,4%. Bu holat preparatning ta'siri vaqt o'tishi bilan saqlanib qolishini va barqaror samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Galant Super gerbitsidining bir yillik boshqoli begona o'tlarga qarshi biologik samaradorligini baholash

Begona oʻt nomlari	Ishlov bergunga qadar 1 m ²	Nazorat gerbitsidsiz, 1 m ²	Clethodim-1,0 l/ga (andoza)		Galant Super 108 g/l, em.k. – 1,0 l/ga	
			dona/m ²	%	dona/m ²	%
Bir yillik boshqoli begona oʻtlar						
15 kundan keyin						
Kurmak	4,1	5,4	0,8	85,5	0,7	86,6
Yashil qoʻnoq	3,2	5,5	0,8	85,7	0,7	86,8
Oʻrtacha	3,6	5,5	0,8	85,6	0,7	86,8
30 kundan keyin						
Kurmak	4,2	5,2	0,7	86,5	0,7	87,5
Yashil qoʻnoq	3,5	5,4	0,8	86,2	0,7	86,6
Oʻrtacha	3,8	5,3	0,7	86,4	0,7	87,1
60 kundan keyin						
Kurmak	4,1	5,4	0,7	87	0,7	87,2
Yashil qoʻnoq	3,3	5,4	0,7	87,1	0,7	87,3
Oʻrtacha	3,7	5,4	0,7	87,2	0,7	87,4
Oʻrtacha 3 ta hisob	3,7	5,4	0,7	86,4	0,7	87,2



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Izoh: Galant Super 108 g/l, em.k. gerbitsidi bir yillik boshqoli begona o'tlarni nazorat qilishda yuqori biologik samaradorlik ko'rsatdi. Kuzatuvlarda begona o'tlar zichligi barqaror kamayib, o'rtacha samaradorlik 87,2% ni tashkil etdi.

Ko'p yillik boshqoli begona o'tlarga qarshi gerbitsid qo'llanilganda ham yuqori biologik samaradorlik qayd etildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, ishlov berishdan 15 kun o'tgach 1 m² maydondagi begona o'tlar zichligi 0,7 donagacha kamayganligi aniqlandi. Shu davrda preparatning biologik samaradorligi 86,3% ni tashkil etdi. Keyingi kuzatuvlarda ham samaradorlikning barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilib, 30-kunda 86,8%, 60-kunda esa 87,2% ga yetdi. Olingan natijalar gerbitsidning ko'p yillik boshqoli begona o'tlarni nazorat qilishda uzoq muddatli va barqaror ta'sirga ega ekanligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Galant Super gerbitsidining ko'p yillik boshqoli begona o'tlarga qarshi biologik samaradorligini baholash.

Begona oʻt nomlari	Ishlov bergunga qadar 1 m ²	Nazorat gerbitsidsiz, 1 m ²	Clethodim 1,0 l/ga (andoza)		Galant Super 108 g/l, em.k. – 1,0 l/ga	
			dona/m ²	%	dona/m ²	%
Koʻp yillik boshqoli begona oʻtlar						
15 kundan keyin						
Salomalaykum	4,5	5,2	0,7	86,1	0,7	86,3
Ajriq	3,8	5,4	0,8	85,8	0,7	86,2
Gʻumay	4,4	5,4	0,8	86,1	0,7	86,4
Oddiy qamish	5,1	5,4	0,7	86,3	0,8	86,2
Oʻrtacha	4,5	5,3	0,7	86,1	0,7	86,3
30 kundan keyin						
Salomalaykum	4,3	5,3	0,7	86,5	0,7	86,7
Ajriq	4,8	5,4	0,7	86,2	0,7	86,6
Gʻumay	4,9	5,4	0,7	86,5	0,7	86,9
Oddiy qamish	5,3	5,4	0,7	86,8	0,7	86,8
Oʻrtacha	4,8	5,4	0,7	86,6	0,7	86,8
60 kundan keyin						
Salomalaykum	4,5	5,3	0,7	87,1	0,7	87,2
Ajriq	4,6	5,5	0,7	87,1	0,7	87,2
Gʻumay	5,4	5,3	0,7	87,2	0,7	87
Oddiy qamish	5,2	5,4	0,7	87,1	0,7	87,1
Oʻrtacha	4,9	5,4	0,7	87,2	0,7	87,2
Oʻrtacha 3 ta hisob	4,7	5,4	0,7	86,7	0,7	86,7

Izoh: Galant Super 108 g/l em.k. gerbitsidi ko'p yillik boshqoli begona o'tlarni nazorat qilishda yuqori va barqaror biologik samaradorlik ko'rsatdi. Kuzatuv davrlarida begona o'tlar zichligi sezilarli kamayib, o'rtacha samaradorlik 86,7 % ni tashkil etdi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Umumiy natijalarga ko'ra, Galant Super g'ozaga agrotsenozi sharoitida bir yillik boshqoli begona o'tlarga qarshi o'rtacha 87,2 %, ko'p yillik boshqoli begona o'tlarga qarshi esa 86,79 % biologik samaradorlikni ko'rsatdi. Eng yuqori ta'sir 30-60 kun oralig'ida kuzatilib, begona o'tlar populyatsiyasining barqaror kamayishiga olib keldi. Nazorat variantida begona o'tlar mexanik usulda yo'qotilgan bo'lib, gerbitsid qo'llangan variantlarga nisbatan hosildorlik sezilarli past bo'ldi. Qo'shimcha hosil bir yillik begona o'tlarda 6,2 s/ga, ko'p yilliklarda 6,6 s/ga ni tashkil etdi, andoza variantiga nisbatan esa mos ravishda 1,8 s/ga va 2,0 s/ga ga teng bo'ldi.

Hosildorlik tahliliga ko'ra, bir yillik boshqoli begona o'tlar fonida nazorat variantida hosildorlik 12,6 s/ga, andoza variantida 17,0 s/ga, Galant Super qo'llanganda esa 18,8 s/ga ni tashkil etdi. Ko'p yillik begona o'tlar sharoitida mos ko'rsatkichlar 12,6 s/ga, 17,0 s/ga va 19,2 s/ga gacha oshgani qayd etildi. Olingan natijalar ushbu gerbitsidning begona o'tlarni samarali nazorat qilish va g'ozaga hosildorligini oshirishda yuqori agrotexnik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi (3-jadval).

3-jadval

Galant Super gerbitsidining g'ozaga hosildorligiga ta'sirini baholash

Variantlar	Hosildorlik, s/ga	Qo'shimcha hosil, s/ga
Bir yillik boshqoli begona o'tlarga		
Nazorat - gerbitsidsiz	12,6	-
Clethodim 1,0 l/ga (andoza)	17,0	4,4
Galant Super 108 g/l, em.k. - 1,0 l/ga	18,8	6,2
Ko'p yillik boshqoli begona o'tlar		
Nazorat - gerbitsidsiz	12,6	-
Clethodim 1,0 l/ga (andoza)	17,0	4,4
Galant Super 108 g/l, em.k. - 1,0 l/ga	19,2	6,6

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, Galant Super 108 g/l em.k. gerbitsidi g'ozaga dalalarida boshqoli begona o'tlarni samarali nazorat qilish hamda hosildorlikni oshirishda yuqori agrotexnik ahamiyatga ega. Umuman, gerbitsidlar begona o'tlar va madaniy o'simliklar o'rtasidagi resurslar uchun raqobatni kamaytirib, ekin rivojlanishini yaxshilaydi. Bu holat avvalgi tadqiqotlar natijalari bilan mos kelib, kimyoviy nazorat vositalari vegetativ o'sish jarayonlarini faollashtirishi, biomassa to'planishini kuchaytirishi hamda hosil elementlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu asosda, gerbitsidlarni oqilona qo'llash paxta yetishtirish samaradorligini oshiruvchi muhim agrotexnik omil sifatida baholanadi [7-9].



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

XULOSA

G'oz agrotsenozida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Galant Super 108 g/l, em.k. gerbitsidi boshqali begona o'tlarni nazorat qilishda yuqori biologik samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bir yillik va ko'p yillik begona o't turlariga nisbatan samaradorlik mos ravishda 87,2% va 86,7% ni tashkil etdi va bu ko'rsatkich andoza (clethodim) preparatiga nisbatan 0,8% gacha ustunlikni namoyon qildi. Gerbitsid qo'llanilganda g'oz hosildorligi 4,4-6,2 s/ga ga oshdi, bu esa andoza variantga nisbatan 1,8-2,2 s/ga qo'shimcha hosil olish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR

1. Sajjad, Z., Saqib Sabir, M., Ali Siddique, A., Subhan, M., Ali Hashmi, Q., Zulfiqar Ali, U., Hussain, D., & Ali, A. (2023). Comparative evaluation of four herbicides for effective control of post-emergence weeds in cotton fields. *Journal of oasis agriculture and sustainable development*, 5(4), 19-26. <https://doi.org/10.56027/JOASD.212023>
2. Tunio, S. D. (2000). Significance of cultural weed control in cotton. *Economics and Business Review*, "The Daily Dawn" Karachi, August 28 and September 3, 2000.
3. Judith, C. S., Lemley, A. T., Hogan, S. I., Weismiller, R. A., & Hornsby, A. G. (2001). Health effects of drinking water contamination. Florida Cooperative Extension Service, Institute of Food and Agriculture Sciences, University of Florida
4. Heap, I. (2007). International survey of herbicide-resistant weeds. Retrieved from <http://www.weedscience.com>.
5. Heap, I. (2010). The international survey of herbicide-resistant weeds. Retrieved from <http://www.weedscience.com> (Accessed on September 25, 2012).
6. Turdieva N.M. va boshqalar. Begona o'tlarning tarqalishi va ularga qarshi kurashish usullari. Toshkent, 2023.
7. Sheikh, M. A., Saleem, A., & Malik, N. A. (2006). Integrated weed management and its effect on the seed cotton yield in cotton. *Pakistan Journal of Weed Science Research*, 12(1-2), 111-117.
8. Oad, F. C., Siddique, M. H., Buriro, U. A., & Solangi, G. S. (2007). Weed management practices in cotton crop. *Asian J. Plant Sci.*, 6(2), 344-348.
9. Muhammad, D., Afzal, M. N., Raza, I., & Mian, M. A. (2009). Growth and development of cotton (*Gossypium hirsutum* L.) as affected by different methods of Pendimethalin application. *Pakistan J. Weed Sci. Res.*, 15(1), 11-17.



UO'K: 632.931.1.

QORAQALPOG'ISTON SHAROITIDA O'SADIGAN IGNABARGLI VIRGIN ARCHASI (*JUNIPERUS VIRGINIANA*) NING EKOLOGIK OMILLARGA VA ZARARKUNANDALARGA CHIDAMLILIK DARAJASI

Utepbergenov Adilbay Reymbaevich 

q.x.f.n., dotsent

Dauletmuratov Dastan Kuatbay o'g'li 

magistrant

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

O'simliklarni himoya qilish va karantini kafedrası

Annotatsiya. Mazkur maqolada *Juniperus virginiana* (Virginiya archasi) turining Qoraqalpog'iston Respublikasi kabi keskin kontinental va sho'rlangan tuproqli hududlardagi biologik barqarorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda daraxtning abiotik omillarga (yuqori harorat, qurg'oqchilik, sho'rlanish) nisbatan chidamlilik mexanizmlari hamda zararkunandalarga qarshi tabiiy himoya xususiyatlari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu tur boshqa ignabargli daraxtlarga nisbatan kamroq zararkunandalarga chalinadi, biroq ekologik stress davrida uning ham fitosanitar holatini nazorat qilish dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *Juniperus virginiana*, ekologik plastika, arid sharoit, zararkunandalarga chidamlilik, fitosanitar holat, introduksiya, abiotik stress.

Abstract. This article analyzes the biological stability of the *Juniperus virginiana* (Virginia fir) species in regions with sharply continental and saline soils, such as the Republic of Karakalpakstan. The study examined the mechanisms of tree resistance to abiotic factors (high temperature, drought, salinity) and its natural protective properties against pests. The results show that this species is less susceptible to pests than other coniferous trees, but monitoring its phytosanitary condition during periods of environmental stress is also relevant.

Keywords: *Juniperus virginiana*, ecological plasticity, arid conditions, pest resistance, phytosanitary status, introduction, abiotic stress.

Аннотация. В данной статье анализируется биологическая устойчивость вида *Juniperus virginiana* (виргинская ёлка) в регионах с резко континентальными и засоленными почвами, таких как Республика Каракалпакстан. В исследовании изучены механизмы устойчивости дерева к





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

абиотическим факторам (высокая температура, засуха, засоление) и естественные защитные свойства от вредителей. Результаты показывают, что этот вид менее подвержен вредителям, чем другие хвойные деревья, однако контроль его фитосанитарного состояния в период экологического стресса также является актуальным.

Ключевые слова: *Juniperus virginiana*, экологическая пластика, аридные условия, устойчивость к вредителям, фитосанитарное состояние, интродукция, абиотический стресс.

KIRISH

Qoraqalpog'iston hududida yashil maydonlarni yaratish jarayonida eng katta muammo – bu daraxt turlarining keskin iqlim sharoitiga moslashuvchanligidir. Virginiya archasi (*Juniperus virginiana*) o'zining tabiatdagi areali (Shimoliy Amerika) bo'yicha ham keng ekologik diapazonga egaligi bilan ma'lum. Mintaqamizdagi yozgi jazirama va qishki qahraton, shuningdek, tuproq tarkibidagi yuqori tuz konsentratsiyasi ko'plab o'simlik turlari uchun cheklovchi omil hisoblanadi. Virginiya archasining introduksiyasi ushbu muammolarni yengishda istiqbolli hisoblanib, uning nafaqat iqlimga chidamliligi, balki entomofauna vakillariga nisbatan tabiiy "immuniteti" ham ilmiy qiziqish uyg'otadi.

O'rmon xo'jaligiga o'rmonlarni ko'paytirish, o'rmonzorlarni tabiiy va sun'iy ravishda yangilashga qaratilgan chora-tadbirlar kiradi. O'rmon parvarishi bu – o'rmonlarni shakllantirish, ularning mahsuldorligini oshirish va yog'ochning sifat xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi [1].

O'rmonchilikning asosiy maqsadi: o'rmon, cho'l, sug'oriladigan mintaqalarda turli ihotada daraxtzorlar, yo'llari, dalalari, kanallari himoya qiluvchi omyonlar, jarliklarda, suv omborlari, qirg'oqlarda, shahar va qishloqlarda, ishchilar qo'rg'onlarida yashil to'siqlar tashkil etishdir. Cho'l, yaylovlar unumdorligini oshiruvchi, qumliklarni ko'chishdan saqlovchi yashil qalqonlar hamda turli plantatsiyalar yaratishdan iborat. O'rmonlarni sun'iy ravishda tiklash ishlari urug' sepush yoki ko'chat o'tqazish kesish hamda qalamchadan, ildizidan ko'paytirish yo'llari bilan olib boriladi [2].

Botanika fani sistematikasida o'simlik turlari yog'och tanali, buta va o't shaklli guruhlarga bo'linib, o'sib rivojlanishidagi o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadi. Bu guruhlarga birlashgan o'simliklar biotoplarda hosil qiladigan biotsenoz a'zolarining rivojlanish sharoiti o'ziga xos belgilar asosida amalga oshadi [3].

Qoraqalpog'iston Respublikasida tarqalgan ignabargli daraxtlarning yil davomida sog'lom va yaxshi o'sishini ta'minlash va qulay ekologik sharoit yaratish biroz qiyin masala bo'lganligi sababi Qoraqalpog'iston hududi qurg'oqchil va havo harorati keskin kontinental zonada joylashgani sababli ignabargli daraxtlarning o'sishi uchun biroz noqulay hisoblanadi. Havo harorati va nisbiy namlik zararkunandalarning rivojlanishi va daraxtlarga zarar yetkazishi juda yuqori bo'ladi [4].





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Yerlardan unumli foydalanishni yaxshilash yo'llaridan yana biri, bu - har bir xo'jalik o'rmon kadastrini tuzish va doimiy ravishda ishlab chiqarishda tavsiflash uchun ma'lumotlar berib turishi lozim. O'rmon resurslarini takror ishlab chiqarishning kengaytirilgan intensiv yo'lida o'rmon xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish va jami mahsulotlardan foydalanish hisobga olinadi. Takror ishlab chiqarish o'rmon resurslarini intensiv yo'l bilan kengaytirishni amalga oshirish quyidagi chora-tadbirlarni o'tkazishga bog'liq: o'rmonzor tuproq unumdorligini oshirishda biologik usullar, gidrotexnik melioratsiya va madaniy o'g'itlardan keng foydalanish; o'rmonlar mahsuldorligini oshirish uchun asosiy daraxt navlarini tanlash, ularning tarkibini yaxshilash va daraxtlar zichligini oshirish hamda o'stirish davrini qisqartirish; o'rmonlarni qayta barpo etish davrini qisqartirish, buning uchun elita urug'lari va o'rmon ekinlari usullaridan keng foydalanish; daraxtzorlarga kesish usulida ishlov berish [5].

Juniperus virginiana turining Qoraqalpog'iston sharoitidagi ekologik omillarga chidamliligi uning morfofiziologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Birinchidan, ushbu daraxtning ildiz tizimi chuqurga yo'nalgan bo'lib, tuproqning quyi qatlamlaridagi namlikdan foydalanish qobiliyatiga ega. Bu xususiyat uni sug'orish cheklangan zonalarda barqaror o'sishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, ignabarglarining qalin mumsimon qatlami transpiratsiyani (namlik bug'latish) kamaytiradi, bu esa qurg'oqchilik davrida daraxtning fiziologik jarayonlarini me'yorda saqlab qoladi. Tuproq sho'rlanishiga kelsak, Virginiya archasi ionlarni (tuzlarni) to'qimalarida to'plash va ularni izolyatsiya qilish orqali osmotik bosimga qarshi tura oladi.

Zararkunandalarga chidamlilik masalasida *Juniperus virginiana* boshqa ignabargli turlarga (masalan, *Pinus* yoki *Picea* turlariga) nisbatan ancha ustunlikka ega. Buning asosiy sababi uning efir moylari tarkibida fitonsidlar va terpenoidlarning yuqori miqdorda bo'lishidir. Ushbu moddalar ko'plab hasharotlar uchun o'ziga xos kimyoviy to'siq (repellent) vazifasini o'taydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur turda po'stloqxo'rlar va bargxo'rlar hujumi boshqa turdagi archalarga nisbatan 25-30% ga kamroq kuzatiladi. Biroq, bu mutlaq immunitet degani emas. Mintaqadagi ekstremal issiqlik tufayli daraxt "suv stressi"ni boshdan kechirganda, uning himoya mexanizmlari zaiflashadi. Aynan shu davrda o'rgimchakkanalar va unsummon qurtlar va ba'zi turdagi kuya lichinkalari daraxtning yosh novdalariga zarar yetkazishi mumkin.



***Juniperus virginiana archasi*, Nukus shahri.**

Zararkunandalar faollashgan taqdirda, *Juniperus virginiana* uchun ham uyg'unlashgan himoya tizimini qo'llash tavsiya etiladi. Bunda biologik kurash ustuvor o'rin tutadi. Daraxt tanasini muntazam yuvish (chang va o'rgimchakkanalardan tozalash uchun), tuproqni mulchali qoplash (namlikni saqlash) va biologik insektitsidlardan foydalanish – eng samarali usullardir. Kimyoviy preparatlarni shahar va bog' sharoitida, ayniqsa Virginiya archasi kabi bardoshli daraxtlarda haddan tashqari ko'p qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki bu foydali entomofaglarni (yirtqich kanalar, oltinko'zlar) ham yo'q qilib yuborishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, *Juniperus virginiana* Qoraqalpog'istonning qurg'oqchil va sho'r tuproqli hududlari uchun eng maqbul ignabargli daraxt turlaridan biridir. Uning abiotik stress omillariga nisbatan yuqori chidamliligi va zararkunandalarga qarshi kimyoviy bar'erga egaligi, uni keng miqyosda ko'kalamzorlashtirish ishlarida foydalanish imkonini beradi. Biroq, daraxtning "chidamli" ekanligiga tayanib, parvarishni to'liq to'xtatib bo'lmaydi. Barqaror o'sish uchun tizimli monitoring, ya'ni daraxtning har mavsumdagi holatini baholash va stress belgilari (sarg'ayish, novdalarning qurishi) kuzatilganda tezkor agrotexnik choralarni ko'rish zarur. Kelajakda Virginiya archasini mahalliy sharoitga yanada moslashgan navlarini seleksiya qilish va ularni ko'paytirish orqali mintaqaning ekologik holatini yaxshilashda katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Ramazonov B. R. O'rmonlardan uzluksiz va barqaror foydalanish – mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi eng dolzarb muammo // Academic Research in Educational Sciences jurnali.- 2025 №6. B.5-15.
2. Qalandarov M.M. O'rmonchilik. Toshkent.-Yangi nashr, 2008. B.20.
3. To'reniyazov E.Sh. O'simliklarni himoya qilish.-Tashkent: Dimal, 2024. B.36.
4. Utepbergenov A.R., Dauletmuratov D.K. Qoraqolpog'iston sharoitida uchraydigan ignabargli daraxtlarda erta bahordan tarqaladigan zararkunandalar // Agrobiznes, fan va texnologiyalar jurnali.-2025. №9.-B.647-652.
5. Qumzullaev G'.Q. O'rmon xojalik ishlarini tashkil etish va boshqarish.- Toshkent: Ilim ziyosi, 2017. B.18.



УДК: 635.9: 878.32: 632.7: 632

ОБРАЗОВАНИЯ НА ВЕГЕТАТИВНЫХ ЧАСТЯХ РАСТЕНИЙ

Ходжаев Шамиль Турсунович 

доктор сельскохозяйственных наук, профессор Научно-исследовательского института карантина и защиты растений

Ахмедов Анвар Турсунбаевич 

соискатель Андижанского государственного университета

Рузматов Шерзод Абдилбоқиевич 

Докторант (PhD) Научно-исследовательского института садоводства, виноградарства и виноделия имени ак.М.Мирзаева

Нурмухамедова Дилафруз Шамиловна 

соискатель Ташкентского государственного аграрного университета

Аннотация. Натуралисты часто замечают необычную картину – на верхней стороне листьев некоторых деревьев (тополь, ива, вязь и др.) образуются причудливые узоры-наросты. Иногда их так много, что листья вообще теряют внешний вид. Эти образования есть результат жизнедеятельности представителей определённой группы насекомых-тлей, орехотворок и др., слюнные выделения которых вызывают наросты. Эстетически, что такой тип повреждений также вызывает нарушения в нормальном развитии деревьев и кустарников – усыхание и даже высыхание. Авторами рекомендован метод предупреждения заражения деревьев – однократная обработка инсектицидами в начале их заселения – в марте и апреле.

Ключевые слова: тополь, ива, вязь, повреждения – галлы, тли, орехотворка, меры предупреждения и защиты.

Annotatsiya. Ahyon-ahyonda tabiatshunoslar ayrim daraxtlarning (terak, tol, qayrag'och va b.) barglarida g'ayri tabiiy o'simta-shishlar borligini kuzatishlari mumkin. Ayrim barglarda ularning ko'pchiligidan tashqi ko'rinishi o'zgarib qolishi mumkin. Bu o'simtalar ayrim hasharotlar (shira, yong'oqyasalar va b.) shikastining natijasi bo'lib, so'lagi ta'sirida vujudga keladi. Tabiiyki, o'simlik uchun bu zararli bo'lib, daraxt va butalarning novdalari qurib qolishi mumkin. Mualliflar tomonidan buni oldini olish uchun mart-aprel oylarida 3 martagacha kimyoviy ishlov o'tkazish usuli tavsiya qilingan.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Kalit so'zlar: terak, tol, qayrag'och, shish-o'simtalar, shira, yong'oqyasarlar oldini olib himoya qilish

Abstract. The naturalists often notice an unusual vision – fancy shapes of such cogs appear on the upper side of some trees' leaves (poplar, willow, elm and others) some-times there are so many of them that the leaves generally lose their usual appearance. There formations are the result of the activity of some king of aphids – *Pemphigidae*, salivary of which can resulted in such cogs. Naturally, this type of deformations also causes damage to the normal development of trees and shrubs – drying out or even total loss. The authors recommend using insecticide treatment of trees twice at the beginning of their dwelling – in March and April.

Keywords: protection and prevention of poplars, willows, elm trees, tuberous growths, conifers, walnut trees

ВВЕДЕНИЕ

Разнообразна и прекрасна природа. В частности, на листьях отдельных растений или деревьев можно заметить причудливой формы, разукрашенных или без, наросты-галлы. Иногда эти наросты являются естественными, наработанными в ходе эволюционного развития или появившейся потребительной необходимости организма. Но есть (и их значительно больше) и такие наросты, которые появляются в результате жизнедеятельности насекомых или животных [1,3]. Часто такие наросты выполняют функцию проживания (размножения) и питания членистохоботных (равнокрылых), а также или перепончатокрылых насекомых. Насекомые, из этих отрядов, обладая колюще-сосущим ротовым аппаратом, вводят в ткань повреждаемых растений жидкость с ферментами или фитогормонами, которые посредством гиперплазии или гипертрофии вызывают появление не естественных наростов – «домиков» [1,4].

В ходе изучения вредителей тополей и ивы мы часто сталкивались с причудливой формы наростами на листьях контролируемых деревьев [2]. Во-первых, следует отметить, что эти наросты небезразличны для деревьев: они страдают, отстают в росте, ослабевают и даже засыхают отдельные ветви. Наши исследования и наблюдения, проведённые в нескольких районах Андижанской и Ташкентской областей Узбекистана после 2000 года показали, что имеются несколько видов тлей, вызывающих появление наростов на листьях тополей. Эти тли относятся к семейству пемфигидэ (*Pemphigidae*).

У обычных по размеру этих насекомых на спинной стороне имеются специальные железы, вырабатывающие белые пушистые восковые образования. На месте соковыделяемых трубок имеются две ямочки: задний конец тлей имеет овальную форму. Эти насекомые, как правило, являются двудомными – развиваясь в начале сезона на тополе, вязе и других деревьях, образуя там новообразования галлы, а затем переселяются на корни различных сложноцветных или зерновых культур и продолжают размножение. Ярким



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

представителем пемфигид является яблонева кровяная тля (*Eriosoma lanigerum* Hausm.).

На молодых саженцах тополей часто встречается грушевидно-галлообразующая тля – *Pemphigus bursarius* L. (см. рис.).

Этот вид тли наиболее часто заражает основание ветвей или черешки листьев тополей, развивается внутри, образованных ими галл (5-8 поколений), а затем в конце мая-июне галлы лопаются и из них высыпаются крылатые и без, тли – переселенцы. Внутри таких галл иногда можно сосчитать до 400 особей тли.




Рис.1. Возбудители наростов – тли:

- 1,2 – заражение ветвей тополей грушевидно галлообразующей тлей,
3 – особи тли в галлах, 4 – ветви тополя, заражённые орешковидно галлообразующей тлей.

Другим видом тлей на тополях является орешковидно-галлообразующая тля (*P. lichtensteini* Tul.), что также вызывает отставание и усыхание деревьев. На подобии первой, и эта тля является двудомной, развивающейся внутри крепких и толстостенных орешков – галл. Частыми местами обитания этих тлей являются тополя в предгорных и горных районах всей республики. Заражённые побеги часто усыхают (см.рис.1).

Ещё одним широко распространённым галлообразующим видом тлей, обитающим на различных стадиях в условиях Центральной Азии является вязово-злаковая тля - *Bursocrypta (Tetraneura) ulmi* L. Этот вид тлей в большей степени повреждает вяз – на верхней стороне листьев этих деревьев образуются небольшие наросты, величиной в сою или нут, внутри которых и обитают живородящие самки тлей. Наросты с различными оттенками изменяют обычное восприятие листового покрытия таких деревьев. Препарирование наростов показывает, что внутри одной галлы можно заметить от одной до несколько десятков особей тлей; иногда такие особи тлей не покидают галлы в течение всего сезона, из-за чего такое дерево страдает, а ветви могут засохнуть [3,5].

Ещё одним видом галлообразующих тлей из рода *Tetraneura* является вязовая красноглазая тля – *T. coerulescent* Pass. И этот вид, являясь широко распространённым на территории Узбекистана, повреждает не только вяз, но и тополя. На заражённых листьях деревьев можно заметить небольшие



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

гофрированные «мешочки», тонко покрытые тканевой оболочкой; они однотонные, бесцветные. Такие деревья сильно страдают. Внутри образований развиваются несколько поколений тли, а затем образуются крылатые самки – расселительницы, которые переселяясь на корни кукурузы или злаковых растений, продолжают род и обеспечивают зимовку популяции.

Другим представителем насекомых, из-за жизнедеятельности которых на ветвях и чашечках листьев, особенно шиповника, образуются различной конфигурации довольно крупные наросты – галлы, является **розанная орехотворка** – *Rhodites rosae* L., из отряда перепончатокрылых насекомых (*Hymenoptera*) и надсемейства орехотворок (*Cynipoidea*). Наросты, образующиеся на ветвях шиповника, не только угнетают растение, но и являются причиной падения урожайности и ухудшения эстетичного вида кустарника (см.рис.2).



Рис.2. Розанная орехотворка:

- 1 – окукливание и вылет имаго насекомого после перезимовки,
2 – молодые галлы насекомого на листьях и черешках шиповника,
3 – формирующиеся крупные галлы насекомого, с несколькими десятками камер с личинками насекомого.

Насекомое перезимовывает внутри галл в стадии личинок. Весной, обычно в марте, личинки окукливаются, а затем через округлые отверстия вылетают имаго, самки которых после спаривания откладывают до 50 яиц часто на повреждённые участки листьев или ветвей. Биологически активные вещества, имеющиеся в слюне личинок, посредством процессов гиперплазии и гипертрофии обеспечивают образование наростов, внутри которых и живут до завершения генерации, или перезимовки. В сезоне развиваются видимо 2-3 поколения.

«Домики» на листьях сельскохозяйственных растений казалось бы не мешают – иногда они эстетичны, но если подойти к хозяйственной точки зрения, то они вызывают страдание растений. Они отстают в росте и развитии, снижают урожай и его качество. Всё это, естественно, ориентирует защитников растений принять меры по предупреждению заселённости растений этими организмами.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

В течение ряда лет мы не только изучали причинность явлений, а следовательно, устанавливали уязвимые сроки предупредительно-истребительных мероприятий, но и разработали приёмы и средства эффективной защиты деревьев от них.

Сроки проведения первой химической обработки шиповника от розанной орехотворки по годам могут меняться в зависимости от весенних условий местности.

В зависимости от наступления среднесуточных температур выше 10 °С, оптимальным сроком первой защитной обработки, предусматривающей уничтожение имаго орехотворок, которые отродясь не питаются, а спарившись приступают к откладке яиц на просыпающиеся бутоны, является третья декада марта. Ввиду того что ротовой аппарат у ореховорок редуцирован и они не питаются, кишечные действующие инсектициды для них бесполезны. Поэтому более эффективны препараты с контактным и фумигантным действием. Для достижения наиболее желаемого результата, последующие 2 обработки необходимо провести через каждые 3-4 дня.

Для эффективной защиты могут быть использованы любые из синтетических пиретроидов (Каратэ, Циперметрин, Фастак, Нурелл-Д и др.), или системные неоникотиноиды (имидоклоприд, ацетамиприд) и эмамектин (абамектин с трансламинарным действием).

ЛИТЕРАТУРА

1. Насекомые Узбекистана (под ред. Д.А. Азимова, А.А. Бекузина, А.Г. Давлетшиной и М.К. Кадыровой). – Ташкент: «Фан», 1993. – С. 61-69.
2. *Ходжаев Ш.Т.* Методические указания по испытанию инсектицидов, акарицидов, биологически активных веществ и фунгицидов (II-изд., на узб. яз.). 2004. – 104 с.
3. *Ахмедов А., Ходжаев Ш.* Вредители тополей //Узбекский биологический журнал. – 2013. - №3. – С. 25-27.
4. *Ахмедов А., Ходжаев Ш.Т.* Тополь и земледелие /Сборник трудов (н.произв. конф., Ташкент, 11-12.XII. 2014 г.). – Ташкент, 2014. – II часть. – С. 172-175 (на узб. яз.).
5. *Ахмедов А.Т., Ходжаев Ш.Т.* Влияние тополей, посаженных на межах, на урожайность хлопчатника /Сб. статей. – Ташкент: Навруз, 2016. – С. 16-20.
6. *Рузматов Ш.А., Хўжаев Ш.Т.* Наъматак шиш ҳосил қилувчисининг биологик хусусиятлари //Агро кимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини. – 2025. - №1(108). – Б. 41-44.



UO'K: 633.85:632.7:632

O'RINDOSH MAKKAJO'XORINI HIMOYA QILISHNING G'O'ZA UCHUN AHAMIYATI

Xo'jayev Shomil Tursunovich 

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Yuldashev Farrux Ergashboyevich 

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada g'o'za-bug'doy-o'rindosh ekinlar tizimida makkajo'xori va boshqa baland bo'yli o'rindosh ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishning g'o'za agrotsenozidagi fitosanitar holatga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlar davomida makkajo'xori poya parvonasi (*Ostrinia nubilalis* Hübner), leukaniya tunlami (*Leucania* spp.) va g'o'za tunlami (*Helicoverpa armigera* Hübner)ning rivojlanish xususiyatlari hamda ularning hosildorlikka ta'siri baholandi. Zararkunandalarga qarshi samarali himoya usuli ishlab chiqilib, baland bo'yli ekinlarda purkash ishlarini osonlashtiruvchi yangi texnologik tizim tavsiya etildi. Tadqiqot natijalari o'rindosh ekinlarda zararkunandalar sonini va ularning qishlovchi zaxirasini keskin kamaytirish, natijada esa keyingi yili g'o'za ekinlarining zararlanish darajasini pasaytirish imkonini berishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: g'o'za, makkajo'xori, o'rindosh ekinlar, g'o'za tunlami, makkajo'xori poya parvonasi, leukaniya tunlami, kimyoviy himoya, biologik samaradorlik.

Abstract. This article evaluates the importance of protecting maize and other tall relay crops from insect pests within the cotton-winter wheat-relay cropping system. The development and harmfulness of the European corn borer (*Ostrinia nubilalis* Hübner), *Leucania* armyworms, and the cotton bollworm (*Helicoverpa armigera* Hübner) were investigated, together with their effects on maize productivity. An effective pest management strategy and a new cultivation technology facilitating pesticide application in tall crops were developed and recommended for practical use. The findings demonstrate that timely protection of relay crops significantly reduces pest populations and their overwintering reserves, thereby lowering pest pressure and damage to cotton fields in the subsequent growing season.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Keywords: cotton, maize, relay crops, cotton bollworm, European corn borer, *Leucania* armyworms, chemical control, integrated pest management, biological efficiency.

Аннотация. В статье рассмотрено значение защиты кукурузы и других высокорослых пожнивных культур от вредителей в системе «хлопчатник – озимая пшеница – пожнивные культуры». Изучены особенности развития кукурузного стеблевого мотылька (*Ostrinia nubilalis* Hübner), совок рода *Leucania* и хлопковой совки (*Helicoverpa armigera* Hübner), а также их влияние на урожайность кукурузы. Разработан эффективный способ защиты посевов и предложена новая технологическая схема, обеспечивающая возможность проведения обработок высокорослых культур в период вегетации. Полученные результаты свидетельствуют о значительном снижении численности вредителей и их зимующего запаса в пожнивных культурах, что способствует уменьшению повреждаемости посевов хлопчатника в следующем году.

Ключевые слова: хлопчатник, кукуруза, пожнивные культуры, хлопковая совка, кукурузный стеблевой мотылёк, совки рода *Leucania*, химическая защита, биологическая эффективность.

KIRISH

O'zbekistonda g'alla mustaqilligini ta'minlash maqsadida 1990-yillardan boshlab bug'doy ekin maydonlari keskin kengaytirilib, g'o'za maydonlariga yaqinlashtirildi. Bu holat o'ziga xos agrotexnik xususiyatlari bilan dala agrobiosenozining shakllanishi va undagi zararli organizmlar tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Buning bir necha asosiy sabablari mavjud.

Jumladan, g'o'za hosili yig'ib olingandan so'ng yer shudgor qilinmasdan, qator oralari orasiga oktabr oyida kuzgi bug'doy ekilishi, keyingi yilning iyun–iyul oylarida esa bug'doydan bo'shagan maydonlarga turli sabzavot, dukkakli, sholi, poliz va boshqa ekinlarning joylashtirilishi dala agrobiosenozini zararli organizmlar bilan boyitadi. Natijada g'o'za ekinlari uchun noqulay fitosanitar vaziyat yuzaga keladi. Bundan tashqari, o'rindosh ekinlarning, ayniqsa sorgumsimon ekinlarning (makkajo'xori, texnik sorgo (supurgi) va boshqalar) aksariyatida zararkunandalarga qarshi himoya tadbirlari to'liq amalga oshirilmagani sababli ularning populyatsiyasi ortib boradi va qishlovga odatdagidan ko'proq miqdorda kirib ketadi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni ta'kidlash mumkin. Birinchidan, g'o'za qator oralari orasiga kuzgi bug'doy ekib yetishtirish texnologiyasidan bosqichma-bosqich voz kechish maqsadga muvofiqdir. Chunki yerning shudgor qilinmasligi tuproq unumdorligi va nam sig'imini pasaytiradi, g'o'zaning so'ruvchi hamda kemiruvchi zararkunandalari muvaffaqiyatli qishlab chiqishi uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, g'o'za poyalarida saqlanib qoladigan vilt kasalligi qo'zg'atuvchi zamburug'larga qarshi kurashishni



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

qiyinlashtiradi hamda ajriq, g'umay, qamish kabi ko'p yillik begona o'tlarning dala bo'ylab tarqalishiga imkon yaratadi [1].

Ikkinchidan, kuzgi bug'doy o'rib olingandan so'ng ekiladigan barcha o'rindosh ekinlarda zararli organizmlarga qarshi himoya tadbirlari to'liq amalga oshirilishi lozim. Natijada qishlovga ketadigan zararkunandalar zaxirasi imkon qadar kamaytiriladi.

Tadqiqotlarimiz asosan Farg'ona va Andijon viloyatlaridagi xo'jaliklarda olib borilgani sababli, ushbu maqolada tahlillar «g'o'za – bug'doy – o'rindosh ekinlar» almashlab ekish tizimi doirasida bayon etiladi.

Vodiy viloyatlari sharoitida bug'doydan bo'shagan maydonlar bo'sh qoldirilmaydi. Ularning 50–70 % qismida makkajo'xori (*Zea mays* L.) hamda sorgo (*Sorghum* Moench) ekiladi. Ushbu maydonlarning taxminan uchdan bir qismi (12–13 ming gektar) don yetishtirishga, qolgan qismi esa chorvachilik uchun silos tayyorlashga mo'ljallanadi.

Makkajo'xori, sorgo va texnik sorgo (supurgi) qanday maqsadda ekilishidan qat'i nazar, ularda shira, o'rgimchakkana va boshqa ikkinchi darajali zararkunandalar ham uchrab turadi. Biroq asosiy iqtisodiy ahamiyatga ega zararkunandalar qatoriga makkajo'xori poya parvonasi (*Ostrinia nubilalis* Hübner), leukaniya tunlami (*Leucania* spp.) hamda g'o'za tunlami (*Helicoverpa armigera* Hübner) kiradi [2–5].

Mazkur zararkunandalar mavsum davomida 3–4 avlod berib rivojlanadi. Shundan 2–3 avlodi makkajo'xorida rivojlanadi. Poya parvonasi va leukaniya tunlamiga qarshi kurash, avvalo, hosilni saqlab qolish uchun zarur bo'lsa, g'o'za tunlamiga qarshi kurash nafaqat joriy hosilni himoya qilish, balki keyingi yili ekiladigan g'o'zada zararkunanda zaxirasini kamaytirish nuqtayi nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi xo'jaliklarda 2023–2025-yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu uch turdagi kemiruvchi kapalaklar bir vaqtda makkajo'xoriga zarar yetkazganda, don hosili 50–80 % gacha, poya hosili esa 50 % gacha kamayadi. Bundan tashqari, olingan donning sifati, xususan unuvchanligi ham sezilarli darajada pasayadi.

Har bir zararkunandaning alohida zarari nisbatan pastroq bo'lsa-da, ular orasida makkajo'xori poya parvonasi (25–39 %) hamda leukaniya tunlami (32–43 %) ustunlik qiladi. G'o'za tunlamining zarari nisbatan kamroq kuzatiladi. Buning sababi shundaki, u o'simlikning poyasi va barglarini zararlamaydi, asosan so'talarni uch qismidan boshlab zararlab, don hosiliga 5–15 % gacha zarar yetkazadi. Biroq uning eng xavfli jihati shundaki, makkajo'xorida oziqlanib kuchli populyatsiya hosil qiladi va keyingi vegetatsiya mavsumi uchun katta miqdorda qishlovchi zaxira qoldiradi.

Ko'p yillik dala tajribalari davomida makkajo'xori va sorgo ekinlarini ushbu uch turdagi kemiruvchi zararkunandalardan (alohida hamda birgalikda) himoya qilishning samarali usuli ishlab chiqildi. Shuningdek, yuqori biologik



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

samaradorlikka ega insektitsid preparatlar tanlab olinib, ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Makkajo'xori va boshqa sorgumsimon ekinlar baland bo'yli bo'lgani sababli, o'simlik bo'yi 1,0–1,5 m dan oshgach, OVX-28 rusumli purkagich agregatini dalaga kiritish qiyinlashadi. Shu bois biz tomonidan maxsus texnologik tizim ishlab chiqildi va ijobiy natijalar olingach, ishlab chiqarishga tavsiya etildi. Ushbu tizimga ko'ra, texnika erkin harakatlanishi uchun har 28 qator ekindan so'ng 6–8 qator ochiq yo'lak qoldiriladi. Mazkur qatorlarga past bo'yli o'simliklar ekiladi, bu esa purkash ishlarini sifatli va o'z vaqtida bajarish imkonini beradi.



1



2



3



4



5



6

Rasm. Makkajo'xorini himoya qilish uchun yangicha ekib-o'stirish tizimi (1-2), 3 - g'o'za tunlamining so'taga qo'ygan tuxumlari; 4-5 zararlangan o'simlik va so'taning ko'rinishi, 6-tunlamning katta eshqurti.

Ushbu usul baland bo'yli ekinlarni zararkunandalardan samarali himoya qilish imkonini beradi. Buning uchun makkajo'xori, kungaboqar, sorgo va boshqa baland bo'yli ekinlar vegetatsiya davrida o'simlik 4–5 ta chin barg hosil qilgan bosqichdan boshlab har 15–20 kunda bir marta, jami 4–5 marta kimyoviy yoki mikrobiologik preparatlar bilan ishlanadi. Ishlovlar OVX-28 rusumli purkagich yordamida, purkash eritmasi sarfi 300 l/ga me'yorida, har ikki tomondan amalga oshiriladi.

Makkajo'xori yuqori hosildor ekin bo'lib, unga zarar yetkazuvchi hasharotlarning iqtisodiy zarar keltirish darajasi ham ancha yuqori hisoblanadi. Shu sababli vegetatsiya davomida bir necha marotaba himoya ishlovlarini o'tkazish



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

iqtisodiy jihatdan to'liq o'zini oqlaydi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bunday tadbirlar uchun sarflangan xarajatlar 5–8 baravargacha qoplanadi. Eng muhimi, o'rindosh ekinlarda zararkunandalar soni hamda ularning qishlovchi zaxirasi keskin kamayadi, natijada keyingi yili ekiladigan g'o'za maydonlarida zararkunandalarning ommaviy rivojlanishi va hosilga yetkazadigan zarari sezilarli darajada pasayadi.

ADABIYOTLAR

1. Ходжаев Ш.Т., Юлдашев Ф. Особенности развития стеблевого кукурузного мотылька //Узбекский биологический журнал. – 2014. – №1. – С. 23-26..
2. Tavsiyanoma. Makkajo'xori va boshqa baland bo'yli o'simliklarni zararkunandalardan himoya qilishning yangi texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar / Tuz.: Sh.T.Xo'jayev, F.E.Yuldashev. – Toshkent, 2017. – 47 b.
3. Yuldashev F.E., Xo'jayev Sh.T. Makkajo'xorini himoya qilishdagi faol usul va vositalar //Dokl. ANRUz. – 2017. – №1. – 51-52 b.
4. Urazbayev A., Xo'jayev Sh.T., Atajanov T., Nurumova N. G'o'za qator orasida kuzgi bug'doy yetishtirishda begona o'tlar muammosi //Agro kimè himoya va o'simliklar karantini jurnali. –№5. –2022. – B. 72-73.
5. Yuldashev F.E., Khodjaev Sh.T. Makkajo'xori barg tunlami *Mythimna (Leycani) Loreyi* (Duponchel, 1987) rivojlanishi va zarari // Food security: Global and national problems. Vi international scientific and practical conference(October 14-15. 2024y. – Samarkand, 2024. – B. 506-508.
6. Xo'jayev Sh.T. Pestisid va agroximikatlarni ro'yxatga olish sinovlarini o'tkazish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar / Tuzuvchilar: Sh.T.Xo'jayev, A.R.Anorbayev, N.S.Mirpulatova va b. – Toshkent, 2023. – 172 b.



UO'K: 632.51:633.3

YERYONG'OQ EKINIDA UCHRAYDIGAN BIR VA KO'P YILLIK G'ALLASIMON BEGONA O'TLARNING TUR MIQDORLARI VA ZARARLASH DARAJASI

Turdiyeva Nilufar Mo'minovna 

professor

e-mail: nturdieva1977@mail.ru

Isroilov Dostonbek Rustam o'g'li 

kichik ilmiy xodim

e-mail: dostonbekisroilov2va3@gmail.com

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yeryong'oq ekinida uchraydigan bir va ko'p yillik g'allasimon begona o'tlarning tur tarkibi, dalalarda tarqalish darajasi hamda ularning ekin hosildorligiga salbiy ta'siri yoritilgan. O'tkazilgan dala kuzatuvlari asosida begona o'tlarning 1 m² dagi miqdoriy ko'rsatkichlari aniqlanib, zararlash darajasi baholangan hamda ularning yeryong'oq agrotsenozida raqobatbardoshligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yeryong'oq, begona o'tlar, g'allasimon begona o'tlar, agrotsenoz, tur tarkibi, tarqalish darajasi, zararlash darajasi, dala kuzatuvlari, hosildorlik.

Abstract. This article examines the species composition of annual and perennial grassy weeds occurring in peanut crops, their distribution in fields, and their negative impact on crop yield. Based on field observations, the quantitative indicators of weeds per 1 m² were determined, their level of harmfulness was assessed, and their competitiveness within the peanut agrocenosis was analyzed.

Keywords: peanut, weeds, grassy weeds, agrocenosis, species composition, distribution level, harmfulness, field observations, yield.

Аннотация. В данной статье рассматриваются видовой состав однолетних и многолетних злаковых сорных растений, встречающихся в посевах арахиса, их распространение на полях, а также отрицательное влияние на урожайность культуры. На основе проведённых полевых наблюдений были определены количественные показатели сорных растений на 1 м², оценена степень их вредоносности, а также проанализирована их конкурентоспособность в агроценозе арахиса.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Ключевые слова: арахис, сорные растения, злаковые сорняки, агроценоз, видовой состав, степень распространения, вредоносность, полевые наблюдения, урожайность.

KIRISH

Yeryong'oq (*Arachis hypogaea* L.) dunyo qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan moyli va oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ekin yuqori oziqaviy qiymati, tarkibida oqsil va moy miqdorining ko'pligi bilan ajralib turadi. Respublikamiz sharoitida yeryong'oq yetishtirish hajmini oshirish va uning hosildorligini barqaror ta'minlash dolzarb masalalardan biridir.

Yeryong'oq ekinining o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu begona o'tlar hisoblanadi. Ayniqsa g'allasimon begona o'tlar (Poaceae oilasi vakillari) ekin bilan oziqa moddalari, namlik va yorug'lik uchun kuchli raqobatga kirishib, hosildorlikning keskin kamayishiga olib keladi. Ularning tez ko'payish xususiyati, keng ekologik moslashuvchanligi hamda urug' va vegetativ organlar orqali tarqalishi ularni yanada xavfli qiladi.

G'allasimon begona o'tlar tarkibiga kiruvchi bir yillik va ko'p yillik turlar yeryong'oq agrotsenozida keng tarqalgan bo'lib, ular orasida qo'noq o'tlar (*Setaria* spp.), yovvoyi suli (*Avena* spp.), ajriq (*Cynodon dactylon*) va g'umay (*Sorghum halepense*) kabi turlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu begona o'tlar ekinning dastlabki rivojlanish bosqichlarida ayniqsa katta zarar yetkazadi.

Shu munosabat bilan yeryong'oq ekinida uchraydigan g'allasimon begona o'tlarning tur tarkibini, ularning tarqalish darajasini va zararlash ko'rsatkichlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yashil qo'noq – *Setaria viridis* (L.) Beauv. Bir yillik g'allasimon begona o't hisoblanadi. Poyasi tik o'suvchi, tuksiz bo'lib, balandligi 20–70 sm ni tashkil etadi. Barglari yashil rangda, qalami-nashtarsimon shaklda, ustki qismi dag'al, chetlari o'tkir. To'pguli qalin, silindrsimon bo'lib, boshloqchalarining uzunligi 2–2,5 mm, qilchalar bilan qoplangan. Pishgan boshloqlari asosan yashil, ba'zan to'q siyohrang tusda bo'ladi. Bir tup o'simlik 2000–3000 tagacha urug' hosil qiladi. Urug'lari tuproqning 12–14 sm chuqurligidan unib chiqish xususiyatiga ega bo'lib, unuvchanligini 4 yilgacha saqlaydi. Urug'larning unib chiqishi uchun minimal harorat 6–8°C, optimal harorat esa 20–24°C ni tashkil etadi. O'simlik iyun–sentyabr oylarida gullab, urug'laydi. Asosan beda maydonlarida, donli ekinlar, g'o'za qator oralari hamda bog'larda keng tarqalgan. Respublikaning deyarli barcha hududlarida uchraydi.

Yovvoyi suli – *Avena meridionalis* Roshev. Bir yillik g'allasimon begona o't hisoblanadi. Poyasi tik o'suvchi bo'lib, balandligi odatda 40–100 sm, ayrim hollarda 120 sm gacha yetadi. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan. Barglari chiziqsimon, yosh barglari to'q yashil rangda bo'lib, biroz chap tomonga egilgan holda rivojlanadi. Barg qini va plastinkasining pastki qismi mayda tukchalar bilan qoplangan, barg yuzasi esa silliq. Barg qinida quloqchalar bo'lmaydi. To'pguli ro'vak (panikula)



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

shaklida bo'lib, uzunligi 20–30 sm ga yetadi. Boshqochalari odatda 2–3 gulli, osilgan holatda joylashadi. Gullari qoramtir rangli, uzun qiltiqli bo'lib, bo'g'imlardan rivojlanadi. Bir tup o'simlik o'rtacha 300–600 ta, ayrim hollarda 1000 tagacha urug' hosil qiladi. Urug'lari tuproqning 20 sm gacha chuqurligidan unib chiqish xususiyatiga ega bo'lib, unuvchanligini 2–5 yil davomida saqlaydi. Urug'lari asosan bahorda unib chiqadi. O'simlik may–sentyabr oylarida gullab, urug'laydi. Asosan og'ir, karbonatli, o'rtacha nam, serloyqa va qumoq tuproqlarda yaxshi rivojlanadi.

Yovvoyi sul'i qishloq xo'jaligi ekinlari, ayniqsa donli ekinlar orasida keng tarqalgan bo'lib, respublikaning deyarli barcha hududlarida uchraydi.

Ko'p yillik boshqoli begona o'tlar. Ajriq – *Cynodon dactylon* (L.) Pers. Ko'p yillik g'allasimon begona o't hisoblanadi. Poyasi bo'g'inli, pastki qismidan kuchli shoxlanadi, balandligi odatda 10–50 sm ni tashkil etadi. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan bo'lib, ildizpoyali va sudralib o'suvchi xususiyatga ega. Yer usti va yer osti novdalari orqali tez ko'payadi. Barglari ingichka, ko'kish-yashil rangda, qalami-tasmasimon shaklda. To'pguli panjasimon (barmoqqa o'xshash) bo'lib, bir nuqtadan bir nechta boshqochalar chiqadi. Mevasi doncha ko'rinishida, tuxumsimon, yassi-uch qirrali, uzunligi taxminan 3 mm, eni 1 mm. Ajriq asosan vegetativ yo'l bilan, ya'ni ildizpoyalari orqali ko'payadi, shu bilan birga urug' ham hosil qiladi. Bir tup o'simlik mavsum davomida 1000–2000 tagacha urug' berishi mumkin. O'simlik iyun–avgust oylarida gullab, urug'laydi. Sug'oriladigan ekinlar orasida, tashlandiq yerlarda, yo'l yoqalarida keng tarqalgan. Respublikaning barcha hududlarida uchraydi.

G'umay – *Sorghum halepense* (L.) Pers. Ko'p yillik g'allasimon begona o't hisoblanadi. Poyasi tik o'suvchi, tuksiz bo'lib, yo'g'onligi 1–2 sm, balandligi 50–150 sm ni tashkil etadi. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, ildizpoyali bo'lib, tuproq ostida keng tarqaladi. O'simlik urug'i va ildizpoyalari orqali ko'payadi, bu esa uning tez tarqalishiga sabab bo'ladi. Mevasi doncha ko'rinishida bo'lib, uzunligi 5–6 mm, eni 2 mm, yo'g'onligi 1,5–1,7 mm ni tashkil etadi. Bir tup o'simlik 2000–3000 tagacha urug' hosil qiladi. Urug'lari tuproqning 7–8 sm chuqurligidan unib chiqish xususiyatiga ega bo'lib, unuvchanligini 4 yilgacha saqlaydi. Urug'larning unib chiqishi uchun minimal harorat 10–12°C, optimal harorat esa 20–35°C ni tashkil etadi. O'simlik may–iyul oylarida gullab, iyul–sentyabr oylarida urug'laydi. G'umay g'o'za, don va sabzavot ekinlari orasida keng tarqalgan bo'lib, respublikaning barcha hududlarida uchraydi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Kuzatuvlar 2025–2026-yillarda Farg'ona viloyati dala sharoitida olib borildi. Begona o'tlarning tur tarkibi va miqdorini aniqlash maqsadida 1 m² hisob maydonchalari ajratilib, ularning soni sanaldi. Olingan natijalar asosida o'rtacha qiymatlar hisoblandi. Begona o'tlarning zararlash darajasi 5 ballik tizim asosida baholandi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

NATIJALAR VA MUNOZARA

Yeryong'oq ekinida g'allasimon begona o'tlar orasida g'umay va ajriq yuqori uchrash ko'rsatkichiga (5,2–5,8 dona/m²) hamda yuqori zararlash darajasiga (4 ball) ega ekanligi aniqlangan. O'rtacha zararlanish darajasi 3,6 ballni tashkil etib, bu begona o'tlarning ekin hosildorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi (1-jadval).

1-jadval

Yeryong'oq maydonlarida uchraydigan bir va ko'p yillik g'allasimon begona o'tlar tur miqdorlari va ularning zararlash darajasi (Farg'ona viloyati sharoitida), (1 m², 2025-2026-yy.)

№	Begona o'tlarning nomlari			
	O'zbek tilida	Lotin tilida	Uchrashi, 1 kv.m da	Zararlash darajasi, ballar
Bir yilliklar				
1	Qo'noq o't	<i>Setaria glauca</i> L. Beauv.	5,1	4
2	Yashil qo'noq o't	<i>Setaria viridis</i> .	4,3	3
3	Yovvoyi suli	<i>Avena fatua</i> L.	4,9	3
Ko'p yilliklar				
4	Ajriq	<i>Cynodon dactylon</i> L.	5,2	4
5	G'umay	<i>Sorghum halepense</i>	5,8	4
	Jami:		25,3	18
	O'rtachasi:		5,06	3,6

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yeryong'oq ekinida uchraydigan g'allasimon begona o'tlar bir va ko'p yillik turlari bilan ajralib turib, dalalarda keng tarqalgan va ekin bilan kuchli raqobatga kirishadi. 2025–2026-yillarda Farg'ona viloyati sharoitida o'tkazilgan dala kuzatuvlari natijasida ularning 1 m² dagi miqdoriy ko'rsatkichlari hamda zararlash darajasi aniqlanib, ayrim turlar yuqori darajada zarar yetkazishi qayd etildi. Olingan natijalar begona o'tlarni o'z vaqtida va samarali nazorat qilish yeryong'oq hosildorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.K., Yuldashev A.A. Begona o'tlar biologiyasi va ularga qarshi kurash choralari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Turdiyeva N.M. Agrotsenozlarda begona o'tlarning bioekologik xususiyatlari // Qishloq xo'jaligi ilmiy jurnali. – 2019. – №2. – B. 33–37.
3. G'ofurov A.G. O'simliklar ekologiyasi va begona o'tlar biologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2017.
5. FAO (Food and Agriculture Organization). Weed Management in Field Crops. – Rome, 2021.
6. U.S. Department of Agriculture (USDA). Grass Weed Identification and Control Guide. – Washington, 2020.





UO'K: 633.11:632.4

KUZGI BUG'DOYNING CHANG VA QATTIQ QORAKUYA KASALLIKLARIGA QARSHI "GRANDSIL 6% SUS.K." PREPARATINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Karimov Nurbek Dexkanovich 

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti "O'simliklarni begona o'tlar, kasallik va hashoratlardan himoya qilish" laboratoriyasi mudiri, q.x.f.f.d.

Uzaqov Fazliddin Ergashovich 

mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda kuzgi bug'doyda keng tarqalgan chang qorakuya (*Ustilago tritici*) va qattiq qorakuya (*Tilletia* spp.) kasalliklariga qarshi "Grandsil 6% sus.k." fungitsid preparatining biologik samaradorligi ilmiy asosda baholandi. Tajribalar natijasida preparat bilan urug'likka ishlov berish kasalliklar tarqalishini sezilarli darajada kamaytirishi aniqlandi. Shu bilan birga, sog'lom o'simliklar ulushining oshishi va umumiy fitosanitar holatning yaxshilanishi kuzatildi. Olingan natijalar mazkur preparatning urug'lik bug'doyni himoya qilish tizimida yuqori agrotexnik samaraga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kuzgi bug'doy, chang qorakuya, qattiq qorakuya, "Grandsil 6% sus.k.", fungitsid, urug'lik kasalliklari, biologik samaradorlik.

Abstract. This study scientifically evaluated the biological efficacy of the fungicide "Grandsil 6% SC" against loose smut (*Ustilago tritici*) and common bunt (*Tilletia* spp.) of winter wheat. The results showed that seed treatment with this product significantly reduces disease spread. In addition, an increase in the proportion of healthy plants and an improvement in overall phytosanitary conditions were observed. The findings confirm the high agronomic effectiveness of this fungicide in winter wheat seed protection systems.

Keywords: winter wheat, loose smut, common bunt, "Grandsil 6% SC", fungicide, seed-borne diseases, biological efficacy.

Annotatsiya. Maqolada indau ekinining 10 ta nav namunalarining kuzgi ekish muddatlarida morfobiologik belgilarining namoyon bo'lishi, hosildorligi va muhim xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanligi borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasi keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida yuqori o'zgaruvchanlik kuzatilgan navlar – Viktoriya (29,6%), Korsika (25,5%), Akropol (22,5%), Rimskie kanikuli (31,1%), Sakramento (32,8%).

Kalit so'zlar: indau, nav namunalari, rivojlanish davrlari, barg soni, barg uzunligi va eni, o'simlik mahsuldorligi, o'zgaruvchanlik koeffsienti.

Abstract. The article presents the results of research on the expression of morphobiological traits, yield performance, and the variability of important agronomic characteristics in 10 cultivar samples of rocket (Indau) under autumn sowing conditions. The study revealed high variability in the following cultivars: Victoria (29.6%), Corsica (25.5%), Acropol (22.5%), Rimskie Kanikuli (31.1%), and Sacramento (32.8%).

Keywords: rocket (Indau), cultivar samples, growth stages, number of leaves, leaf length and width, plant productivity, coefficient of variation.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований по проявлению морфобиологических признаков, урожайности и изменчивости важных хозяйственно ценных признаков у 10 сортовых образцов индау при осенних сроках посева. По результатам исследований наибольшая изменчивость была отмечена у сортов: Виктория (29,6%), Корсика (25,5%), Акрополь (22,5%), Римские каникулы (31,1%) и Сакраменто (32,8%).

Ключевые слова: индау, сортовые образцы, фазы развития, количество листьев, длина и ширина листа, продуктивность растения, коэффициент изменчивости.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida indau (*Eruca sativa* Mill.) o'simligini salatbop va moyli ekin sifatida yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan Rossiya federatsiyasi, Italiya, Fransiya, Germaniya, Isroil, Amerika qo'shma shtatlari va Kanada davlatlarida uni salatbop cabzavot ekin sifatida yetishtirilayotgan bo'lsa, Misr, Pokiston va Hindistonda esa uni moyli ekin sifatida keng maydonlarda yetishtirilmoqda. Bu ekin dunyoning turli mamlakatlarida turlicha (eruka, rukola, raketa, arugula, rauke va boshqa) nomlar bilan nomlanadi. Xususan Italiyada rukola nomi bilan yetishtirilib undan 200 dan ortiq salat turlarini tayyorlashda foydalaniladi. Indau o'simligi tarkibi jihatidan juda boy o'simlik hisoblanib uni respublikamiz sharoitiga introduksiya qilish dolzarb hisoblanadi. Qimmatli, lekin kam tarqalgan sabzavot ekini indauni O'zbekiston sharoitiga introduksiya qilish, bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar doirasida uni kuzgi muddatlarda yetishtirib, sinab ko'rildi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar ob'ekti sifatida Rossiya Federatsiyasidan keltirilgan 10 ta nav namunalari olindi.. Tadqiqotlar quyidagi uslublar va uslubiy ko'rsatmalar asosida olib borildi: "Методика полевого опыта в овощеводстве" (2011); ОСТ 4671-78 (Делянки и схемы посева в селекции, сортоиспытании и первичном семеноводстве) (1979); "Методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунте" (1987), Руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов (1982), Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур (2019; 4-qism). Indau urug'larini kuzda 10 sentabrda ochiq dalaga ekildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ko'chatlarning dastlabki unib chiqishi deyarli hamma nav namunalarida bir xil bo'lib, 15-17 sentabrda, yoppasiga unib chiqishi esa 16-18 sentabrda kuzatildi. Birinchi chinbargning dastlabki paydo bo'lishi hamma nav namunalarida 2018 yilda 20 sentabrda, 2019 yilda 23 senyabrda va 2020 yilda 24 sentabrda kuzatildi. 2019-2020 yillarda chinbargning paydo bo'lishi 2018 yilga nisbatan 3-4 kunga kech amalga oshdi. Xuddi shunday holat birinchi chinbargning yoppasiga hosil bo'lishida ham kuzatildi. Ikkinchi chinbargning dastlabki hosil bo'lishi 22-27 sentabrda kuzatildi va 2019-2020 yillarda bu rivojlanish fazasi 3-5 kun kech amalga oshdi. Ikkinchi chinbargning yoppasiga hosil bo'lishi 2018 yilda 24 sentabrda amalga oshgan bo'lsa 2019-2020 yillarda 28-29 sentabrda kuzatilib, 3-4 kun keyin amalga oshdi. Hosilning texnik pishib yetilishi, ya'ni barglarning uzunligi 12-15 smga yetishi 16-17 oktabrda kuzatildi va yillar va navlar o'rtasida bu rivojlanish fazasining amalga oshishi bir davrga to'g'ri keldi.

Ekishdan yoppasiga unib chiqishi davrining davomiyligi, barcha yillar va navlarda bir xil bo'lib, 3 kunni tashkil etdi. Yoppasiga unib chiqishi – birinchi





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

chinbargning paydo bo'lishi davrining davomiyligi 6-8 kunni tashkil etdi. Bu davrning davomiyligi bo'yicha navlar o'rtasida farq kuzatilmadi. U o'rtacha 7 kunni tashkil etgani holda, 2018-yilda 6 kunni, 2019 yilda 8 kunni, 2020 yilda esa 7 kunni tashkil etdi. Xuddi shunday holat yoppasiga unib chiqishi – ikkinchi chinbargning paydo bo'lishi davrining davomiyligi bo'yicha ham kuzatildi.

Yoppasiga unib chiqishi – texnik yetilishi davrining davomiyligi o'rtacha 30-kunni tashkil etdi. 2019 yilda hosil 29 kunda texnik pishib yetilgan bo'lsa, 2018 yil bu bir kunga 2020 yilda esa 3 kunga kech bo'ldi (1-jadval).

1-jadval

Indau nav namunalarining kuzgi muddatda rivojlanish davrlari davomiyligining o'rtacha ko'rsatkichlari (2018-2020 y.y.)

№	Nav namunalari	Ekishdan yoppasiga unib chiqishigacha kun	Yoppasiga unib chiqqandan, kun		Hosilning texnik pishib yetilishi gacha, kun
			1-chinbarg paydo bo'lishigacha	2-chinbarg paydo bo'lishigacha	
1	Viktoriya	3	7	9	30
2	Korsika	3	7	9	30
3	Sitsiliya	3	7	9	30
4	Akropol	3	7	9	30
5	Rimskie kanikuli	3	7	9	30
6	Sakramento	3	7	9	30
7	Sanremo	3	7	9	30
8	Aromat	3	7	9	30
9	Rokoko	3	7	9	30
10	Gurman	3	7	9	30

Shunday qilib indau urug'larini 10 sentabrda ekilgandan so'ng, indau barglarining iste'molga yaroqli holga kelishi uchun 29-32 kunni talab etganligi kuzatildi. Indauning mahsuldorligini belgilaydigan bitta o'simlikdagi barglar soni, bargining uzunligi va eni kabi belgilar bo'yicha tavsiflash muhim hisoblanadi (2-jadval).



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

2-jadval

Kuzgi muddatda ekilgan indau o'simligining morfologik tavsifi va mahsuldorligi (2018-2020 y.y.)

№	Nav namunalari	Barg			Mahsul-dorlik, g/o'simlik
		soni, dona	uzunligi, sm	eni, sm	
1	Viktoriya	81,3	18,6	7,0	222,3
2	Korsika	63,5	18,0	6,7	167,5
3	Sitsiliya	78,6	18,3	7,0	201,8
4	Akropol	82,9	18,6	7,2	234,0
5	Rimskie kanikuli	86,5	18,8	6,6	203,6
6	Sakramento	88,2	18,3	6,8	193,7
7	Sanremo	72,3	19,4	7,5	167,6
8	Aromat	76,9	18,6	6,7	195,8
9	Rokoko	74,5	18,8	7,2	187,9
10	Gurman	69,2	18,5	7,0	181,8
ΣX		773,9	185,9	69,7	1956
$\bar{x}$		77,39	18,59	6,97	195,6

Kuzgi muddatda jami 6 marta yig'im o'tkazildi. Eng ko'p barg hosil qilgan nav namunalari: Viktoriya, Rimskie kanikulı, Sakramento, Akropol, bo'lib ularda bitta o'simlikda barg soni o'rtacha 82,9-88,2 donani tashkil etdi. Eng ko'p barg hosil qilgan Sakramento naviga nisbatan oladigan bo'lsak Rimskie kanikulı navida 98,1%, Akropol navida 94,0%, Viktoriya navida 92,1% ni tashkil qildi. Boshqa o'rganilgan navlar ushbu belgi bo'yicha past ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, Moskva viloyati sharoitida Kursheva J.V (2009) tadqiqotlarida texnik yetilishi davrida indau nav namunalari barglar soni 15,0-19,0 donani tashkil etgan [106; 126-b.]. Perm o'lkasida Paponov A.N. (2003) tadqiqotlarida esa indau issiqxonalarda 12 tagacha, ochiq dalalarda esa 20-28 tagacha barg hosil qilgan [32; 114 – 116.]. Bu ma'lumotlar O'zbekiston sharoitida indau o'simligining potensial hosildorligi juda yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Eng uzun barglar Sanremo (19,4 sm), Rokoko (18,8 sm), Rimskie kanikulı (18,8 sm), namunalarida kuzatildi. Boshqa o'rganilgan navlarda barg uzunligi 18,0-18,6 sm atrofida bo'lib ular bu ko'rsatkich bo'yicha bir-biriga yaqin bo'ldi. Eng enli barglar (7,0-7,5 sm) Viktoriya, Sitsiliya, Akropol, Rokoko, Gurman, Sanremo namunalarida kuzatildi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda eng ko'p barg



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

hosil qilgan nav namunalarida o'simlik mahsuldorligi ham yuqori bo'ldi. Xususan, Biktoriya navida bitta o'simlikdagi barg soni 81,3 dona va bitta o'simlik mahsuldorligi 222,3 g ni, Akropol navida barg soni 82,9 dona va bitta o'simlik mahsuldorligi 234,0 g ni, Rimskie kanikuly navida muvofiq ravishda 86,5 dona va 203,6 g ni tashkil etdi. Eng ko'p barg hosil qilgan Sakramento navida mahsuldorlikning biroz past bo'lishi bargining ingichkaligi (eni 6,8 sm) bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, 2018-2020 yillar davomida eng mahsuldor nav namunalari Viktoriya (222,3 g/o'simlik), Akropol (234,0 g/o'simlik), Rimskie kanikuly (203,6 g/o'simlik), Aromat (195,8 g/o'simlik) bo'lib hisoblanadi.

Kursheva J.V. (2009) ma'lumotlariga ko'ra Moskva viloyati sharoitida indau o'simligi mahsuldorligi 13-42 g/o'simlik bo'lgan. Perm o'lkasida Shirinkin V.N. (2012) olib borgan tadqiqotlarda 6 ta ekish muddatida Izumrudnaya navining hosildorligi 2009 yilda 0,76-1,30 kg/m², 2010 yilda – 0,29-1,68 kg/m², 2011 yilda – 0,54-1,09 kg/m² ni tashkil etgan. Indau ekini hosildorligi ob-havo sharoitiga, eng avvalo haroratga bog'liqligi aniqlangan. Tadqiqot yillarida o'rtacha hosildorlik 0,96 kg/m² ni tashkil etgan. Ob-havo harorati hosildorlikka va uning o'zgaruvchanligiga sezilarli darajada ta'sir etgan. 2010 yilda hosildorlikni o'zgaruvchanlik koeffitsienti juda yuqori bo'lib 62,0% ni, 2009 va 2010 yillarda esa ushbu belgining o'zgaruvchanlik darajasi 22,0% atrofida bo'lgan. Kabardino- Balgariya sharoitida turli ekish muddatlarida Poker navining mahsuldorligi 39,2-63,2 g/o'simlik, Pasyans navida esa 40,4-62,9 g/o'simlikni tashkil etgan [84; 105-b.].

Kursheva J.V. (2009) ma'lumotlariga ko'ra Moskva viloyati sharoitida turli ekish muddatlarida Poker navining ko'k massa mahsuldorligi 37,1-77,2 g/o'simlikni, Rokoko navining ko'k massa mahsuldorligi esa 18,5-48,7 g/o'simlikni tashkil etgan [106; 126-b.].

Bizning olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida indauning mahsuldorligi quyidagicha kuzatilganligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Kuzgi muddatda ekilgan indau nav namunalarining o'rtacha hosildorligi (2018-2020 y.y.)

№	Indau nav namunalari	Hosildorligi, kg/m ²			O'rtacha hosildorlik, kg/m ²
		2018	2019	2020	
1	Akropol	6,9	7,3	5,8	6,7
2	Viktoriya	6,7	7,0	5,3	6,3
3	Sitsiliya	5,6	6,1	5,7	5,8
4	Rimskie kanikuli	5,1	6,0	6,3	5,8
5	Aromat	6,1	4,8	5,8	5,6
6	Sakramento	5,3	5,5	5,8	5,5
7	Rokoko	4,7	5,2	6,2	5,4





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

8	Gurman	4,6	5,3	5,7	5,2
9	Korsika	4,4	5,1	4,8	4,8
10	Sanremo	4,9	5,0	4,4	4,8
EKF ₀₅		1,2	1,5	1,1	
S _x (%)		0,9	1,1	1,3	

Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonning janubiy sharoitida kuzgi muddatda yetishtirilgan indau o'simliklarining mahsuldorligi yuqorida ko'rsatib o'tilgan mintaqalarga nisbatan juda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bundan shu narsa aniqlandiki, indauning o'sib rivojlanishi hamda yuqori hosil berishi uchun bizning iqlim sharoitimiz juda qulay hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi indau ekinini O'zbekiston sharoitida kuzgi muddatda yetishtirib yuqori hosil olish mumkinligini ko'rsatdi. Kuzgi mavsumda yetishtirish uchun eng istiqbolli navlar sifatida Viktoriya, Sitsiliya, Akropol, Rimskie kanikuly, Aromat nav namunalari ajratildi.

Kuzgi muddatda yetishtirilgan indau o'simliklari xo'jalik muhim belgilarining o'zgaruvchanligini aniqlash. Indauning asosiy iste'mol qilinadigan qismi sersuv barglari hisoblanadi va hech shubhasiz u qimmatli xo'jalik belgilaridan biri bo'lib sanaladi. Shuning uchun barg o'lchamlari o'zgaruvchanligini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Olingan natijalarga ko'ra o'rganilgan nav namunalarida o'rtacha uch yilda barg uzunligi 16,4 sm dan (Viktoriya) 19,1 sm gacha (Gurman) bo'ldi. Ammo, bitta nav namunasi doirasida barg uzunligi bo'yicha juda katta o'zgaruvchanlik kuzatildi.

Belgining o'zgaruvchanligini baholash parametrlaridan biri bu belgilarning limitidir. Limitlarning eng yuqori chegerasi ushbu belgi bo'yicha eng yuqori potensialga ega bo'lgan genotiplarni tanlab olish imkonini beradi. Xususan, Viktoriya navida 2018 yilda barg uzunligi o'zgaruvchanlik limiti 11 sm dan 22 sm gacha yoki o'rtacha uch yilda 13 sm dan 22 sm gacha bo'ldi. Xuddi shunday holat hech istisnosiz hamma o'rganilgan navlarda kuzatilganini quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatib berdi (4-jadvalga qarang).

Umuman o'zgaruvchanlik koeffitsienti (variatsiya koeffitsienti) ushbu belgi bo'yicha o'rtacha darajada bo'lib, 11,32% dan (Gurman) 19,85% gachani (Sakramento) tashkil etdi (8-ilova). Faqatgina Akropol navida ushbu belgi yuqori darajada (20,45%) o'zgaruvchan bo'ldi (4-jadval).

**AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI***4-jadval***Kuzgi muddatda yetishtirilgan indau nav namunalari barg uzunligi
o'zgaruvchanligi ko'rsatkichlari (2018-2020 y.y.)**

Nav namunalari	$\bar{x}$, sm	Lim	V, %
Viktoriya	16,4	13-22	14,69
Korsika	17,8	13-21	17,59
Sitsiliya	17,9	14-22	13,08
Akropol	18,2	12-23	20,45
Rimskie kanikuly	17,7	13-21	17,85
Sakromento	16,5	13-20	19,85
Sanremo	17,0	17-21	16,93
Aromat	16,7	13-21	16,80
Rokoko	17,7	13-20	16,46
Gurman	19,1	15-20	11,32
ΣX	175,0	136,0-211,0	165,0
$\bar{x}$	17,5	13,6-21,1	16,5

Barg enining o'rtacha arifmetik miqdori 6,4-7,5 sm atrofida bo'lib, navlar bo'yicha o'rtacha uch yillik miqdori 7,0 sm ni tashkil etdi. Ushbu belgining o'zgaruvchanlik limiti hamma navlarda ham yuqori bo'lib, o'rtacha navlar bo'yicha 4,8-8,9 sm ni tashkil etdi.

Ushbu belgining o'zgaruvchanlik limiti ham yuqori bo'lganligi kuzatildi. Masalan, Viktoriya navida 2018 yilda barg eni 4 sm dan 10 sm gacha, 2019 yilda 6 sm dan 8 sm gacha, 2020 yilda esa 5 sm dan 9 sm gacha, o'rtacha uch yilda esa 5 sm dan 9 sm gacha o'zgaruvchan bo'ldi (5-jadval).





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

5-jadval

Kuzgi muddatda yetishtirilgan indau nav namunalarining barg eni o'zgaruvchanligi ko'rsatkichlari (2018-2020 y.y.)

Nav namunalari	$\bar{x}$, sm	Lim	V, %
Viktoriya	7,3	6-9	18,32
Korsika	7,5	5-9	17,10
Sitsiliya	7,1	5-10	20,02
Akropol	7,2	5-11	24,62
Rimskie kanikulı	6,5	4-9	22,10
Sakramento	6,4	4-9	23,39
Sanremo	6,8	5-9	18,17
Aromat	6,5	4-8	18,46
Rokoko	7,2	5-9	15,29
Gurman	7,4	5-10	21,00
ΣX	69,9	48-89	198,5
$\bar{x}$	7,0	4,8-8,9	19,9

Barg eni belgisining o'zgaruvchanlik koeffitsienti navlar bo'yicha o'rtacha miqdori 19,9% ni tashkil etib o'rtacha darajada bo'ldi. Shu bilan bir qatorda o'rganilgan 10 ta navning 5 tasida: Sitsiliya, Akropol, Rimskie kanikulı, Sokramento, Gurman navlarida ushbu belgining o'zgaruvchanligi yuqori darajada bo'ldi va 20,02-24,62% ni tashkil etdi.

Boshqa o'rganilgan navlarda o'zgaruvchanlik koeffitsienti 15,29-18,46% ni tashkil etdi va ushbu belgining o'zgaruvchanligi o'rtacha darajada bo'ldi. O'zgaruvchanligi o'rta darajada bo'lgan navlarda ushbu belgi bo'yicha tanlash ishlari samarali, yuqori darajada bo'lgan navlarda esa kam samarali bo'ladi.

Eng muhim ko'rsatkichlardan biri barg soni kuzgi muddatda o'rganilgan indau nav namunalarida 63,5 donadan (Korsika) 86,5 donagacha (Rimskie kanikulı) bo'ldi va o'rtacha navlar bo'yicha 77,4 donani tashkil etdi. Bunday holat indau nav namunalarida kuzgi muddatda potensial hosildorlik ancha yuqori bo'lishidan dalolat beradi (6-jadval).



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

6-jadval

Kuzgi muddatda yetishtirilgan indau nav namunalarining barg conlari o'zgaruvchanligi ko'rsatkichlari (2018-2020 y.y.)

Nav namunalari	$\bar{x}$, dona/o'simlik	Lim	V, %
Viktoriya	81,3	50-101	17,98
Korsika	63,5	43-94	20,62
Sitsiliya	78,7	48-95	16,33
Akropol	82,9	50-115	19,50
Rimskie kanikulı	86,5	63-129	20,01
Sakramento	88,2	53-129	25,95
Sanremo	72,3	59-95	14,82
Aromat	76,9	63-93	10,35
Rokoko	74,5	58-90	12,52
Gurman	69,2	49-93	20,58
ΣX	774,0	536-1034	178,7
$\bar{x}$	77,4	53,6-103,4	17,9

Ana shu belgining o'zgaruvchanlik limiti ham ancha yuqori bo'lib, navlar bo'yicha o'rtacha 55,7 donadan 103 donagacha bo'ldi.

Barg sonining o'zgaruvchanlik koeffitsienti bo'yicha ham nav namunalari ikki guruhga ajratildi:

o'rta o'zgaruvchan navlar – Viktoriya (17,98%), Akropol (19,50%), Sitsiliya (16,33%), Sanremo (14,82%), Aromat (10,35%), Rokoko (12,52%);

yuqori o'zgaruvchan navlar – Korsika (20,62%), Rimskie kanikulı (20,01%), Sakramento (25,95%), Gurman (20,58%) (10-ilova).

Bu ma'lumotlar barg soni belgisi o'rtacha o'zgaruvchan bo'lgan navlarda tanlash ishlari samarali, yuqori o'zgaruvchan bo'lgan navlarda esa past samarali bo'lishini ko'rsatadi (7-jadval).

**AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI**

7-jadval

Kuzgi muddatda yetishtirilgan indau nav namunalari barg mahsuldorligi o'zgaruvchanligi ko'rsatkichlari (2018-2020 y.y.)

Nav namunalari	$\bar{x}$, g/o'simlik	Lim	V, %
Viktoriya	222,3	145-356	29,6
Korsika	167,5	96-248	25,5
Sitsiliya	201,8	148-273	18,1
Akropol	234,0	146-354	22,5
Rimskie kanikulı	203,7	127-368	31,1
Sakromento	193,8	117-294	32,8
Sanremo	167,6	132-223	15,1
Aromat	195,8	148-280	19,0
Rokoko	187,9	150-235	14,4
Gurman	181,8	132-229	15,7
ΣX	1956,2	1341-2860	223,8
$\bar{x}$	195,6	134,1-286,0	22,4

Boshqacha qilib aytganda, hal qiluvchi belgilardan biri – indau o'simliklarining ko'k massa yoki barg mahsuldorligi hisoblanadi. Eng yuqori barg mahsuldorligi Viktoriya (222,3 g/o'simlik), Sitsiliya (201,8 g/o'simlik), Akropol (234,0 g/o'simlik), Rimskie kanikulı (203,7 g/o'simlik) navlarida kuzatildi. Navlar bo'yicha bu belgining uch yillik o'rtacha ko'rsatkichi 195,6 g/o'simlikni tashkil etdi.

Bitta o'simlik barg mahsuldorligi belgisining o'zgaruvchanligi bo'yicha ham nav namunalari 2 guruhga bo'lindi:

o'rtacha o'zgaruvchanlik kuzatilgan navlar – Sitsiliya (18,1%), Sanremo (15,1%), Aromat (19,0%), Rokoko (14,4%), Gurman (15,7%);

yuqori o'zgaruvchanlik kuzatilgan navlar – Viktoriya (29,6%), Korsika (25,5%), Akropol (22,5%), Rimskie kanikulı (31,1%), Sakromento (32,8%).

XULOSA

Barg soni o'simlik mahsuldorligi bo'yicha o'rtacha o'zgaruvchan ($\geq 10 \leq 20\%$) navlarda ushbu belgi bo'yicha tanlash ishlari biroz samarali, ammo yuqori darajada o'zgaruvchan ($\geq 20\%$) navlarda tanlash ishlari yuqori samara bermaydi. Shunday





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

qilib indau nav namunolari qimmatli xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanligini o'rganish natijasida barg eni va barg uzunligi belgilari o'rtacha o'zgaruvchan, barg soni va bitta o'simlik mahsuldorligi belgilari esa o'rtacha va yuqori darajada o'zgaruvchan belgilar ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта М., 1985.-350 С.
2. Литвинов С.С., Методика полевого опыта в овощеводстве/ С.С.Литвинов.- М., ВНИИО, 2011. -650 с.
3. Бербеков К.З. Агробиологическая оценка выращивания двурядника тонколистного и индау посевного в условиях центральной части Северного Кавказа Дисс....к.с.-х. н. М., 2015. – С. 105.
4. Куршева Ж.В., Биологические особенности и основные приёмы возделывания индау посевного, двурядника тонколистного и кресс-салата в условиях Московской области. Дисс....к.с.х.н. М., 2009.-126 С.
5. Папонов А.Н., Новое салатное растение семейства Крестоцветные./ А.Н.Папонов// В.сб.:” Новые и нетрадиционные растения и перспективы их использования” М., 2003. Т. II.- С. 114-116
6. Пивоваров В.Ф., Овощи России. М., ВНИИССОК. 2006.- С. 155-157
7. Муқимов Б.Б. Индау (*Eruca sativa* Mill.) нинг морфобиологик хусусиятлари ва уни Ўзбекистон шароитига интродукция қилиш. Диссертация., Тошкент. 2023. – 118-бет



UO'K: 635.567: 631.529

BAHORGI VA KUZGI MUDDATDA TURLI EKISH SXEMALARIDA YETISHTIRILGAN INDAU URUG'LIK O'SIMLIKLARNING MUHIM BELGILARINING O'ZGARUVCHANLIGI

Muqimov Baxriddin Baxtiyorovich 

q.x.f.f.d. (PhD)

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada indau urug'lik o'simligining bahorgi va kuzgi muddatda turli ekish sxemalarda yetishtirilishi va uning muhim xo'jalik belgilari o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida urug'lik ishlarida 70x20, 70x25 sm sxemada ekilgan o'simliklarda urug' mahsuldorligi belgisi bo'yicha tanlash ishlari olib borish samarali bo'ladi.

Kalit so'zlar: indau, ekish sxemasi, rivojlanish davrlari, urug'lik o'simlik, qo'zoq, o'zgaruvchanlik koeffsenti.

Abstract. The article examines the cultivation of *indau* seed plants under spring and autumn sowing periods using different planting schemes and evaluates their important agronomic traits. The research results showed that, in seed production, it is most effective to carry out selection based on seed productivity in plants grown at planting schemes of 70 × 20 cm and 70 × 25 cm.

Keywords: indau, planting scheme, growth and development stages, seed plant, silique (pod), coefficient of variation.

Аннотация. В статье изучены особенности выращивания растения индау на семена при весенних и осенних сроках посева по различным схемам посадки, а также исследованы его важные хозяйственно ценные признаки. По результатам исследований установлено, что при семеноводстве наиболее эффективным является проведение отбора растений по признаку семенной продуктивности при схемах посадки 70×20 и 70×25 см.

Ключевые слова: индау, схема посадки, фазы развития, семенное растение, стручок, коэффициент вариации.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mutaxassisiga o'z faoliyatida guruhli (ekinlar, navlar o'rtasidagi farqlar) va individual o'zgaruvchanlikni hisobga olishga to'g'ri keladi. Individual o'zgaruvchanlik deganda nisbiy jihatdan bir xil bo'lgan materialning





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

(masalan, navning) ayrim o'simliklari o'rtasidagi farq tushuniladi. Bu o'zgaruvchanlik ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan fenotipik o'zgaruvchanlik deb qabul qilingan va o'zgaruvchanlik koeffitsienti C_v , % sifatida belgilanadi. U o'z ichiga jinsning genotiplari o'rtasidagi farq bilan belgilanadigan genotipik o'zgaruvchanlikni va tashqi muhit sharoiti ta'sirida yuzaga keladigan modifikatsion o'zgaruvchanlikni oladi. Individual o'zgaruvchanlik ikki tipda bo'ladi: miqdoriy va sifat [1; 158–192-b.].

Yuqori darajadagi hosilni shakllantirish uchun miqdoriy o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini o'rganish, bilish zarur. Bu o'simliklarning hayot jarayonlarini boshqarish imkonini beradi. Urug'chilik jarayonida ko'pchiligi aprobatsion bo'lgan miqdoriy belgilarning o'zgaruvchanligini hisobga olishga to'g'ri keladi. Belgilarning o'zgaruvchanligi xarakteri to'g'risidagi bilim –urug'chilik ishlarini to'g'ri olib borishning asosidir [1; 158 – 192-b.].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

B.A.Dospexov (1985) tomonidan belgilanishicha agar o'zgaruvchanlik 10 %dan kam bo'lsa belgilar kam, 10 % dan 20 % gacha bo'lsa o'rtacha va 20 % dan ko'p bo'lsa juda o'zgaruvchan bo'lib hisoblanadi. Ta'kidlanishicha agar belgi tashqi muhit ta'sirida kam o'zgaruvchan (<10%) bo'lsa, bunday populyatsiyalardan kerakli genotiplarni tanlash samarali bo'ladi [2; 351-b.].

Ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishda, seleksiya va urug'chilik ishlarida tanlash ishlarini samarali bo'lishida miqdoriy o'zgaruvchanlikni hisobga olish kerak bo'ladi. Bahorgi ekish muddatida indau nav namunalarining miqdoriy muhim xo'jalik belgilarini o'zgaruvchanligi o'rganildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Bahorgi ekish muddatida indau oziqlanish maydonining kengayishi o'simlik balandligining nisbatan past bo'lishiga sababchi bo'ldi. 70x20 sm sxemada o'simlik balandligi 120 sm ni, 70x35 sm sxemada esa 118 sm ni tashkil etdi. Bu belgining o'zgaruvchanlik koeffitsienti hamma ekish sxemalarida ham kam (<10%), bo'ldi va 3,15-5,10% ni tashkil etdi. [3; 118-b.].

1-jadval

Bahorgi muddatda yetishtirilgan indau o'simligi balandligi o'zgaruvchanligi (2018-2020 y.y.)

Ekish sxemasi	$\bar{x}$, sm	Lim	V, %
70x20 sm	120	112-129	3,75
70x25 sm	121	113-127	3,15
70x30 sm	119	112-125	3,30
70x35 sm	118	107-128	5,10



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Ammo, oziqlanish maydoni kengaygan sari ushbu belgining o'zgaruvchanlik koeffitsienti ham oshib bordi. Bu yerda kuzgi muddatga nisbatan teskari holat kuzatildi. 70x20 sm sxemada ushbu belgining o'zgaruvchanlik koeffitsienti 3,75% ga, 70-35 sm sxemada esa 5,10% ga yetdi va o'rtadagi farq sezilarli bo'ldi. Urug'lik o'simliklardagi novdalar sonining o'zgaruvchanlik koeffitsienti o'rtacha bo'ldi. Urug'lik o'simliklarda novdalar soni oziqlanish maydonining oshib borishi bilan ko'payib bordi.

2-jadval

Bahorgi muddatda yetishtirilgan indau o'simligi novdalar sonining o'zgaruvchanligi (2018-2020 y.y.)

Ekish sxemasi	$\bar{x}$, dona/o'simlik	Lim	V, %
70x20 sm	12	10-14	10,47
70x25 sm	13	10-15	10,95
70x30 sm	15	12-18	11,46
70x35 sm	15	11-19	15,95

70x20 sm sxemada bitta o'simlikda 12 ta novda, 70x35 sm sxemada esa 15 ta novda hosil bo'lganligi kuzatildi. Shu bilan bir qatorda ularning o'zgaruvchanlik koeffitsienti ham oshib bordi. 70x20 sm sxemada ushbu belgining o'zgaruvchanlik koeffitsienti 10,47% ni, 70x35 sm sxemada esa 15,95% ni tashkil etdi. Bu yerda ham biz ikki variant o'rtasidagi farq sezilarli bo'ldi deya olamiz. Bu belgi bo'yicha ham 70x20 sm va 70x25 sm sxemadagi o'simliklarni tanlash samarali bo'ladi. Bahorgi turli ekish sxemalarida o'simlikdagi qo'zoqlar soni oziqlanish maydoni kengaygan sari ko'payib bordi.

3-jadval

Bahorgi muddatda yetishtirilgan indau o'simligi qo'zoqlar soni o'zgaruvchanligi (2018-2020 y.y.)

Ekish sxemasi	$\bar{x}$, dona/o'simlik	Lim	V, %
70x20 sm	1551	1198-2296	18,60
70x25 sm	1821	1392-2390	17,69
70x30 sm	2475	1775-3027	13,78
70x35 sm	2483	1700-3490	20,00



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Xususan 70x20 sm sxemada bitta o'simlikda 1551 dona qo'zoqlar kuzatilgan bo'lsa, 70x35 sm sxemada uning miqdori 2483 taga yetib 932 taga ko'paydi. Ushbu belgining o'zgaruvchanligi o'rtacha bo'lib ekish sxemalariga qarab 13,78 dan 20,00% gacha bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ushbu belgi bo'yicha tanlash ishlari olib borish samarali bo'lishini ko'rsatadi.

4-jadval

Bahorgi muddatda yetishtirilgan indau o'simligida urug' mahsuldorligi o'zgaruvchanligi (2018-2020 y.y.).

Ekish sxemasi	$\bar{x}$, g/o'simlik	Lim	V, %
70x20 sm	53	41-65	15,03
70x25 sm	58	42-71	13,85
70x30 sm	75	62-87	9,47
70x35 sm	72	52-98	16,91

Bahorgi muddatda ham o'simliklarning urug' mahsuldorligi oziqlanish maydonining oshib borishi bilan ma'lum darajagacha ortib bordi. Eng yuqori urug' mahsuldorligi 70x30 sm sxemada ekilganda olindi va u 73,0 g/o'simlikni tashkil etdi. Bu 70x20 sm sxemadagiga nisbatan 22 g yoki 41,5% ga ko'p demakdir. Ushbu belgining o'zgaruvchanligi oziqlanish maydoni ma'lum darajagacha kamayib borishi bilan kamayib bordi. Eng kam o'zgaruvchanlik 70x30 sm sxemada ekilganda kuzatildi va u 9,47 %ni tashkil etib kam o'zgaruvchan belgilar qatoriga kirib qoldi. Tajribaning qolgan variantlarida bu belgining o'zgaruvchanligi o'rtacha bo'lib, 13,85-16,91 % ni tashkil etdi. Shunday qilib bahorgi muddatda ham indau urug'lik o'simliklarning xo'jalik muhim belgilarining o'zgaruvchanligi kam va o'rtacha darajada bo'ldi. Oziqlanish maydoni ma'lum darajada indau urug'lik o'simliklarining o'zgaruvchanligiga ta'sir etadi. Ko'pchilik olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, sabzavot ekinlarining deyarli hamma belgilari tashqi muhit ta'sirida u yoki bu darajada o'zgaruvchan bo'ladi. Biz o'z tajribalarimizda 10 sentabrda ekilgan indau urug'lik o'simliklarining turli ekish sxemalarida muhim xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanligini o'rgandik. Urug'lik o'simliklarning balandligining turli ekish sxemalarida o'zgaruvchanligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

**AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI***5-jadval***10-sentabrda turli ekish sxemalarida yetishtirilgan indau o'simligi balandligi o'zgaruvchanligi (2018-2020 y.y.)**

Ekish sxemasi	$\bar{x}$, sm	Lim	V, %
70x20 sm	184	165-202	4,92
70x25 sm	182	168-195	4,20
70x30 sm	180	170-192	3,26
70x35 sm	182	171-191	2,95

Oziqlanish maydoni kengaygan sayin urug'lik o'simliklarning balandligi qonuniyat asosida kamayib borishi kuzatildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, indau urug'lik o'simliklarning balandligi kam o'zgaruvchan (<10%) belgi hisoblanadi. Ammo, oziqlanish maydoni ortgan sayin o'zgaruvchanlik koeffitsienti kamayib bordi. Eng kam oziqlanish maydoni, ya'ni 70x20 sm sxemada o'zgaruvchanlik koeffitsienti 4,92% ni tashkil etgan bo'lsa, eng katta oziqlanish maydoni, ya'ni 70x35sm sxemada bu ko'rsatkich 2,95% ni tashkil etdi. Ekish sxemalaridan qat'iy nazar ushbu belgi kam o'zgaruvchan bo'ldi. Ammo variantlar o'rtasidagi farq katta yoki muhim ekanligi belgining o'zgaruvchanlik darajasiga bog'liq. Agar belgi kam o'zgaruvchan bo'lsa (<10%) variantlar o'rtasidagi kuzatiladigan 3-5% farq muhim bo'lib hisoblanadi. Agar belgining o'zgaruvchanligi juda yuqori darajada (>20%) bo'lsa variantlar o'rtasidagi kuzatiladigan 10% li farq muhim bo'lib hisoblanmaydi. Shundan kelib chiqib 70x35 sm sxemada ekilgan indau urug'lik o'simliklarining balandligi o'zgaruvchanligi nisbatan variantlar o'rtasidagi farq muhim deb hisoblanishi mumkin. Ushbu belgi bo'yicha tanlash ishlari olib borish samarali bo'ladi.

*6-jadval***20-sentabrda turli ekish sxemalarida yetishtirilgan indau o'simligi novdalar soni o'zgaruvchanligi (2018-2020 y.y.)**

Ekish sxemasi	$\bar{x}$, dona/o'simlik	Lim	V, %
70x20 sm	17	13-21	16,21
70x25 sm	19	14-25	15,06
70x30 sm	21	18-27	12,78
70x35 sm	20	14-28	21,47

Indau urug'lik o'simliklarida novdalar soni 17-21 donani tashkil etdi va oziqlanish maydoni kengaygan sari novdalar sonining ortib borishi kuzatildi. Bu belgining o'zgaruvchanligi 70x20, 70x25, 70x30 sm ekish sxemalarida o'rtacha va 70x35 sm sxemada katta bo'ldi. Masalan, 70x20 sm sxemada ushbu belgining





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

o'zgaruvchanlik koeffitsienti 16,21% ni tashkil etgan bo'lsa, 70x35 sm sxemada 21,47% ni tashkil etdi.

7-jadval

30-sentabrda turli ekish sxemalarida yetishtirilgan indau o'simligi qo'zoqlar soni o'zgaruvchanligi (2018-2020 y.y.)

Ekish sxemasi	$\bar{x}$, dona/o'simlik	Lim	V, %
70x20 sm	2467	1907-3082	14,35
70x25 sm	2558	2046-3064	12,64
70x30 sm	2923	2093-3818	16,71
70x35 sm	2802	1876-3942	20,58

Ushbu belgi bo'yicha ham urug'chilik va seleksiya ishlarida tanlash olib borish samarali bo'ladi. Indau o'simligi urug' mahsuldorligini belgilovchi belgilardan biri bu qo'zoqlar soni hisoblanadi.

Oziqlanish maydoni ma'lum darajagacha kengaygan sari qo'zoqlar soni ham ortib bordi. Xususan, 70x20 sm sxemada ularning soni 2467 dona/o'simlik bo'lgan bo'lsa 70x30 sm sxemada 2963 dona/o'simlikni tashkil etdi. Ammo, 70x35 sm sxemada uning miqdori 2802 dona/o'simlik bo'lib, 70x30 sm sxemaga nisbatan 121 donaga kam bo'ldi. Umuman indau urug'lik o'simliklarida qo'zoqlar sonining o'zgaruvchanlik koeffitsienti o'rtacha bo'lib, 14,35-20,58% ni tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida urug'chilik va seleksiya ishlarida ushbu belgi bo'yicha tanlash olib borish ancha samarali bo'lishini ta'minladi.

8-jadval

10-oktabrda turli ekish sxemalarida yetishtirilgan indau o'simligida urug' mahsuldorligi o'zgaruvchanligi (2018-2020 y.y.)

Ekish sxemasi	$\bar{x}$, g/o'simlik	Lim	V, %
70x20 sm	76	62-89	10,61
70x25 sm	79	66-97	10,99
70x30 sm	91	76-120	14,58
70x35 sm	84	65-19	19,95

O'simliklarning urug' mahsuldorligi ma'lum darajagacha oziqlanish maydoni kengaygan sari oshib bordi. Xususan 70x20 sm sxemada indau o'simliklari urug' mahsuldorligi 76 g/o'simlikni tashkil etgan bo'lsa 70x30 sm sxemada eng yuqori, ya'ni 95 g/o'simlikni tashkil etdi. Ammo, 70x35 sm sxemada ushbu ko'rsatkich 84



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

g/o'simlikni tashkil etdi va 70x30sm sxemaga nisbatan 7 g/o'simlik kam bo'ldi. Umuman boshqa belgilar singari urug' mahsuldorligi belgisining o'zgaruvchanligi ham o'rtacha xarakterga ega bo'ldi va 10,61-19,95% ni tashkil etdi.

Oziqlanish maydonining ortib borishi bilan bog'liq holda ushbu belgining o'zgaruvchanligi ortib bordi. 70x20 sm sxemada yetishtirilgan o'simliklar urug' mahsuldorligi o'zgaruvchanligi 10,81% ni tashkil etgan bir paytda, 70x35sm sxemada ushbu ko'rsatkich 19,95% ga yetdi yoki 9,14% ga yuqori bo'ldi.

XULOSA

Indauning muhim xo'jalik belgilarini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki indau urug'lik o'simliklarini yetishtirishda 70x20, 70x25 sm sxemada ekilgan o'simliklarda urug' mahsuldorligi belgisi bo'yicha tanlash ishlari olib borish samarali bo'ladi va undan seleksiya ishlarida boshlang'ich manba sifatida foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Пивоваров В.Ф., Добруцкая Е.Г. Экологические основы селекции и семеноводства овощных культур. М., 2000. – С. 158-192.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М; Колос, 1985. – С. 351.
3. Муқимов Б.Б. Индау (*Eruca sativa* Mill.) нинг морфобиологик хусусиятлари ва уни Ўзбекистон шароитига интродукция қилиш. Диссертация. Тошкент. 2023. – 118-бет



UO'K: 632.4: 934:632.7

DORIVOR O'SIMLIKLARINING AHAMIYATI VA ASOSIY ZARARKUNANDALARI

Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich 

Toshkent davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi

Tufliyev Nodirbek Xushvaqtovich 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Imomova Muqaddas Hasanovna 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Jalgasov Baxram Abat uli 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada dorivor o'simliklarning asosiy zararkunandalaridan shiralar, tunlamalar, uzunburunlar, qandalalar, oqqanotlar, o'rgimchakkanalar chigirtkalar va simqurtlar kabi zararkunadalar uchrashi, tur-tarkibi aniqlanganligi hamda dorivor o'simliklarning gegografik tarqalishi hamda ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Dorivor o'simliklar, zararkunanda, farmasevtika, ahamiyat.

Abstract. This article presents information on the occurrence and species composition of the main pests of medicinal plants, such as aphids, moths, beetles, bedbugs, whiteflies, spider mites, locusts, and tapeworms, as well as on the geographical distribution and significance of medicinal plants.

Key words: Medicinal plants, pest, pharmaceuticals, significance.

Аннотация. В данной статье представлена информация о встречаемости и видовом составе основных вредителей лекарственных растений, таких как тли, совки, долгоносики, клопы, белокрылки, паутиные клещи, саранча и проволочные черви, а также о географическом распространении и значении лекарственных растений.

Ключевые слова: Лекарственные растения, вредитель, фармацевтика, значение.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-139-son Farmoni Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

samarali foydalanish, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etayotgan hamda tadbirkorlik subektlarini qo'llab-quvvatlash orqali chuqur qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha hududlar kesimida ixtisoslashtiriladi. Bunda, 2022-yildan 2026-yilgacha 36 000 gektar maydonda yangi dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etiladi.

Respublikada o'simliklarni himoya qilish sohasida atrof-muhit, insonlar va jonzorlar uchun bezarar bo'lgan biologik kurash usulini qo'llashga katta ahamiyat berilmoqda. Keyingi yillarda yangidan biolaboratoriyalar tashkil etilmoqda va eskilari qayta Zararkunandalarning yoppasiga tarqalishi oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlarga ham katta e'tibor berilmoqda.

Kimyoviy ishlov ko'lami kamayishiga qaramay bu usuldan zararkunandalar keskin ko'paygan va biologik samara bermaydigan holatlarda foydalanish lozim. Shu sababli, kimyoviy preparatlarni atrof muhitga zararli ta'sirini kamaytirish va yuqori iqtisodiy samara olish maqsadida kamroq zaharli (III-IV klass) bo'lgan pestitsidlardan foydalanilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yuqori va sifatli hosil olishning asosiy omillaridan biri o'simliklarni zararkunanda, kasalik va begona o'tlardan himoya qilishdir. Buning uchun qishloq xo'jaligi korxonalarida o'simliklarni himoya qilish tadbirlarini to'g'ri va rejali tashkil etish va boshqarish lozim.

Ilk bor dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) o'simligida shiralar, tunlamalar, uzunburunlar, qandalalar, oqqanotlar, o'rgimchakkanalar chigirkalar va simqurtlar kabi asosiy zararkunandalar uchrashi aniqlandi va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqilmoqda.

Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi bor. Mamlakatimizda dorivor o'simliklarning mahalliy floraga mansub 4.3 mingdan ortiq turidan 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 turi farmasevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda. Qadim zamondan boshlab inson yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarni turli kasalliklarni davolashda foydalanib keladi.

Shunday dorivor, shifobaxsh o'simliklardan biri dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) o'simligi bo'lib ushbu o'simlik astradoshlar oilasiga mansub. Bir yillik bo'yi 30-50 sm, ba'zan 60 sm ga yetadigan o't o'simlik. Ildizi shoxlangan o'q ildiz. Poyasi qattiq tik o'suvchi, asos qismidan boshlab shoxlangan, qirrali bo'lib, yuqori qismi bezlar bilan qoplangan. Barglari oddiy bandli cho'ziq teskari tuxumsimon, poyada ketma-ket joylashgan. Poyaning yuqori qismidagi barglari bandsiz tuxumsimon gullari savatchaga to'plangan. Iyun oyidan boshlab kech kuzgacha gullaydi. Mevasi iyuldan boshlab yetiladi. Gullari tillarang sariq, sariq yoki to'qsariq poya va yon novdalar uchida savatchalarga to'plangan holda bo'ladi. Vegetatsiya davomida uning guli 4-5 marta terib olinadi.

Xalq tabobatida tirnoqgulning gul to'plami ishlatiladi. Gullari qiyg'os ochilgan vaqtda, qisqa bandli yoki bandsiz qilib yig'ib olinadi va salqin yerda



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

quritiladi. Tirnoqgulning gullari tarkibida 7,8% gacha karotin (karotinoidlarning umumiy miqdori tilsimon gullarida 3% ga yetadi), 0,4% gacha efir moyi, 4% gacha shilliq, 10,4-11,2% oshlovchi moddalar, flavonoidlar, triterpendiollar, 6,84% organik (olma, salitsilat) kislotalar va boshqa kimyoviy birikmalar bor.

Tirnoqgul dorivor o'simligi Rossiyada, MDX davlatlarida hamda Osiyoda dorivor va manzarali ekin sifatida ko'plab ekiladi.

Bugungi kunda Respublikamiz hududida joylashgan dorivor ekinlariga ixtisoslashgan maydonlarda farmasevtika sohasini rivojlantirish, aholini tabiiy doridarmonlar bilan ta'minlash va aholi sog'ligini yaxshilash maqsadida dorivor o'simliklarni yetishtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham bir necha viloyatlarda jumladan; Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa bir qator viloyatlarning o'rmon xo'jaligi ekinzorlarida dorivor ekinlarni yetishtirish va undan olinadigan hosil miqdori hamda sifatini oshirish maqsadida dorivor ekinlar ekish uchun maydonlari ajratilgan.

Manzarali o'simlik sifatida Moldova, Ukraina, Rossiyaning Yevropa qismining janubiy tumanlarida hamda Kavkazda, dorivor o'simlik sifatida esa Krasnodar o'lkasida, Poltava va Moskva viloyatlarida o'stiriladi.

Asosan dorivor tirnoqgulning gullari endi ochilgan paytida terib olinib salqin joyda quritiladi. Dorivor tirnoqguldin tabobatda ko'plab dorilar tayorlanib ular har xil yaralar, angina, kuygan joylar, tomoq kasalliklari, isitma meda-ichak kasalliklari hamda buyrak kasalliklarini davolashda foydalaniladi

XULOSA

Respublikamizda dorivor o'simliklarni asosiy zararkunandalari tur tarkibi, geografik tarqalishi, iqlimi, tuproq sharoitlarini o'rganilib asosiy zarakunanlariga qarshi kurash choralari olib borilmoqda. Bunga sabab yildan-yilga dorivor o'simliklariga talab oshib borayapti shuning uchun ham dorivor o'simliklar ekiladigan maydonlar ham kengaytirilmoqda hamda ularning zararkunanda tur-tarkibi zarari ham ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Yaxontov V.V. «O'rta Osiyo qishloq xo'jalik o'simliklari hamda mahsulotlarini zararkunandalari va ularga qarshi kurash». Toshkent «Toshkent» 1961.
2. A.Murodov-Umumiy entomologiya kursi "Mehnat" nashriyoti Toshkent 2003.
3. Xo'jayev SH.T., Xolmurodov E.A.-"Entomologiya, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2009.
4. O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchieva. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya Toshkent – 2009.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

5. Dusmanov I., Xolliyev A. O'simliklar zararkunanda kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Tavsianoma 2015.
6. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. – Toshkent: Fan, 1984.
7. Dorivor o'simlik zararkunandalari. B.Q.Muxammadiyev, A.T.Xolliyev, N.Irgasheva, A.Xasanov. T.: "ToshDAU tahririyat nashriyot" bo'limi, O'quv qo'llanma, 2019.



UO'K: 633.631.563

YAYLOVLARGA OZIQ-OVQAT VA FITOSANITAR XAVFSIZLIGI TALABLARI

Xalilov Ximoil Raxmatullayevich 

qishloq xo'jaligi falsafa fanlari nomzodi, Nurota tajriba dalasi mudiri

Sindarov Shodiyor Qo'chqarovich 

direktor o'rinbosari

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

e-mail: shodi14@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada tabiiy yaylovlar holatini yaxshilashda qo'llaniladigan ozuqabop o'simliklarning ekin sharoitidagi xo'jalikbop xususiyatlariga oid tadqiqot natijalari bayon qilingan. Yaylov ozuqabop o'simliklarining istiqbolli turlaridan madaniy yaylovlar barpo etishda o'simliklarning zararkunandalarini aniqlash va ularga qarshi kurash chora-tadbirlari to'g'ri amal qilinishi yaylovlar hosildorligining bir necha marotaba ortishiga, ozuqa sifatining yaxshilanishiga, yaylovlarning o'simlik qoplamida qimmatli ozuqaviy xususiyatlarga boy yangi turlarning ko'payishiga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: tabiiy yaylov, madaniy yaylov, hosildorlik, ozuqa, kasalliklar, zararkunandalar, fitosanitar, fitomelioratsiya.

Abstract. The article presents the results of research on the economic properties of fodder plants used to improve the condition of natural pastures under arable conditions. The identification of plant pests and the correct implementation of measures to combat them when creating cultivated pastures from promising types of pasture fodder plants will allow for a several-fold increase in pasture productivity, improvement of fodder quality, and the proliferation of new species rich in valuable nutritional properties in the vegetation cover of pastures.

Keywords: natural pastures, cultivated pastures, productivity, fodder, diseases, pests, phytosanitary, phytomelioration..

Аннотация. В статье представлены результаты исследований экономических свойств кормовых растений, используемых для улучшения состояния естественных пастбищ в пахотных условиях. Выявление вредителей растений и правильное применение мер по борьбе с ними при создании культивируемых пастбищ из перспективных видов кормовых пастбищных растений позволит многократно повысить продуктивность пастбищ, улучшить качество кормов и способствовать распространению





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

новых видов, богатых ценными питательными свойствами, в растительном покрове пастбищ.

Ключевые слова: природные пастбища, культурные пастбища, урожайность, корма, болезни, вредители, фитосанитар, фитомелиорация.

KIRISH

Respublikamizda aholi sonining shiddat bilan o'sayotganligi, er va suv zahiralari kabi tabiiy ne'matlarning cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining turmush tarzini yaxshilash va oziq-ovqat havfsizligiga erishishda sut va go'sht mahsulotlarining o'rni beqiyosdir. Go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan aholi ehtiyojini qondirish uchun chorvachilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish talab etiladi. Chorvachilikni rivojlantirishda va chorva mollarini em-xashak bilan ta'minlashda tabiiy yaylovlarning o'rni o'ta muhim hisoblanadi [6]. Tabiiy yaylovlar arzon qulay, yil davomida foydalanish imkonini beruvchi maydonlar hisoblansada, ularning ozuqa zahiralari o'ta past, yillar va yil mavsumlari bo'ylab keskin o'zgaruvchan. Shuningdek, yaylovlardan tartibsiz foydalanganlik va har xil texnogen omillar tufayli yaylovlar inqirozi 38-45% ga etgan [2]. Tabiiy yaylovlarga xos yana bir salbiy holat, ular barcha tirik organizmlarning, shu jumladan, zararkunanda xashorotlarning ham yashash, rivojlanish, ko'payish, oziqlanish muhiti va manbaidir. Boshqa an'anaviy dala ekinlariga nisbatan tabiiy yaylovlar o'simliklari entomofaunasi, kasalliklarini o'rganish borasida bajarilgan tadqiqotlar sanoqli [5,7] bo'lib, muayan yaylov tiplarining asosiy zararkunandalari hamda ularga qarshi kurash choralari maxsus va to'liq o'rganilmagan.

Shu bois, qurg'oqchilikka chidamli, serhosil qimmatli ozuqaviy xususiyatlarga boy yaylov ozuqabop o'simliklaridan foydalanish asosida tabiiy yaylovlar holatini yaxshilash va ushbu yaylov maydonlaridan yuqori hosil olish uchun yaylovlarning fitosanitar holatiga e'tibor berish talab etiladi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot manbai sifatida yaylov ozuqabop o'simliklarining istiqbolli turlaridan izen, teresken, quyrovuq, cho'g'on tanlandi. Rejalashtirilgan dala tajribalari, fenologik kuzatuvlar, biometrik o'lchovlar, ozuqa zahiralari to'plash jarayoni o'simlikshunoslikda umum qabul qilingan uslublar [1,4]dan foydalanish asosida amalga oshirildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ilmiy tadqiqotlar Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining "Nurota" tajriba dalasining urug'chilik maydonida amalga oshirildi. Tajriba dalasi Navoiy viloyatining Nurota tumanida adir mintaqasida joylashgan bo'lib, uning dengiz sathidan balandligi 680-700 m. Iqlimi keskin o'zgaruvchan, yillik o'rtacha harorat 15,8°C, ko'p yillik o'rtacha yog'ingarchilik miqdori 230 mm





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

bo'lib, yillar bo'ylab 110 mm dan 350 mm gacha o'zgarib turadi. Tajriba dalasi urug'chilik maydonining tuproq tipi-och bo'z tuproq, mexanik tarkibiga ko'ra qumoq tuproqdir [3].

Yaylov ozuqabop o'simliklarining urug'lari qish mavsumida ekiladi va urug'lar aprel oyida ko'karib chiqadi. Tadqiqot olib borilayotgan o'simliklar (izen, teresken, quyrovuq, cho'g'on) ko'karib chiqqandan boshlab o'z vegetatsiyasini kech kuzgacha davom ettiradi. Ular hayotiy shakliga ko'ra yarim butalar hisoblanadi, har yili erta bahorda qayta ko'karib, kech kuzgacha o'sishda davom etadi. Tadqiqotlar olib borilganda urug'larning unib chiqishi, maysalarning o'sishi, rivojlanishi, yashovchanligi, pichan va urug' hosildorligi qayd etib boriladi. Biz ushbu maqolada o'simliklarning pichan hosildorligiga oid ma'lumotlar natijalarini bayon qilamiz.

Ma'lumki ushbu o'simliklar 30-35 yil mobaynida yuqori hosil to'plash xususiyatiga ega. Shuningdek, izen teresken, quyrovuq, cho'g'onlarning eng yuqori hosil to'plash davri ular vegetatsiyasining uchinchi yili hisoblanib, keyingi yillardagi hosildorlik yog'ingarchilik miqdoriga bog'liq ravishda o'rtacha ko'rsatkichdan ko'proq yoki kamroq bo'lishi avvalgi tadqiqotlarda ko'p marta isbotlangan.

Yaylov ozuqabop o'simliklarining pichan hosildorligi

t/r	O'simlik turlari	pichan hosildorligi s/ga				
		3 (2025)-y	4(2022)-y	5 (2023)-y	6 (2024)-y	7 (2025)-y
1	Izen	19,3±0,8	19,5±0,6	18,1±0,5	19,8±0,7	14,5±0,4
2	Teresken	13,1±0,5	14,5±0,5	12,9±0,3	15,6±0,6	12,3±0,5
3	Quyrovuq	14,5±0,6	14,9±0,5	12,4±0,4	15,1±0,5	13,7±0,4
4	chogon	18,1±0,7	18,4±0,6	16,2±0,5	19,2±0,8	13,9±0,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki o'simliklar o'z vegetatsiyasining uchinchi (2021)-yilida turlar bo'ylab gektariga 13,1-19,3 sentner hosil to'plagan bo'lsa, iqlim sharoiti noqulayroq kelgan 2023-yilda ularning hosildorligi nisbatan pasayadi. Iqlim sharoiti mo'tadil kelgan 2024-yilda (o'simliklar vegetatsiyasining 6-yili) hosildorlik turlar bo'ylab 15,1-19,8 s/gani tashkil etdi. Yog'ingarchilik miqdori o'ta kam bo'lgan 2025-yilda (1-yanvardan 1-noyabrga qadar yog'ingarchilik miqdori bor-yo'g'i 38,1 mm ni tashkil etgan) esa hosildorlik keskin kamayib ketgan. Hosildorlikning bu qadar pasayib ketishiga sabab 2025-yilda chigirtkalarining ko'payib ketganligidandir.

Yaylov ozuqabop o'simliklariga eng kuchli zarar etkazuvchilar chigirtkalar bo'lib, respublikamizda ularning 160 dan ortiq turlari mavjud [5]. Chigirtkalarining ko'payishi va rivojlanish maydonlari ham asosan tabiiy yaylovlar hisoblanadi. Tajriba dalasidagi yaylov ozuqabop o'simliklarining hosildorligining 20% ga kamayib ketishining asosiy sababchisi ham chigirtkalardir.

Keyingi yillarda tabiiy yaylovlarda turli-tuman jonivorlar, jumladan ko'p sonli zararkunandalarning o'simlik qoplamiga etkazayotgan zarari sezilarli ortib





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

bormoqda. Ayniqsa yangidan barpo etilayotgan ekinzorlardagi yaylov ozuqabop o'simliklariga ular unib chiqayotgan va maysalik davrida zararkunandalar tomonidan jiddiy zarar etkazilayotganligi qayd etilmoqda. Jumladan, o'g'ri qo'ng'iz (*Letaeus rasmaris* Ball) tomonidan etkazilayotgan zarar ham solmoqli bo'lib, izen, teresken, quyrovuq, cho'g'on, astragallar, erkak o't (jitnyak) larning maysalik davrida ularga jiddiy zarar keltirmoqda. SHuningdek, cho'l sekin yurar qora qo'ng'izi (*Blaps Halophila* F.V) ning zarari ham qurg'oqchilik yillari sezilarli bo'lmoqda. Ularning lichinkalari rivojlana borib o'simliklarning ildizlarini, maysalik davrida er ustki qismini ham shikastlamokda. Ko'p yillik o'tchil o'simliklardan astragalarning ayrim turlari xashorotlardan kuchli zararlanganligi aniqlandi. Sivers astragalining gultoji va changchisiga gullar bilan oziqlanuvchi *Oxythurea cinitella* sohaum tomonidan etkazilgan zarar natijasida ba'zi yillarda ularning urug' hosil qilishi 50% gacha kamayib ketadi. Kiyikpanja astragali urug'larini qattiq qanotli qo'ng'izlardan *Bruchidius virelocus* Bch lichinkalari kuchli darajada shikastlaydi. Qo'ng'iz gul tugunchasiga tuxim qo'gach, undan chiqqan lichinkalar dukkak ichida hosil bo'layotgan urug'larni eb bitiradi. SHuningdek ushbu lichinkalar sharsimon va xiva astragallari urug'lariga ham qisman (6%) etkazganligi kuzatilmoqda.

Tajriba dalasi cho'l ozuqabop o'simliklariga turli darajada ziyon keltirayotgan zararkunandalar chizzilovuq (*Peophilus nebulosus*), mo'ynali tunlam (*Suculia boruphora* F.W) shuvoq odimchisi, shuningdek kanalar, bitlar, pashshalar qayd etilgan bo'lib, ular o'simliklar barglari, novdasi, gullari, urug'lariga katta zarar etkazmoqda.

Sun'iy barpo etilayotgan ekinzorlarda zararkunandalarga qarshi kurash chora-tadbirlarida agrotexnik tadbirlarni to'g'ri qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa yaylov ozuqabop o'simliklarining unib chiqishi va maysalashi davrida o'simliklar qator oralariga sifatli ishlov berish, begona o'tlardan tozalash o'z vaqtida hamda maromida bajarilishi talab etiladi. Ekinzorlarda zararli xashorotlarning ko'payishi kuzatilsa, zamonaviy kimyoviy vositalar bilan ishlov berish lozim. Shuningdek, yumronqoziq va boshqa kemiruvchilarning yashash joylariga ularni yo'qotuvchi zaxarli dori vositalari qo'yilishi maqsadga muvofiq. Tabiiy yaylovlarga zarar keltiruvchilar asosan chigirtkalar bo'lib, ularning ko'payishi hollari kuzatilganda o'simliklarni himoya qilish hududiy tashkilotlari yaylovlarga kimyoviy ishlov berish lozim.

XULOSA

Yaylovlar holatini yaxshilash, ularning hosildorligini oshirish uchun olib boriladigan fitomeliorativ tadbirlarni amalga oshirishda yaylov ozuqabop o'simliklarning zararkunandalari keltirishi mumkin bo'lgan jiddiy zararlarining oldini olish uchun zararli xashorotlarning turlarini aniqlash va ularga qarshi kurash choralarini amalga oshirish zarur.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari.- Toshkent, O'zPITI 2014.-175 b.
2. Maxmudov M.M., SH.Q.Sindarov., X.R.Xalilov. Adir yaylovlari hosildorligin oshiruvchi istiqbolli fitomeliorantlar//Atrof muhit o'zgarishi sharoitida er resurslarini himoya qilish va ulardan oqilona foydalanish.-Toshkent, 2016.-517-519 b.
3. Nabieva G.M. Degradasiyaga uchragan yaylov tuproqlari va ular unumdorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish. - Avtoref.diss.dokt.biol.nauk. -Toshkent, 2016.-26 b.
4. Rabbimov A.R., Hamroeva G.U. CHo'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiyasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar. -Samarqand, 2016.-42 b.
5. Tufliyev N.X. va boshq. Mahalliy chigirtkalarining tur-tarqion va bioekologiyasiga oid ayrim ma'lumotlar// O'simliklarni himoya qilish tizimining o'rni va istiqbollari.-Toshkent, 2016.-262-266 b.
6. X.R Xalilov., A.S. Boboeva., Sindarov SH.Q. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda tabiiy yaylovlarning ahamiyati.//Oziq-ovqat havfsizligi: milliy va global omillar. // Halqaro lmiy-amaliy konfrensiya-Samarqand, 2021.-429-430 b.
7. Hayitmurodov A.F. YAylov o'simliklari entomofaunasi. Agro-Ilm, 2018, №2.-54-55 b.



UO'K: 633.631-527

YAYLOVLAR HOLATINI YAXSHILASHDA CHERKEZ TURLARINING AHAMIYATI

Bobayeva Adiba Saydaliyevna 

Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti Cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiyasi bo'limi mudiri, b.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada cho'l va yarim cho'l yaylovlari holatini yaxshilashda Rixter cherkezi (*Salsola richteri* Karel.) va Paleskiy cherkezi (*Salsola paletzkiana* Litv.) turlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotlarda ushbu turlarning laboratoriya va dala sharoitidagi urug' unuvchanligi, yashovchanligi, o'sish va rivojlanish xususiyatlari hamda xo'jalikbop ko'rsatkichlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, Paleskiy cherkezining K-5242 va Rixter cherkezining K-5238 namunalari yuqori unuvchanlik, yashovchanlik va biometrik ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqotlar cherkez turlarining degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash, qum ko'chishini kamaytirish, tuproqni mustahkamlash hamda chorvachilik uchun barqaror ozuqa bazasini yaratishda muhim fitomeliorativ ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: yaylov, cherkez, *Salsola richteri*, *Salsola paletzkiana*, urug' unuvchanligi, fitomelioratsiya, cho'l o'simliklari, yaylov mahsuldorligi, qurg'oqchilikka chidamlilik, ozuqabop o'simliklar.

Abstract. This article evaluates the importance of Richter's saltwort (*Salsola richteri* Karel.) and Paletzky's saltwort (*Salsola paletzkiana* Litv.) in improving the condition of desert and semi-desert rangelands. Laboratory and field seed germination, plant survival, growth characteristics, and agronomic traits were investigated. The results showed that the K-5242 accession of *Salsola paletzkiana* and the K-5238 accession of *Salsola richteri* demonstrated superior germination, survival, and growth performance. The findings confirm the significant phytomeliorative potential of these species for restoring degraded rangelands, stabilizing sandy soils, increasing pasture productivity, and providing a sustainable forage resource for livestock production.

Keywords: pasture, saltwort, *Salsola richteri*, *Salsola paletzkiana*, seed germination, phytomelioration, desert plants, pasture productivity, drought tolerance, forage plants.

Аннотация. В статье рассмотрено значение черкеза Рихтера (*Salsola richteri* Karel.) и черкеза Палецкого (*Salsola paletzkiana* Litv.) в улучшении





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

состояния пустынных и полупустынных пастбищ. Изучены лабораторная и полевая всхожесть семян, жизнеспособность растений, особенности роста и развития, а также их хозяйственно ценные признаки. Установлено, что образцы К-5242 черкеза Палецкого и К-5238 черкеза Рихтера отличаются высокими показателями всхожести, выживаемости и роста. Полученные результаты подтверждают высокую фитомелиоративную ценность данных видов для восстановления деградированных пастбищ, закрепления песков, повышения продуктивности пастбищ и формирования устойчивой кормовой базы для животноводства.

Ключевые слова: пастбища, черкез, *Salsola richteri*, *Salsola paletzkiana*, всхожесть семян, фитомелиорация, пустынные растения, продуктивность пастбищ, засухоустойчивость, кормовые растения.

KIRISH

Respublikamizning cho'l va yarim cho'l hududlarida yaylovlar chorvachilik tarmog'ining asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. Keyingi yillarda antropogen bosimning ortishi, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik va yaylovlardan me'yordan ortiq foydalanish natijasida ko'plab tabiiy yaylovlarda kuchli inqiroz jarayonlari kuchaymoqda. Bu esa tabiiy yaylovlarda bioxilma-xillikning kamayishiga, yaylovlar hosildorligining pasayishi hamda qum ko'chish jarayonlarining jadallashuviga sabab bo'lmoqda [1].

Degradasiyaga uchragan cho'l yaylovlarini tiklashda qurg'oqchilikka, sho'rlanishga va yuqori haroratga chidamli butasimon o'simlik turlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ana shunday istiqbolli o'simliklar qatoriga cherkez turlari — Paleskiy cherkezi (*Salsola paletzkiana* Litv.) va Rixter cherkezi (*Salsola richteri* Karel.) kiradi. Ushbu turlar qumli va sho'rlangan tuproqlarda yaxshi o'sishi, kuchli ildiz tizimi hosil qilishi hamda qumlarni mustahkamlash xususiyati bilan ajralib turadi [2]).

Cherkez (Norboyalish)-Rixter sho'rasi-*Salsola richteri* Karelini-Sho'radoshlar oilasiga mansub, bo'yi 1,5-2 metrgacha bo'ladigan buta. Sertanali, eski novdalari, po'stlog'i kulrang, bir yillik novdalari oqishroq bo'lib, tanasi taksiz. Barglari kulrang yashil, ninasimon. U zichlashgan qumlarda o'sishga moslashgan, ildiz tizimi tuproqning yuza qismida va yon tomonlarga keng (10 metrgacha) tarqaladi.

Cherkez (Paleskiy sho'rasi-*Salsola Paletzkiana* Litv).- Sho'radoshlar oilasidan, bo'yi 3-4 m, yon tomonlaridan ko'karuvchi shoxlarining bo'yi 1-1,5 m. Paleskiy sho'rasi biologik, xo'jalik xususiyatlari jihatdan ham, ildiz tizimining shakllanishi jihatidan ham Rixter sho'rasidan keskin farq qilmaydi. Tanasi qum bilan ko'milib qolgan taqdirda ham yon ildizlar voistasida qayta ko'karish qobiliyatiga ega. Mart oyidan ko'karish qobiliyatiga ega. Cherkezlari mart oyidan ko'kara boshlab o'sishda davom etadi, mart-iyunda gullaydi, oktyabrda urug'lari pishib yetiladi. Cherkezlarning bir yillik novdalari va urug'ini qo'y echkilar bahor,





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

kuz va qishda tuyalar esa butun yil davomida yaxshi yeydi. Ularning pichani tarkibida 16,5-22,9% protein, 2,0-2,48% yog', 38,3-43,1% AEM, 15,9-25,0% kul moddalari va 17,8-21,0% kletchatka mavjud. Pichani tarkibida yil mavsumlari bo'ylab 25-45 ozuqa birligi bor. Cherkezlar qumli yaylovlar mahsuldorligini oshirishda, yaylov agrofitosenozlari va ihotazorlar barpo etishda keng qo'llaniladigan istiqbolli fitomeliyorant.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot manbai sifatida Paleskiy va Rixter cherkezlarning namunalari xizmat qildi. Rejalashtirilgan laboratoriya va dala tajribalari, fenologik kuzatuvlar, biometrik, ozuqa zahiralari to'plash jarayoni o'simliklar introduksiyasi va o'simlikshunoslikda umum qabul qilingan uslublardan foydalanish asosida amalga oshirildi va olingan natijalar statistik tahlil qilindi [6].

Tadqiqotlar Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining "Nurota" tajriba dalalarida olib borildi.

Cherkez turlari va namunalari urug'larining laboratoriya sharoitidagi unuvchanligini aniqlash uchun Petri likobchalariga namlangan fil'tr qog'ozi ustiga 100 donadan urug'lar solindi va termostatga joylashtirildi (tajriba qaytarig'i 4 karra). Termostatga joylashtirilgan urug'lar +200S haroratda 12 sutka davomida saqlandi va namlab turildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Cherkez turlari va namunalarining laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi 69,5-57,5% ga teng bo'lib, bunda Rixter sho'rasi namunalari orasida Qoraqalpog'iston respublikasining Amudaryo tumanidan keltirilgan K-5238 namunasi ustunlik qildi (65,6%). Paleskiy sho'rasi namunalaridan esa Haydarkuldan urug'lari yig'lgan K-5242 namunasida yuqori unuvchanlik (69,5%) qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

Cherkez tur va namunalarining laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi, 2025 y.

Katalog raqami	Cherkez turlari	Kelib chiqishi	Unuvchanlik, %	
			Laboratoriya sharoitida	Dala sharoitida
K-5237	Rixter	Qoraqalpog'iston, Mo'ynoq tumani	59,8±1,2	12,1±0,9
K-5238	Rixter	Qoraqalpog'iston, Mo'ynoq tumani	65,6±1,9	16,4±0,6
K-5240	Rixter	Samarqand viloyati, Nurobod tumani	57,5±1,7	17,3±0,7
K-5241	Paleskiy	Buxoro viloyati, Qorako'l tumani	63,5±2,0	16,8±0,8
K-5242	Paleskiy	Navoiy viloyati, Haydarko'l (Nurota tumani)	69,5±1,5	18,7±0,7





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, cherkezlar urug'larining dala sharoitidagi unuvchanligi ham Rixter sho'rasining K-5238 va Paleskiy sho'rasining K-5242 namunalarida yuqori ekanligi aniqlandi.

"Nurota" tajriba dalalaridagi cherkez namunalarning bo'yiga o'sishini qiyosiy baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, adir sharoitida parvarishlanganda cherkez turlarning barcha ko'rsatkichlari shuningdek, Rixter sho'rasi namunalaridan Amudaryo tumanidan terib keltirilgan K-5238 namunasi (198,8 sm), Paleskiy sho'rasining Haydarko'ldan keltirilgan K-5242 namunasi (249,4 sm) ni tashkil etib ushbu turlarning istiqbolli ekanligi qayd etildi.

2-jadval

Cherkezlarning xo'jalikbop xususiyatlari, 2025 yil (4) vegetatsiya yili

Katalog raqami	Cherkez turlari	Yashovchanlik, suratda o'simliklar tup soni, ming dona/ga, maxrajda, %	O'simliklar bo'yi, sm
K-5237	Rixter	$\frac{1,3 \pm 0,04}{56,3}$	179,4 $\pm$ 2,8
K-5238	Rixter	$\frac{1,5 \pm 0,06}{61,2}$	198,8 $\pm$ 5,6
K-5240	Rixter	$\frac{1,2 \pm 0,03}{57,2}$	187,8 $\pm$ 4,5
K-5241	Paleskiy	$\frac{1,5 \pm 0,05}{59,4}$	229,7 $\pm$ 9,6
K-5242	Paleskiy	$\frac{1,7 \pm 0,08}{65,7}$	249,4 $\pm$ 7,5

XULOSA

Paleskiy cherkezi (*Salsola paletzkiana* Litv.) va Rixter cherkezi (*Salsola richteri* Karel.) cho'l va yarim cho'l yaylovlarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'p yillik butasimon o'simliklar hisoblanadi. Ushbu turlar qurg'oqchilikka, yuqori haroratga hamda sho'rlangan tuproq sharoitlariga yuqori darajada moslashganligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, cherkez turlari degradasiyaga uchragan yaylovlarda o'simlik qoplamini tiklash, qum ko'chish jarayonlarini kamaytirish va tuproqni mustahkamlashda samarali fitomeliorativ ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ular kuz-qish mavsumida chorva mollari uchun qimmatli ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi hamda yaylov mahsuldorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, Rixter cherkezining qumli maydonlarda yaxshi o'sishi va kuchli ildiz tizimi hosil qilishi, Paleskiy cherkezining esa sho'rlangan va qurg'oq hududlarda yuqori yashovchanligi ularni Qizilqum va Orolbo'yi hududlarida keng qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur turlardan yaylov melioratsiyasida foydalanish ekologik barqarorlikni ta'minlash, bioxilma-xillikni saqlash va chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida cherkez turlarining mahsuldorligi, agrotexnikasi va turli tuproq-iqlim sharoitlarida o'sish xususiyatlarini yanada chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Abdullaev S.A. Cho'l yaylovlari ekologiyasi. Toshkent Fan, 2018. – 156 b.
2. Бабаев А.Г., Орловский Н.С., Рафикова Т. Пустыни Средней Азии и проблемы их освоения. – Москва: Наука, 1984. – 320 с.
3. Гранитов И.И. Песчаные пустыни и методы их закрепления. – Ташкент: Фан, 1964. – 210 с.
4. Maxmudov M.M., Hayitboev R. Qizilqum yaylovlari holatini yaxshilash usullari (Tavsiyalar).-Toshkent, 2008.-34 b.
5. Maxmudov M., Rabbimov A. Cho'l yaylovlarini yaxshilashda saksovul va qandim ko'chatlarini ekish samaradorligi // Agrar fani xabarnomasi. – 2020. – №2. – 30-34 b.
6. Rabbimov A., Xamroeva G.U. Cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiyasi bo'yicha uslubiy tavsiyanoma. Samarqand 2016. 42 b.
7. Xalilov X.R., Bobaeva A.S. Yaylovlar holatini yaxshilovchi ozuqabop o'simliklar// SamVMI Nukus filiali, ilmiy-texnik konferensiya.-Nukus, 2021.-207-210 b.



UO'K: 582.677, 632.4

MAGNOLIYA (*MAGNOLIA*) TURKUMIGA MANSUB MANZARALI DARAXT VA BUTALARNI KASALLIK QO'ZG'ATUVCHILARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Musayev Akmaljon Anvar o'g'li 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
Andijon mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodimi

Raxmonov Jalil Xoliqulovich 

q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti

e-mail: Jalilrahmonov76@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Magnoliya (*Magnolia*) turkumiga mansub daraxt va butalarda uchrovchi mikromitsetlar o'rganilib, kasallik qo'zg'atuvchi patogen zamburug'larni biologik xususiyati, kasallik belgilari hamda ularning xo'jayin o'simliklari va tarqalishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Magnolia, zamburug', kasallik, saprotrof, parazit, nekrotrof areal.

Abstract. The article examines micromycetes occurring on tree and shrub species of the genus *Magnolia* (Magnolia). It provides information on the biological characteristics of pathogenic fungi—the causative agents of diseases—their symptoms, as well as their host plants and distribution.

Keywords: Magnolia, fungi, diseases, saprotrophs, parasites, necrotrophs, distribution range.

Аннотация. В статье изучены микромицеты, встречающиеся на древесных и кустарниковых растениях рода *Magnolia* (Magnolia). Приведены сведения о биологических особенностях патогенных грибов — возбудителей заболеваний, их симптомах, а также об их хозяевах и распространении.

Ключевые слова: Magnolia, грибы, заболевания, сапротрофы, паразиты, некротрофы, ареал.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

KIRISH

Magnoliyadoshlar (Magnoliaceae) ga 14 turkumga mansub 240 tur kiradi. *Magnolia* magnoliyadoshlar oilasining yer yuzida eng keng tarqalgan doim yashil yoki barg to'kadigan daraxtlar turkumidir. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerikaning Janubiy-Sharqi hamda Markaziy Amerikada 80 dan ortiq turlari bor [2,4].

Ma'lumotlarga ko'ra Magnoliya (*Magnolia*) turkumiga mansub daraxt va butalarning kasallik va zararkunandalariga qarshi kurash ba'zan e'tibordan chetda qoladi, chunki magnoliya turkumiga mansub daraxt va butalarda zararkunanda va kasalliklar nisbatan kam uchraydi. Ba'zi abiotik kasalliklar ushbu turkum vakillarini zararkunanda va kasalliklarga ko'proq moyil qilishi mumkin. Ular paydo bo'lganda, magnoliyadagi zararkunanda yoki kasalliklar sezilarli iqtisodiy yoki estetik yo'qotishlarga olib kelishi mumkin [1,3,5].

Dunyoda olib borilgan tadqiqotlar iqlim o'zgarishi, abiotik va antropogen omillar natijasida, hozirda patogen zamburug'lar areallarining kengayishi kuzatilmoqda. Ularning yangi xo'jayin o'simliklarda kasalliklar qo'zg'atayotganligi qayd etilmoqda.

O'simliklarda uchraydigan zamburug'li kasalliklarni o'rganish va o'simliklarni himoya qilish o'simlik mahsuldorligini oshirishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Ilmiy tadqiqotni bajarishda Andijon viloyati sharoitida o'stirilayotgan Magnoliya (*Magnolia*) turkumiga mansub manzarali daraxt va butalarning kasallangan a'zolaridan yig'ilgan gerbariy namunalari manba bo'lib xizmat qildi. Namunalarni yig'ish o'simlikning butun vegetatsiya davrida amalga oshirildi. Kasallangan o'simlik namunalaridan qabul qilingan usullar asosida gerbariy namunalari tayyorlandi.

Gerbariy namunalarini mikologik va fitopatologik tahlil qilish laboratoriya sharoitida mikroskopik usulda olib borildi. Mikromitsetlarni oziqa muhitiga ekish, ularni saqlash ishlari qabul qilingan usullarda olib borildi [6,7]. Aniqlangan mikromitsetlarning tur tarkibini aniqlashda mavjud aniqlagichlar ma'lumotlaridan foydalanildi [8,9].

NATIJALAR VA MUNOZARA

Magnoliya turkumi turlari mikromitsetlari biotasini o'rganishda kasallik qo'zg'atuvchi patogen zamburug'larni biologik xususiyatiga e'tibor qaratildi, ularning kasallik belgilari, xo'jayin o'simliklari va tarqalishi o'rganildi.

Zamburug'lar geterotrof organizmlar bo'lib, ular mustaqil ravishda organik moddalarni ishlab chiqara olmaydi, ular faqat avtotroflar sintez qiladigan organik moddalar hisobiga yashaydi.

Zamburug'lar oziqaga bo'lgan munosabatiga ko'ra obligat (haqiqiy) saprotroflar, fakultativ (shartli) parazitlar, fakultativ (shartli) saprotroflar, obligat



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

(haqiqiy) parazitlarga bo'linadi, ya'ni o'zlariga zarur oziq moddalarni organik qoldiqlar yoki tirik to'qima hisobiga amalga oshiradi. Obligat saprotroflar faqat o'simlik va hayvonlar qoldiqlari hamda tuproqdagi organik moddalar bilan oziqlanadi.

Obligat parazitlar tabiatda faqat tirik o'simlik to'qimalari bilan oziqlanadi va saprotrof sifatida oziqlana olmaydi. Shu sababdan ularni biotroflar ham deb atashadi. Bularga un-shudring, soxta un-shudring, qorakuya va zang kasalliklarining qo'zg'atuvchilari va ba'zi boshqalar kiradi.

Fakultativ saprotroflar odatda o'simliklarda parazit sifatida yashaydi, bunday yashash tarzi bilan ular obligat parazitlarga yaqin, ular o'simlik qoldiqlarida saprotrof shaklida ham yashay oladi.

Fakultativ parazitlar ham saprotrof, ham parazit shaklida hayot kechiradi. Ular xo'jayin o'simliklarni zararlab, parazit sifatida yashaydi, o'simlik nobud bo'lgach, uning organik birikmalari bilan oziqlanib, hayotini saprotrof shaklida davom ettiradi.

1-jadval.

Magnoliya (*Magnolia*) turkumiga mansub manzarali daraxt va butalarda aniqlangan zamburug' turlarining rivojlanish va oziqaga bo'lgan munosobati bo'yicha tahlili

№	Fakultativ parazit	Fakultativ saprotrof	Obligat parzit
1	<i>Camarosporium pseudacaciae</i> Brun.	<i>Fusarium oxysporum</i> Schl.	<i>Erysiphe magnifica</i> U. Braun
2	<i>Diplodia magnoliae</i> West.	<i>Fusarium solani</i> (Mart.) Sacc.	<i>Microsphaera alphitoides</i> Griffon & Maubl.
3	<i>Diaporthe eres</i> Nits.	<i>Botrytis cinerea</i> (Pers.) Fr.	<i>Sphaerotheca pannosa</i> (Wallr.: Fr.) Lév.
4	<i>Heterosporium magnoliae</i> Weedon	<i>Rhizoctonia solani</i> J.G.Kühn	
5	<i>Gloeosporium magnoliae</i> Pass.	<i>Phyllosticta magnoliae</i> Sacc.	
6	<i>Phoma viridari</i> Sacc.	<i>Septoria magnoliae</i> Cooke	
7	<i>Mucor circinelloides</i> Tieghem	<i>Alternaria humicola</i> Oudem.	
8		<i>Alternaria alternata</i> (Fr.) Keissl	
9		<i>Cladosporium magnoliae</i> Lindau	
10		<i>Stemphylium</i> sp.	
11		<i>Nectria magnusiana</i> Rehm	
	Jami: 7	11	3

O'simlik to'qimasini oldin nobud qilib, keyin o'lik to'qima bilan oziqlanishi tufayli fakultativ parazitlarni nekrotrof parazitlar ham deb atashadi. Fakultativ parazitlar uzoq vaqt davomida saprotrof sifatida oziqlanishi va faqat muayyan sharoitda o'simlikning tirik to'qimalariga o'tishi mumkin.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Odatda fakultativ parazit o'simlikni noqulay sharoit yuzaga kelganda o'simlik zaif bo'lib qolganida, uning to'qimalari shikastlanganida yoki qariganida zararlaydi.

Olimlarning fikriga ko'ra zamburug'lar dunyolarida evolyutsiya obligat saprotrofizmdan obligat parazitizmga qarab yo'nalgan. Demak, zamburug'lar saprotrof hayot tarzidan parazitizmga, saprotrof tarzning o'rini butunlay egallashga qadar, asta-sekin o'tishi jarayonida parazitik tarzning ahamiyati oshib borishini kuzatish mumkin.

XULOSA

Tadqiqotlar davomida mikromitsetlar parazit va saprotroflik xususiyatiga qarab tahlil qilindi. Natijada umumiy aniqlangan 21 ta zarburug'larning 7 tasi (33,3%) fakultativ parazit, 11 tasi (52.4%) fakultativ saprotrof, 3 tasi (14,3%) obligat parazit ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Askerova P.S. (2022). About Pests and Diseases of Some Magnolia Species in the Absheron Conditions. Bulletin of Nizhnevartovsk State University, (1(57)), 29–36. <https://doi.org/10.36906/2311-4444/22-1/03>
2. Baxramov R.M., Abdullaeva J.X., Boymirzaeva O.S. magnoliadae turkumiga mansub ba'zi turlarning ko'kalamzorlashtirishdagi ahamiyati va yetishtirish usullari. "Қишлоқ хўжалигида ресурс тежовчи инновацион технологиялардан самарали фойдаланишнинг илмий-амалий асослари" мавзусидаги халқаро илмий ва илмий-техник анжуман мақолалар тўплами I - қисм Андижон 2023. В. 451-453
3. Gary W. Knox2., William E. Klingeman., Mathews Paret and Amy Fulcher. Management of pests, plant diseases and abiotic disorders of magnolia species in the Southeastern United states: A Review J. Environ. Hort. 30(4):223–234. December 2012
4. Ibragimov H.R Magnolia (Magnolia L.) turkumi o'simliklarining turlari va ularni tarqalish areallari. "Экономика и социум" №6(121) 2024 1-5 b
5. Kaminska M., Sliwa H., Rudzinska-Langwald A. Association of Phytoplasma with Stunting, Leaf Necrosis and Witches' Broom Symptoms in Magnolia Plants. J. Phytopathology 149, 719-724 (2001) Blackwell Wissenschafts-Verlag, Berlin ISSN 0931-1785
6. Дудка И.А., Вассер С.П., Элланская А.А., Коваль Э.З. и др. Методы экспериментальной микологии. // Справочник под. Ряд. В.И.Билай. – Киев: Наукова Думка, 1982. – С. 550.
7. Наумов Н.А. Методы микологических и фитопатологических исследований. М. – Л.: 1937 – С. 320.
8. Пидопличко Н.М. Грибы - паразиты культурных растений. Определитель Том 1-3. К: "Наукова думка" 1977.
9. Флора грибов Узбекистана. 1-8 том. Ташкент. Издательство "Фан" 1983-1997.



MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA O'SIMLIKLER DUNYOSINING AHAMIYATINI O'RGANISH

Bazarova Nigora Shamsiyevna 

Agronomiya va ekologiya kafedrası dotsenti

e-mail: nigorabazarova10@gmail.com

Azizova Farangiz Tojiddinovna 

Ekologiya mutaxassisligi magistranti

e-mail: azizovafarangiz94@mail.com

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada o'simliklar dunyosining biosferadagi o'rni, talabalarda o'simliklar dunyosini muhofaza qilishning ahamiyatli jihatlari va mamlakatimizda o'simliklar dunyosini muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar haqida atroflicha fikrlar bildirib o'tilgan. Talabalarda o'simliklar dunyosining ahamiyatini asoslashda bugungi kun oliy ta'lim tizimi maqsadlarini belgilagan holda yondashish va o'simliklarning biosferada tutgan o'rni mavzusini mustahkamligiga erishishda mustaqil ta'limni ijodiy faollashtirish bo'yicha namunaviy ishlanmalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biosfera, o'simliklar dunyosi, muhofaza qilish, qonun, qaror, farmon, ekologik tushuncha, ko'nikma, FSMU texnologiyasi, Venn diagrammasi, dorivor o'simliklar.

Abstract. The article comprehensively discusses the role of flora in the biosphere, the significant aspects of fostering plant conservation awareness among students, and the large-scale work currently being carried out in our country regarding plant protection. To reinforce the topic "The Role of Plants in the Biosphere" and to help students substantiate the importance of the plant world, exemplary guidelines have been developed to creatively stimulate independent education while aligning with the objectives of today's higher education system.

Key words: biosphere, flora, protection, law, decision, decree, ecological concept, skill, FGMU technology, Venn diagram, medicinal plants.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются роль растительного мира в биосфере, важные аспекты формирования у студентов экологической культуры по охране растений, а также проводимая сегодня в нашей стране масштабная работа в данном направлении. Разработаны типовые методические рекомендации по творческой активизации самостоятельного образования с целью повышения эффективности освоения темы «Роль



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

растений в биосфере» и обоснования значимости флоры среди студентов, опираясь на современные цели системы высшего образования.

Ключевые слова: биосфера, растительный мир, защита, закон, решение, указ, экологическая концепция, навык, технология ФГМУ, диаграмма Венна, лекарственные растения.

KIRISH

Yer sayyorasida sodir bo'layotgan har qanday ekologik inqiroz biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Fan va texnologiyaning rivojlanib borishi, aholining ko'payishi, ayniqsa antropogen bosim natijasida o'simlik va hayvonot olamiga katta zarar yetmoqda. Xususan, bioxilma-xillikning kamayishi sharoitida o'simliklar dunyosini muhofaza qilish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. O'simliklarni himoya qilishda atrof-muhitga zararni kamaytirish bugungi kunning asosiy talablaridandir. Yer yuzining qariyb 70%i o'simliklar bilan qoplangan bo'lib, biz iste'mol qiladigan oziq-ovqatning 80%i va nafas olayotgan kislorodning 98 % i aynan o'simliklar bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi [1], 1997-yil 26-dekabrda "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish to'g'risida"gi [2], 2004-yil 3-dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"[3] atrof-muhit va bioxilma-xillik muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan bir qator qonunlar qabul qilindi. Bu kabi qonunlar mamlakatimizda tabiat ne'matlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishimiz kerakligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz ekologik muhitini yaxshilash maqsadida bir qancha vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi" [4], 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonida [5] tatbiq etilishi belgilangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturlarida atrof-muhit obyektlarini (havo, suv, yer, tuproq, yer qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) inson ta'siri hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko'lamini keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

"Yashil makon" dasturi O'zbekiston Respublikasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, yashil hududlarni kengaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish maqsadida amalga oshirilayotgan davlat ahamiyatidagi tashabbusdir. Bu dastur doirasida daraxt ekish, yashil zonalarini ko'paytirish va ekologik muhitni yaxshilash ishlari olib borilmoqda. Shularni e'tiborga olgan holda, 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni [6],





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

mazkur sohada amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlarni aniq belgilab berdi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish, xususan, har yili 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va sug'orish tizimini yaratish ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda turli mahalliy mintaqaviy va global muammolar ta'sirida ayrim o'simlik turlarining yo'qolib ketganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday holatlar davlatning tegishli tashkilotlari tomonidan doimiy nazorat qilib boriladi va kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Yosh avlod qalbida tabiatga mehr tuyg'usini tasrkiib toptirish va aholi o'rtasida bosqichma-bosqich tarzda ekologik madaniyatni shakllantirib borish asosiy masalalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, bugungi oliy ta'limning eng katta oldiga qo'ygan maqsadaridan biri ham aynan rivojlangan mamlakatlar yutuqlari bilan tenglasha oladigan kadrlar tayyorlash, ularni barqaror rivojlanish g'oyalari ostida tarbiyalash, ekologik jihatdan malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

MATERIALLAR VA USULLAR

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi №136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha na'munaviy tartibni tasdiqlash" to'g'risidagi qaroriga [7] ko'ra: talabalarda ekologik tushuncha va ko'nikma, kompetensiyalarni shakllantirish mustaqil ta'limni tashkil etish bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlangan. Shularni e'tiborga olgan holda, oliy ta'lim tizimi talabalarida mustaqil ta'limni tashkil etish orqali ekologik bilimlarni mustahkamligiga erishish dolzarb vazifalardandir. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qaroriga [8] ko'ra "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi" to'g'risidagi nizomiga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv yuklamasi bakalavriatda 40 - 50% auditoriya soati, 50 - 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada esa 30% - 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga tog'ri kelishi haqida ta'kidlab o'tilgan. Shu bois, auditoriyada olingan bioxilma-xillik to'g'risidagi nazariy bilimlarni yanada boyitish maqsadida, auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim olishda o'simliklar olamining tabiatdagi o'rni, insoniyat hayotidagi ahamiyati, uning ekologik, iqtisodiy, ma'naviy jihatlari, shuningdek kamayib ketishining real xavfi borligini anglab yetish uchun o'ziga xos topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Mustaqil ta'limda o'simliklarning ahamiyatini o'rganish nafaqat bioekologik bilimlarni oshiradi, balki sayyoramizdagi hayotiy muvozanatni anglashga yordam beradi. O'simliklar quyosh energiyasi orqali noorganik moddani organik moddalarga aylantiruvchi yagona tabiiy element ekanligini tushunib yetadilar. O'simliklar 1gr karbonat angidrid o'zlashtirishi jarayonida 0,68 gr organik modda ishlab chiqaradi, yana shunday ma'lumotlar ham borki, o'simliklar 1gr organik





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

kislota o'zlashtirishi bilan 0,4 gr yog' yoki 0,62 gr kraxmal, yohud 0,5 gr oqsil sintezlashi mumkin [9]. Bu orqali o'simliklar biosferaning barqarorligini ta'minlaydi va kichik biologik aylanma harakatining asosini boshlab beradi. Bu ma'lumotlar talabalarda mustaqil ta'lim doirasida tahlil qilinib o'rganilsa, talabada o'simliklar dunyosi haqida chuqurroq ma'lumot olish imkoniyatini yanada kengaytirib, fanga nisbatan qiziqish, mustaqil fikrlash, adabiyotlar bilan ishlash kabi bir qator qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Quyida talabar uchun o'simliklarni himoya qilish bo'yicha mustaqil ishning namunaviy ishlanmasi keltirilgan:

Mavzu: O'simliklar dunyosi va uning biosferadagi ahamiyati.

Ishning maqsadi: Talabalarda o'simliklarning biosferada va inson hayotidagi ahamiyatini to'laonli tushunib yetishlariga erishish.

Topshiriq shakli: FSMU texnologiyasi, Jadvalli mantiqiy savol, Venn diagrammasi.

Topshiriq №1. FSMU texnologiyasi. (Talaba mavzu yuzasidan bitta muhim ekologik muammoni tanlaydi va uni 4 bosqichda yoritib beradi).

F (Fikr): bunda talaba o'z fikrini bayon qiladi.

S (Sabab): Fikrini asoslovchi sababni keltiradi.

M (Misol): Fikrni isbotlovchi aniq hayotiy misol keltiradi.

U (Umumlashtirish): Bunda yakuniy xulosa chiqariladi.

Namuna FSMU texnologiyasi asosida talabalar uchun tayyorlangan namuna

F — Fikr	O'simlik barcha hayotiy jarayonlarni bog'lab turuvchi zanjirning bir bo'g'inidir. O'simliksiz biosfera o'z-o'zini qayta tiklash xususiyatini yo'qotadi.
S-Sabab	Chunki o'simliklar biosferada birlamchi mahsulot yaratuvchi kichik biologik aylanma harakatda ishtirok etuvchi produtsentlardir. Ular quyosh energiyasini organik moddaga aylantirib, nafas olish uchun zarur bo'lgan kislorodni yetkazib beradi hamda haroratni stabiligini ta'minlaydi.
M — Misol	Hayotiy misol sifatida “Urbanizatsiya va issiqlik orollari” hodisasini keltirish mumkin. Daraxtzorlari ko'p bo'lgan bog'larda harorat, beton va asfalt bilan qoplangan ochiq maydonlarga nisbatan yoz chillasida 5–8°C gacha past bo'ladi. Shuningdek, Orol dengizining qurigan tubida ekilayotgan saksovulzorlar tuzli chang bo'ronlarini to'xtatib, hudud ekologiyasini sog'lomlashtirayotgani o'simlik muhofazasining naqadar muhimligiga yorqin dalildir.
U- Umumlashtirish. Xulosa	Xulosa qilib aytganda, o'simliklar dunyosi va o'rmonlar biosferaning o'pkasi hisoblanadi. Shu sababli, o'simliklarni muhofaza qilish kelajakdagi ekologik xavfsizlikni ta'minlashning eng tabiiy va samarali yo'llaridan biridir.




AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Topshiriq №2 Sizning mahallangizdagi birgina terak daraxtining kesib tashlanishi, x kundalik hayotingizda qanday salbiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin.? Savolga javobingizni jadval asosida to'ldiring.

Masalan:, Terak-Markaziy Osiyo va O'zbekiston iqlimida mahalla ko'chalarini soyalatish, changni tutib qolish va yer osti suvlari muvozanatini saqlashda asosiy o'rinni egallaydi.

Salbiy oqibatlar	Yechimlar (shaxsiy fikrlar)
1. Teraklar soyasi yo'qolishi hisobiga yozda mahalla ko'chalarida harorat 3–5°C ga ko'tariladi, konditsionerlarga ehtiyoj va elektr xarajatlari ortadi. 2. Bitta katta terak yiliga tonnalab changni ushlab qoladi. Ular kesilgach, mahallada nafas qisishi va allergiya kasalliklari ko'payadi. 3. Terak kuchli tabiiy nasos hisoblanadi. U kesilgach, mahalladagi yer osti suvlari ko'tarilib, uylarning poydevoriga zarar yetkazadi va tuproq yuzasini sho'r bosadi.	1. Hovli devorlari va uylarning quyosh tushadigan tomoniga tez o'suvchi pechakgul (partenosisus) va uzum toklarini ekish orqali tabiiy soya maydonlarini tiklash. 2. Xonadonlar oldiga ko'p yillik butasimon o'simliklar rayhon, yalpiz kabi efir moyli o'simliklarni ko'plab ekib, mikrofiltrlash zonasini yaratish. 3. Tomorqalarda tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'yish, ortiqcha oqova suvlarni qochirish uchun kichik ariqlar tizimini yangilash va tuzga chidamli ekinlar ekish.

Topshiriq №3 Berilgan “Venn diagrammasi” namunasidan foydalanib, mahalliy va iqlimlashtirilgan o'simliklarning o'xshashlik jihatlarini o'zingiz istagan ikki o'simlik misolida tahlil qiling va ularni o'xshashliklarini diagrammada keltiring.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Topshiriq №4 “Dorivor o’simliklarning inson organizmiga ta’siri” sarlavhasi ostida qisqacha esse tayyorlash. Bunda respublikamiz hududida mavjud bo’lgan dorivor o’simliklarni aniqlab, ularning inson organizmidagi ahamiyatini o’rganish holda shaxsiy fikrlaringizni bayon qiling.

Namuna: Bugungi kunda zamonaviy farmatsevtika jadal rivojlanayotgan bo’lsa-da, tabiiy xomashyo asosida tayyorlangan fitopreparatlarga bo’lgan talab pasaygani yo’q. Dorivor o’simliklarning inson organizmiga ta’siri kompleks xarakterga ega bo’lib, ular sintetik dorilardan farqli o’laroq, a’zolariga nojo’ya ta’sirlarsiz yordam berishi bilan xarakterlanadi. Yurtimiz florasida minglab shifobaxsh o’simliklar mavjud bo’lib, ulardan xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda eng ko’p qo’llaniladigan o’simliklardan masalan, Kiyiko’t lotincha nomlanishi esa “Ziziphora”: Tog’li va tog’oldi hududlarimizda keng tarqalgan ushbu o’simlik tarkibida efir moylari, va fitonsidlar mavjud bo’lib, insonning asab tizimini tinchlantirish, qon bosimini mo’tadillashtirish va yurak urishini yaxshilashga ijobiy yordam beradi. Namatak lotincha nomi “Rosa canina” na’matak respublikamizning deyarli barcha hududlarida o’suvchi butasimon o’simlik hisoblanib, uning tarkibida inson organizmi uchun kerakli bo’lgan ko’plab vitaminlarni uchratish mumkin. Na’matak tarkibidagi C, E, K vitaminlari va karotinoidlar inson organizmining immun tizimini oshirishga xizmat qiladi. Namatak mevalaridan tayyorlangan damlamalar jigar faoliyatini yaxshilaydi, o’t haydash xususiyatiga ega va qon tomirlarining elastikligini oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, o’simliklar butun tiriklikning bir qismi va ularni asrab avaylash har bir insonning burchidir. O’sib kelayotgan yosh avlodlar qalbida atrof-muhitni anglash, o’simliklar dunyosini muhofaza qilish, ekotizimlar barqarorligini ta’minlash kabi masalalarni tushunish, oliy ta’limda aynan mustaqil ta’limni ijodiy faollashtirish orqali amalga oshirib boriladigan jarayonlardandir. Zeroki, talabalardagi tinimsiz mustaqil izlanish jamiyatda yetuk kadrlar tayyorlash salohiyatini yanada mustahkamlab beradi. O’simliklar dunyosi muhofazasini anglashda mustaqil ta’limda o’zgacha yondashuv va usullardan foydalanish, talabada o’simliklarning biosferadagi o’rni, transpiratsiya jarayonlari, ayrim o’simlik turlarining inson organizmiga ko’rsatadigan salbiy va ijobiy ta’sirlarini, dorivor o’simlik turlari va o’simliklarni muhofaza qilish bo’yicha ishlab chiqilgan huquqiy normativ hujjatlar bilan tanishish imkoniyatini yanada kengaytirib beradi.

ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasida 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi O’RQ-637 sonli Qonuni <https://lex.uz/docs/5013007>





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

2. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi 543-I-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi 710-II-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha na'munaviy tartibni tasdiqlash" to'g'risidagi №136-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi" to'g'risidagi 824-son nizomi.
9. Kultiyazov I.M; Oxunov X.M "O'simliklar ekologiyasi" Darslik "O'qituvchi" Toshkent 1990 yil.



UO'K: 581.9:502.7(575.1)

FORISH TUMANI CHO'L AGROEKOTIZIMLARIDA YAYLOV HOSILDORLIGINING IQLIM OMILLARI TA'SIRIDA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

O'ralova N.U. 

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

e-mail: temureshboyev929@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Jizzax viloyati Forish tumani cho'l agroekotizimlarida o'simlik qoplami tarkibi va yaylov hosildorligining iqlim omillari ta'sirida shakllanish xususiyatlari baholangan. Transekt va kvadrat namuna olish usullari asosida 3 ta 1 m² va 3 ta 100 m² namuna maydonlarida biomassa, zichlik hamda floristik tarkib aniqlanib, statistik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, agroekotizim, yaylov hosildorligi, biomassa, transekt usuli, geterogen.

Abstract. This study evaluates the characteristics of the formation of vegetation cover composition and pasture productivity under the influence of climatic factors in desert agroecosystems of the Forish District. Based on transect and quadrat sampling methods, biomass, density, and floristic composition were determined in 3 plots of 1 m² and 3 plots of 100 m², followed by statistical analysis.

Keywords: climate change, agro-ecosystem, pasture productivity, biomass, transect method, heterogeneity.

Аннотация. В данном исследовании оценены особенности формирования состава растительного покрова и продуктивности пастбищ под влиянием климатических факторов в пустынных агроэкосистемах Форишский район. На основе методов трансект и квадратных проб были определены биомасса, плотность и флористический состав на 3 участках площадью 1 м² и 3 участках площадью 100 м² с последующим статистическим анализом.

Ключевые слова: изменение климата, агроэкосистема, урожайность пастбищ, биомасса, трансектный метод, гетерогенный.

KIRISH

Global iqlim o'zgarishlari qishloq xo'jaligi tizimlariga, ayniqsa cho'l agroekotizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Haroratning oshishi, yog'ingarchilik-ning kamayishi va tuproq degradatsiyasi o'simlik qoplami tarkibi va yaylov hosildor-ligiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Forish





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

tumani cho'l hududi iqlim o'zgarishlariga sezgir agroekotizimlardan biri bo'lib, bu hududda o'simlik qoplami va yaylov hosildorligini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Yaylov hosildorligining makoniy o'zgaruvchanligi iqlim omillari va ekologik sharoitlar ta'sirini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi. Cho'l agroekotizimlarida o'simlik qoplami tarkibi, ayniqsa kserofit va efemer turlar ulushi, iqlim sharoitlariga moslashuv darajasini ifodalaydi. Shu bois, o'simlik qoplami tarkibini transekt usuli asosida o'rganish hamda uning yaylov hosildorligi bilan bog'liqligini aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-maydagi O'RQ-538-son «Yaylovlar to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlarining asosiy maqsadi yaylovlardan unumli va oqilona foydalanishni tashkil etishni ta'minlaydi.

Jizzax viloyatida yaylovlarning umumiy maydoni 702 ming gektarni tashkil etib, bu respublikamiz hududidagi umumiy yaylov yerlarining 3,3% ulushini tashkil qiladi. [1.18-b].

Gayeyskaya, L.S. (1959) fikriga ko'ra, o'simlik o'sadigan muhitni ular tarqalgan o'simlik qoplamidan ajratish mutlaqo noto'g'ri hisoblanadi. Chunki har qanday yaylov maydonining qiymati, avvalo, undagi o'simlik qoplami bilan belgilanadi [Gayeyskaya, 1959].

Cho'l ekotizimlari ekologik jihatdan murakkab tizim bo'lib, ularda namlik tanqisligi, yuqori harorat, kuchli bug'lanish, tuproq sho'rlanishi va antropogen bosim o'simlik qoplami shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bunday hududlarda o'simlik qoplami tarkibi, turlarning tarqalishi va ekologik moslanishlarini o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Forish tumani cho'l va adir yaylov hududlarida o'simlik qoplami tarkibini transekt usuli asosida o'rganish hamda uning ekologik holati va yaylov hosildorligiga ta'sirini baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot ishlari Jizzax viloyati Forish tumani cho'l va adir yaylov hududlarida olib borildi. Dala kuzatuvlari davomida o'simlik qoplamining umumiy holatini aniqlash hamda yaylov hosildorligini aniqlashda L.S.Gayeyskaya(1980) "O'zbekistonda cho'l yaylovlaridan oqilona foydalanish xususiyatlari" dagi transekt va kvadrat namuna olish usullari qo'llanildi.

Dala ishlari quyidagicha tashkil etildi:

- 3 ta 1 m² namuna maydonlari
- 3 ta 100 m² geobotanik maydonlar

Namuna maydonlari hududning turli ekologik sharoitlarini qamrab oladigan tarzda tanlandi. O'simliklar yer sathidan 2-3 sm balandlikda kesilib, laboratoriya sharoitida biomassa aniqlash uchun o'lchandi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

NATIJALAR VA MUNOZARA

Forish tumani cho'l agroekotizimlarida o'simlik qoplami tarkibi asosan kserofit va efemer turlardan tashkil topganligini ko'rsatdi. Bu holat hududda namlik tanqisligi va yuqori harorat sharoitida o'simliklarning ekologik moslashuvi natijasi hisoblanadi. Transekt kuzatuvlari o'simlik qoplami hudud bo'yicha notekis, ya'ni geterogen tarqalganligini aniqladi. Bu geterogenlik mikrorelyef, tuproq unumdorligi, namlik taqsimoti va antropogen bosim omillari bilan izohlanadi.

1-jadval

Forish tumani cho'l va adir yaylovlarida uchraydigan asosiy o'simlik turlari

T/r	O'zbekcha nomi	Lotincha nomi	Bir yillik	Ko'p yillik	Yem-xashak qiymati
1	Cherkez	Salsola richteri	-	+	+
2	Izan	Kochia prostrata	-	+	+
3	Sho'ra	Atriplex spp	-	+	+
4	Yantoq	Alhagi pseudalhagi	-	+	+
5	Yulg'un	Tamarix ramosissima	-	+	+
6	Shuvoq	Artemisia spp	-	+	+
7	Karrak	Cousinia spp	-	+	+
8	Yaltirbosh	Bromus tectorum	+	-	+
9	Efemer o'simliklar	Bromus, Poa, Eremopyrum spp.	+	+	+
10	Efemeroidlar	Tulipa spp., Allium spp.	-	+	-
11	Yovvoyi piyoz	Allium suworowii	-	+	-
12	Qo'ng'irbosh	Poa bulbosa	-	+	+

Ayniqsa, namlik nisbatan yuqori bo'lgan uchastkalarda o'simlik qoplami zichligi yuqoriroq bo'lgani kuzatildi. Hududda 12 ta o'simlik turi qayd etildi. Dominant turlar sifatida efemer o'simliklar (Bromus, Poa, Eremopyrum spp.) va Artemisia spp. ajralib turdi. Ushbu turlar qisqa vegetatsiya davriga ega bo'lib, namlik mavjud bo'lgan davrda tez rivojlanish xususiyati bilan tavsiflanadi.

2-jadval

Hududdagi o'simlik qoplami geobotanik maydonlarining soni va zichligi

Maydoncha	Shuvoq- Artemisia spp	Karrak- Cousinia	yovvoyi piyoz- Allium suworowii	Qo'zg'uloq- Phlomis thapsoides Bge.
1- maydon	148	80	176	-
2- maydon	90	137	221	-
3- maydon	120	120	278	139





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Yaylov hosildorligi o'rtacha 100 g/m^2 ni tashkil etdi. Yuqori variatsiya ko'rsatkichi ($CV=43.3\%$) hudud ichida ekologik sharoitlarning keskin farqlanishini ko'rsatadi. Bu esa iqlim omillari yaylov hosildorligining makoniy geterogenligini shakllantiruvchi asosiy faktor ekanligini anglatadi. Bundan tashqari, ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan *Kochia prostrata*, *Artemisia* spp. va *Bromus tectorum* kabi turlar mavjudligi yaylovning chorvachilik uchun muhim resurs ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Forish tumani cho'l agroekotizimlarida o'simlik qoplami tarkibi va yaylov hosildorligi iqlim omillari ta'sirida shakllanishi aniqlandi. Hududda kserofit va efemer turlar ustunligi qurg'oqchil sharoitlarga ekologik moslashuvni aks ettiradi. Yaylov hosildorligining yuqori variatsiyasi o'simlik qoplami geterogen xarakterga ega ekanligini tasdiqladi. Transekt usuli o'simlik qoplami va ekologik holatni baholashda samarali metod sifatida o'zini oqladi. Olingan natijalar cho'l agroekotizimlarida yaylov resurslarini boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Forish tumani cho'l yaylovlarida o'simlik qoplamini mavsumiy asosda muntazam transekt, GPS koordinatalash va foto-kuzatuv orqali monitoring qilish tavsiya etiladi. Bu yaylov holatini aniq baholash va ozuqa bazasini boshqarishga xizmat qiladi. Dominant va oziqaviy qiymati yuqori o'simlik turlarini saqlash hamda tiklash choralarini kuchaytirish, yaylovdan me'yoriy foydalanish (rotatsion boqish) tizimini joriy etish zarur. Shuningdek, iqlimga mos agrotexnologiyalar qo'llash qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekish, namni saqlovchi usullarni qo'llash orqali yaylov hosildorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin. Natijada yaylov ozuqa bazasining yaxshilanishi qo'ylarning oziqlanish darajasini oshirish orqali chorva hayvonlari mahsuldorligini barqarorligiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev.T.M., G'aniyev.O.O. Yaylov yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etishni takomillashtirish / Ilmiy-uslubiy tavsiyanoma. - Toshkent, "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2025. 18-b.

2. Рузметов М. И., Тўраев Р. А. Ўзбекистон табиий яйлов ва пичанзорларида геоботаник тадқиқотлар ўткази бўйича услубий қўлланма. – Тошкент, 2018.

3. Гаевская Л.С. Особенности рационального использования пустынных пастбищ Узбекистана. В сб. «Природные условия, животноводство и кормовая база пустынь» Ашхабад, 1963.

4. Краснополин Е. С. О Методике расчетов при определении кормовых запасов и емкости каракулеводческих пастбищ. «Каракулеводство и звероводство», 1956. № 3.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

5. Морозов Н.Л. Определение емкости пастбищ с учетом сезонной динамики запасов, поедаемости и питательной ценности пастбищных кормов. “ДАН Туркменской ССР”. Ашхабад, 1955.
6. International scientific and practical conference “current problems of the sericulture field in new Uzbekistan and their scientific solutions based on innovative technologies”, may 1, 2025.
7. Parmanova D. M., Shoxnazarova Sh. A., O'ralova N.U. “Turli zotga mansub qo'ylarni “Best Mega Mix” to'la qiymatli ozuqadan foydalanib jadal burdoqilashning samaradorligi”.



UO'K: 633.2/3.631

QANDIM-QUMLI CHO'LLAR UCHUN QIMMATLI YAYLOVBOP O'SIMLIK

Adilov Sobitjon Uktamovich 

G'ulomov G'ofir Komil o'g'li 

“Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog'i ilmiy xodimlari

Annotatsiya. Maqolada qumli cho'llarda tarqalgan yovvoyi hayvonlar va chorva mollari uchun to'yimli ozuqa hisoblanadigan qizil qandimning biologiyasi, qimmatli xo'jalikbop xususiyatlari hamda Markaziy Qizilqum milliy tabiat bog'ining 6 ta bo'limidan yig'ib olingan urug' namunalarining 1000 dona vazniga oid ma'lumotlar bayon qilingan. Qumli yaylovlarni qandim bilan fitomeliorsiyalash yaylovlardagi o'simlik qoplamini ozuqaviy xususiyatlarga boy turlar bilan boyitishga, ko'chma qumlarni mustahkamlashga, shuningdek, yaylovlar hosildorligini bir necha marta oshirishga sharoit tug'diradi.

Kalit so'zlar: Qizil qandim, qumli cho'l, urug' sifati, ozuqa birligi, fitomeliorsiya, Markaziy Qizilqum milliy tabiat bog'i.

Abstract. The article presents data on the biology and valuable economic properties of red kandym, a nutritious forage plant for wild animals inhabiting sandy deserts and for livestock, as well as the 1,000-seed weight indicators of samples collected from six sections of the Central Kyzylkum National Nature Park. Phytomelioration of sandy pastures using kandym creates conditions for enriching vegetation cover with species of high nutritional value, stabilising mobile sands, and increasing pasture productivity several-fold.

Keywords: red kandym, sandy desert, seed quality, feed unit, phytomelioration, Central Kyzylkum National Nature Park.

Аннотация. В статье представлены данные о биологии и ценных хозяйственных свойствах красного кандыма — высокоценного кормового растения для диких животных песчаных пустынь и сельскохозяйственных животных, а также показатели массы 1000 семян образцов, собранных из шести участков национального природного парка «Центральные Кызылкумы». Фитомелиорация песчаных пастбищ с использованием кандыма создаёт условия для обогащения растительного покрова видами с высокими питательными качествами, закрепления подвижных песков, а также многократного повышения продуктивности пастбищ.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Ключевые слова: Кандым красный, песчаная пустыня, качество семян, кормовая единица, фитомелиорация, национальный природный парк «Центральные Кызылкумы».

KIRISH

O'zbekiston respublikasi yer maydonining 20,6 mln hektari tabiiy yaylovlar zimmasiga to'g'ri kelib ularning asosiy qismi cho'l mintaqasida joylashgan. Ushbu yaylovlar chorvachilikni rivojlantirishda eng muhim ozuqa zaxirasi vazifasini o'tab kelmoqda. Ushbu yaylovlar arzon, qulay va yil davomida foydalanish imkonini beruvchi ozuqa manbai hisoblansada ularning hosildorligi o'ta past, yillar va yil mavsumlari bo'ylab keskin o'zgaruvchan. Shuningdek, tabiiy yaylovlardan tartibsiz foydalanganlik, chorva mollarini boqish, geologik qidiruv, kon-ko'zlov ishlari va boshqa texnogen omillar tufayli tabiiy yaylovlar inqirozi respublikamizda 38-45%ga yetgan [3]. Bunday salbiy holatlar tabiiy yaylovlarda o'simliklar bioxilma-xilligining keskin kamayishiga, hosildorlikning pasayishiga va ozuqa sifatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Shu bois, tabiiy yaylovlardan samarali foydalanish va yaylovlar hosildorligini oshirishga qaratilgan chora – tadbirlar tizimini amalga oshirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [2].

Respublikamizdagi eng katta cho'l Qizilqum cho'li hisoblanadi. Qizilqum o'z tabiiy muhiti jihatidan o'ta murakkab, xilma-xil, turli shakl va mashtabdagi qum uyumlari, yassi tog' tizmalari, tekisliklar, past cho'kmalar, sho'rxok, gipsli maydonlar majmuasidan iborat geografik hududdir [4].

Iqlimi keskin o'zgaruvchan, yozi jazirama issiq- mutlaq maksimum 47-48 °C (iyul), qishi qaxraton sovuq-mutlaq minimum -30 °C (yanvar).

Havoning oylik o'rtacha harorati Qizilqumning shimolida 8-12 °C, janubida 15-17 °C. Yillik yog'ingarchilik miqdori shimolida 80-90 mm, markaziy qismida 110-130 mm, janubida 130 mm dan yuqori. Yog'ingarchilik asosan qish va erta bahorda kuzatiladi.

Qumli cho'l maydonlari hududning 60% i dan ortiq maydonni egallaydi. Zichlashgan va tekislanib qolgan qum maydonlari bir qatorda endigina zichlash boshlagan turli shakldagi o'ydin chuqur va o'ydin-qator qum tizmalari yoki yengil ko'chuvchan hamda yetarli zichlashmagan qum maydonlari ham mavjud [4].

O'simlik qoplamining asosini buta-barra o'tlar tashkil etadi. Butalar (oq va qora saksovullar, cherkezlar, qandimlar, qizilcha, quyonsuyak), yarim butalar (shuvoqlar, singrenlar, boyalich, teresken), bir va ko'p yillik o'tlar (iloq, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, chitir va boshqalar dag'al poyali o'simliklar (selinlar, kovrak, yantoq) mavjud. Qumli cho'llarda yovvoyi hayvonlar uchun to'yimli ozuqa va qumlarni mustahkamlashda qo'llaniladigan eng muhim o'simliklardan biri qandimlar hisoblanadi.

Qandimlar torondoshlar oilasiga mansub daraxtsimon butalar, butalar va butachalar bo'lib, Markaziy Osiyoda ularning 45 turi tarqalgan. Qandim turlarining



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

eng ko'p tarqalgan hududi qumli cho'llardir. Mahalliy aholi orasida qandimlar "juzg'un" nomi bilan mashhurdir. Ularning eng istiqbollisi qizil qandim hisoblanadi.

Qizil qandim (*Colligonum caput medusae schrenk*) – Torondoshlar oilasidan, bo'yi 1,5-2,5 metr gacha yetadigan daraxtsimon butadir. Uning poyalari tik, sershox, shoxlari silliq, ichi kovak, qing'ir-qiyshiq. Barglari ensiz, ipsimon shaklda, uzunligi 3-5 mm bo'lib, erta to'kilib ketadi. Qizil qandimda bu burglar qariyb bilinmaydi, shuning uchun uni bargsiz ham deyish mumkin. Qizil qandimning urug'i juda sekin unib chiqadi. Urug'larning unib chiqishi mart oyidan may oyigacha davom etadi. Qizil qandim vegetatsiyasining ikkinchi yari-aprel oyining boshlarida qayta ko'karadi. U may oyida gullaydi. Gullari mayda, 1-2 tadan novdalarda joylashgan. Gulqo'rg'onining barglari oqish pushti yoki to'q qizil rangda bo'lib, chetlari oqchil, hoshiyali, uzunligi 3-4 mm. Qizil qandimning urug'lari iyun oyida pishib yetiladi. Mevasi (urug'i)ning uzunligi 15-20 mm, eni 12-17 mm bo'lib, uzunchoq keng tuxumsimon, sariq yoki qizg'ish. Urug'i juda ham chroyli, qanotchali, tikonli, yong'oqchaga o'xshaydi. Yengil bo'lganligi sababli shamol ta'sirida uzoq-uzoqlarga tarqalish xususiyatiga ega. Qizil qandimning 1000 dona urug'ining vazni 75-90 g. Qizil qandimning novdalari qo'y, echki, tuyalar uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Uning bir yillik novdalari vitaminlarga boy yashil ozuqa vazifasini bajaradi. Qizil qandimning novdalari tarkibida 12,5% protein, 1,1% yog', 34,4 AEM (azotsiz ekstraktiv moddalar), 19,4% kul moddalar va 20% klechatka bor. 100 kg quruq xashagida 37-59 ozuqa birligi mavjud [5].

Qizil qandimning ildizlari yon tomonlarga tarqalganligi sababli, qumlarni mustahkamlashda o'ta muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yog'ingarchilik yetarli bo'lib, iqlim sharoiti qulay kelgan yillari tuproqning yuqori qatlamlaridagi ildizlaridan yangi novdalar o'sib chiqish xususiyatiga ega ekanligi qizil qandimning o'z-o'zidan ko'payishi mumkinligidan dalolatdir.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot manbai sifatida qizil qandim olindi. Uning tabiiy holda o'sib turgan maydonlarida biologiyasi, ozuqaviy xususiyatlari o'rganildi. Rejalashtirilgan tadqiqotlar o'simliklar biologiyasi va o'simlikshunoslikda umum qabul qilingan uslublardan [1; 6] foydalanish asosida amalga oshirildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Markaziy Qizilqum milliy tabiat bog'ining tabiiy-iqlim sharoiti keskin o'zgaruvchan bo'lib, qumli cho'l maydonlari hududning 60% idan ortig'ini tashkil etadi. Bunday sharoitda o'simliklarning urug' orqali tabiiy ko'payishi va urug'larning sifat ko'rsatkichlari bevosita mahalliy ekologik omillarga bog'liqdir. Qizil qandim urug'larining vazni va sifati ularning keyinchalik fitomeliorsiya ishlarida unuvchanlik darajasini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Shu bois, tadqiqotlarimiz davomida Markaziy Qizilqum milliy tabiat bog'iga qarashli 6 ta alohida bo'limdan (Chansh, Oq Bukit, Buronbay, Baltay, Kupit,





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Nissan) qizil qandim urug' namunalari yig'ib olindi va ularning 1000 dona vazni solishtirma ravishda tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Markaziy Qizilqum milliy tabiat bog'i bo'limlari bo'yicha terib olingan qizil qandim urug'larining 1000 dona vazni ko'rsatkichlari (2026 y.)

№	Namuna olingan bo'limlar nomi	Terilgan urug'larning umumiy holati	1000 dona urug'ning vazni, grammda	Me'yorga nisbatan farqi (o'rtacha 82,5 g)
1	Chansh	To'liq pishib yetilgan, yirik, sog'lom urug'lar	88,4 g	+5,9 g
2	Oq Bukit	O'rtacha o'lchamli, qanotchalari yaxshi rivojlangan	81,2 g	-1,3 g
3	Buranbay	Standart o'lchamli, tikanli tuzilishi mukammal	83,0 g	+0,5 g
4	Baltay	Quruq va shamolli hudud xususiyatiga mos, yengil	76,5 g	-6,0 g
5	Kupit	Yuqori namlik va qulay mikroiklimda yetilgan	89,7 g	+7,2 g
6	Nissan	Dispers qumlik sharoitida yetilgan, o'rtacha	79,8 g	-2,7 g

Kuzatuv natijalaridan ko'rinib turibdiki, Markaziy Qizilqum milliy tabiat bog'ining turli bo'limlaridan yig'ib olingan qizil qandim urug'larining 1000 dona vazni bir-biridan iqlim va ekologik omillar ta'sirida farq qiladi. Eng yuqori vazn ko'rsatkichlari Kupit (89,7 g) va Chansh (88,4g) bo'limlarida kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich qumi nisbatan harakatchan va suv tanqisligi yuqori bo'lgan Baltay (76,5g) bo'limi namunalari qayd etildi. Umumiy hisobda barcha bo'limlardan olingan urug' vaznlari qizil qandim uchun xos bo'lgan umumiy me'yoriy (75,0-90,0 g) chegarada ekanligi aniqlandi. Bu esa ushbu bo'limlardagi urug'larning keyinchalik milliy bog'da qayta ekish va fitomeliorsiya ishlarida foydalanish uchun to'liq yaroqli ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA

Qizil qandimning qumlarni mustahkamlashdagi ahamiyatini va qizilqum cho'llarida tarqalgan hayvonlar uchun to'yimli ozuqa ekanligi e'tiborga olinsa, qumli cho'llarda qandimzorlar barpo etish tabiiy yaylovlar holatining yaxshilanishida, ularning hosildorligini oshirishda, shuningdek, ko'chma qumlarni mustahkamlashda hamda jayron, qulon, sayg'oq, cho'l toshbaqasi, quyon, yumronqoziq, sichqon, qum sichqoni kabi yovvoyi hayvonlarning ozuqa bazasini boyitishda o'ta muhim ahamiyatga ega.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Belolipov N.V., To'xtayev B.Ye., Qarshiboyev H.Q. "O'simliklar introduksiyasi" fanidan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazishga oid metodik ko'rsatmalar. – Guliston,. 2011. – 24b.
2. Boboyeva A.S., Xalilov X.R. Yalovlar holatini yaxshilovchi ozuqabop o'simliklar // SamVMI Nukus filialidagi ilmiy-texnik konfrensiya. - Nukus, 2021.- 207-210b.
3. Maxmudov M.M. Qorako'lchilik yaylovlarining hozirgi holati va istiqbolli fitomeliorantlarini tanlashning asosiy kriteriyalari// Cho'l yaylov chorvachiligini rivojlantirish muammolari. - Samarqand, 2005.-187-189b.
4. Maxmudov M.m., Hayitboyev R. Qizilqum yaylovlari holatini yaxshilash usullari.- Toshkent, 2008.-34b.
5. Maxmudov M.M. va boshq. Istiqbolli cho'l fitomeliorantlari urug'chiligi (tavsiyalar).- Samarqand, 2006.-20b.
6. Rabbimov A.R., Hamroyeva G.U. Cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiyasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – Samarqand, 2016.-42b.



УДК: 579.8:633.11

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ВЫРАЩИВАНИЯ МИКРОВОДОРОСЛИ ХЛОРЕЛЛЫ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Уктамова Мубинабону Рустамжон қизи

Студент Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий

Аннотация. В статье исследованы особенности роста и накопления биомассы микроводорослей *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* и *Chlorella sorokiniana* в различных источниках воды и питательных средах. Установлено, что наибольший выход биомассы обеспечивают родниковая вода и минеральная питательная среда, а наиболее высокой скоростью роста характеризуется *Chlorella sorokiniana*. На основе результатов разработана эффективная технология получения экологически безопасного биостимулятора для сельского хозяйства.

Ключевые слова: хлорелла, микроводоросли, *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa*, *Chlorella sorokiniana*, биомасса, питательная среда, источник воды, культивирование, биостимулятор, сельское хозяйство, биотехнология.

Annotatsiya. Ushbu maqolada *Chlorella* turlaridan bo'lgan *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Chlorella sorokiniana* ning turli suv manbalari va oziqa muhitlarida o'sish xususiyatlari hamda biomassa to'planishi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eng yuqori biomassa hosildorligi buloq suvi va mineral oziqa muhiti sharoitida kuzatilgan, eng tez o'sish esa *Chlorella sorokiniana* turida qayd etilgan. Olingan natijalar asosida qishloq xo'jaligi uchun ekologik xavfsiz biostimulyator olishning samarali texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xlorella, mikroalgalar, *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa*, *Chlorella sorokiniana*, biomassa, oziqa muhiti, suv manbai, kultivatsiya, biostimulyator, qishloq xo'jaligi, biotexnologiya.

Abstract. This article investigates the growth characteristics and biomass accumulation of the microalgae *Chlorella* species *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa*, and *Chlorella sorokiniana* in different water sources and nutrient media. It was established that the highest biomass yield is provided by spring water and mineral nutrient media, while the highest growth rate is observed in *Chlorella sorokiniana*. Based on the obtained results, an effective technology for producing an environmentally safe biostimulant for agriculture was developed.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Keywords: chlorella, microalgae, *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa*, *Chlorella sorokiniana*, biomass, nutrient medium, water source, cultivation, biostimulant, agriculture, biotechnology.

ВВЕДЕНИЕ

В современных условиях роста численности населения мира и увеличения спроса на продукты питания сельское хозяйство сталкивается с необходимостью внедрения новых, эффективных и экологически безопасных технологий. Одновременно с этим изменение климата, снижение плодородия почв и ограниченность водных ресурсов усиливают потребность в биологически обоснованных решениях [14, 15].

В этом контексте микроводоросли, в частности хлорелла (*Chlorella spp.*), представляют собой организмы, имеющие важное научное и практическое значение. Хлорелла отличается высокой фотосинтетической активностью, быстрым ростом и способностью к накоплению биомассы [1, 8].

В её составе содержатся белки, аминокислоты, витамины, микроэлементы и биологически активные вещества, что позволяет рассматривать её как универсальный биопрепарат в сельском хозяйстве. Поэтому разработка технологии выращивания различных видов хлореллы в разных водных и питательных средах является актуальной научной задачей [1, 2, 8].

Согласно исследованиям Becker, хлорелла является быстро размножающимся микроорганизмом, способным за короткое время формировать высокую биомассу и активно поглощать углекислый газ. Кроме того, она обладает высоким потенциалом как источник экологически чистых удобрений [2].

Richmond установил, что на процесс выращивания хлореллы влияют такие основные факторы, как освещённость, температура, уровень pH и состав минеральной среды, которые являются ключевыми детерминантами её роста [11].

В отечественных исследованиях хлорелла в основном рассматривалась как кормовая добавка в животноводстве, органическое удобрение в растениеводстве и средство биологической очистки воды. Однако комплексное влияние различных источников воды и питательных сред изучено недостаточно, что и определяет актуальность данного исследования

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

В качестве объектов исследования были выбраны виды *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* и *Chlorella sorokiniana*. Предметом исследования являлись процессы роста и накопления биомассы данных видов в различных водных и питательных средах.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Эксперимент проводился с использованием пяти типов воды: дождевая, снеговая, родниковая, арычная и питьевая вода, каждая из которых отличается физико-химическими свойствами.

В качестве питательных сред использовались стандартная минеральная среда на основе солей, органо-минеральная среда и контрольный вариант (только вода).

Эксперименты проводились в лабораторных условиях при температуре 25–28°C, при фотопериоде 12/12 часов, в диапазоне pH 6,5–7,5. Аэрация обеспечивалась постоянно. Продолжительность эксперимента составила 21 день.

В исследовании применялись методы микроскопического подсчёта, спектрофотометрического анализа, фенологических наблюдений и статистический анализ ANOVA.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Результаты эксперимента подтвердили, что источники воды оказывают существенное влияние на рост хлореллы. Наибольший выход биомассы был зафиксирован в варианте с родниковой водой и минеральной средой. Это объясняется природным минеральным балансом родниковой воды, который стимулирует деление клеток.

Наименьшие показатели были отмечены в вариантах с арычной водой и контрольной средой, что связано с наличием загрязнений и органических примесей.

По питательным средам наибольшую эффективность показала минеральная среда, обеспечившая максимальное накопление биомассы. Органо-минеральная среда дала средние результаты, тогда как контрольный вариант показал минимальный рост.

Сравнение видов показало, что *Chlorella sorokiniana* обладает наиболее высокой скоростью роста. *Chlorella vulgaris* характеризуется стабильным накоплением биомассы, тогда как *Chlorella pyrenoidosa* отличается более медленным, но устойчивым ростом.

Процесс роста проходил через лаг-, лог- и стационарную фазы, при этом наиболее интенсивный рост наблюдался в лог-фазе.

Статистический анализ ANOVA подтвердил наличие достоверных различий между вариантами ($p < 0.05$).

Эффективная технология. На основании полученных результатов была определена наиболее эффективная технология выращивания хлореллы: использование родниковой воды в сочетании с минеральной средой и культурой *Chlorella sorokiniana* обеспечивает максимальный выход биомассы [5, 9, 13].



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Технологический процесс включает следующие этапы: подготовка воды, стерилизация, приготовление питательной среды, инокуляция, аэрация, выращивание в течение 14–21 дней, сбор биомассы и её сушка.

Данная технология отличается низкой себестоимостью, экологической безопасностью и высокой эффективностью.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Рост хлореллы напрямую зависит от источника воды и состава питательной среды. Родниковая вода является наиболее оптимальной природной средой. Минеральная среда обеспечивает максимальное накопление биомассы. *Chlorella sorokiniana* признана наиболее перспективным видом. Предложенная технология является эффективной для практического применения в сельском хозяйстве.

Практические рекомендации. Рекомендуется использовать родниковую воду при культивировании хлореллы. Оптимизация питательной среды позволяет повысить продуктивность биомассы. *Chlorella sorokiniana* является наиболее подходящим видом для промышленного производства. Данная технология имеет важное значение для развития экологически чистого сельского хозяйства.

ЛИТЕРАТУРА

1. Barsanti L., Gualtieri P. Algae: Anatomy, Biochemistry and Biotechnology. – Boca Raton: CRC Press, 2014. – 301 p.
2. Becker W. Microalgae in Biotechnology and Microbiology. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 293 p.
3. Borowitzka M.A. High-value products from microalgae: their development and commercialisation // Journal of Applied Phycology. – 2013. – Vol. 25. – No. 3. – P. 743–756.
4. Borowitzka M.A., Moheimani N.R. Algae for Biofuels and Energy. – Dordrecht: Springer, 2013. – 391 p.
5. Brennan L., Owende P. Biofuels from microalgae – A review of technologies for production, processing and extraction of biofuels and co-products // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2010. – Vol. 14. – No. 2. – P. 557–577.
6. Chisti Y. Biodiesel from microalgae // Biotechnology Advances. – 2007. – Vol. 25. – No. 3. – P. 294–306.
7. Converti A., Casazza A.A., Ortiz E.Y., Perego P., Del Borghi M. Effect of temperature and nitrogen concentration on the growth and lipid content of *Nannochloropsis oculata* and *Chlorella vulgaris* // Chemical Engineering and Processing. – 2009. – Vol. 48. – P. 1146–1151.
8. Khan M.I., Shin J.H., Kim J.D. The promising future of microalgae: Current status, challenges and optimization of a sustainable and renewable industry



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

- for biofuels, feed and other products // Microbial Cell Factories. – 2018. – Vol. 17. – Article 36.
9. Mata T.M., Martins A.A., Caetano N.S. Microalgae for biodiesel production and other applications: A review // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2010. – Vol. 14. – No. 1. – P. 217–232.
 10. Priyadarshani I., Rath B. Commercial and industrial applications of microalgae – A review // Journal of Algal Biomass Utilization. – 2012. – Vol. 3. – No. 4. – P. 89–100.
 11. Richmond A., Hu Q. Handbook of Microalgal Culture: Applied Phycology and Biotechnology. 2nd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2013. – 736 p.
 12. Ugwu C.U., Aoyagi H., Uchiyama H. Photobioreactors for mass cultivation of algae // Bioresource Technology. – 2008. – Vol. 99. – No. 10. – P. 4021–4028.
 13. Wang B., Li Y., Wu N., Lan C.Q. CO₂ bio-mitigation using microalgae // Applied Microbiology and Biotechnology. – 2008. – Vol. 79. – P. 707–718.
 14. Абдукаримов Д.Т., Турсунов Б.Т. Перспективы применения хлореллы в сельском хозяйстве Узбекистана // Аграрная наука. – 2022. – № 4. – С. 45–50.
 15. Сидько Ф.Я., Лях С.П. Микроводоросли в биотехнологии и сельском хозяйстве. – Новосибирск: СО РАН, 2015. – 248 с.



UO'K: 633.39:664.8

AMARANT – OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA ISTIQBOLLI XOMASHYO

Yunusov Abrorbek Maxamadamin o'g'li 

Biotexnologiya kafedrası katta o'qituvchisi, q.x.f.f.d (Phd)

e-mail: bekfayziyev358@gmail.com

Nazarova Qunduzxon Xoshimjonovna 

e-mail: nazarovaqunduzoy89@gmail.com

Rahimova Gulbahor Lutfullajon qizi 

e-mail: rakhimovagulbakhor1@gmail.com

Biotexnologiya kafedrası o'qituvchisi

Sharifjanov A'zamjon Abdurahmon o'g'li 

magistrant

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi va aholi sonining o'sishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda agrosanoat majmuasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish masalalari tadqiq qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida ozuqaviy qiymati yuqori va ekstremal iqlim sharoitlariga chidamli bo'lgan amarant (*Amaranthus* L.) o'simligi tanlab olingan. Maqolaning asosiy maqsadi amarant xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali oziq-ovqat sanoati uchun funksional mahsulotlar olish va jarayonda chiqindisiz (zero-waste) texnologik zanjirni yaratish imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy baholash va amarant tarkibidagi bioaktiv moddalarni aniqlash bo'yicha laboratoriya sinovlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, amarant doni va yashil massasi tarkibidagi skvalen, lizin aminokislotalari, oson hazm bo'luvchi oqsillar hamda antioksidantlar tufayli parhezboq va davolash-profilaktika xususiyatiga ega mahsulotlar ishlab chiqarishda tengsiz xomashyo hisoblanadi. Maqolada amarantni qayta ishlashda hosil bo'ladigan barcha ikkilamchi resurslarni (shrot, poya qoldiqlari) chorvachilik, farmatsevtika va bioenergetika sohalariga yo'naltirishning tejankor texnologik sxemasi taklif etilgan. Xulosa o'rnida, amarant yetishtirish va uni sanoat usulida chiqindisiz qayta ishlash mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini mustahkamlash va ekologik muvozanatni saqlashda strategik ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Kalit soʻzlar: amarant, oziq-ovqat xavfsizligi, chiqindisiz texnologiya, funksional oziq-ovqat, skvalen, yashil iqtisodiyot, qayta ishlash, biologik qiymat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения продовольственной безопасности и внедрения принципов «зеленой экономики» в агропромышленном комплексе в условиях глобального изменения климата и роста численности населения. В качестве объекта исследования выбрано растение амарант (*Amaranthus* L.), обладающее высокой питательной ценностью и устойчивостью к экстремальным климатическим факторам. Основная цель работы заключается в научном обосновании возможностей глубокой переработки сырья амаранта для получения функциональных продуктов питания и создании безотходной (zero-waste) технологической цепочки.

Методология исследования базируется на системном анализе, сравнительной оценке и лабораторных данных по определению биоактивных веществ в составе амаранта. Результаты показывают, что благодаря наличию сквалена, незаменимой аминокислоты лизина, легкоусвояемых белков и антиоксидантов в зерне и зеленой массе, амарант является уникальным сырьем для производства диетической и лечебно-профилактической продукции. В статье предложена экономически эффективная технологическая схема направления всех вторичных ресурсов (шрота, остатков стеблей), образующихся при переработке амаранта, в животноводство, фармацевтику и биоэнергетику. В заключении обосновано, что культивирование и промышленная безотходная переработка амаранта имеют стратегическое значение для укрепления продовольственной независимости страны и сохранения экологического баланса.

Ключевые слова: амарант, продовольственная безопасность, безотходная технология, функциональное питание, сквален, зеленая экономика, переработка, биологическая ценность.

Abstract: This article examines the issues of ensuring food security and implementing the principles of a green economy in the agro-industrial complex under the conditions of global climate change and rapid population growth. Amaranth (*Amaranthus* L.), characterized by high nutritional value and resilience to extreme climatic conditions, was selected as the primary object of research. The main objective of the study is to scientifically substantiate the possibilities of deep processing of amaranth raw materials to obtain functional food products and to establish a zero-waste technological chain within the production process.

The research methodology is based on systematic analysis, comparative evaluation, and laboratory data regarding the identification of bioactive compounds in amaranth. The results indicate that due to the presence of squalene, the essential amino acid lysine, highly digestible proteins, and potent antioxidants in both amaranth grain and green mass, it serves as an unparalleled raw material for the production of dietary and therapeutic-prophylactic products. Furthermore, the paper



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

proposes an economically viable technological model for diverting all secondary resources (such as meal and stalk residues) generated during amaranth processing into animal husbandry, pharmaceuticals, and bioenergy sectors. In conclusion, the study demonstrates that the cultivation and industrial zero-waste processing of amaranth hold strategic importance for strengthening national food independence and maintaining ecological balance.

Keywords: amaranth, food security, zero-waste technology, functional food, squalene, green economy, recycling, biological value.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning 50% dan ortig'i suv taqchilligi muammosiga duch kelmoqda, aholining yillik o'sishi esa 3,5% ni tashkil etib, oziq-ovqat talabini yanada oshirmoqda. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga borib global don ehtiyoji hozirgi darajaga nisbatan 70% ga ortishi kutilmoqda. Shu sababli, an'anaviy ekinlar — bug'doy va sholi — yetarli bo'lmagan sharoitlarda muqobil, to'yimli va iqlim stressiga chidamli ekinlarni joriy etish zarurati tobora kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan oziq-ovqat mustaqilligini mustahkamlash vazifasi ham ushbu muammoni hal etishga yo'naltirilgan [1].

Amarant (*Amaranthus* L.) o'simligi o'zining qurg'oqchilikka chidamliligi, 500–700 mm yog'ingarchilik sharoitida ham yuqori hosil berishi va tarkibidagi sifatli oqsil miqdori bilan dunyo miqyosida "XXI asr ekini" deb e'tirof etilmoqda. O'simlikning barcha morfologik qismlari — urug'i, bargi va poyasi — sanoat miqyosida qayta ishlanishi mumkinligi uni chiqindisiz texnologiyalar uchun ideal xomashyoga aylantiradi. Xususan, Namangan viloyatining Farg'ona vodiysi sharoitida suv resurslari cheklangan quruq yaylovlar va lalmikor yerlarni unumli o'zlashtirishda amarantni an'anaviy don ekinlariga muqobil ravishda joriy etish iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Ushbu o'simlikning noyob nutrisent profili milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yangi yo'nalishni boshlab berishi mumkin [2].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot obyekti sifatida Namangan viloyatining Uychi tumanida 2023-yilgi vegetatsiya davrida yetishtirilgan amarantning ikkita istiqbolli navi — *Amaranthus cruentus* va *Amaranthus hypochondriacus* — tanlandi. Har bir navdan 3 ta parallel namuna (takrorlanish) olinib, jami 6 ta tajriba varianti tahlil qilindi.

O'simlik urug'idagi umumiy oqsil miqdori klassik Kyeldal usuli (GOST 10846-91) asosida azot miqdorini aniqlash orqali hisoblandi; natija 6,25 ko'effitsientiga ko'paytirildi. Yog' kislotalari tarkibi va skvalen miqdori Agilent 7890B rusumli gaz-suyuqlik xromatografi yordamida aniqlandi; standart sifatida



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

skvalen etalon eritmasi (Sigma-Aldrich, toza 98%) qo'llanildi. Namunalar tahlildan oldin n-geksan bilan ekstraktsiya qilindi va 0,45 mkm filtr orqali o'tkazildi.

Chiqindisiz texnologiya siklini ishlab chiqishda quyidagi uch bosqichli metodika qo'llanildi: (1) presslash usulida urug'dan moy ajratish; (2) qolgan shrotni quritib, maydalab, un holida qandolatchilik aralashmasiga qo'shish; (3) o'simlikning poya va barg massasini namlab fermentatsiya qilish orqali silosga aylantirish. Silosning ozuqaviy qiymati Weende analiz usuli (xom oqsil, xom yog', kletchatka) bilan baholandi [2].



1-rasm. “Amaranthus cruentus” va “Amaranthus hypochondriacus” navlari yetishtrilayotgan dala maydoni

NATIJALAR VA MUNOZARA

O'tkazilgan laboratoriya tahlillari natijasida amarant urug'i tarkibida 14,5–17% oqsil mavjudligi aniqlandi, bu ko'rsatkich bug'doy (11,8%) va makkajo'xoridan (9,4%) sezilarli darajada yuqoridir (1-jadval). Becker (2023) tadqiqotlari bilan taqqoslaganda olingan natijalar mos keladi [3]. Alohida diqqatga sazovor jihat shuki, amarant oqsilida muhim aminokislota — lizin miqdori 740 mg/100 g ni tashkil etdi, bu bug'doydagi 320 mg/100 g va makkajo'xoridagi 250 mg/100 g ko'rsatkichidan 2,3–3 baravar yuqoridir. Lizin odatda donli ekinlarda tanqis bo'ladigan aminokislota sanaladi va uning yetishmasligi ayniqsa bolalar va homilador ayollarda oqsil-energiya tanqisligiga olib keladi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

1-jadval

Amarant va an'anaviy donli ekinlarning ozuqaviy qiymati (100 g mahsulotda)

Ko'rsatkichlar	Amarant urug'i	Bug'doy	Makkajo'xori
Oqsil miqdori	14.5-17	11.8	9.4
Lizin (aminokislota) (mg)	740	320	250
Yog'lar (g)	6.5	2.5	4.7
Kletchatka	6.7	2.3	2.7
Skvalen (mg)	200-500	-	-

Amarant urug'idan presslash usulida ajratilgan moyda 200–500 mg/100 g miqdorida skvalen aniqlandi, bu zaytun moyi (100–700 mg/100 g) bilan raqobatlasha oladigan darajani tashkil etadi. Skvalen kuchli antioksidant sifatida hujayralar membranasini oksidlanishdan himoya qiladi va immunitet tizimini qo'llab-quvvatlaydi; farmatsevtika sanoatida esa vaksinalar uchun adjuvant sifatida qo'llaniladi. Bu xususiyati amarant moyini oddiy oziq-ovqat mahsulotidan yuqori qo'shimcha qiymatli xomashyoga aylantiradi.

Moy ajratib olingandan so'ng hosil bo'lgan shrot tarkibida 35–40% gacha oqsil saqlandi va u qandolatchilik mahsulotlariga (печенье, keks) 15–20% nisbatda qo'shilganda texnologik xossalar yomonlashmadi. O'simlikning poya va barg massasidan tayyorlangan silosning xom oqsil miqdori 12,4% ni tashkil etdi, bu esa Namangan viloyatida chorvachilikning yemxashak bazasini mustahkamlashda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, bir birlik amarant xomashyosidan uchta tovar mahsulot (moy, un, yemxashak) olinishi ishlab chiqarish chiqindilarini sifirga yaqinlashtiradi va iqtisodiy rentabellikni oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amarant o'simligini mamlakatimiz agrosanoat majmuasida keng miqyosda yetishtirish va uni kompleks (klaster usulida) qayta ishlash strategik ahamiyatga ega. Bu jarayon aholini yuqori biologik qiymatga ega bo'lgan, hayotiy zarur aminokislotalar bilan boyitilgan sifatli o'simlik oqsili bilan barqaror ta'minlash barobarida, ishlab chiqarishda "nol chiqindi" (zero-waste) konsepsiyasini to'liq amalga oshirish imkonini beradi.

Xususan, Namangan viloyatining tuproq-iqlim sharoiti, yer resurslari va unumdorlik salohiyati amarant yetishtirish uchun nihoyatda qulay bo'lib, bu hududda o'simlikdan farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati uchun mustahkam hamda arzon xomashyo bazasi sifatida foydalanish iqtisodiy jihatdan yuqori rentabellikni ta'minlaydi. Lokallashtirilgan xomashyodan olingan amarant uni tarkibida glyuten moddasining yo'qligi, minerallar va parhezboq kletchatkalarga boyligi tufayli alohida ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy ishda olingan konseptual natijalar kelgusida





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

amarant unidan foydalangan holda, aholining turli qatlamlari uchun mo'ljallangan funksional, parhezboq va davolash-profilaktika xususiyatiga ega yangi turdagi qandolat mahsulotlari retsepturasini hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent, 2022.
2. A.Yunusov, J.D.Abdusamatova. Amaranth planting periods and plant thickness rate of roots and stem left in the soil. Journal of agriculture and life sciences issn(online): 2984-6706 sjif impact factor (2023):5.988 volume-6, issue-4, published 20-11-2023 pp. 24-31 (23)
3. Azizov A.A. "Biotexnologiya asoslari". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Becker, R. "Nutritional value of Amaranth grain". Journal of Food Science, 2023.
5. NamDU ilmiy axborotnomasi nashr talablari.
6. Asqarov I.R., To'xtaboyev N.X., Yo'lchiyeva N.T. Amarant urug'ining kimyoviy tarkibi. Xalq tabobati Plus. Ilmiy, amaliy, ijtimoiy, tibbiy, ma'rifiy jurnal. Andijon. 2021 yil. №2(7) 232–236-b.



UO'K: 633.2/.3:631.527+631.531.02

CHO'L OZUQABOP O'SIMLIK TUR VA NAVLARI URUG'LARNING UNUVCHANLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Xamroyeva Gulnoz Usmonovna 

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Urug'chilik va urug'shunoslik laboratoriyasi mudiri,

qishloq xo'jaligi falsafa fanlari (PhD) doktori

e-mail: uzkarakul30@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada ba'zi cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining qattqlik xususiyatlari urug' hosilini va urug'larning unuvchanligini oshirishning samarali usullari va ularning sifat ko'rsatkichlarini baholash zarurati, unuvchanligini oshirishda turli eritmalaridan foydalanish, ishlov berish orqali cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining fiziologik faolligini kuchaytirish, unib chiqish jarayonini tezlashtirishni oshirish mumkinligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: cho'l o'simliklari, urug' unuvchanligi, eritmalar, urug'larning tozaligi, 1000 dona massasi, termostat, filtr qog'ozi

Abstract. This article examines the hardness properties of seeds of certain desert fodder plant species, effective methods for increasing seed yield and seed germination, and the need to evaluate their quality indicators; it demonstrates the possibility of using various solutions to increase germination, enhancing the physiological activity of seeds of desert fodder plant species through processing, and accelerating the germination process.

Key words: desert plants, seed similarity, solutions, seed purity, 1000-piece weight, thermostat, filter paper

Аннотация. В статье рассматриваются особенности твердости семян некоторых пустынных видов кормовых растений, эффективные методы повышения урожайности семян и необходимость оценки их качественных показателей, использование различных растворов для повышения всхожести, возможность усиления физиологической активности семян пустынных видов кормовых растений, путем обработки и ускорения процесса прорастания.

Ключевые слова: пустынные растения, всхожесть семян, растворы, чистота семян, масса 1000 штук, термостат, фильтровальная бумага





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

KIRISH

Yaylovlar mamlakatimiz cho'l chorvachiligining asosiy ozuqa manbai bo'lib, ulardan yil bo'yi foydalanish imkoniyati mavjud. Ammo, qorako'lchilik yaylovlarining hozirgi holati sohani barqaror rivojlantirish talabiga javob bermaydi. Chunki, yaylovlar hosildorligi past - quruq modda hisobida gektariga 1,5-3,0 sentnerdan ortmaydi. Bundan tashqari, cho'l yaylovlari hosildorligi ob-havo sharoitlari bilan bevosita bog'liq va yil mavsumlari davomida keskin o'zgarib turadi. Yog'in-sochin miqdori ko'p yillarda cho'l yaylovlarining har gektari o'rtacha yilga qaraganda ikki marotaba ko'p ozuqa bersa, qurg'oqchil yillarda bu ko'rsatkich 3-5 marotabagacha pasyib ketgan.

Yaylovlar hosildorligini oshirish muammosi respublikamizda dolzarb muammo bo'lar ekan albatta cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining bozori ham shakllanishi muqarrar. Respublikamizda 2019-yilning 16-fevralida qabul qilingan O'RQ-521 "Urug'chilik to'g'risida" gi qonunda ekinboplik sifatleri sertifikatiga ega bo'lmagan urug'lardan foydalanish man qilingan.

Lekin, cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining sifat ko'rsatkichlariga baho berish ishlari urug'chilik inspeksiyalarida hozirgi kunda yo'lga qo'yilmagan. Chunki, cho'l ozuqabop o'simliklari o'ziga xos biologik xususiyatlariga ega bo'lib, urug'larining ekinboplik sifatlariga baho berishning o'ziga xos uslublari mavjud. Ya'ni, cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining ko'pchiligi tinim davriga ega, ularni tinim davridan chiqarish uchun turli ishlov berish usullarini qo'llash talab qilinadi. Ayrim turlar urug'lari qattiqlik xususiyatiga ega bo'lib, ularning unib chiqishi uchun albatta skarifikasiyalash, stratifikasiyalash usullarini qo'llash zarur bo'ladi.

Cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining sifat ko'rsatkichlarini baholash zarurati yana shundaki, ular o'z unuvchanligini qisqa vaqt ichida (8-10 oy) yo'qotish xususiyatiga ega bo'lib, muddati o'tgan urug'lardan foydalanish mutlaqo samarasiz bo'lishi mumkin. Shu bois, hozirgi kunda cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining sifat ko'rsatkichlarini baholash zarurati yuzaga keldi va bu borada urug'larning ekinboplik sifatlariga vaqtinchalik texnik shartlar ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib urug'larning sifat ko'rsatkichlarini baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu ilmiy ish amalga oshirilsa cho'l ozuqabop o'simliklari urug'chiligi va urug'shunosligi yo'nalishlarida istiqbolli navlarning yaratilishi va cho'l yaylovlarini fitomelioratsiyalash orqali hosildorligini oshirish, istiqbolli ozuqabop cho'l o'simlik turlarini tanlash, madaniylashtirish, ularning introduksiyasi, selektsiyasi va urug'chiligi bo'yicha V. Yu. Shegay, R. K. Chalbash, Z.Sh. Shamsutdinov, A.Rabbimov, X.R.Xalilov, T.N.Nurimov, A.X. Xamidov, V. N. Shirinskaya, I. G. Strona, va boshqalar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Cho'l ozuqabop o'simliklarining mavjud navlari yovvoyi turlardan yaratilgan bo'lib, ularning ko'pchilik biologik xususiyatlari, shu jumladan urug'larining hayotchanligi, unib chiqish biologiyasi, urug' hosil qilish jarayonlari nisbatan kam o'rganilgan. Maxsus urug' yetishtirish texnologiyalari ham hali ishlab chiqilmagan.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Ilmiy yangiligi: Cho'l o'simliklarida urug' po'sti qalin bo'lgani sababli suv kirishi cheklangan bo'ladi. Kimyoviy yoki biologik ishlovlar po'stning o'tkazuvchanligini oshiradi. Ishlov berilgan urug'larda fermentlar faolligi oshadi va murakkab moddalar oddiy oziq moddalarga aylanadi. Unish jarayonida energiya talabi keskin ortadi. Eritmalar bilan ishlov berilgan urug'larda kislorod almashinuvi yaxshilanadi va mitoxondriyalarda ATP sintezi tezlashadi.

Tadqiqotning maqsadi: cho'l ozuqabop o'simlik tur va navlaridan mo'l va sifatli urug' olish maqsadida, urug'larning unuvchanlik xususiyatlarini oshirish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- izen, qora saksovul, teresken va olabuta navlari urug'larining tozaligini aniqlash;
- izen, qora saksovul, teresken va olabuta navlari urug'larining unib chiqishi biologiyasi va ekologiyasini o'rganish;
- urug'larning unuvchanligini oshirish usullarini ishlab chiqish;

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Turli tajriba variantlarida o'simlik urug'larning ekish sifatlarini o'rganish (tozaligi, 1000 dona urug' massasi, laboratoriya va dala sharoitlaridagi unuvchanligi). (V.V. Gritsenko., Z.M. Kaloshina, 1976)

Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga biostatistik ishlov berishda Dospexov (1979) uslublaridan foydalaniladi.

Cho'l ozuqabop o'simliklari navlari: quyrovuq, olabuta, cherkez, izen, cho'g'on urug'larining tozaligini aniqladik. Har bir turdan 100 gramm namuna olib o'lchadik so'ngra uni katta xashak va boshqa chiqindilardan tozalab yana o'lchadik. Tadqiqotlar (Gritsenko, Kaloshina, 1976) uslublaridan foydalanib bajarildi. Urug'larning bu xususiyatini yaxshi bilish ularning sifat ko'rsatkichlarini to'g'ri baholash imkonini beradi.



1-rasm. Cho'l ozuqabop o'simliklari urug'larini tozaligini aniqlash



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ancha qurg'oqchil kelgan 2023-yilda hosil bo'lgan urug'larning tozaligi boshqa yillarda hosil bo'lgan urug'lar tozaligidan biroz bo'lsada past ko'rsatkichlarga ega (1-jadval). Buni albatta qurg'oqchilikning ta'siri bilan izohlash mumkin. Urug'lar tozaligi o'simlik turlari orasida ham ma'lum darajada o'zgaruvchanlikka ega. Masalan, olabuta urug'larining tozaligi turli yillarda 25-33% bo'lgan bo'lsa, cho'g'onda bu ko'rsatkich 39,6-51,3% atrofida o'zgarib turishi aniqlandi. Urug'larning tozaligi bo'yicha jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ushbu o'simlik tur va navlari uchun me'yoriy ko'rsatkichlar bo'lib, turli yillarda olingan ma'lumotlarning o'rtachasini 1-sinfga mansub urug'lar uchun me'yoriy ko'rsatkich deb hisoblash mumkin. Cho'l ozuqabop o'simlik tur va navlari urug'larning unuvchanligini oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish bo'yicha Qorao'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining "Urug'chilik va urug'shunoslik" laboratoriyasida bir talay ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jadval-1

Cho'l ozuqabop o'simliklari turlari navlari urug'larining tozaligi, %

(qo'l kuchi yordamida yig'ib olingan urug'lar)

№	O'simlik turi, navi	Urug'larning tozaligi, %		
		2022- y.	2023- y.	2024- y.
1	<i>Izen-Kochia prostrata</i> , "Otavniy" navi	40,3±1,4	31,9±1,7	30,0±1,6
2	<i>Teresken-Ceratoides ewersmanniana</i> , «To'lqin»	42,1±2,1	30,3±1,9	36,2±1,8
3	<i>Qora saksovul-Haloxylon aphyllum</i> , «Nortuya»	54,4±2,1	40,0±2,3	42,4±2,4
4	<i>Olabuta-Atriplex undulata</i> , «Yagona» navi	28,0±1,4	25,1±1,6	33,6±1,8
5	<i>Quyrovuq-Salsola orientalis</i> , «Pervents Karnaba»	42,7±1,5	32,4±2,3	36,3±2,2
6	<i>Cho'g'on-Halothamnus subaphyllus</i> , «Jayhun»	45,7±1,9	39,6±1,2	51,3±1,3
7	<i>Paletskiy cherkezi-Salsola paletzkiana</i>	43,6±1,8	39,0±1,4	41,3±1,7

Boshqodoshlar oilasi mansub, Erkak o't (*Agropyron desertorum*), (cho'l bug'doyig'i) ning "Ishonch" navi uning Qozog'istonda tarqalgan yovvoyi populyatsiyasidan ko'p martalab umumiy tanlash usulida yaratilgan. 12-14 sentner pichan 1-1,5 sentner urug' hosili to'playdi. Rivojlanish fazalari bo'ylab pichani tarkibida 10-12% protein mavjud bo'ladi. Vegetatsiya davri 110-120 kun. 20-25 yil davomida yuqori pichan hosili beradi.





2-rasm. Erkak o't (*Agrophylon desertorum*) o'simligini laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi

Odatda urug'larning unuvchanligini oshirish maqsadida turli usullardan foydalaniladi (sovuq stratifikatsiyalash, mexanik skarifikatsiyalash, kimyoviy skarifikatsiyalash va h.k.). Biz tajribalarimizda erkak o'tning "Ishonch" navi urug'larni nam qumda 1 sutka davomida namlangan daryo qumida (nazorat varianti) saqlangan urug'larini 25 tadan sanab olib, murtagini qobig'dan ajraib termostatga o'zgaras 23°C ga undirishga qo'yildi va 8 kun kuzatuv ishlari olib borildi. Unish energiyasi-66,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, umumiy unish energiyasi-86,4 foizni tashkil qildi. Urug'larning unuvchanligiga nam qumda saqkashning ijobiy ta'siri aniqlandi. Ushbu usullarni qo'llash orqali urug'larning unuvchanligini keskin oshirish imkoniyati yaratiladi.

Qorao'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot institutining "Urug'chilik va urug'shunoslik" laboratoriyasi hamda Analitik laboratoriyasi joriy yilning 13 fevral sanasida cho'l ozuqabop o'simliklaridan saksovlarning "Nortuya" navi urug'larini metilin ko'ki eritmasida (urug' yuzasidagi bakteriyalar va zamburug' sporalarini yo'q qiladi) ivitilgan urug'lar (20 ml hajmda) va nazorat variantda 25 donadan 3 takrorlanishda termostatga o'zgaras 23°C ga undirishga qo'yildi va 22 fevral sanasigacha kuzatuv ishlari olib borildi.



3-rasm. Saksovl (*Haloxylon aphyllum*) urug'larini metilin ko'ki eritmasida ishlov berish orqali undirilgan urug'lar



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Joriy yilning 22 fevral sanasida kuzatuv ishlari yakunlandi va statistik tahlillar olib borildi. Olingan natijalardan ma'lim bo'ldiki, saksovulning "Nortuya" navi urug'larini metilin ko'ki eritmasida ivitilgan urug'lar unuvchanligi-68,0 % ni tashkil qildi nazorat variantda esa-33,2% nitashkil qildi. Ya'ni unuvchanlik metilin ko'ki eritmasi ta'sirida deyarli ikki marotabaga oshdi. Urug'larning unuvchanligiga metilin ko'ki eritmasining ijobiy ta'siri aniqlandi.

XULOSA

Cho'l o'simliklari urug'larini ekishdan oldin turli eritmalarda ishlov berish ularning unuvchanligini sezilarli darajada oshiradi. Mineral tuzlar, mikroelementlar va biologik stimulyatorlardan foydalanish urug'ning fiziologik faolligini kuchaytiradi, unib chiqish jarayonini tezlashtiradi va maysalarning yashovchanligini oshiradi. Natijada maysalarning yashovchanligi ortadi va cho'l hududlarida o'simlik qoplamini tiklash imkoniyati kengayadi. Ushbu agrotexnologik usullar degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash, ozuqa bazasini mustahkamlash hamda cho'l ekotizimlarini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Respublikamizda 2019-yilning 16-fevralida qabul qilingan O'RQ-521 "Urug'chilik to'g'risida" gi qonunda ekinboplik
2. Абдуллаев А.А. Семеноводство пустынных кормовых растений. – Ташкент: Фан, 2018. – 156 с.
3. Атабаев Ш.Т., Орипов Р.О. Растениеводство. – Ташкент: Ўзбекистон, 2016. – 320 с.
4. Бутков Е.А. Пустынные пастбища Средней Азии и их улучшение. – Москва: Колос, 2015. – 240 с.
5. Ермаков В.В. Физиология прорастания семян. – Санкт-Петербург: Наука, 2017. – 198 с.
6. Гриценко В.В., Калошина З.М. Семеноведение полевых культур. Изд. 2-е, перераб. и доп. М., «Колос», 1976.-254 с.
7. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: Колос. 1979.- 416 с.
8. Кулешов Н. Н. Агрономическое семеноведение. Издательство сельскохозяйственной литературы, журналов и плакатов. М.-., 1963.- 303 с.
9. Жуковский П.М. Культурные растения и их сородичи. – Москва: Агропромиздат, 2019. – 527 с.



UO'K: 581.143

KIZIL (*CORNUS MAS* L.) GA SHAKL BERISH VA BUTASHNING O'SIMLIK HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Reypnazarova Gulperiyyat Nukusbayevna 

Akad. M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik
ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti (DSc)

Obidjanov Dilshod Axmed Xuja o'g'li 

q.x.f.d., O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kizil (*C.mas*) o'simligi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan jumladan kizil o'simligining butasimon daraxtligi va betartib o'sishi ularning oldini olish uchun va hosildorligini yanada kuchaytirish uchun ularga shakl berish va butashning ahamiyati bo'yicha bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kizil daraxti, mevali daraxtlar, butash, gullar, buta, mevalari, vitaminlar, navlar, agrotexnik, bog', shakar, tanasi, tarkibi, xususiyati o'g'itlar.

Abstract: This article provides general information about the dogwood (*C.mas*) plant, including some information on the importance of shaping and pruning the dogwood plant to prevent its bushy and unruly growth and to further enhance its productivity.

Key words: fruit trees, shrub, bush, fruits, varieties, agrotechnics, fruits, sugar.

Аннотация. В данной статье описываются научные исследования влияния формирования кроны и обрезки деревьев красной смородины (*C.mas*) на их урожайность.

Ключевые слова: фруктовые деревья, кустарник, куст, плоды, сорта, агротехника, фрукты, сахар, ствол.

KIRISH

Respublikamizda ham kam tarqalgan, noyob xususiyatlarga ega meva turlarini ko'paytirish, introduksiya qilish, ularning morfo-biologiyasini o'rganish va jadal etishtirish, kasalliklarini o'rganish bo'yicha ma'lum izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, noyob, shifobaxsh xususiyatlarga ega, qayta ishlash imkoniyatlari keng va yuqori daromad manbai bo'lgan kizil o'simligini o'rganish va uniga tushadigan kasallik turlarini tatbiq etish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmagan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

2026 yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» ning 3.30-bandida ham «Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish» masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Ko'p yillik bog'dorchilik tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniylashtirilgan kizil o'simligining sanoat plantatsiyalari juda ham kam, bu esa ushbu qimmatli mevaga bo'lgan talabni to'la qonli qondirish imkonini bermaydi. [5]

